

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Olimjon Irisqulov**

**O‘ZBEKISTON MADANIYATI VA SAN‘ATI TARIXI**  
*(Tarix fakulteti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan)*

**Samarqand – 2021**

**UO‘K 9 (575.141)**  
**KBK 63.3 Uz**  
**I 74**

**O.Irisqulov. O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, SamDU nashriyoti, 2021, – 184 b.**

Mas’ul muharrir

prof. Sh.G‘offorov

Taqrizchilar:

t.f.d. B.G‘oyibov  
PhD. M.Saidov

Mazkur o‘quv qo‘llanmada O‘zbekistonning eng qadimgi davridan hozirgi kungacha bo‘lgan madaniyat va san’ati tarixi aks ettirilgan. Ibtidoiy davr san’atining paydo bo‘lishi, antik madaniyat, ellinizm madaniyati va sinkretik madaniyat singari madaniyatlar sintezi va ularning shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari batafsil yoritilgan. Ilk o‘rta asrlardagi madaniyat va san’atning rivojlanish xususiyatlari ko‘rsatib berilgan. Jahon sivilizatsiyasida munosib o‘ringa ega bo‘lgan birinchi va ikkinchi renessanslar davridagi madaniyat va san’atning o‘rni ochib berilgan. Mustaqillik davrida O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixi xolislik bilan o‘rganilayotganligi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

*O‘quv qo‘llanma SamDU Kengashining 2021 yil 30 noyabrdagi (5-sonli bayonnoma) yig‘ilishi qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978-9943-7266-1-1**

© *Samarqand davlat universiteti, 2021*

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishda intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan yoshlarni jamiyatga yetkazib berish bugungi kun oliy ta‘lim tizimining muhim vazifalaridan biri ekanligi ko‘rsatib berildi. Davlatimiz taraqqiyoti uchun amalga oshirilayotgan va qabul qilinayotgan qaror va farmonlar o‘z navbatida oliy ta‘lim tizimi talabasi balki, professor-o‘qituvchilaridan ham o‘z kasbida sidqidildan mehnat qilishni taqozo etadi.

«O‘zbekiston madaniyati va san‘ati tarixi» nomli ushbu qo‘llanma xalqimizning eng qadimgi davrdan to hozirgi kunga qadar bosib o‘tgan uzoq va murakkab tarixiy yo‘li madaniy, ma‘naviy hayoti va san‘ati tarixini xolisona o‘rganish kabi masalalar ahamiyati ochib berishga qaratilgan. Talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to‘la bahramand bo‘lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko‘maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo‘lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o‘rganadi.

Shuningdek, «O‘zbekiston madaniyati va san‘ati tarixi» fani haqidagi bilimlarni qaror topshirish mavjud ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o‘rganish, fan bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Fanni o‘rganishdan maqsad bo‘lg‘usi mutaxassislarini O‘zbekiston madaniyati va san‘ati tarixidagi taraqqiyot bosqichlari an‘analarini o‘rganish, saqlash hamda rivojlantirish, zamonaviy jarayonlarga malakaviy baho bera olish, yaratilayotgan badiiy asarlar ta‘sirchanligini anglash, his etish va ularning badiiy g‘oyasini oshirish, rivojlantirish yo‘nalishlarini ko‘rsata olish hamda mavjud jarayonlar va tarixiy faktlarga tayanib nazariy bilimlarni yozma va og‘zaki tarzda o‘rtaga tashlay olish malakasini shakllantirishdan iborat.

«O‘zbekiston madaniyati va san‘ati tarixi» asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi. Mazkur fanni o‘rganishda o‘quv rejasida ko‘rsatilgan.«O‘zbekiston madaniyati va san‘ati tarixi» fani tarix va madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib shu yo‘nalishdagi fanlarni yanada mukammal va chuqurroq o‘zlashtirilishiga ko‘maklashadi. San‘atshunoslik fanlarini chuqur o‘zlashtirilishi esa mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojida alohida o‘rinni egallab O‘zbekiston madaniyatini jahon hamjamiyatidagi o‘rnini belgilashda, uning salohiyatini ko‘tarishga xizmat qilib badiiy ta‘lim, ekologiya, turizm rivojida muhim o‘rinni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqidagi farmoni, muzeylar faoliyatini yaxshilash, xalq hunarmandchiligini rivojlantirishga qaratilgan tadbir va ko‘rsatmalari shundan dalolat beradi.

Ma‘lumki, har bir xalqning o‘tmishi, o‘tmishdagi madaniyati va san‘ati, fani,

urf-odati, axloq-odobi va diniy e'tiqodi bu xalqning ma'naviyatini ifoda etadi. Shu boisdan bo'lajak mutaxassislariga o'z xalqining madaniyatini, san'atini va ma'naviyatini o'rgatish, o'qitish va shular asosida kelajak dunyo ma'naviyatini ifodalab berish yangi jamiyat taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu fan O'zbekiston xalqlarining madaniyati va san'ati, fani, ma'naviy dunyosini eng qadimgi davrlardan boshlab, bugungi kungacha bo'lgan tarixiy taraqqiyotini o'rgatish bilan birga, o'z ota-bobolarining bu sohada erishgan yutuqlarini ham evolyutsion tarixiy taraqqiyotini o'rgatib boradi. O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi jahon madaniyati va san'atining ajralmas qismi bo'lib alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining ko'hna tarixi, uning qadimiy madaniyati va san'ati, me'morchiligi tarixini o'rganish uchun bizga moziydan meros bo'lib qolgan "Avesto" asaridan boshlab, juda ko'plab yozma manbalar mavjud. Bu manbalar mustaqillik sharofati bilan obyektiv haqqoniy, to'g'ri o'rganishga imkon yaratdi., shuningdek, bu ilmiy manbalar yangi tadqiqotlar asosida to'ldirilib, kengaytirilib borilmoqda.

Bugungi kunda har tomonlama yetuk, barkamol yosh avlodni tarbiyalash xalqimiz oldidagi eng muhim masala hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ta'limga yuqori darajada e'tibor qaratishni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning sifatli ta'lim olishidagi muhim mezonlardan biri har bir fan doirasi adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanma ham oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda fan texnika taraqqiyotining qadimgi davrdan bugungi kunga qadar bo'lgan rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritilgan. Qo'llanmaning 2-mavzusi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi H.Qo'shboqovning materiallari asosida tayyorlandi.

Ushbu qo'llanma O'zbekiston xalqlari madaniyati va san'ati tarixi bo'yicha butunlay yangicha ilmiy yondashuvlar asosidagi turkum qo'llanmalar safidan o'rin oladi. Oliy ta'limda tarixchi mutaxassislar tayyorlashning butunlay yangicha tizimi shakllanayotgan bugungi kunda qadim, boy va noyob tarixiy merosni milliy va xorijiy darajada targ'ib etishning yangicha va samarali tizimining ishilashi uchun xizmat qiladi.

## **1-Mavzu: Qadimgi davr madaniyati va san'atining taraqqiyot bosqichlari**

### **Reja:**

1. Ibtidoiy davr san'ati
2. Antik davrda madaniyati va san'ati
3. Kushonlar davri madaniyati va san'ati

### **Tayanch iboralar:**

Zarautsoy, Saymalitosh, Ko'hitang, Sarazm, Sopollitepa, Jarqo'ton, Afrosiyob, Oybuyirqal'a, Tuproqqal'a, Jonbosqal'a, ellinizm madaniyati, antik madaniyat, sinkritik madaniyat, buddizm, haykaltaroshlik, yozuv madaniyati, Kushon madaniyati, eski Termiz.

O'zbekiston hududida qadimiy ibtidoiy madaniyat tosh asrining ilk bosqichiga borib taqaladi va bu madaniyat oddiy mehnat qurollari – toshdan ishlangan chopqichlar sifatida paydo bo'lgan. Tosh asrining yuqori bosqichiga kelib hozirgi zamon odam qiyofasi shakllandi, odamlar tabiiy g'orlarni o'zlashtira boshladilar, hayvonlar terisidan kiyimlar tayyorladi. Ular endilikda toshdan tashqari suyak, yog'ochdan o'zlari uchun kerakli buyumlarni yarata boshladilar, bigizlar paydo bo'ldi. Bu davrga kelib olovning ixtiro etilishi odamlar jamoasini birlashishiga olib keldi. Odamlar yashaydigan joylarda esa mehnat qurollari yasaydigan ustaxonalar paydo bo'la boshladi. Rassomlik, haykaltaroshlik, me'morchilikning dastlabki ko'rinishlari shakllana boshladi. Ibtidoiy odamlar o'z mehnat va ov qurollarga, kundalik turmushda ishlatadigan buyumlarga turli belgi va chiziqlar chizib ularni go'zalligini orttira boshladilar, o'zlari uchun bezak-taqinchoqlar yaratishga harakat qilganlar. Obishir (Farg'ona), Machoy g'ori (Boysun)dan topilgan suyak bigizlar, turli taqinchoq-marjonlar, shuningdek ayol haykallari shu davr kishilari "nafosati" dalilidir.

Tosh asrining dastlabki rasmlari qoya tosh yuzalari, g'or devor va shiplariga, suyak yuzalariga ishlangan. Ularda turli hayvon va qushlar tasvirini aks ettirilgan. O'zbekiston hududida shunday tasvirlar Toshkent, Surxondaryo, Farg'ona, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida saqlanib qolgan. Tasvirlar chaqa qilish (ya'ni qattiq tosh bilan urib yuzada chuqurchalar hosil qilish), qattiq qurol bilan yuzani tirnash yoki chizish yo'li yoki tabiiy bo'yoqlar (rangli tuproqlar)ni mol yog'i bilan aralashtirish asosida yuzalarga rasmlar ishlangan. Obirahmat, Xo'jakent (Toshkent), Suratsoy, Saymalitosh (Farg'ona), Zarautsoy (Surxondaryo), Takatosh (Jizzax) rasmlari mashhur.

Zarautsoy rasmlarining boshlanishi paleolit davrining so'nggi bosqichiga to'g'ri keladi. Dastlabki rasmlar alohida yoki bir necha hayvon tasviri ishlangan. Ibtidoiy rassom bu ishlarda o'zini kuzatuvchan va ko'rgan narsasini imkoniyati bo'yicha to'liq aks ettirishga intilgani holda juda oddiy va sodda shakllardan foydalanadi. Rassom hayvonlardan buqani xususiyatlarini yaxshi his etgan, ularning qudrati, kuchi va harakatdagi vaqtini ishonarli hamda haqqoniy tasvirlagan. Zarautsoy rasmlaridan "Ov

qilish” kompozitsiyasi birmuncha murakkab, mazmuni esa davr kishilari hayoti, yashash tarzi va fikr yuritish qobiliyatini namoyish etadi.

Odamlar kuchli hayvonlarni ov qilishda o‘zlari uchun nafaqat kamon balki, himoyalani, hayvon psixologiyasini bilgan holda uning oldiga niqobda yashirinib borishi mumkinligini ko‘rsatadi. Odamlar somondan pichan g‘aramini eslatuvchi niqob yasab olganliklari ularni hayvon oldiga yaqin borish imkoniyatini bergan. Ovchilarning ko‘rinib turgan oyoqlari esa ularning harakatini ko‘rsatsa, itlarning oldinga tashlangan oyoqlari shu harakatni yanada kuchaytiradi. Kompozitsiyada tasvirlangan buqa (novvos) xotirjam, baquvvat, lekin ziyrak o‘z yemishi bilan band. Bir qarashda sodda, oddiy bo‘lgan ana shu ibtidoiy san’at davr mohiyati, inson tafakkuri rivojini bilishda nihoyatda katta ahamiyatli ekanligi bilan qimmatlidir.

Ijtimoiy hayotga keng ko‘lamda mis va bronzani kirib kelishi ishlab chiqarish vositalarining murakkablashishiga, kishilarning turmush kechirish imkoniyatlarini boyitishga olib keldi. Inson ma’naviy jihatdan rivojlanishining yangi pog‘onasiga ko‘tarildi. Doston, xalq og‘zaki ijodi, qo‘shiqchilik, tasviriy amaliy san’atning turli ko‘rinishlari rivojlandi. Me’morchilik madaniyati va san’ati, uning mahobatli turlari endilikda davr mohiyatini aks ettiruvchi san’at turlarining yetakchi ko‘rinishiga aylandi. Bu rivojlanish odamlarning diniy tushuncha, o‘tganlar ruhi bilan bog‘liq holda bordi. Bu davr rassomchiligida hamon hayvonlar tasviri asosiy o‘rinni egallaydi va ular sharpa sifat holda tasvirlangan. Bunday rasmlar Toshkent viloyatining Xo‘jakent qoyalarida saqlanib qolgan. Bu davr haykaltaroshligi o‘zining rangbarangligi bilan xarakterlanadi, tosh, marmar, suyakdan haykallar ishlash, metall-bronza, oltindan haykallar quyish, loyni kuydirib terrakota haykallar ishlash jarayoni keng tus oldi. Alohida bosh haykali, janrli kompozitsiya, turgan holdagi haykallar shu davrda ishlangan. Ko‘pgina haykallarning yuzaga kelishi davr taqozosi, shu davr badiiy madaniyatining yangi ravnaqi edi. Chunki quyma haykal yasash haykaltaroshdan o‘z g‘oyasini amalga oshirishda qator jarayonlarni amalga oshirish, dastlab g‘oyani materiallashtirish, ya’ni shaklini yasab olish, so‘ng undan qolip olish va shundan keyingina qolipga kerakli metallni (bronza, oltin, mis) eritib quyish va nihoyat uni qolipdan chiqarib ishlov berish jarayonini ijodkordan aqliy ham jismoniy kuch talab etar edi. Shunday jarayonda amalga oshirilgan ko‘pgina buyum va haykallar bizgacha yetib kelgan

Farg‘ona quyma topilmalar ichida ko‘proq amaliy bezak buyumlar keng o‘rinni egallaydi. Farg‘ona vodiysining Haq qishlog‘idan 1899-yili bir qancha bronza va kumushdan ishlangan buyumlar topildi. Shular ichida sigir sog‘ayotgan ayol haykali ishlangan to‘g‘nog‘ich muhim ahamiyat kasb etadi. Unda to‘g‘nog‘ich tepa qismida sigir sog‘ayotgan ayol tasvirlangan bo‘lib, sigir esa o‘z buzoqchasini erkalayotgani tasvirlangan.

Bronza davrida toshga ishlov berish, tosh, marmardan haykal yasash madaniyati va san’ati ham rivojlandi. Farg‘ona vodiysidan topilgan, jumladan, qora toshdan ishlangan ikki boshli ilon tasviri bo‘lgan tumor mil. avv. II ming yillikda ishlangan

deb taxmin qilinadi. Unda tosh sathi yaxshi ishlov berilgan silliq tanada oq chuqurchalar bo'lib ularga oqish gips bilan ishlov berilgan, ko'z va tishlari inkrustatsiya uslubida ishlangan va qimmat baho toshlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Marmardan ishlangan "Qayiqdagi buqa", toshbaqa haykali, toshdan yasalgan erkak boshi haykali davr haykaltaroshlik namunasi sifatida e'tiborga loyiq. Mil. avv. I ming yillikda janubiy O'zbekistonning Mirshodi manzilidan topilgan qora toshdan ishlangan erkak boshi haykalida qattiq materialga ishlov berilib, katta shakllarda odam boshi xususiyatlarini ko'rsatishga muvassar bo'lgan.

Bu davr sopol haykaltaroshligi – terrakotada betakror haykallar ishlandi. Odam, hayvon, qushlar, turli hayotiy voqealar shu haykallarda o'z aksini topgan. O'zbekistonning janubidan topilgan yodgorliklar ichida aravalar shaklining uchrashi shundan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati tarixida mayda haykaltaroshlik, uning sopol haykaltaroshligi (terrakota) o'ziga xos rivojlangan. Bu haykallar o'z badiiy yechimi, kompozitsion holati va mavzusi bilan boshqa xalqlarning madaniyati va san'atidan farqlanib turgan. Ayollar haykallarini ishlanish uslubi xarakterli bo'lib, ular tasvirlanganda ikki qo'li ko'krak oldida yoki qo'lsiz yasalib beldan pastki tomon kengaytirilgan holda ko'rsatilgan, ayollar haykalining ikkinchi xili bir qo'li ko'kragi oldida, ikkinchisi pastga tushirilgan holda tasvirlangan. So'g'dda shunday haykallar ko'plab ishlangan. Haykaltaroshlikning yana bir turi bu sopol idishlarga ishlangan odam va hayvonlarning shakllaridir. Relyef madaniyati va san'ati keng o'rinni egallab amaliy san'at buyumlarini bezash ishlarida keng ishlatilgan. Turli ko'za, xum kabi buyumlarning band va ayrim bo'limlari hayvonlar, masalan qo'y, sher shakliga o'xshatib yasalgan. Muhr yuzasiga turli hayvon va parrandalar bo'rtma tasviri ishlanishi ham haykaltaroshlik madaniyati va san'ati turi va imkoniyatlarining kengligidan dalolat beradi. O'zbekiston janubidan burgut, ilon, arslon tasviri tushirilgan muhrlar topilgan. Albatta, bu yodgorliklar bizga parchalarda yetib kelgan, lekin, ana shu parchalarning o'zi san'atkorning mahorati, davr g'oyaviy-siyosiy holati haqida hikoya qiladi. Burgut, turli qushlar, yo'lbars, sher bo'rtma tasviri tushirilgan muhr parchalari shuning uchun ham qimmatlidir.

Asta voqelikni keng qamrovli shartli shakllarda tasvir etish yanada ortdi. Xatirchi tumani Burgansoy rasmlari (mil. avv. II minginchi yillardan boshlanib, mil. avv. VI-I asrlargacha davom etgan) soya shaklida o'yib ishlangan. Hayvonlar tasviri – tuya, ot, buqa, to'ngiz, sher, bo'ri, ov manzarasi hayotiy lavhalar ham Burgansoy rasmlari mazmunini tashkil etadi.

Sulton Uvays tog'ining shimoli-g'arbiy etaklarida joylashgan qumtepalar Chilpik, Qoratepa va Beshtepadagi qoyatoshlar yuzasi nihoyatda turli-tuman rasmlar, aniqrog'i o'yima belgilar bilan qoplangan. Surxondaryo, Farg'ona, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Xorazm viloyatlarida shu davrlarga mansub yodgorliklardan Boysun, Termiz tumanlari, Angren va Chirchiq vohalari manzillari bir muncha keng o'rganilgan. Bu tasviriy va amaliy – bezak madaniyati va san'ati yodgorliklari,

me'morchilik majmualarini o'z ishlanish uslubi tarixi (rejasi) bilan betakror san'at asari sifatida e'tirof etish mumkin. O'rganilayotgan davr haqida gapirilganda rassomlik madaniyati va san'atiga alohida to'xtalish zarur. Chunki bu san'atda avvalgi davr an'analari yanada rivojlanganligini, mavzu kengayib kishilar hayotidagi o'zgarishlar xususiyatlarini ko'rish mumkin. Bu rasmlarning ko'pchiligiga xususiyat, voqelikni umumlashma shartli shakllarda soddalashtirilganligida ko'rinadi. Bu rasmlarda yovvoyi hayvonlar bilan birga ko'plab uy hayvonlari tasvirini ham ko'ramiz. Tog' echkilari, arxarlar, kiyiklarning alohida yoki to'dada paytdagi ko'rinishi aks ettirilgan tasvirlar sodda bo'lishiga qaramay, hayvonlarga xos xususiyatlar, ularning gavda (tana) tuzilishi nisbatlari hamda hayvonlarning xatti-harakati nihoyatda jonli va ifodali ishlangan. Shu o'rinda Toshkent yaqinidagi Xo'jakent qoya rasmlar, Farg'onadagi Ayrimach tog' suratlari, O'sh (Qirg'iziston Respublikasi) yaqinidagi Surat-tosh rasmlarining muhimligini qayd qilish kerak.

Mil. avv. II ming yillikda Surxondaryoning Sherobod daryosi havzasi, Qizilsuv, Bandixon soylari atrofida shakllangan madaniyat O'zbekiston tarixida muhim o'rinni egallaydi. Qadimgi dehqonchilik madaniyati markazlaridan Sopollitepa va Jarqo'ton manzilgohlari ushbu madaniyat xususiyatlarini o'rganishda muhim o'rin egallaydi. Sopollitepa madaniyati katta qishloq jamoasi tarzida qurilgan bo'lib uning ichida turarjoylar, xo'jalik va hunarmandlik, diniy qurilmalar mavjud bo'lgan va ular ko'chalar bilan bir-biridan ajratilgan. Sopollitepa jamoasi sodda dehqonchilik bilan shug'ullangan va sun'iy sug'orish ishlarini yo'lga qo'yilgan. Qo'rg'on ichida kulolchilik ustaxonasida xo'jalik uchun zarur bo'lgan idishlar ishlab chiqarilgan. Ushbu madaniyatda san'at, ayniqsa, kulolchilik va metall quyish (bronza nazarda tutiladi) yuqori bo'lgan. Turli ko'zgu va uy anjomlar badiiy bo'lishiga rassom katta e'tibor bergan.

Sopol ko'zalarning bandlari odam shaklini eslatuvchi haykallar bilan bezatilgan bo'lgan. Bu yerda bronzadan turli kosmetika uchun idishlar ishlab chiqarilgan.

Sopollitepadan topilgan kulolchilik yodgorliklari, sopol idishlari deyarli bezaksiz va o'z shakli rangbarangligi, nisbatlarining o'ziga xos nafisligi hamda loydan nozik, yupqa va yengil idishlar yarata olish xususiyati shu davr ustalarining yuksak mahorati, sopolsozlik texnologiyasini chuqur o'zlashtirganliklaridan dalolat beradi.

Farg'ona vodiysining Chust manzilgohida ham mil.avv. II ming yillikda o'ziga xos madaniyat shakllangan va o'tov tipidagi uylar qurilgan. Qurilishda loy ishlatilgan, odamlar yashaydigan manzillar atrofi qalin devor bilan aylantirib o'rab chiqilgan. Kulolchilik rivojlangan bo'lib, ko'za, kosa, xum kabi sopol idishlar ishlanib ularning yuzasiga qora bo'yoqda sodda geometrik naqshlar bilan ishlangan. Ayrim sopol idishlar yuzasiga naqshlar o'yib yoki qirib (tirnab) ishlangan.

Xorazmning Tozabag'yob, Suvyorg'on, Amirobod madaniyatida sopol buyumlar yuzasini sir (glazur) bilan qoplash boshlanganligini ko'rish mumkin. Tasviriy san'atda borliqni - qush, hayvon va boshqa jonivorlarni o'ziga o'xshatib ishlashdan ko'ra, ko'proq shartli shakllarda tasvirlash jarayoni ilk temir davriga kelib yanada



ortdi. Inson abstrakt fikr yuritish, tasavvur qilish va ularni tasvirlash, inson tafakkurining rivojlanishi badiiy ijod rivojining boshlanish yo'lini ochib bordi. Shuni ta'kidlash kerakki, inson tafakkuri rivoji abstrakt fikr yuritish bilan bog'liq. Abstrakt fikr yuritish, san'atning boshqa turlarini, jumladan, naqsh madaniyati va san'ati rivojida muhim bo'ldi, haykaltaroshlik madaniyati va san'ati imkoniyatlarini oshirdi.

Markaziy Osiyoda diniy tushunchalarning rivojlanishi, diniy e'tiqod va tushunchalar tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, u bizni uzoq o'tmishga yetaklaydi. Ibtidoiy davrda diniy tushunchalar magiya, totemizm, animizm tasavvurlari paydo bo'lgan. Diniy tasavvurlar, o'lganlar ruhi tushunchalari aniq ashyoviy dalillarda o'z aksini topgan. Teshiktosh g'oridan arxeologlar turli tosh qurollar bilan birga hammasi 8-9 yoshli o'g'il bolaning suyak qoldiqlari va uning atrofiga aylantirib qo'yib chiqilgan tog' echkisi shohlarining topilishi muhim voqea bo'ldi. Bu topilma Markaziy Osiyoda juda qadim davrlardayoq dafn marosimi va u bilan bog'liq diniy tushunchalar shakllana boshlaganidan dalolat beradi. O'lgan odam yoniga turli buyumlar qo'yish, marhum ko'milganda uning yoniga hayotlik vaqtida ishlatgan, sevgan buyumlarini ham birga qo'shib ko'mish odati jamiyat rivojlanib borgani sari murakablashgan. Diniy tushunchalarni keng mushohadali falsafiy tus olib ko'p dinlilik va ko'p xudoga sajda qilish, asta-sekin yakka ilohga sajda qilishga aylana bordi. Yangi-yangi dinlar yuzaga kela bordi.

Ana shunday yirik dinlardan biri Zardushtiylik dini edi. Mil. avv. VII asrda shakllangan bu diniy ta'limot odamlarning turmush tarzi, urf-odatiga ta'sir etdi, san'at va madaniyatning xarakterida o'z ifodasini topdi. Zardushtiylik bilan bog'lik me'morchilik majmualari, odamlar yurish-turish, kiyinishda din talabi va ta'siri bo'ldi. Zardushtiylik dini me'morchilik, amaliy va tasviriy san'atda ham o'z aksini topgan. Zardusht diniga binoan suv, havo, yer, olov muqaddas bo'lib, olov esa tozalovchi, poklovchi ilohiy kuch hisoblangan. Ana shu otashparastlik dini uchun muqaddas olov uylar qurilgan. Bu uylarda olov doim yonib turishi uchun uni qo'riqlab, yaxshi hid tarqatuvchi giyohlar tashlab turishgan. Olov uylari-ibodatxonalar qurilishi, uning ichki bezagi, marosim bilan bog'liq turli buyum va anjomlar ishlandi.

Samarqand yaqinida ochilgan arxeologik topilma asosida yaratilgan, aniqrog'i ishlab chiqilgan olov uyi ko'rinishi teppaga kichrayib boruvchi to'rtburchak shakllardan tashkil topgan bo'lib, uning tepasida tutun chiqishi ko'rsatilib, uning ichki xonasida muqaddas olov yonib turganligini bildiradi. Har bir shahar va qishloqda shunday olov uylari bo'lib, ularda muqaddas olov saqlangan. Jarqo'tondan topilgan olov uyi shularning dastlabkisidir. Bu ibodatxona zardushtiylik dini arafasida qurilgan deb hisoblanadi. Xorazmdagi Jonbosqal'a, Buxoro, Samarqanddan topilgan olov uylari qoldiqlari ham yuqoridagi fikrni isbotlaydi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, odamlar o'lgandan keyin uning jasadini yerga ko'mish gunoh hisoblangan. Shuning uchun odam o'lgandan keyin uning jasadini maxsus tepalikka olib borib qo'yishgan. Bu tepalik odamlar yashaydiga joydan

uzoqda joylashgan bo‘lib, tepalikda esa turli itlar, burgut, yovvoyi qushlar odam go‘shini yeb uni suyakdan ajratib bergan. Yomg‘ir esa suyakni yanada tozalagan. Quyosh esa uni obdon quritgan. Shundan so‘ng tepalik atrofida yashovchi odamlar suyaklarni yig‘ib, sopoldan yasalgan idishchalarga solib, ko‘p hollarda marhumning o‘z uyiga ko‘milgan. Bu idishlarni ostadonlar yoki ossuariylar deb atashgan. Ostadonlar shakli turli-tuman bo‘lib, asosi to‘rtburchak shaklida, qopqog‘i esa turli shakllarda, hatto odam boshi yoki qomati shaklida xumga o‘xshatib, ba‘zan o‘tirgan odam shaklida yasalgan. Ostadonlarning yuzlariga esa bo‘rtma tasvirlar ishlangan yoki rasm chizilgan. Bu tasvirlarda o‘sha davrlardagi odamlar urf-odati, a‘za tutish voqealari aks ettirilgan. Bunday ostadonlardan biri Samarqand viloyatidagi Mullaqo‘rg‘onda ochilgan.

Bu ostadonning tashqi tomonida bo‘rtma tasvir bo‘lib, unda yonib turgan olovga ikki tomondan odamlar o‘tin, yoqimli hid tarqatadigan giyohlar tashlab turgan vaqti tasvirlangan. Ular og‘izlarini maxsus bog‘lagich bilan berkitib olganlar, chunki olov muqaddas, unga hatto odamning nafasi ham tegmasligi kerak. Olovning alangalari chiroyli va tartibli qilib ishlangan shakli, keyinchalik bezak madaniyati va san‘atida keng ishlatila boshlangan.

Oqtepa (Toshkent) yodgorligi ham shu davrning muhim yodgorligidir. Burchaklari minoralarga ega bo‘lgan bu qo‘rg‘on ikki qavatli bo‘lib, uning, asosan, burchaklaridagi xona va tokchalarining usti berk bo‘lgan. Bu ibodatxona shahardan tashqarida bo‘lib, katta marosim va tantanalar uchun foydalanilgan. Bu ibodatxona VIII asrda arablar yurishidan keyin tashlandiq xolga kelgan bo‘lsa ham, otashparastlar bu yerdan uzoq foydalanishgan va ostadonsiz dafn marosimlari o‘tkazilgan.

Zardushtiylik dini jahon dinlarining qadimiysi bo‘lib, ming yildan ortiq vaqt mobaynida ko‘pgina Sharq xalqlarining asosiy dinlari bo‘lib keldi. Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlari islom diniga qadar shu dinga e‘tiqod qildilar. Hatto, islom kirib kelgandan keyin ham bu din uzoq vaqt mavqeyini saqlab kelgan.

Mil. avv. V asrdan boshlab bir qator shaharlar paydo bo‘ldi, hunarmandchilik rivojlandi va shaharsozlikda siliyish ro‘y berdi. Eski shaharlar qaytadan tiklandi, yangi shaharlar vujudga kela boshladi. Baqtra, Aorn, Kiropol, Nautaka, Maroqand, Ko‘zaliqir, Erkqal‘a, Qal‘aliqir shu davr yodgorliklaridandir. Ko‘zaliqir qal‘asi ko‘proq uchburchakka yaqin bo‘lib, uning maydoni qalin devor bilan o‘rab chiqilgan. Qal‘aliqir qal‘asi reja asosida ishlangan. Uning to‘rtburchak maydonini qalin devor bilan mustahkamlangan. Mil. avv. VI-IV asr Markaziy Osiyo me‘morchiligi haqida Ko‘zaliqir, Qal‘aliqir, Erkqal‘a me‘morchilik ansambllarining qoldiqlari taassurot beradi. Bu me‘morchilik ansambllari avvalgi davr an‘analarini davom ettirish asosida yuzaga kelgan. Ular qalin devor bilan o‘rab chiqilgan, darvoza va minoralari mavjud bo‘lgan. Qal‘alarning markazida sun‘iy tepalik bo‘lib, unda saroy yoki ibodatxona joylashgan. Saroylar uchun ishlatilgan ustunlar ko‘p hollarda kapitellar bilan tugallangan. Ushbu me‘morchilik namunalarining ilk namunasi Xorazmdagi Qal‘aliqir saroy qoldiqlaridir. Saroyning asosiy qismi kvadratga yaqin bo‘lib (75X80

m) unga sharq va janubdan hovlilar tutashgan. Shu hovlilarning soʻnggisida binoga kirish uchun moʻljallangan asosiy darvoza boʻlgan. Saroy xonalari esa, odatda, ichki ikki hovli atrofida joylashgan. Saroy tomlari tekis qilib yopilgan. Ustunlar uzun toʻsinlarga mustahkamlik bergan va tayanch vazifasini oʻtagan. Bino ustunlari tepaga kichrayib boruvchi toʻrtburchak va aylanalardan tashkil topgan tagkursiga oʻrnatilgan boʻlgan va ular toshlardan ishlangan. Ustunlar esa yogʻochdan ishlangan boʻlib, uning kapiteli haykalga oʻxshatib ahamoniylar kapitellaridan andoza olingan holda ishlangan. Bu davrda binolarni rejalashtirib qurish, uni haykal va haykalchalar bilan bezash odati yoyildi. Xorazmdan topilgan kapitel oʻz xarakteri jihatidan ahamoniylarning Persepol va Suza saroylarida qoʻllanilgan kapitellardagi uslub – ikki tomonga qarab turgan buqa boshi(Suza kapiteli)ga oʻxshab ketadi. Qalʼaliqir saroy rejasi va koʻrinishi, ustunlarning xarakteri bevosita Ahamoniylar meʼmorchiligini eslatadi.

**Tasviriy sanʼat.** Yozma manbalarga koʻra, bu davrda devoriy rasmlar chizish sanʼati rivojlangan. Saroylar, zodagonlarning uylari va mehmonxonalari devoriy suratlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda shu davrda mashhur boʻlgan Odatida va Zariadra romani sujetlari koʻproq ishlangan. Amaliy sanʼat buyumlari yuzasi turli mavzudagi boʻrtma va chizma tasvirlar bilan bezatilgan. Markaziy Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan turli xil antiqaviy buyumlar muhim oʻrinni egallaydi. Bu qadimgi davr yodgorliklari adabiyotlarda «Amudaryo xazinasini» yoki «Oks xazinasini» deb yuritiladi. Gap shundaki, qadimgi turklar Amudaryoni Oʻkuz, yaʼni Katta daryo deb atashgan, yunonlar esa Oʻkuzni Oks-Oksus deb nomlashgan. «Oks xazinasini» yodgorliklarning koʻp qismi hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. Oltin arava, oltin bilaguzuk, oltin koʻza, jangchi-sak boʻrtma tasvirida shu fazilatlar mujassamlashgan.

Markaziy Osiyoda nodir yodgorliklardan biri Tuproqqalʼa hisoblanadi. 12 m balandlikka ega boʻlgan sunʼiy tepalik ustiga qurilgan bu qalʼa toʻrtburchak shaklida boʻlib, 500X350 m maydonni egallaydi. Maydon atrofi mustahkam devor bilan oʻrab chiqilgan. Qalʼaning shimoli-gʻarbidagi burchak tomonida Xorazmshohlarining saroylari joylashgan. Saroyning mahobatli uch minorasi esa butun qalʼa koʻrinishiga mustahkamlik baxsh etgan, uning jiddiy boʻlib koʻrinishini taʼminlagan. Tuproqqalʼa xonalari bir xil emas. Tor yoʻlakchalar egri ravoqlar bilan yopilgan, aksincha, katta xonalar nur-quduqlarga ega boʻlgan, mustahkam ustunlar esa xona kengligini oshirish uchun, uzun toʻsinlarga mustahkamlik berish yoki ularni uzaytirish uchun ishlatilgan. Saroy xonalari haykaltaroshlik va rangtasvir bilan bezatilgan. Qabulxona (mehmonxona) serbezak boʻlgan. Devoriy surat va boʻrtma tasvirlar xonaning koʻrkam va goʻzalligini oshirgan. Loydan yasalgan haykallar devor boʻylab qilingan supachalarga oʻrnatilgan. Supalarda haykallar qisman saqlanib qolgan. Oʻtirgan holda tasvirlangan podshohlar (natural oʻlchamdan ikki marta katta), yon tomondan turgan holda tasvirlangan erkak, ayol va bolalarning haykali qoʻyilgan. «Suvoriylar

(jangchilar) zali» deb nomlangan xona devorida qoldirilgan tokchalarda podshohlar haykali qo'yilgan. Devor oldida esa qo'lida qurol ushlab turgan jangchilar haykali bo'lgan. «Kiyiklar zali» deb nomlangan xonada o'simliklar, pastroq tomonda natural kattalikda kiyiklarning bo'rtma tasviri – barelyefi ishlangan. Tuproqqal'adagi kichik xonalar faqat devoriy suratlar bilan bezatilgan. Shunday xonalardan birining devoriga ishlangan arfa chaluvchi qiz surati bizgacha birmuncha yaxshi saqlangan.

Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati rivojlanishining yangi bosqichi Aleksandr Makedonskiyning istilolaridan keyingi davrdan boshlandi. Sharq va G'arbning bog'lovchisi Buyuk Ipak yo'lining tuguni bo'lgan bu yo'l avvalgi davrlarga nisbatan faol bog'lovchi vazifasini o'tay boshladi. Uning shimoli- g'arbiy va shimoli-sharqiy hududlar bilan aloqasi ham yangi mazmun va yo'nalish kashf eta bordi. Ayniqsa, Ural atrofi, Oltoy va Sibir bilan bo'lgan munosabatlarda ta'sir etish jarayoni sezilarli bo'ldi. Salavkiylar davrida Markaziy Osiyoga ellin madaniyati tezkorlik bilan kirib kela boshlaydi. Hukmdorlar o'zlarining mavqelarini mustahkamlab olishga harakat qilib, ko'plab Yunonistonlik san'atkorlarni ishga taklif qildilar va yangi shaharlar barpo etadilar. Mahalliy din va urf-odatlariga tegmaganlari holda yunon madaniyatining tarqalishiga e'tibor berdilar. Salavkiylar tijorat, savdo-sotiq ishlariga e'tibor berishlari hunarmandchilik, dehqonchilik ishlarini jonlanishiga, qurilish ishlari amalga oshishiga imkon beradi.

Me'morchilik madaniyati va san'atida avvalgidek, asosan, xom g'isht asosiy qurilish materiali sifatida ishlatilsa ham, shu bilan birga qumtosh, marmar va pishiq g'ishtdan foydalanila boshlandi, devor pardoziga maxsus qorishmalar, alebstrli qoplamalar kirib kela boshladi. Ayniqsa, yunon me'morchilik madaniyati va san'ati ta'sirida qurilgan saroylar, ibodatxonalar me'morchilik jarayonida muhim bo'ldi. Shimoliy Afg'oniston hududidagi Oyxonum yodgorligi ushbu davr me'morchiligi o'zgarishlaridan dalolat beradi. Uning qurilishi uslubi antik san'at an'analari asosida ishlangan pollari mozaika bilan pardozlangan. Kapitell va ustunlar ham uning ko'rinishiga alohida fayz baxsh etgan. Tasviriy san'at bu davrda o'z rivojini davom ettirdi, saroy va zodagonlarning uylari rassomlik va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatildi, mahobatli haykaltaroshlik va mayda plastika madaniyati va san'atida asarlar yaratildi. Marmarda haykallar, fil suyagida ritonlar ishlandi. Bu davrda quyish madaniyati va san'ati rivojlandi. Bu san'at rivoji numizmatika-tangalar zarblash san'atida yaqqol bilinadi. Markaziy Osiyoga bo'rtma tasvirli tangalarning kirib kelishi Salavkiylar sulolasi nomi bilan bog'liq. Bunday uslubda tanlangan chiqarish ellin mamlakatlarida keng rivoj topgan bo'lib uni Markaziy Osiyo madaniy-iqtisodiy hayotiga kirib kelish muhim voqea bo'ldi. Markaziy Osiyoda pullar zarb etish maqsadida o'lkaga yunon ustalarining keng ko'lamda jalb etilishi “markaziy osiyocha” mo'jaz portret madaniyati va san'atining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shunday portretlar davr hukmronligining nafaqat tashqi ko'rinishiga, balki fe'l-atvorini ham o'z haqqoniy tasvirlanishi bilan Yunonistonda yaratilgan tanga yuzasiga ishlangan bo'rtma tasvirlardan o'tib ketdi.

Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatida sezilarli iz qoldirgan Yunon-Baqtriya podshohligi davrida Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida me'morchilik ansambllari yuzaga keladi, shaharsozlik yangi davrini boshidan kechirdi. Me'morchilikda yangi g'oyalar rivojlandi, yangi-yangi shaharlar barpo etildi. Shulardan biri Demetriy asos solgan Termiz ( Demet-Termet o'zgarishida) shahri rivojlandi. Ayniqsa, ellin madaniyati va san'ati ta'siri sezilarli darajada bo'ldi. Ko'plab binolar qad ko'taradi, qurilishda ellin me'moriy uslublari ishlatilgan. Jumladan, ustun, kapitel ishlatilgan, pollarga mozaika yotqizilgan, ustunlar ko'p hollarda kapitellar bilan tugallangan. Yunon-Baqtriya podshohligi davrida mavjud shaharlar kengaytirildi, odamlar yashaydigan katta bo'lmagan aholi punktlari shaharga aylantirildi. Yangi shaharlar aniq to'rtburchak yoki kvadrat shaklida qurilib, atrofi qalin devor bilan o'rab chiqildi, to'rtburchaksimon minoralar bunyod etildi. Yunon madaniyati va san'ati ta'siri shu davrda zarb etilgan tangalarda va ularga ishlangan bo'rtma tasvirlarda ham seziladi. Tangalarning old tomonida hukmdor (podshoh) homiysi bo'lgan ma'buda tasviri va yozuv mavjud, tanganing orqa tomonida esa hukmdorning aylana ichidagi bo'rtma tasviri yon tomonidan ishlangan. Shuni ta'kidlash kerakki, bu tangalar yuzasidagi bo'rtma tasvirlar uslubi jihatidan yunon mumtoz madaniyati va san'ati an'alarida, eng avvalo, Fidiy, Praksitel, Lissip ijodiga xos uslubda bajarilgan, jumladan, Fidiyning Olimpdagi Zevs haykaliga taqlid qilish sezilarli Podsho bo'rtma tasvirlari real va haykaltarosh tasvirlanuvchi faqat o'xshatib qolmasdan, balki uning xarakterini ham ochishga intilganligi bilinadi. Demetriy tasviri tushirilgan tangada Demetriyning xarakteri va mavqeyi fil shakli bor bo'lgan bosh kiyimda tasvirlangan. Bu belgi podshoning Hindistonni zabt etganligi va uning hukmdorligiga ishora hisoblangan.

Demetriy portreti shu davr realistik portreti madaniyati va san'atining nodir yodgorligi hisoblanadi. Haykaltarosh bu portretida tasvirlanuvchining o'ziga xos individual qiyofasi va xarakterini ifodali aks ettira olishi bilan kishini hayratlantiradi. Shu davrda ishlangan Yevkratid bo'rtma tasvirda kuchli, irodali shaxs qiyofasi gavdalanadi. Aksincha, Geliokl portretida padarkushlik bilan taxtni egallagan hokimning majruh dunyosi yuz muskullari, dumaloq va ma'nosiz boqishida bilinadi. Amaliy san'atda ham yunon madaniyati va san'atiga taqlid qilish yoki uning namunalaridan foydalanish keng avj oldi.

Kushonlar davri Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston tarixida muhim o'rin egalladi. Bu yerda me'morchilikda avvalgi davr an'analari davom qildi, shu bilan birga yangi an'analari rivojlandi. Saroylar, zardushtiylilik va buddaviylik dinlari bilan bog'liq me'moriy majmualar yaratildi, fuqarolar turarjoylari murakkaablasha bordi, ularning estetik jihatlariga e'tibor ortdi. Shaharsozlik borasida ishlar amalga oshirildi. Bu davrda Markaziy Osiyoda qator shaharlar paydo bo'ldi. Bu davrda shahar qurilishi ham avj oladi. Shahar hokimlari, boy zodagonlar va amaldorlarning saroylari va uylari hashamatli bo'lishiga e'tibor berildi. Uning go'zal bo'lishi uchun haykal, turli naqsh va rasmlar bilan bezak beradilar.

Dalvarzintepa Kushon davlatining muhim shaharlaridan bo'lib, bu yerda buddizm dini bilan bog'liq ibodatxona, stupa bo'lgan. Ibodatxona serhasham bo'lib unda Baqtriya ma'budasi haykali bo'lgan. Bino bezagida akanf bargi antefiks va bezakdor ustunlar keng qo'llanilgan.

Kampirtepa, Qoratepada (Eski Termiz) olib borilgan arxeologik ishlar bu yerlarda buddizm bilan bog'liq me'morchilik komplekslarni ochilishini ta'minladi. Arxeologik ishlar davom etmoqda, lekin ochilgan g'or- ibodatxonalarining bezatilishi, u yerda mavjud bo'lgan haykal va devoriy suratlar diqqatga sazovordir.

Ayritomdan (Termiz yaqinidan) topilgan toshdan ishlangan relyeflar va so'nggi Kushon davlati me'morchiligining xarobalari bu yerda buddizm keng yoyila boshlaganligini ko'rsatadi. Ayritomdagi ibodatxonaga kiraverish tomonga karniz tarzida ishlangan friz karnizlarda akanf barglari orasida yarim belgacha tasvirlangan qo'shnay, nog'ora (baraban), lyutna va arfa chalayotganlar sozandalar tasvirlangan (ular 14 ta).

Buddizm dini bilan bog'liq me'morchilik majmualar va ibodatxonalar O'zbekistonning janubiy tomonlarida keng tarqaldi. Eski Termiz yaqinidagi "Zurmala qal'a" me'morchilik yodgorligi shu o'rinda muhimdir, to'rtburchak shakldagi taglikka tepa tomoni yarimsferik tarzda tugallangan silindrik stupa qurilgan. Minoraning qozon shaklidagi tepa va silindrik shakldagi asosiy ustun qismi chegarasi karniz bilan ajratilgan. Minoraning tagi, tepadagi yarim aylana shaklidagi qismni esa qizil tosh, plitalari bilan pardozlangan. Minoraning asosi ustun qismi esa pishiq g'isht bilan pardozlangan bo'lish ehtimoli bor. Kushon davrda shahar qurilishini avj olishida jamoat binolari ham alohida o'rinni egalladi. Shahar hokimlari, boy zodagonlar va amaldorlarning saroylari va uylari hashamatli bo'lishiga e'tibor berildi. Uning go'zal bo'lishi uchun haykal, turli naqsh va rasmlar bilan bezak beradilar.

Xolchayonda (Surxondaryo) saqlanib qolgan arxeologik topilma e'tiborga loyiq. Bu yerda bino Sharqqa qarab qurilgan bo'lib uning old tomonida 6 ustunli ayvon bo'lgan. U yerdan asosiy xona – katta zalga va ikki ustunli xonaga kirilgan. Bino ham g'ishtdan qurilgan. Ustunlar yog'ochdan ishlangan bo'lib ular tosh taglikka o'rnatilgan. Binoning tomi tekis yopilgan bo'lib tom chekkalari esa cherepitsa ham antefikslar bilan bezatilgan. Xonalar devoriy surat va haykallar bilan bezatilgan bo'lgan.

Bu davrning tasviriy va amaliy madaniyati va san'ati yo'nalishlari bir qancha manbalardan Baqtriya-So'g'd, ellinlashgan-buddizm, g'arb tomonda sak-parfiya, Xorazm va Old Osiyo madaniyati va san'ati an'analaridan asos oldi va rivojlandi hamda xarakteri jihatidan betaraf va o'ziga xos mustaqil san'at yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Haykaltaroshlik madaniyati va san'atida yunon va hind madaniyati va san'ati ta'sirida seziladi. Bu xususiyat ishlangan haykallarda tasvirlanuvchining soch tarashi, kiyimi boshi xarakterini aniq bo'lishiga, psixologik holatini ifodalashga intilishida bilinadi.

Kushoniylar davri tangalari avvalgi davrga nisbatan bo'sh, yuzlariga

podshohlarning portreti zarblangan orqa tomonda esa xudolar tasviri tushirilgan. Yozuvlar esa Kushon-Baqtriya tilida bo‘lib, yozish uchun yunon alfaviti asosida yaratilgan Kushon harflari ishlatilgan.

Bu davrda mahobatli rassomlik rivojlandi va saroy, ibodatxona, monastir va qasrlarni bezashda keng qo‘llanildi. Rasmlar mavzusi bevosita binolar funksiyasiga qarab belgilandi. Jumladan, ibodatxona va monastirlar devoriy rasmlarida diniy mavzu yetakchilik qilgani holda qasr va saroylar devorlarida dunyoviy voqealar tasviri ishlangan. Albatta, bu rasmlar bizgacha faqat parcha, bo‘laklarda, shuningdek, qadimgi mualliflarning yozma manbalarida saqlanib qolgan. Lekin shularning o‘zi shu davr mahobatli madaniyati va san‘ati haqida fikr yuritishga asos beradi. Bu davrda boy zodagonlar va amaldorlar o‘z saroylari va uylarini hashamatli bo‘lishiga e‘tibor berildi. Ularning xonalari devoriy surat haykal, turli naqsh va rasmlar bilan bezak berilgan bo‘lgan. So‘g‘dning muhim manzillaridan bo‘lgan Ustrushona saroyi devoriga qadimgi Rim afsonasi bilan borlik tasvirning tushirilishi o‘zaro yaqin aloqalardan dalolat beradi. Bu tasvirning muallifi haqida, albatta, ma‘lumotlar bo‘lmasada, lekin shu tasvirning Markaziy Osiyoda paydo bo‘lishi shu yerda o‘z vatanini qo‘msagan bo‘lib taassurot bilan qaytgan mahalliy jangchi, rassom, savdogar bo‘lishi mumkin.

Xolchayon devoriy suratlardan ayrim tasodifiy bo‘lakchalar yomon holda bizgacha yetib kelgan. Bular ichida yigit boshi surati, uzum novdalari birmuncha bilinarli. Mavzusi hayot, tabiat manzaralari islmiy naqsh turiga yaqin naqsh kompozitsiyalari ishlangan.

Qoratepada buddizm bilan bog‘liq me‘morchilik kompleksida ochilgan g‘or-ibodatxonalarining bezatilishi, u yerda mavjud bo‘lgan devoriy suratlar diqqatga sazovordir. Noma‘lum rassom tomonidan ishlangan devoriy suratlar mavzusida Buddha va uning yaqinlari bilan bog‘liq rasmlar ishlangan bo‘lib noma‘lum rassom o‘z asarida fazoviy kenglikni ifodalashga, hajmni tasvirlashga intilgani seziladi.

Kushon davri haykaltaroshligi ikki yo‘nalishda – mahobatli haykaltaroshlik va mayda sopol haykaltaroshligi tarzida namoyon bo‘ladi. Mahobatli haykaltaroshlik ko‘proq maxsus loy va qorishmalarda ishlangan va ko‘p hollarda bo‘yalgan bo‘lgan. Mayda haykaltaroshlikda sopol, tosh, bronza, kumush, oltin, shuningdek, yog‘och keng ishlatilgan, inkrustatsiya, kandakorlik uslublaridan ham dumaloq va bo‘rtma tasvirlar ishlashda qo‘llanilgan. Haykaltaroshlik mavzusi diniy va dunyoviy bo‘lib diniy haykallar zardushtiylik va buddizm bilan bog‘liq holda ishlangan.

Buddizmning Markaziy Osiyoda tarqalishi bevosita haykaltaroshlik yo‘nalishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Buddha, bodisatva va boshqa diniy personalliklarning haykallari ishlandi va ular ibodatxonalarining oldi va ichkari qismida o‘rnatilgan. Bu haykallarning ishlanish tamoyillari Hindistonda yaratilgan kanonlarga asoslangan.

Xolchayondagi binoni bezashda haykallar keng qo‘llanilgan. Bu haykallar xonalarning devorlarining yuqori qismiga barelyef va gorelyef uslubi bajarilgan. Unda podshoh va uning yaqinlari, shuningdek, otliqlar tasviri ishlangan.

Qoratepadagi buddizm ibodatxonalaridan topilgan ganch haykallar ham yuqorida ko'rgan xususiyatlarga ega. Bu haykallar natural kattalikda ishlangan va real xaraktyerga egadir. Haykaltarosh mahalliy tiplarning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatishga harakat qildi. Bu ularning ko'rinish, soch tarash va kiyinishlarida seziladi. Qoratepada olib borilgan arxeologik ishlar buddizm bilan bog'liq me'morchilik komplekslarni ochilishini ta'minladi. Bu yerga arxeologik ishlar davom etmoqda, lekin ochilgan g'or-ibodatxonalarining bezatilishi, u yerda mavjud bo'lgan haykal va devoriy suratlar diqqatga sazovordir. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududining janubiy tomonlarida yunon uslubida ishlangan metall idishlar, ko'za va haykallar topilganligi fikrimiz dalilidir. Amaliy san'atda yaratilgan kulolchilik, zargarlik va metallardan buyumlar yasash, kumush, oltin va bronza madaniyati va san'ati nafisligi bilan xarakterlanadi. Dalvarzintepadan topilgan oltindan ishlangan turli taqinchoqlar, ko'mish buyumlar inkrustatsiya madaniyati va san'ati yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Bu davrda, ayniqsa, metall buyumlar yasash va ularning yuzasini bo'rtma tasvirlar bilan bezash madaniyati va san'atida Markaziy Osiyolik ustalar katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Kandakorlik nihoyatda rivojlandi. Bu san'at rivojida yunon-rim uslubi keng yoyildi. Nafaqat ishlanish jihatidan balki tasvirlar mavzusi jihatidan ham xarakterli metallarda (oltin, kumush, mis, bronza) ishlangan har xil lagan, vaza, qalqon va xum yuzalari tasviriga antik dunyo hayoti va mifologiyasi asos qilib olindi.

Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududining janubi tomonlarida yunon uslubida ishlangan metall idishlar, ko'zalar topilgan. Bu idish yuzalariga ishlangan tasvirlarda Kushonlar davrida ellin madaniyati va san'ati tasviri kuchli bo'lganligi an'analar davomidagina emas, balki yunon tilining bu yerlarda keng yoyilishi yunon alfavitining keng iste'molda ishlatilishi ham ana shu tasvir doirasining kengligidan dalolat beradi.

Kushon davlati ko'p millatli va ko'p dinli davlat edi. Uning hududida yashaydigan turli xalq va qabilalar o'z diniga va qarashlariga ega bo'lgan. Dinlari ichida zardushtiylik dini keng yoyilganligini e'tirof etish kerak. Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Marg'iyonada shu din bilan bog'liq ko'pgina yodgorliklarning topilishi ham shundan dalolat beradi. Lekin Kushon davri zardushtiylik dini hind va ellin dinlari ta'sirida yangilanish jarayonini boshidan kechirdi, ossuariylar tiplari toraya bordi.

Kushon davlati tarixida o'ziga xos san'at tarixi shakllandi. Xarakterli jihatidan lokal xususiyatga ega bo'lgan Kushon madaniyati va san'ati o'z rivojida nafaqat davlat tarkibiga kirgan mavjud xalq va elatlarning madaniyati va san'ati zaminida kamol topdi, balki davrning silsilasida yuzaga kelgan Sharq va G'arb falsafasi va estetikasi tasviridan ham chekkada qolmadi. Shuning uchun ham bu san'at idrokida Yunon-Baqtriya madaniyati va san'ati an'anasi va o'ziga xos yo'nalishi, shimoliy ko'chmanchi-qabilalar madaniyati va san'ati an'analari o'zida Sharq va g'arb madaniyati sinteziga yo'l ocha borgan ahamoniylar davri madaniyati



va san'ati belgilari Hindiston, Pokiston, Afg'oniston madaniyati tarixidagi ko'pgina belgi va o'ziga xosliklarning sezilib turishi qurilayotgan masalani naqadar keng va murakkabligini ko'rsatadi. Kushon madaniyati va san'ati va madaniyati keyinroq, o'z hududidan tashqariga chiqishga, ko'pgina xalqlar, davlatlarning san'at va madaniyatiga ta'sir o'tkazishga muvassar bo'ldi. Kushon madaniyati va san'ati o'z rivojida qator xalq va elatlar madaniyati va san'ati ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa ham, lekin uning o'ziga xos, lokal va shu bilan birga boshqalardan ajralib turadigan tomoni mavjudligini qayd etish lozim. Kushon davlati jahon tarixida o'ziga xos tuzumga ega bo'lgan davlatlardan bo'lgan. Bu davlat hududida turli din va e'tiqod mavjud bo'lib san'at va madaniyat mazmuni va yo'nalishida ham o'z aksini topgan. Zardushtiylik, moniylik, buddizm va boshqa diniy yo'nalish va e'tiqodlar san'at uslubiy rangbarangligini ham keltirib chiqardi. Me'morchilik, tasviriy va amaliy san'at uslub va yo'nalishlari shu davr e'tiqod va qarashlari bilan rivojda bo'ldi. Kushon davridan boshlab O'zbekiston janubiy tomonlarida Budda bilan bog'liq bo'lgan haykallar keng tarqala boshladi. Monumental rassomlik madaniyati va san'atining namunalari Sharq va G'arb badiiy dunyosi sintezi sifatida yuzaga keldi. Kushon podshohligi davrida ham, ellin madaniyati va san'ati, ayniqsa, yunon madaniyati va san'ati ta'siri sezilarli o'rinni egallagan. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududining janubi tomonlarida yunon uslubida ishlangan metall idishlar, ko'za va haykallar topilganligi fikrimiz dalilidir. Kushon davri mafkurasida buddizm dini muhim o'rinni egalladi. U odamlarning turmush tarzi, madaniyati, tugaydigan muhitida o'z aksini topdi. Tasviriy va amaliy san'at, me'moriy xususiyatlarini belgilovchi muhim faktor sifatida maydonga chiqdi.

### **Nazorat savollari**

- Markaziy Osiyoning ibtidoiy davri san'ati haqida fikr yuriting.
- Markaziy Osiyoda shahar madaniyatining vujudga kelishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
  - «Amudaryo xazinasi»dagi san'at asarlari nimalardan iborat?
  - Markaziy Osiyoning eng qadimgi yozuvlari va ularning ahamiyati.
  - Antik davr madaniyatini qaysi manbalar orqali o'rganamiz?
  - Ellinizm tushunchasi fanga kim tomonidan kiritilgan?
  - Sinkritik madaniyat nima va uning mazmuni qaysi manbalarda o'z aksini topgan?
  - Kushonlar davri Budda madaniyati ibodatxonalarining ahamiyatli tomonlari nimada?

### **Manbalar va adabiyotlar:**

- Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2-tom. -T.: San'at, 2001
- Asqarov A. Eng qadimiy shahar. T., «Ma'naviyat», 2001.
- Avesto. Yangi kitob. O'zbek tiliga M.Is'hoqov ilmiy izohli tarjimalari. T.,

«Sharq», 2001.

- Bronza va ilk temir davri yodgorliklarining geografiyasi va kartografiyasi. O‘quv qo‘llanma / Mas‘ul muharrir A.S.Sag‘dullayev-T.: «Turon-Iqbol» 2019.

- Kabirov Sh., Sagdullayev A. Markaziy Osiyo arxeologiyasi. T., «O‘qituvchi». 1990.

- Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san‘ati tarixidan lavhalar. –T.: O‘qituvchi, 1997.

- Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. T.. «O‘zbekiston», 1997.

- Sagdullayev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. T.:, 1996.

- O‘zbekiston san‘ati. (1991-2001 yillar) -T.: Sharq, 2001.

- O‘zbekiston tarixi va madaniyati. T., «O‘qituvchi», 1992.

- O‘zbekiston tarixi. 1-qism. A.Sagdullayev, B.Eshov tahriri ostida. T., Universitet. 1999. 2-nashri.

- Pidayev Sh. Sirli Kushon saltanati. T., «Fan», 1990

## **2-Mavzu: Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari madaniyat va san‘ati**

### **Reja:**

- Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati

- Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy aloqalarining kengayishi.

- Tasviriy va amaliy san‘at, me‘morchilik, bezak san‘ati, an‘ana va usullar.

### **Tayanch iboralar**

So‘g‘d yozuvlari, turk bitiklari, Afrosiyob, Panjikent, Quva, Varaxsha, Poykand, amaliy san‘at, Ajinatepa, Qushtepa, Kofirqal‘a, buddaviylik, moniylik, nasroniylik, zardushtiylik, shomonlik, shishasozlik.

Eftalitlar va turk xoqonligi davrida Xorazm, Tohariston, So‘g‘d ularning asosiy mulklari bo‘lgan. Ayniqsa, Sharq va G‘arb karvon yo‘llari ustida joylashgan So‘g‘d madaniy va iqtisodiy jihatdan yuksak bo‘lgan. U Eron, Vizantiya, Hindiston, Uzoq Sharq mamlakatlari, shuningdek, Xorazm orqali Sharqiy Yevropa bilan ham savdo-sotiq ishlarini olib borgan. So‘g‘dning eng katta mulki hisoblangan Samarqand esa, umuman, Markaziy Osiyo ijtimoiy va madaniy hayotida alohida o‘rinni egallab, boshqa shaharlarga kuchli ta‘sir o‘tkazgan.

Markaziy Osiyo me‘morchiligida so‘nggi antik va ilk o‘rta asrlar davrida yangi me‘moriy g‘oyalar paydo bo‘ldi. Dehqonlarning qasr-qo‘rg‘onlari, boy zodagonlarining shahar va shahardan tashqaridagi qo‘rg‘onlari yuzaga keldi va yangilandi.

Ilk o‘rta asr me‘morchiligining o‘ziga xos tomonlari qasr-qo‘rg‘onlar ko‘shklari qurilishida ham sezilarli bo‘ldi. Bu qo‘rg‘on-qasrlar avvalgi badiiy-madaniy

markazlardan birmuncha chekkada bo‘lib, asosan, mulkdor dehqonlarning turarjoyi sifatida paydo bo‘ldi. Qo‘rg‘onlar mustahkam devorlar bilan o‘ralgan bo‘lib, ular atrofida keyinchalik turarjoylar, bozorlar paydo bo‘la boshlagan. Vaqt o‘tishi bilan ana shu joylar ham qalin devor bilan aylantirib chiqila boshlagan. Shu tariqa ilk o‘rta asr shaharlari shakllanib borgan. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan O‘zbekistonning Zarafshon, Qashqadaryo, Farg‘ona, Xorazm, Toshkent vohalaridagi qasr, ko‘shklar shu o‘rganilayotgan davr yodgorliklari hisoblanadi. Jumladan, Toshkent yaqinidagi Oqtepa ko‘shki, Xorazmdagi Teshikqal’a, Buxoro yaqinidagi Varaxsha o‘zining ko‘rinishi, bezagi bilan bir biridan ajralib tursa ham, lekin ularning hammasida umumiy o‘xshashlik mavjudligi, davrning katta uslubiga bo‘ysunganligini e‘tirof etish zarur. Qasr, ko‘shklar, tabiiy yoki sun‘iy kesik piramida shaklidagi tepaliklar ustiga qurilgan. Saroyni baland supa ustida qurish, tabiiy ofatlardan, suv toshqinlaridan saqlanish, osoyishta hayot kechirish, dushman hujumida mudofaa qila olish va zarba berishga asoslanganligidir. Saroy tashqi devorlari mustahkam va baland bo‘lishi ham shu mudofaani ta‘minlovchi zarurat hisoblangan. Saroyning tashqi tomonida bezak kam va jiddiy, ayrim saroylarning devor sathi gofirli (kungurali), devor tepasidagi uch tishli bezak plita, antefiks va bo‘rtma tasvirli rozetkalar ishlatilgan. Saroylarning ichki bezagiga alohida e‘tibor berilgan. Xonalar devoriy rassomlik va haykaltaroshlik bilan bezatilgan. 2-3 qavatli ravoqli binolar qubbali, gumbazli katta xona atrofida yoki butsimon tor koridor atrofida joylashtirilgan.

Toshkentdagi Yunusobod Oqtepasi ilk o‘rta asrlarda shahar atrofida qad ko‘targan qasrlardan bo‘lib arablar bosqini davrida tugatilgan. Bu qo‘rg‘on ma‘muriy-markaz hamda oziq-ovqat, qurol-yarog‘ saqlanadigan ombor vazifasini bajargan. Bu yerda zardushtiylik dini bilan bog‘liq ibodatxona ham mavjud bo‘lgan. Oqtepa qo‘rg‘on qasri ham sun‘iy tepalikka qurilgan, uning qalin devori pishiq va sodda bezaksiz bo‘lgan.

Xorazmdagi Teshikqal’a ko‘shki ham tuproq uyumli tepalikka qurilgan. Lekin uning mudofaasi devorlari o‘ziga xos gofirli bo‘lgan tashqi pardozida bulardan tashqari perspektivali arkalar, pardoz shinak va devor yuqori qismi friz bilan pardozlangan.

Buxorxudotlarning Varaxsha saroyi ilk o‘rta asrlar davri ko‘shk me‘morchiligining ulug‘vor ko‘rinishidir. Sun‘iy tepalik ustiga qurilgan bu saroy tashqi devorlari gofrli ko‘rinishda, hamda devorning yuqori tomonidagi boy frizga egadir. Saroy darvozalari ham tantanavor ruhda katta shakllarda ishlangan. Saroyning ichki qismi nihoyatda bezakka boy bo‘lgan. Haykaltaroshlik, rassomlik va amaliy bezak san‘ati asarlari saroy ichki muhitini nihoyatda go‘zal va ko‘tarinki ruhda bo‘lishiga xizmat qilgan.

Xorazm shohi Afrig‘ning Al-Fir qasri ham hashamatli, ikki qavatli bo‘lib, ikkinchi qavatiga maxsus ko‘tarilma moslamalar-panduslar orqali chiqilgan. Ilk o‘rta asrlarda istehkomli qasr-qo‘rg‘onlar va, ayniqsa, ko‘shklarning keng yoyilganligi davrning muhim me‘morchilik obidasi ekanligi bizgacha yetib kelgan ashyoviy

dalillar, devoriy rasmlarda saqlanib qolgan qasr koʻrinishlari ham tasdiqlaydi. Shunga oʻxshash koʻshklarni Panjikent devoriy suratlarida, mis va kumish idish yuzalaridagi tasvirlarda uchratish mumkin. Masalan, Ermitajda saqlanayotgan “Qoʻrgʻonni qamal qilish” tasviri tushirilgan kumish laganda qoʻrgʻon koʻrinishi aks etirilgan. Koʻshk meʼmorchiligi keyingi monumental meʼmorchilik, saroy qurilishi madaniyati va sanʼatiga katta taʼsir oʻtkazgan. Friz, devorlarni gofrlash, tom tepasiga polmetka-dekorativ shakllar berishni, ularning ichki xona va koridorlari serbezak boʻlib naqsh va mavzuli rasmlar, dumaloq haykal va relyeflar bilan bezatilishi keyingi meʼmorchilikda oʻz ifodasini topgan. Xorazmdagi Burgut qalʼada otashparastlarning ibodatxonalari, Tuproqqalʼadagi ibodatxonalar Xorazm shohlarining rasmlari bilan boyidi.

Turk xoqonligi davri meʼmorchiligi haqida gapirilganda shuni aytish mumkinki, bu xoqonlik Markaziy Osiyoga rivojlangan yoki rivojlanishning yangi bosqichiga koʻtarila boshlagan davrda kirib keldi. Xoqonlik davri madaniyati va sanʼati, jumladan, uning meʼmorchiligi eftalitlar davri anʼanalarini rivojlanishi bilan bogʻliq boʻldi. Xoqonlik davrida koʻshk va saroylar, zodagonlarning shahar va shahardan tashqaridagi uylari oʻzining rivojlanishini avvalgi davr anʼanalarining uzluksiz davomi sifatida davom ettirdi. Bu davrda buddizm, zardushtiylik, xristianlik va boshqa dinlar, xoqonlik tarkibidagi xalq va elat, til va urf-odatlar kabi rang-baranglikda mavjud boʻlib bordi. Shu bilan birga tinch hayot mahalliy zadagonlarning mustaqil hayot kechirishlari meʼmorchilik, tasviriy va amaliy sanʼatda oʻziga xos lokal xususiyatlarni ham kelib chiqishini taʼminladi. Bu xususiyat Soʻgʻd, Xorazm, Fargʻona, Quva va Yettisuv yodgorliklarining madaniyati va sanʼatida aks etgan.

Ibodatxonalar, boy va zodagonlarning saroy-qasrlari, hokimlarning qarorgohlari oʻzining boy bezagi va badiiy yechimining oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Bizgacha vayronalarda tasodifan yetib kelgan meʼmoriy bino qoldiq va parchalari shu davr meʼmorchilik madaniyatining yuksak boʻlganligi va eng muhimi sanʼat sintezi aʼlo darajada boʻlganligidan dalolat beradi. Bu yodgorliklarning katta qismi devorlariga suratlar ishlanganligi, haykaltaroshlik asarlari yoʻlga qoʻyilganligidan dalolat beradi. Xitoylik tarixchining Samarqand va Buxoro oʻrtasida qurilgan hashamatli bino juda hayratlantirganligi, binoning shimoliy devorida boʻyoqlar bilan Xitoy imperatorlarining tasviri, sharqiy devorda turk xoqonlari va Hindiston hukmdorlari, gʻarbiy devorda esa Eron va Rum hukmdorlari tasviri tushirilganligi haqida yozib qoldirgan.

Bizgacha vayrona hoida yetib kelgan bu saroylar qoldiqlari hozir ham oʻzining ulugʻvorligi bilan kishini hayajonga soladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda yagona din boʻlmaganligi ibodatxona qurilishlarida, dafn marosimi bilan bogʻliq buyumlarda ham oʻz ifodasini topgan. Fargʻona vodiysi(Quva)dan topilgan ibodatxona xarobasi buddizm dini mavjud boʻlganligini koʻrsatadi. Bu ibodatxona ikki xonadan iborat boʻlib, old xonasi ayvon tipida va unga kiraverishda haykallar oʻrnatilgan. Ichki xonalarda ham haykallar qoʻyilgan. Otashparastlik dini bilan bogʻliq boʻlgan

ibodatxonalar, odatda, tepalikka qurilib, old tomoni esa quyosh chiqish tomonga qaratilgan.

Ilk oʻrta asrlar davridan bizgacha yetib kelgan tasviriy sanʼat asarlarining parchalari shu davrda rassomlik va haykaltaroshlik ijtimoiy hayotning ajralmas qismi boʻlganligini koʻrsatadi. Bu davrda monumental rassomlik va haykaltaroshlik diniy va dunyoviy binolarning bezatilishida keng ishlatilgan. Bu haykallarda diniy va afsonaviy obrazlar bilan bir qatorda, real hayotni aks ettiruvchi obrazlar ham uchraydi. Haykallar maxsus tayyorlangan loydan, yogʻoch, ganch, alebastr va toshdan ishlangan. Varaxshadagi saroyi bezashda ganch oʻymakorligi keng qoʻllanilgan. Kandakorlik sanʼati va oʻymakorlikda boʻrtma tasvir muhim rol oʻynagani shu davrdan saqlanib qolgan yodgorliklarda koʻrinadi.

Ilk oʻrta asrlar davrida Oʻzbekiston hududida badiiy madaniyatning yutuqlari monumental-dekorativ rang tasvir madaniyati va sanʼatida oʻzini toʻliq namoyon qiladi, Afrosiyob (Samarqand), Varaxsha (Buxoro), Bolaliktepa (Surxondaryo) devoriy suratlar jahon monumental-dekorativ rangtasvir madaniyati va sanʼatining nodir durdonasi hisoblanadi. Bu suratlar oʻzining yuksak mahorat bilan ishlanganligi, real hayotni badiiy obrazlarda ifodali aks ettirishi bilan belgilanadi. Buxoro vohasidan topilgan Varaxsha hukmdori saroyi qoldiqlari va devoriy suratlar taxminan VII-VIII asrlarda ishlangan. Varaxsha devoriy suratlarida ichida ov manzarasi yaxshi saqlangan. Bu suratda fil ustida ketayotgan odamlarga sherning hujumi tasvirlangan boʻlib, bu kompozitsiya oʻzining dinamikasi va ajoyib rang tasviri bilan ijodkorning yuksak mahorat egasi ekanligini isbotlaydi. Rassom ishlagan har bir obrazning tugal shaklga ega boʻlishiga, har bir detalni ham iloji boricha aniq va tugal darajada koʻrsatishga intilgan. 1965-yili Samarqanddan topilgan Afrosiyob saroyi katta shov-shuvga sabab boʻldi. Bu topilma yana bir bor Markaziy Osiyoda ilk oʻrta asrlardayoq yuksak madaniyat mavjud boʻlganligini jahonga namoyish etdi. Bu saroy qoldiqlarining devorlariga ishlangan surat va naqsh kompozitsiyalari yuksak mahorat bilan ishlanganligi bilan ajralib turadi. Afrosiyob devoriy surat kompozitsiya ishlanishi, detallarga eʼtibor berishi jihatidan Varaxsha suratlariga yaqin boʻlsa ham, lekin badiiylik va mahorat jihatidan ulardan ustundir. Afrosiyob devoriy suratlarining ahamiyati yana shundaki, suratlar bilan birga, Soʻgʻd harflarida yozilgan bir qator soʻzlar ham uchraydi.

Markaziy Osiyoning ilk oʻrta asrlardagi monumental-dekorativ rang tasviri toʻgʻrisida fikr yuritganda, Termiz yaqinidan topilgan “Yumaloqtepa”, unga yaqin joylashgan “Bolaliktepa” devoriy suratlarini yodga olish mumkin. Bu suratlar xarakterining shakllanishida shu davr monumental-dekorativ rang tasviriga xos uslub mavjud boʻlib, bular birgalikda Markaziy Osiyo ilk oʻrta asrlarda sanʼatning yuksakligi, turli uslub va yoʻnalishlar mavjud boʻlganligini yana bir bor namoyon qiladi.

Bu davrlarda haykaltaroshlik, amaliy bezak sanʼati, ganch va yogʻoch oʻymakorlik turi bezash ishlarida keng ishlatilgan. Shunisi eʼtiborliki, oʻymakorlikda

islimiy va handasiy naqshlardan tashqari, odam va hayvonlar, turli holat va harakatdagi hayvonlar, qush va parranda bo'rtma tasvirini qo'shib ishlash keng uchraydi. Uy anjomlari, ov va jang qurollari, shuningdek, turli badiiy bezatilgan shoyi va oddiy chit materiallar va ulardan bichilgan liboslar shu davr estetik qarashlarini namoyon qiladi. Amaliy buyumlar yuzasiga bo'yoqda tasvirlar ishlangan, kumushdan yasalgan buyum va qurollar esa bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu tasvirlarda devoriy suratlarda aks ettirilgan obraz va voqealar o'z ifodasini topgan. Podshohlar tasviri, bazm, ov manzaralari bu buyumlar yuzasiga go'zallik baxsh etgan.

Markaziy Osiyo, umuman, O'rta Sharq madaniyati va san'atida rassomlik va haykaltaroshlik, kandakorlik va to'qimachilik madaniyati va san'ati rivojlanish davrini boshidan kechirdi. Bolaliktepa, Varaxsha, Panjikent, Afrosiyob devoriy rasmlari shunday yodgorliklardandir. Rassomlar o'z rivojida so'nggi antik an'analarni yangi pog'onaga ko'tarildilar o'z mazmuni, moxiyati, professional mahorat bilan ishlanish jihatidan jahon madaniyati va san'ati tarixida o'z davrining tengi yo'q nodir yodgorliklar yaratdilar. Shuni alohida qayd etish kerakki, eftalitlar va turk xokonligi davri qator mahalliy lokal maktablarni shakllantirdi. Bu xususiyat mahobatli rangtasvir madaniyati va san'atida sezilarli bo'lib, bu davrga oid yodgorliklarni keng o'rganilganligi Bolaliktepa, Varaxsha, Panjikent, Afrosiyob va boshqa devoriy rasmlar badiiy madaniyatning nihoyatda yuqori darajada bo'lganligi hamda ma'lum darajada atrof davlatlar madaniyati va san'atidan ta'sirlangani shu bilan boshqa davlatlarga ta'sir etganini ko'rish mumkin. Bunday o'xshashlik va o'ziga xosliklarni umumlashtirib bu davr madaniyati va san'atini qator maktab yo'nalishlariga ajratish mumkin. Bu maktablarni O'zbekistonlik olimlar G.Pugachenkova va L.Rempel uchga ajratishadi:

1. Tohariston maktabi va uning yodgorliklari. Bolaliktepa, Ajinatepa va Kofirqal'a saroyi rasmlari.

2. Shimoliy Turkiston maktabi va uning yodgorliklari. Quvadagi buddizm ibodatxonasi. Yettisuv buddizm ibodatxonasi.

3. «Garbiy o'lka» maktabi va uning So'g'ddagi, Xorazmdagi yodgorliklari. Afrosiyob, Varaxsha, saroylari, hamda Xorazm ostodonlari rasmlari.

Bu devoriy va ossuariy rasmlar mavzusini ikkiga ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish diniy marosim buddizm bilan bog'liq Ajinatepa, Quva, Oq Beshim va boshqa ibodatxona rasmlari, ikkinchi yo'nalish dunyoviy mazmunda bo'lib saroy, zodagonlarning uy va ko'shklarida o'z ifodasini topdi. Bular Bolaliktepa, Varaxsha, Afrosiyob, Panjikent yodgorliklaridir. Turk xoqonligi davriga kelib Markaziy Osiyoning janubiy tomonlarida siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Jumladan, buddizm bilan bog'liq qarashlar asta yo'qola boshladi. Kushon davri madaniyati va san'ati an'analari mavjud bo'lsa ham, lekin buddizmni o'z manbayidan uzoqlashishi va aloqalarning susayishi bu davrda yaratilgan asarlarda mahalliy xalq madaniyati va san'ati ta'sirini oshishiga olib keldi. Bu xususiyatlar Ajinatepa, Quva, Marv madaniyati va san'atida ko'rinadi. Devoriy

suratlarda an'anaviy san'at budda monastirlarida o'z mavqeyini saqlab mahalliy madaniyati va san'ati an'alarida mavjud bo'ldi. Jumladan, Ajinatepa ibodatxonasi devoriy suratlari ayni ana shu hind va mahalliy san'at an'analari silsilasi hosilasi sifatida idrok etiladi. Bu ibodatxonaning xonalariga ishlangan rasmlar yuqori malakada bajarilgan bo'lib Buddha va u bilan bog'liq voqealar tasvirlangan. Kompozitsiyada sovg'a-salom olib kelayotganlar tasviri birmuncha jonli bo'lib an'anaviy kompozitsiyaga o'ziga xoslik kiritadi.

Bolaliktepa devoriy rasmlari O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixida muhim o'rinni egallab Sharq monumental rangtasvir madaniyati va san'atining yangi qirrasini namoyon etadi,

Bu san'at mahalliy antik san'atga tayangan holda uni qator o'zgarishlar bilan yangiladi. Jumladan, shakl va qalamtasvir birmuncha soddalashtirilib uni naqqosh kompozitsiyasiga yaqinlashtiradi. Rassom nur soyadan voz kechgan holda fazoviy kenglikni odamlar xatti-harakatida hal etadi. 5-6 asrlarda yaratilgan bu rasmlarda Markaziy Osiyo monumental madaniyati va san'atining yangi bir yo'nalishi tarzida namoyon bo'ladi. Ishlanishidagi yaxlitlik shakl va chiziqdagi o'ziga xos qat'iylik, rang shakl tizimidagi ritmik qaytarilish bu yodgorlikni ko'proq shu davrda Afg'oniston hududida mavjud bo'lgan uslubga yaqinlashtiradi.

Shahardan tashqarida qurilgan, hajm jihatidan katta bo'lmagan qasr kvadrat shaklida bo'lib, uning eshik o'rnini hisobga olinmasa, xona devorlari yaxlit yorug'lik tepada qolidirilgan darchadan tushgan. Shuning uchun rasm to'rt devorga yaxlit ishlanib aylanib ko'rishga mo'ljallangan panoramani eslatgan, bu yaxlitlikni eshik o'rnini to'xtatgan xolos. Devor bo'ylab unga yopishtirilgan holda ishlangan supa tarzidagi balandlik o'tirish uchun mo'ljallangan. Rassom bu yerda o'ziga xos rassomlik badiiy yechimini topgan. Shu devor bo'ylab ketgan supa tepasidan xuddi shu supada o'ltirgandek odamlar tasviri ishlangan. Saroyning g'arbiy devorida Chag'oniyon hukmdori Turantoshning o'sha davr odatiga ko'ra, Samarqand ixshidi (podshohi) Varxuman huzuriga Chag'oniyon malikalaridan birini kanizaklari bilan kuzatib borayotgan elchilari tasvirlangan. Saroyning sharqiy devorida Uzoq Sharq mamlakatlarining birida qayiqlarda dengiz suzib quruqliklarda esa yirtqich hayvonlar bilan yo'l-yo'lakay olishib kelayotgan mo'g'ul bashara elchilar guruhi kelishi tasvirlangan. Shimoliy devorda turli mamlakatlardan (Choch, Chag'oniyon, Xitoy, Koreya, Yaponiya) kelgan elchilar Samarqand hukmdori tomonidan navbatma-navbat qabul qilish marosimi. Janubiy tomonda Samarqand hukmdori bilan a'zolari bilan muqaddas suv Vorukasha dengizida baliq va toshbaqalar orasida cho'milish holati tasvirlangan. Saroyning Chag'oniyon malikasiga bag'ishlangan kompozitsiyasi bo'yniga katta qo'girchoq ilingan oq filda malika undan keyin suvoriylar o'rtasida saman ot mingan kuyov – shoh aks ettirilgan. Otlarning oq parrandalar rasmi bilan bezatilgan qizil chakmoniga qurol-aslahalar osilgan. Malikani oq otga mingan qizlar kuzatib bormoqda. Qizil ko'ylakli, yelkasiga oq kulrang ro'mol tashlagan, sariq lozim kiygan bejirim etikli ayol rasmi yaxshi saqlangan. Uning qo'llarida nafis bilaguzuk.

Ikki tuyalarga mingan ikki kishi kelyapti. Ulardan biri qirg'iy burun, oq yuz, ingichka mo'ylov, qora soqolli, ikkinchisi soch-soqoli qizg'ish, qorachadan kelgan chol. Uning katta ochilgan ko'zlari oldinga tikilgan, yuzlari yaxshi saqlangan. Ikkovi ham serbezak kiyimda. Bellariga qilich va xanjar osilgan, qo'llarida hassa. Tuyalarga guldor yoping'ich yopilgan. Ular orqasida oq parrandalar kelyapti. Bundan tashqari ikki kishi tasvirlangan ular oq kiyimda, yuzlarini pasti oq ro'mol bilan berkitib olingan. Qushlar ortida kuyov-shoh undan keyin otliqlar. Mehmonxona devori elchilar qabul qilishga bag'ishlangan. Elchilar kiyimi bezakdor. Doiraga olingan to'ng'iz, tog' echkisi, afsonaviy qanotli mahluq tasviri shu kiyimlar bezagini tashkil etadi. Erkaklarda zirak, turli taqinchoqlar, birini qo'lida bir parcha mato. Ikkinchisida marvarid shodasi. Oq kiyimli erkak etagida So'g'd tilidan yozuv bor. Mehmonxona janubiy tomonida baliq, toshbaqa, o'rdak suzib yuribdi. Mehmonxona sharqiy qismi devorlarida sher bilan olishuv rasmi bor.

Varaxsha saroy xonalaridan birining devorlarida ov manzarasi aks ettirilgan bo'lib, har bir kompozitsiya markazida oq fil va unda o'tirgan jangchi ko'rsatilgan. Ba'zida filning bosh tomonida filni boshqaruvchi (haydovchi) tasviri uchraydi. Odamlar filga ikki tomondan tashlanayotgan ikki yirtqich hayvon bilan olishmoqda. Bu hayvonlar goh leopard, goh sher, goh esa afsonaviy maxluq tarzida uchraydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu tasvirlar orqali turli rivoyat va afsonalar, shuningdek, zardushtiylilik ta'limoti bilan bog'liq fikrlar bayon etilgan. Jumladan, Varaxsha devoriy rasmlarida aks ettirilgan fil ustidagi odamlarning turli vahshiy hayvonlar bilan jangi Avestodagi yaxshilik va yomonlik kurashi g'oyalarini ifodalaydi, deb hisoblanadi. Devorga ishlangan bu surat kompozitsiyalar tepasida yana tasvirlar berilgan. Ularda o'ngdan chap tomonga odimlab borayotgan hayvonlar tasviri ko'rsatilgan. Bu tasvirlar birmuncha kichik. Afsuski, bu rasmlar bizgacha yetib kelmagan. Asosiy suratning past tomonida ham ensiz, hoshiyasifat naqsh kompozitsiyasi berilgan. Varaxsha devoriy rasmlari taxminan 7-8-asrlarga to'g'ri keladi va o'zining yorqin rangi bilan ajralib turadi. Hayvonlarning yorqin sarg'ish oltin rangdan zarg'aldoqqacha bo'lgan tuslanishlari, pushti rang tuslanishida ishlangan odamlar hamda oq rangdagi fil tasviri ranglari asarning umumiy koloritini belilab, uning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rasmlarda hajm yo'q, yassi ishlangan. Rassom fazoviy kenglik, buyumlar, tasvirlanadigan qahramonlarning hajmli holda ko'rsatishga intilmaydi. Tasvir foni zamini yaxlit dekorativ rangda, aniqrog'i, issiq to'q qizil rangda ishlangan, bu rang esa asosiy tasvirlangan obrazlarni hamda voqeani aniq ko'rish imkonini beradi. Kompozitsiyada ishlatilgan chiziqlar, tasvirlanuvchi odamlar qomati tasviri nisbatlari bo'layotgan voqeani jonli va shiddatli harakatda ekanligini his etishga ko'maklashadi. Nozik chiziqlar ritmik, tasvirlangan odamlar gavdasi aniq va to'g'ri nisbatda olinishi rassomning yuksak mahoratidan dalolat beradi.

VII-VIII asr devoriy rassomchiligi alebastr suvoqda ishlangan. Natijada, ishlangan rasmlar obrazlar yorqin va jarangdor ko'rinishga ega bo'lgan. Moviy lazur



singari yangi bo'yoqlarning ishlatilishi asarning emotsional tomonini oshirgan. Yana muhim tomoni – rassom o'z asarida fazoviy kenglikni ochishga intiladi. Unga avvalgi tasvirlanayotgan siymo(obraz)ni va uni o'rab turgan narsalarni ishlanishiga alohida e'tibor beradi, orqa zamin esa biror bir rang bilan tekis bo'yaladi. Natijada, tasvirlanuvchi obraz kiyimi, buyumlarilarning o'ziga xos boy badiiy bezagi asarning emotsional ko'rinishini oshiradi. Yuqorida eslab o'tilgan arfa chaluvchi yarim yalang'och holda tasvirlangan qiz qora zaminda yanada emotsional bo'lib ko'ringan. Asarning qalami (qalamtasviri, chiziqli konstruktiv tizmi, obrazni ajratib turuvchi kontur chizig'i) ham o'tkir. Tasvirdagi aniq va musiqaviy chiziqlar odam qomatini bo'rttirib ko'rsatishdan tashqari, yanada ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi. Devoriy rassomlik va monumental haykaltaroshlikning xususiyati mazmuni ham shu me'morchilik bilan bog'liq holda o'zgarib yakunlanadi. Endilikda antik mavzular kamayib suvoriylar jasoratini kuylovchi romantik kompozitsiya va muhim tarixiy voqea va hodisalar bilan bog'liq mavzular monumental san'atda keng o'rinni egallay boshladi. Eng muhimi shundaki, eron-sosoniy va ko'chmanchi turkiy xalqlar madaniyati va san'ati bilan bog'liq turlari hamma san'at plastikasini asta yassidekorativ bezakka o'ta boshladi. Bu bilan u keyingi naqqoshlik madaniyati va san'atining yetakchiligi uchun zamin yarata bordi. Haykaltaroshlik Turk xokonligi davrida dumaloq va relyef ko'rinishlari rivojda bo'lib, rassomlik madaniyati va san'ati bilan bir qatorda yetuklikka erishdi. Mayda haykaltaroshlik, kulolchilik va zargarlik orasida ham yutuqlar qo'lga kiritildi. Koroplasika – ma'budalar haykalini yasash va ularga topinish ham keng tarqaldi. Samarqand, Buxoro, Naxshab va Toxaristondan topilgan shunday haykallar bir-biridan kiyimi, ko'rinishi bilan ajralib turadi. Ular ko'p va xilma-xil. Mahobatli haykal va relyeflar ham shu davrda ijtimoiy hayotda muhim o'rinni egallab, ular ibodatxonada friz tarzida xona devorining tepa qismida, dumaloq yoki janrli kompozitsiya sifatida taxmon-tokchalarga yoki bo'lmasa maxsus tagliklarga o'rnatilgan bo'lgan. Bu holni XX asrning 30-50-yillarida arxeologik qazilmalar payti topilgan haykaltaroshlik namunalari ham ko'rish mumkin. Panjikent, Quva, So'g'd madaniyati va san'atida yog'och o'ymakorligi va haykaltaroshligi o'ziga xos yo'nalishda mavjud bo'lgan. Yog'och o'ymakorligida murakkab naqsh kompozitsiyalari ishlangan. Ularda borliq unsurlari, qush va hayvonlar, odam haykallari uchraydi, hatto dumaloq haykallar ham yog'ochdan yo'nib ishlanganligi shu davr madaniy hayotining birmuncha jonli bo'lganligini ko'rsatadi. So'g'd haykaltaroshligi nafaqat xonalarni bezashda, balki bevosita ibodatxonalarda ham keng foydalanilgan. Bunga Zarafshondan topilgan yog'ochdan ishlangan haykal misol bo'la oladi. Umuman, shuni aytish kerakki, arablar kelgunga qadar So'g'd, Xorazm, Ustrushonada olov uylari bilan birga xudo uylari – xudo-sanam ibodatxonalari mavjud bo'lgan. Boshida nur taratayotgan aylana chambar, belida belbog', xanjar va qilich qilib haykal ishlangan. Haykal yog'ochdan yasalgan. U ma'lum qonun asosida ishlangan va yig'ilgan, ya'ni qo'llar alohida ishlanib keyin ulangan. Ilk o'rta asrga oid bu yodgorlik So'g'd, umuman, Markaziy Osiyodagi Iloh,

Xudo, ma'bud sanamning namunasi bo'lib Xudo Mitra, Axuramazda haykali hisoblanadi. Sharqshunos olim V.V.Bartoldning fikriga ko'ra, sanamlar yunoncha siymo, o'xshash zardushtiylik ta'limotida muhim o'rinni egallagan. Ular odam yoki hayvon shaklida ishlangan va shaharlarda o'rnatilgan. Uning balandligi 5 m. yaqin bo'lib oltindan yasalgan. Samarqand yaqinidagi Chelakda o'rnatilgan oltin haykal mashhur bo'lgan. Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha, bu sanamga sig'inish uchun uzoq-uzoqlardan odamlar ko'rish uchun kelishgan. Bu sanam rivoyat qilinishicha, odamlarni yomon ko'zdan saqlagan. Sanamlar ibodatxona ichida ham o'rnatilgan. Jumladan, Buxoro ibodatxonalarida shunday sanamlar bo'lgan.

Quvada (Farg'ona) arxeologik qazish ishlari olib borilganida, bu yerdan buddizm bilan bog'liq bo'lgan ibodatxona qoldiqlari ochildi. Bu arxeologik qazilma o'rganilganida, shu joyda buddaviylar ibodatxonasi mavjud bo'lganligi va u ikki xonadan iborat ekanligi aniqlandi. Ularning har biriga alohida kirish eshigi bo'lib xonalardan biri ayvon tipida, unga kiraverishda katta otlar va katta sersoqol ma'bud tasviri o'rnatilgan. Ma'budning peshonasi tepasida odam bosh suyagi shakli bog'liq holda ishlangan. Haykal nihoyatda shijoatda jo'shqin va vajohat bilan yon tomonga qarab turgan payti ko'rsatilgan. Ikkinchi xona ham haykallar bilan bezatilgan bo'lib ularning bizgacha faqat parchalari yetib kelgan. Ayniqsa, Budda haykalining saqlanib qolgan bosh qismi xarakterli. Unda dumaloq yuzli Budda boshining peshonasida qo'shimcha ko'z tasviri ishlangan bo'lib, u hamma narsani ko'radigan va biladigan Buddaning ilohiyligini ta'kidlaydi. Haykal qunt bilan ishlangan uning tanasi, yuzi nafis ishlanilishiga e'tibor berilgan, badani qo'ng'iroqli zarjiyaklar bilan bezatilgan, kiyimlari erkin ko'k va boshqa har xil ranglar bilan pardozlangan bo'lgan. Budda haykali xonaning to'rida taxtda o'tirgan holda ishlangan bo'lgan. Ibodatxona arablar tomonidan yoqib yuborilgan, haykal esa buzib tashlangan. Haykalda saqlanib qolgan qilich izlari shundan dalolat beradir.

V-VII asrlarda amaliy bezak madaniyati va san'ati ham nihoyatda rivojlandi. Kandakorlik, badiiy to'qimachilik, kitobat madaniyati va san'atida betakror asarlar yaratildi. Inkrustatsiya uslubida kitob muqovalari tayyorlandi, qadama toshli oyoq kiyimlar ishalandi. Bu yodgorliklar haqida zamondoshlarning, tarixchilarning yozib qoldirgan xotiralari ma'lumot beradi. Arab qo'shinlari Buxoroda bo'lganlarida xotun podshohning oyog'idagi qadama toshli etigini ko'rib hayron bo'lib qolganliklari tarixchilar asarlarida uchraydi. Usturshona hokimi qimmatbaho, javohirlar bilan bezatilgan ajdodlarining g'ayridiniy kitoblarini kimxoblarga o'rab asragani uchun xiyonatda ayblangan. VIII asrda Samarqand qog'oz ishlab chiqish borasida mashhur bo'lib, qog'oz jahon bozorida yuqori baholangan.

Markaziy Osiyo Sharqda muhim madaniyat o'chog'i bo'lib, uning shu davr madaniyati va san'ati badiiy tafakkurining yuksak ko'rinishi va mustaqil yo'nalishidir. Bu san'at o'zida davr ruhi, badiiy did va qarashlarini ifodaladi. Bu san'at Sharq va G'arb an'analari zamirida yuzaga kelgan bo'lsa ham, lekin uning asosini mahalliy san'at, uning asosi bo'lgan xalq ijodi tashkil etadi. San'atkorlarning

yuksak mahorati, davr ruhi va nafasini his eta olishi va shu tuyg'ulari ifodalab bo'lmis asarlar yaratdilar. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo, uning ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan san'at o'tmish madaniyati va san'ati an'analariga yakun yasab yangi davr madaniyati va san'atiga yo'l ochdi.

### **Nazorat savollari:**

- Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar san'ati haqida fikr yuriting.
- Markaziy Osiyoda yozuv madaniyatining vujudga kelishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
  - «Varaxsha»dagi san'at asarlari nimalardan iborat?
  - So'g'd yozuvlari va ularning ahamiyati.
  - Ilk o'rta asrlar madaniyatini qaysi manbalar orqali o'rganamiz?
  - Ilk o'rta asrlarga oid dinlar haqida ma'lumot bering?
  - Panjikent devoriy suratlari va uning o'rganilishi.
  - Bolaliktepa suratlarining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati?
  - Afrosiyob devoriy suratlari haqida ma'lumot bering?

### **Manbalar va adabiyotlar:**

1. Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2-tom. -T.: San'at, 2001.
2. Avesto. Yangi kitob. O'zbek tiliga M.Is'hoqov ilmiy izohli tarjimalari. T., «Sharq», 2001
3. Is'hoqov M. Sug'diyona tarix chorrahasida. – Toshkent: Fan, 1990. 34-b.
4. Is'hoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. – Toshkent: Fan, 1992.
5. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. –T.: O'qituvchi, 1997.
6. Raxmonov N, Matboboyev B. O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari. T.: «Fan» 2006.
7. O'zbekiston san'ati. (1991-2001 yillar) - T.: Sharq, 2001.
8. O'zbekiston tarixi va madaniyati. T., «O'qituvchi», 1992.
9. O'zbekiston tarixi. 1-qism. A.Sagdullayev, B.Eshov tahriri ostida. T., Universitet. 1999. 2-nashri.
10. G'oyibov B.S. Sug'd tarixidan lavhalar. Samarqand-2020.
11. G'oyibov B.S. Sug'd konfederatsiyasi: shakllanishi, taraqqiyoti va tanazzuli. T. 2015.
12. G'oyibov B.S., Qoshboqov X.A. “Ilk o'rta asrlar Miyonqol vohasi va Ishtixonning sug'd konfederatsiyasidagi o'rni va hukmdorlik hususiyatlari”. Imom Buxoriy saboqlari jurnali, 2018/4, 28-31-betlar.

### **3-Mavzu: IX –XII asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati va san’at**

#### **Reja:**

- Markaziy Osiyoga islom dinining kirib kelishining madaniy hayotga ta’siri.
- IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo Renessansi.
- IX-XII asrlarda tasviriy san’at.
- Me’morchilik.

#### **Tayanch iboralar:**

Renessans, islom sivilizatsiyasi, Bayt-ul-hikma, Xorazm Ma’mun akademiyasi, hadis ilmi, kalom ilmi, fiqh ilmi, me’morchilik, madrasa, masjid, maqbara, minora, musiqa, san’at

Arablarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi xalqni katta qiyinchiliklarga duchor qildi, tinch hayotini buzib, rivojlanib borayotgan iqtisodiy va madaniy hayotini izdan chiqardi. Arablar o‘zlari bilan islom dinini olib keldilar. Markaziy Osiyo xalqlarining eski dini va u bilan bog‘liq bo‘lgan hamma yodgorliklarni buzdilar, vayron qildilar. Qimmatbaho metallardan ishlangan haykal va amaliy san’at buyumlari talandi, eritilib yuborildi, devoriy suratlar esa qirib tashlandi; loy va alebstrdan yasalgan haykallar parchalandi. Lekin bu qirg‘inlik xalq ijodini to‘xtata olmadi. Bosqinchilarga qarshi isyon ko‘targan, erk va ozodlikni sevgan xalq noroziligi, uning son-sanoqsiz qo‘zg‘olon va ko‘tarilishlari asta-sekin o‘z samarasini ko‘rsata boshladi. Markaziy Osiyo xalqlarining arab bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi natijasida xalifalik asta-sekin parchalanib uning o‘rnida mustaqil davlatlar yuzaga kela boshladi. Qarluqlar, o‘g‘uzlar, tohiriylar davlati shunday dastlabki davlatlardan edi. Arablarga qarshi kurash Markaziy Osiyoda uzoq vaqt davom etgan. Xalq g‘alayonlarini bostirish uchun xalifalik mahalliy mulkdorlar, katta yer egalarining kuchidan foydalana boshladi. U yirik yer egasi Somonxudotning o‘g‘illarini kuchidan foydalanib, bir qator g‘alayonlarni bostirishga muvaffaq bo‘ldi. Shundan so‘ng Movarounnahr yerlariga Somonxudotning o‘g‘illari hokim etib tayinlandi. Masalan, Nuhga Samarqandni, Ahmadga Farg‘onani, Yahyoga Shosh (Toshkent) va O‘rtatepani berdi. Shunday qilib, mahalliy zadagonlar asta-sekin hokimiyatning qo‘lga kirita boshladilar. Somoniylardan Ismoil 888-yili katta davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Bu davlat tarixida Somoniylar davlati (819-999) nomi bilan mashhur bo‘lib Movarounnahr, Xorazm, Xuroson, Sharqiy Eron yerlarini o‘z ichiga oldi. Uning dastlabki poytaxti Samarqand bo‘lgan. Keyinchalik poytaxt Buxoroga ko‘chgandan keyin ham Samarqand davlatning muhim madaniy markazi bo‘lib qolgan. Shu yerda birinchi marta somoniylarning kumush tangalari zarblangan. Somoniylar davlati 180 yildan ortiq vaqt mobaynida mavjud bo‘ldi. Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan markazlashgan Somoniylar davlati O‘rta Sharqda alohida o‘rinni egallab fan, san’at va madaniyat rivojlanishiga katta turtki berish bilan bir qatorda, keyinchalik yangi

mustaqil Gʻaznaviyalar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar kabi turkiy davlatlarining yuzaga kelishiga yoʻl ochdi. XI asrning 20-30-yillariga kelib esa Markaziy Osiyo maydoniga asli kelib chiqishi Sirdaryoning quyi tomonidagi turkiy-saljuqiylar mustaqil davlatlarini tuzib XII asr 30-yillariga kelib esa Qoroxoniylar boshqaruvini ham oʻz qoʻllariga olaboshladilar. Lekin Sharqdan boshlangan yangi qoraxitoylar yurishi Saljuqiylar va Qoraxoniylar davlatini susaytira boshladi. Bu esa Xorazmshohlar davlatini yuksaltirdi. Bu davlat Takesh hukmronligi yillarida (1172-1200) esa Sharqdagi qudratli davlatlardan biriga aylandi.

Arablar istilosi va undan keyingi davr Markaziy Osiyo madaniyati va sanʼati tarixini qator bosqichlarga ajratib koʻrish mumkin. Shuning dastlabkisi VIII-IX asr oʻrtalariga toʻgʻri keladi. Bu istilochilarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi va u bilan bogʻliq ozodlik kurashi davri boʻlib sanʼat va madaniyat oʻz xarakteri jihatidan tushkunlikni va shu bilan birga yangi jarayonlarning kurtak otishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayonlar, avvalo, islom dini va u bilan bogʻliq yangi urf-odat va marosimlarning kirib kelishi (masalan, namoz oʻqish va u bilan bogʻliq kiyinish, hayot tarzi va h.k.), qurilmalar paydo boʻlishida bilinadi. Shu davrda mavjud boʻlgan saroy va ayniqsa, boshqa dinlarga (zardushtiylik, xristian, buddaviylik va x.k) oid ibodatxonalar buzilib yoki qayta oʻzgartirib islom diniga mos masjidlarga aylantirildi, yangi masjidlar qurila boshlandi. Arablar istilosi Markaziy Osiyoda xalqlarning boy madaniy merosini barbod boʻlishiga, ajoyib rassomchilik va meʼmorchilik madaniyati va sanʼati anʼanalarining izdan chiqarishiga olib keldi. Haykaltaroshlik madaniyati va sanʼati rivojini esa butunlay toʻxtatib qoʻydi. Markaziy Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston hududida sodir boʻlgan notinch jarayonlar oʻziga toʻq va imkoniyati bor boʻlgan toifadagi odamlarni notinch yerlardan tinchroq joylarga oʻtishga zaruriyat tugʻdirdi. Natijada avvalgi tashlandiq holga kelgan joylarda yangi qurilma va manzillar yuzaga kela boshladi.

Arab istilochilari Markaziy Osiyoga oʻzlari bilan arab yozuvini ham olib keldilar. Bu yozuv arablar kirib kelgunga qadar Markaziy Osiyo xalqlari yozuvlaridagi barcha kitoblar yoʻq qilinib, uning bilimdonlari qirib tashlandi. Shunday qilib, arab yozuvi qadimgi xorazm, soʻgʻd, uygʻur yozuvlarini siqib chiqardi. Arab xalifaligining deyarli bir yarim asrlik istilosidan keyin mahalliy madaniyat asta-sekin jonlana boshlandi, vayron boʻlgan shaharlar qaytadan tiklandi, yangilari barpo etildi. Qishloq xoʻjaligi sezilarli yutuqlarga erishdi, togʻ-kon qidiruv ishlar rivojlandi, hunarmandchilikda yangi texnologik jarayonlar qoʻllana boshlandi, jumladan, sirli koshin va gʻishtlar ishlab chiqarishning yoʻlga qoʻyilishi meʼmorchilik va amaliy, amaliy bezak madaniyati va sanʼatida qator estetik oʻzgarishlar yasay boshladi. VIII asrga kelib Samarqand va Buxoroda qogʻoz ishlab chiqarishning yoʻlga qoʻyilishi Oʻrta Sharq madaniy hayotida muhim oʻzgarishlar yasadi. Avvallari qoʻllanilgan pergament yoki shoyiga nisbatan arzon va qulay qogʻozning muomalada keng koʻlamda ishlatish xattotlik, qoʻlyozma kitoblar tayyorlash madaniyatini kamol toptirdi. Oʻrta asrlarda Buxoro va Samarqand qogʻozlari nihoyatda qadrlanib unda

rasm ishlashni har bir yevropalik rassom orzu qilar edi. Qog‘ozni madaniy hayotga kirib kelishi bilan xattot mavqeyi ortib ketdi. Xattotlik shunchaki hunar, kasb bo‘libgina qolmay uning ijrochisi san’atkor darajasiga ko‘tarildi. Go‘zal xattotlik yozuvi nihoyatda yuqori baholanib, mohir xattotlarning dastxatlari tushirilgan alohida varaq-qit’a san’at muxlislari tomonidan e‘zozlanib saqlangan va yig‘ilgan. Qo‘lyozma kitoblar tayyorlashda naqqosh-lavvoh muhim o‘rinni egallagan. U qo‘lyozmaning hoshiya qismini go‘zal bo‘lishi uchun oltin ranglardan foydalangan, yengil siluetli qush, gul va hayvonlar tasvirini ishlagan. Lavvoh kitob boshlanishi oldidan to‘rtburchak chizilib ichki qismi murakkab naqsh kompozitsiyasi bilan to‘ldirilgan. Bunday naqsh kompozitsiyalar ko‘proq me‘moriy bezakda ishlanadigan kompozitsiyalarga yaqin ishlangan. Rang tizimida esa oltin va kobalt-ko‘k rang yetakchi o‘rinni egallagan. Qo‘lyozmaning yangi bo‘lim, hatto boblari yangi varaqdan boshlanib ular ham bezakdor bo‘lgan. Qo‘lyozmaning so‘nggi varag‘i – sarlavh dumaloq naqsh-medalyon tarzida ishlanib undan nozik chiziqlarda shakllar ishlangan. Lavvoh o‘z ishini tugatgach, qo‘lyozmani miniaturachi rassom – musavvir davom ettirgan. Shundan so‘ng qo‘lyozma muqovasoz qo‘liga kelib tekkan. Muqavasoz qo‘lyozmani qalin qog‘oz yoki maxsus ishlov berilgan teridan tayyorlab, qo‘lyozma ishiga yakun yasagan. Shunday qilib, kitob juda ko‘p ustalar hamkorligida yaratilgan jamoaviy ishda har bir mutaxassis o‘z ishining mohir ustasi bo‘lgan va o‘z ishini yuqori mahorat bilan bajargan.

Ishga bunday munosabat yaratilgan har bir kitobni nodir san’at darajasida bo‘lishiga olib kelgan. Shuning uchun shoh saroyida o‘rta asr madaniyati andozalari yaratildi. Davlat poytaxtidagi katta kutubxonalar nodir qo‘lyozma va kitoblar bilan to‘lib bordi. Olimlar ishlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Shu rivojlanish bosqichida Somoniylar davri alohida o‘rinni egallaydi. Shu davrda davlat poytaxti Buxoro Sharqdagi muhim madaniy va ilmiy markazga aylandi. Uning mashhur kutubxonasi shuhrati olamga taraldi. Matematik otasi, IX asr buyuk matematik olimi va astronomi al-Xorazmiy yashab ijod qildi, buyuk tabib Ibn Sinoning yoshlik yillari shu Buxoro shahrida o‘tdi, u olim sifatida shakllandi.

IX-X asrlarda Markaziy Osiyo jahon ilm va fani taraqqiyotida muhim markazlardan biriga aylandi. Somoniylar davlatni tashkil etishga katta e‘tibor berdilar. Fan va madaniyat yuqori darajada rivojlandi. Markaziy Osiyo olimlari jahon faniga ta’sir ko‘rsatdilar. Madrasalar – o‘quv yurtlari haqiqiy bilim o‘chog‘iga aylandi. Samarqand, Marv, Urganch, Farg‘ona, Choch kabi shaharlar ham madaniy markazlar sifatida tanildi. Haqiqatdan ham, bu davrda Markaziy Osiyo jahonga qator buyuk allomalarni yetkazib berdiki, ular o‘z mehnat va aql-zakovatlari bilan jahon ilmu fani taraqqiyotiga yangi yo‘nalish berdilar, uning yangi qirralarini ixtiro etib, ularga jon baxsh etdilar. Al-Xorazmiy, Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Ali ibn Sinoning o‘lmas asarlari ko‘pgina mamlakat o‘quv yurtlarida bir necha asr mobaynida darslik vazifasini o‘tab keldi. Al-Beruniy, al-Forobiy, al-Farg‘oniy kabi qator mutafakkirlar ijodidagi materialistik dunyoqarash xalq ongiga ta’sir qildi.

Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy kabi allomalari keyingi poeziya taraqqiyotida ham muhim o‘rin egalladi.

**Me’morchilik.** Me’morchilik madaniyati va san’atida yangi tipdagi binolar, ijodiy g‘oyalar yuzaga keldi. Qurilishda pishiq g‘isht, alebastr, ganch kabi materiallari keng ishlatildi. Mehmonxonalar, istirohat bog‘lari qurilishi shahar qiyofasi va topografiyasining o‘zgartirib yubordi. Shahar hayoti rabotga ko‘chdi. Shu yerda shovqin va gavjum bozorlar paydo bo‘ldi. Savdo qatorlari yaqinida esa hunarmandlar jamoalari shakllana bordi. Shahriston atrofi gavjumlashib shahar madaniyati keng yoyilib bordi. Shahristonning muhim qismi ma’muriy apparat, hokim saroyi, qamoqxona, masjid qurilib shaharning markazi vazifasini o‘tadi. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoroda katta qurilish ishlari olib borildi. Kengaygan shahar mudofaa devori bilan mustahkamlanib, 11 darvoza orqali shaharga kirish yo‘llari belgilandi. Shaharda va undan tashqarida jamoat hamda turarjoylar ko‘plab qurildi. Bu qurilishlar asta o‘rta asr shahar me’morchilik qiyofasini belgilay boshladi. Masjid diniy va madaniy markaz vazifasini o‘tadi. Bu yerda toat-ibodat bilan bir qatorda targ‘ibiy ishlar ham olib borildi. Masjidlar o‘rni va mazmuniga ko‘ra mahalla (guzar) masjidi, juma masjidi, bayram masjidi – namozgoh (iydgoh, musallo) hamda saroylar, madrasalar va karvonsaroylar tarkibiga kirgan masjidlar qurildi, ularning bezagi va hajmi shunga qarab belgilangan. Odatda, juma masjidlari shahar markazida ko‘rinarli joyda barpo etilib, hajm jihatidan katta bo‘lgan. Juma kunlari shahar ahli shu yerga to‘plangan, ibodat qilish bilan birga yangiliklardan xabardor bo‘lgan. Namozgohlar shahardan tashqarida qurilib uni bayram masjidlari deb ham yuritilgan. Masjid ichida qibla tomonda mehrob yonida minbar qurilgan. Namozgohga chiqish uchun minora ishlanishi ham shu davr mahsulidir. O‘quv dargohlari bo‘lgan madrasalar qurilishi ham jonlana boshladi. Sufizm vakillari yig‘ilishlari uchun mo‘ljallangan maxsus qurilma-xonaqohlar ham shu davrda keng yoyila boshladi. Xonaqohlar alohida yoki masjid va madrasalarda, ularning yaqinida qurilgan. Shunday xonaqohlar Samarqand, Buxoroda ko‘plab uchraydi. Savdo chorrahalarida Chorsu savdo gumbazlari, shahar darvozalari oldida esa karvonsaroylar hamda shahar va undan tashqarida maqbaralar qurilishi shu davr me’morchiligini o‘ziga xos yangi yo‘nalishlari mahsuli edi. Bu qurilishda bezak madaniyati va san’ati yutuqlari o‘z ifodasini topdi. Qurilishda xom g‘isht, paxsadan tashqari pishiq g‘isht va alebastr qorishmalaridan foydalanish ham muhim bo‘ldi. Uchli arka va toqilar ham me’morchilik madaniyati va san’ati o‘zgarishlarni belgiladi. Bu davrga kelib turarjoylar qurilishida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Rejalashtirish asosida qurilgan turarjoy binolari kichik hovlilar atrofida qurildi. Shahardan tashqaridagi turarjoy binolari qo‘rg‘on tipida bo‘lib baland tepalik ustiga qurilgan. Tashqi devorlari esa gofrili bo‘lgan. Somoniylar davlatining muhim markazlaridan bo‘lgan Marvda shunday qal’a qoldiqlari saqlanib qolgan. Bu davrda qurilgan binolar to‘rtburchak, kvadrat shaklida bo‘lib tepasi ravoqli yoki gumbazli bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, shu davrda qurilgan qasrlar ikki qavatli bo‘lgan. Masjidlar to‘sin bilan yopilgan.

Bu davrga kelib qurilish texnikasi mukamallashdi, qurilishda pishiq g'ishtning keng qo'llanilishi me'morchilikning murakkab kompozitsiyalarini yaratish imkoniyatini berdi. Egri ravoqli tomlar bilan bir qatorda, gumbazli binolar qurilishi ham keng yo'lga qo'yila boshlandi. Pishiq g'ishtlarni turlicha terish natijasida bino devorlarining o'ziga xos bezagini yaratishga intilish ortdi. Arka va yarmarkalar me'morchilikda eshik, darcha, tokcha va taxmonlarda ishlatila boshlandiki, bular ham shu davr binolarining o'ziga xos ko'rinishida muhim rol o'ynadi. Bu davrda naqshinkor mehmonxonalar, ko'rkam istirohat bog'lari hamda antiqa hovuzlar bunyod etildi. Shu davrlarda, hatto islom dini bilan bog'liq bo'lgan gumbazli masjidlar bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjuddir.

Davrning ajoyib me'moriy qurilmasi bo'lgan somoniylar maqbarasi haqli ravishda jahon me'morchilik madaniyati va san'atining nodir yodgorligi hisoblanadi.

Bu yodgorlik dastlab o'zining soddaligi va tuzilishining aniqligi, nisbatlarining mutanosibligi va me'morchilik shakl bezagining bir-biri bilan nihoyatda nafis uyg'unlashib ketganligi bilan ajralib turadi. Maqbara asosi kvadrat bo'lib, uning hajmi katta emas (7,20x7,20 m.), to'rt tomonida nayzasimon arkali eshik mavjud. Maqbara tashqi tomondan tepaga biroz torayib boruvchi kub va uning ustiga o'rnatilgan yarim aylana shaklidagi qozonni eslatadi. Binoning tashqi devor yuzasi pishiq g'ishtning turlicha taxlanishi hisobiga badiiylashtirilgan. G'ishtning goh yon, goh burchak qilib qo'yilishi yuzada yorug'-soya o'yinini oshirib, uning xushmanzarali bo'lishini ta'minlagan. Bu yorug'-soya o'yini esa quyosh nurining o'zgarishi bilan turlanib boradi va binoga har safar qaytarilmas joziba kiritadi. Bir oz mungli ko'ringan bino abadiy uyqudagilar uchun sokin va mungli sukut saqlayotgandek tuyiladi.

X asr oxiri XI asr boshlarida qurilgan Mir Said Bahrom maqbarasi ham kubgumbazdan tashkil topgan. Lekin, sodd ishlangan bir eshikli bu maqbaradan boshlab g'ishtning bezak roli qisqara bordi.

Raboti Malik karvonsaroyi XI asr barpo etilgan. Bu binoning chekkasida minorasi pishiq g'isht bilan kafelga o'xshatib pardozlangan. Devor old tomon devorini yarim aylana ustun va arkali ishlanishi hamda peshtoqli darvoza qurilishi keyingi Movarounnahr me'morchiligi rivojida muhim rol o'ynaydi. Bu me'morchilik VI-VIII asr mahalliy me'morchilik va bezak madaniyati va san'ati an'analari asosida qurilgan yangi davrdagi rivoji edi. Bu davrda katta qurilishlar rivoji mavjud qurilish konstruksiyalarining o'zgarishi va murakkablashishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar pishiq g'ishtdan foydalanish bilan bog'liq va gumbaz ravoqlarning xarakterida ifodasini topdi. Katta qurilishlar esa quruvchilarga talabni oshirdi. Hunarmandlar sexlari vujudga kela boshladi. Shogirdlik keng quloch yoya boshladi. Ayni shu davrga kelib, davriga xos bo'lgan monumental me'morchilik qurilmalarining tiplari yaratildi. To'rt ayvonli kompozitsiya, ayniqsa, keng yoyildi. Raboti Malik (Buxoro) yodgorliklari old tomoni to'rtburchakli nayzasimon arkali taxmonga o'xshash peshtoq bilan kirish qismi boshlangan.



XI-XII asrda masjid qurilishi ham keng rivojlandi va uning o'ziga xos tipi yuzaga keldi. Asosiy kvadrat shaklidagi gumbazli bino kompozitsiyalar Markaziy Osiyo yerlarida keng tarqaldi va mahalliy sharoitga qarab o'ziga xos fazilat va ko'rinish kashf etdi. Bu davrda peshtoq-gumbazli maqbaralar qurilishi ham rivojlandi. Masjidlar qurildi, ularda ham yangi uslub va yo'nalishlar yuzaga keldi. XV asrda qurilgan Mag'oki Attor masjidi Movarounnahr me'morchiligida yangi uslubiy izlanishni boshlanishida turgan yodgorliklardan hisoblanadi. XI-XII asrda minora qurilishi ham keng odat tusini oldi. Markaziy Osiyodagi eng baland minora Buxorodagi Minorai Kalon yodgorligi bo'lib uning badandligi 60 m.ga etadi. Bularda ham g'ishtning badiiy imkoniyatlari ularning tashqi bezagini belgilashda muhim rol o'ynagan. Aslida g'isht minora yuzasi naqshini tashkil etuvchi birdan bir unsur bo'lib qolgan. Ularning taxlanishi va turish holati hisobiga yuzga o'ziga xos ko'rinish va latofat kashf etgan.

Jarqo'rg'on minorasi (1108-09 yillar) o'ziga xos uslubda yaratilgan va xarakteri jihatidan avvalgi VI-VIII asr me'morchilik uslubini davom ettiradi.

Bu minora usta Mahmud o'g'li Ali tomonidan qurilgan. Keyinchalik, shu Jarqo'rg'on minorasiga o'xshash qurilma Dehlida (Qutb-Minor), Xurosondagi Minorali maqbarada o'z aksini topgan. Bu minoralar rivojiga Markaziy Osiyo me'morchiligi uslubini ta'siri borligini e'tirof etish kerak. Kalon masjid va uning ajoyib minorasi (1127) Markaziy Osiyo me'morchiligida g'ishtdan bezak berish, madaniyati va san'atining yuksak namunasi sifatida mashhurdir.

1196-1211-yillarda qurilgan Vobkentdagi minora nisbatlarining nozik topilganligi va nihoyatda yuqoriga intiluvchan ajoyib konussimon shaklining mustahkam va mag'rurligi bilan xarakterlanadi. Quruvchi Sadr Burhonidin Abdulaziz nomi minora bezak ichida yozib qoldirgan. Bu davrda marhumlar ruhini abadiylashtirishga qaratilgan maqbaralar qurilishi ham o'ziga xosliklarni yaratdi. Ko'hna Urganch(Xorazm)dagi Faxriddin Roziy va Tekesh maqbarasi o'ziga xos xususiyatga ega. Garchi u Markaziy Osiyoda keng tarqalgan peshtoq-gumbazli kompozitsiya tipiga kirsam ham, qirrali barabanga o'rnatilgan chodirsimon gumbazdan tashkil topgan. Turkmanistondagi peshtoq-gumbazli binolar bezatilishida g'ishtning badiiy imkoniyatidan keng foydalanilgan.

**Tasviriy san'at.** Arab istilosidan keyin Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan Somoniylar va undan keyin paydo bo'lgan Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari o'z saroy va qasrlari, mehmonxona va hammomlarni mavzuli va manzarali rasmlar va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e'tibor berdilar. Bu tasvirlarda jang va ov manzaralari, qabul marosimlari va ziyofatlar, hokimlarning portretlari ishlangan. Jumladan, Mahmud G'aznaviyning saroy devorlariga turli rasmlar, hukmdor va uning yaqinlari tasvirlari ishlangan, saroy devorlarida bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. G'aznaviylar saroyi bezaklarida monumental haykaltaroshlik keng o'rinni egallagan. Lashkari bozor saroyi relyeflari, gilamsifat bo'rtma naqsh namoyondalari yuksak mahorat bilan ishlangan.

Mahmudning davomchisi bo'lgan shahzoda Mas'ud saroyi rasmlarida ishq-muhabbat mavzuyidagi rasmlar ishlangan bo'lgan. IX-XIII asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati va san'atida haykaltaroshlik hali to'liq siqib chiqarilmagan edi. Yozuv manbalarida, bu asrlarda keng maydonlarda haykallar bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Lekin ular bizgacha saqlanmagan. Lekin shu davrdan boshlab, ijtimoiy hayotda rang va o'yma naqqoshlik madaniyati va san'ati keng o'rinni egallay boshlagan. Naqqoshlar o'z ijodlarida turli geometrik shakllardan tashqari, o'simliklar, hayvon va qushlar tasviri bo'lgan naqshlardan foydalanib kompozitsiyalar yaratganlar. Ularda davr kishilarining fikr-tuyg'ulari ifodalangan.

Bu davrda amaliy san'at yana jonlandi. Kulolchilik, shisha madaniyati va san'ati, zargarlik rivojlandi. Buyumlarini turli tasvirlar bilan bezatish keng yoyildi. Bezak madaniyati va san'atida keng jonivor va qushlar, afsonaviy hayvonlar tasviri ishlatildi. Buxorodagi Mag'oki Attor masjidi, Termizdagi saroy bo'rtma tasvirlari shunga misol qilib olish mumkin. Lekin ularda ayrim tasvirlar masalan, hayvonlar tasviri real shakllar ishlanganini inobatga olinmasa, ko'p hollarda real borliq nihoyatda soddalashtirilgan va naqsh unsuriga aylantirilgan holda ishlangan. Real tasvir unsurlari yog'och va tosh o'ymakorligi madaniyati va san'atida ko'p uchraydi. Shunday o'ymakorlik Zarafshon vohasida topilgan ustunga ishlangan naqshlarda ko'rish mumkin. Unda o'simliklar, hayvon va qushlar tasviri bilan qo'shib ketgan. Qush, baliq, hayvonlar soddalashtirilib ishlangan.

Misgarlik, kandakorlik (torevtika) va metall quyish madaniyati va san'ati ham bu davrda yuksaklikka erishgan. Katta naqshli mis qozonlar, turli satil va shamdonlar shu davrda yuksak badiiy buyum quyish madaniyati va san'atidan dalolat beradi. Shu davrda katta va o'rta kattalikdagi shaharlarda shishadan buyumlar yasash yo'lga qo'yilgan edi. Quldortepa (Samarqand yaqinida), Varaxsha (Buxoro yaqinida) da shishasozlik manzillari arxeologlar tomonidan ochilgan. Shishadan amaliy va pardoziy buyumlari ishlangan. Ularning shakli har xil, oyoqli bakal, ko'za, mayda idishchalar shuni dalilidir (shisha idishlar rasmi). Ko'pgina shaharlar va qishloqlarda kulol ustaxonalari tashkil topdi. Ishlangan kulolchilik buyumlariga ishlov berish, amaliy, ko'p hollarda oq fonga bo'yalgan sopol buyum yuzalariga Qora-qizg'ish-jigarrang bo'yoqlarda tasvirlar ishlangan, kufiy yozuvida turli nasihat so'zlari yozilgan. Bu davrda o'yma koshinlar ishlash ham keng tarqalgan. Bunday o'yma koshin va sopol buyumlar amaliyotda ishlatilgan, me'morchilik majmulari bezatilishi ham shu yangi san'at ishlatilgan. Samarqanddagi Ibrohim ibn Hasan (1186-1199), Termizdagi maqbara va saroylarda, Xorazmda qurilgan masjid shunday o'yma sopol koshinlarda pardozlangan.

Bu davr monumental-dekorativ madaniyati va san'ati ko'proq o'ymakorlik va bo'rtma naqqoshlik madaniyati va san'ati sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda qurilgan binolarning devorlari, ayniqsa, tashqi tomonlari sirli koshinlar hamda pishirilgan g'isht yoki shakllar bilan bezatilgan. To'qimachilik, borasidagi jiddiy yutuqlarga erishildi.

Arablar Xuroson, Movarounnahr va Xorazmni bosib olgach, hamma yerda bo'lgani kabi o'lkamizda ham qattiqqo'llik bilan yurtni arablashtirish siyosati olib bordilar. Bu borada islom dini, Qur'oni Karim ustalik bilan foydalanildi. O'lkada islom dini bilan birga qatorda arab tili davlat tili, islom dini tili va fan tili darajasiga ko'tarildi. Mahalliy tilda yozilgan asarlar yo'q qilindi, yerli bilimdonlar quvg'in ostiga olindi. Arab tilini, islom dini Qur'oni Karimni yaxshi bilgan shaxslarning jamiyatdagi o'rni, nufuzi oshdi. Natijada, ham hatto o'z ona tiliga nisbatan arab tilini yaxshi bilgan tolibi ilmlar borgan sayin ko'payib bordilar. Arab tili va islom dini bo'yicha mukammal bilim va malakaga ega bo'lganlar arab xalifaligining markaziy shaharlariga borib o'qishni odat tusiga, an'anaga aylantirdilar. Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa shu kabi katta shaharlarga Movarounnahr va Xorazmdan borib fan, madaniyat tarqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan avlod-ajdodlarimiz soni borgan sayin ko'payib bordi. Xususan, bu borada Bag'dod shahri Sharqning ilm-ma'rifat markazi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. IX asrda bu shaharda «Bayt-ul-hikma» («Donishmandlar uyi») – Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Xuddi shunga monand X asr oxirlarida Xorazmda ham podsho Ma'mun ibn Ma'mun davri(995-997)da «Bayt-ul-hikmat» («Donishmandlar uyi») tashkil etildi. Urganch tashkil etilgan bu «Bayt-ul-hikma» – «Ma'mun akademiyasi» (Xorazm akademiyasi) deb nomlanadi. Bag'dod va Urganchdagi «Donishmandlar uyi»da o'z vaqtida nomlari dunyoda mashhur ulug' alloma va mutafakkirlar tahsil ko'rganlar. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, Al Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, ibn al-Hammor, Abu Sahl Masihiy, ibn Iroq kabi ulug' va boshqa buyuk zotlarning nomlari bor.

### **IX-XII asrlarda ilm-fan rivojiga sabab bo'lgan omillar.**

Movarounnahr va Xorazmda IX-XII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida yuz bergan ijobiy yutuqlar va mutaffakkirlar haqida gap ketganda, ana shu yutuq va mutaffakkirlarning asosiy omili va sababchisi bo'lgan markazlashgan mustaqil davlatning vujudga kelganligini nazar-e'tibordan qochirmasligimiz kerak, albatta. O'z mavqeyi va tutgan o'rni jihatidan xalqaro maydonda katta e'tibor va nufuzga ega bo'lgan somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar – Tug'rubek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida har tomonlama rivojlanib, madaniy tarqiyotda muvaffaqiyatlarga erishdilar. Chunki bu hukmdorlar davrida mamlakat mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi. Natijada moddiy ishlab chiqarish rivoj topdi, hunarmandchilik va savdo taraqqiy etdi, madaniyat gurkirab o'sdi. Bu davrda «Buyuk Ipak yo'li»ning o'rni va ahamiyati oshdi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topgan obod va ko'rkam shaharlar vujudga keldi. Buni shundan ham bilish mumkin al-Muqaddasiyning yozishicha, (985-yilda yozgan) 830-933-yillarda Xorazmda 13ta shahar mavjud bo'lgan bo'lsa, yarim yildan so'ng shaharlar soni 33taga yetgan. Bular: Kot, Gardmon, Oyxon, Orzaxiva, No'qfog', Mizdakxon, Jashira, Sadvor, Zardux, Borategin, Madmimiya (Jayxun daryosining o'ng sohilida),

Jurjoniya, Raxushmison, Madanisan, Xiva, Kardaran, Hazorasp, Jigarband, Joz, Darg'on, Jit, Kichik Jurjoniya, ikkinchi Jit, Safdor, Nuzvor, Zamaxshar, Ruzun, Vazirmand, Vaskaxankas, Andarosgonlardir. Muqaddasiyning so'zlariga qaraganda, Xorazm aholisi aql-zakovatli, fikr ilmni egallagan ma'rifatli kishilar bo'lganlar. Xalifalik shaharlarida fiqh, adabiyot, Qur'onni o'rganish sohasida shogirdi bo'lmagan xorazmlik imom (bu yerda yirik olim ma'nosida) kamdan-kam uchraydi. IX-XII asr ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko'tarilgan islom dini va shariat musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Movarounnahr aholisi o'z e'tiqodi va xat savodidan mahrum bo'lib, islom dini qabul qilishga, shar'iy ahkomlarini bajarishga, shuningdek, arab tili va yozuvini o'rganishga majbur bo'ldi. Ko'p vaqt o'tmay e'tiqodli xalq o'ziga yot bo'lgan arab imlosida xat-savod chiqarishga kirishdi. Movarounnahr aholisining murakkab arab imlosini o'zlashtirib, xat-savodli bo'lishi uchun arabiy tilni mukammal o'rganib, bu o'zga tilda asarlar yarata oladigan olim va mutaffakkirlarning yerli xalq orasida yetishib chiqishi uchun qariyb bir yarim asr, ya'ni besh avlodning umri sarf bo'ldi.

Shunday bo'lsa-da, bu davr buyuk allomalar bilan bir qatorda islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy, Iso Termiziy va Mahmud Zamaxshariy kabi ulamolarni kamolotga yetkazdi.

Movarounnahr va Xurosonda xalifalik hukmronligi tugatilib, mustaqil somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va xorazmshohlar davlati qaror topgach, islom ta'limoti, shariat ahkomlari va ilmu ma'rifatga yanada e'tibor kuchaydi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko'tardi. Manbaralardan ma'lum bo'lishicha, dastlabki madrasa Buxoroda X asrda shaharning Kovushdo'zlar timi yaqinida bino qilingan. U Farjak madrasasi deb yuritilgan. XII asrda bu esa Buxoroning Darvoza mahallasida hatto qonunshunoslar uchun maxsus «Faqihlar madrasasi» qurilgan. Bunday oliy dorilfunun, asosan, islom dini ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni Karim, Hadisi sharif va arab tilining mukammal o'rganishga katta e'tibor bergan. Shariat ahkomlari har tomonlama chuqur o'rgatishda «Tafsir» – Qur'oni Karimning sharhlari juda boy va qimmatli manba hisoblangan. Fiqh fani (islom huquqshunosligi) axloq va shariat ahkomlari borasida mukammal ma'lumot beradi.

Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida, ayniqsa Buxoro shahri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko'p yetuk fiqhshunos olimlar, odil qozilar, zohid imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab «Qubbat ul-islom» – «Islom dinining gumba'zi» nomi bilan shuhrat topadi.

Biroq hukmdor tabaqa mamlakatni idora qilishda imkoni boricha islom dinidan mafkuraviy qurol sifatida foydalanadi. Mafkuraning barcha sohalari islomga tobe qilinib, zardushtiylik e'tiqodi qoldiqlariga qarshi shafqatsiz kurash olib boriladi. Mehnatkash aholi ustidan jabr-zulm zo'rayib, har qanday hurfikrlik ta'qib ostiga olinadi. Buning oqibatida zahmatkash xalqning tashvish azobi ortib, hayoti g'oyat

og'irlashdi.

### **Muso Al-Xorazmiy (783-850)**

To'liq nomi Abu Abdulloh Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy al-Majusiy bo'lib, matematik bilimlar taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan buyuk alloma. Xorazmiy dastlabki bilimlarini Xorazmda olgan. Otasi saroy a'yonlaridan bo'lganligi, Xalifa Horun ar-Rashid(hukmronlik davri 786-809 yil)ning o'g'li Ma'munning (802-805 yil) noyib etib tayinlanganligi va o'ziga tengdosh Xorazmiyni yaqin safdoshlari safiga qo'shganligi bo'lajak olimning keyingi taqdirida hal qiluvchi rol o'ynaydi. 805-yilda Ma'munning Bag'dod xalifaligining eng qudratli o'lkasi bo'lgan Xurosonga hokim etib tayinlanishi (poytaxti Marv shahri) Xorazmiyning hayotida muhim davrlar edi.

Ma'mun Bag'dodda «Bayt ul-Hikma»ga asos solib o'z davrining yutuk olimlari, tarjimonlari, olim-u fuzalolariga homiylik qila boshladi. «Bayt ul-Hikma»ga do'sti Xorazmiyni boshliq qilib tayinladi. Xorazmiy bu lavozimda umrining oxirigacha faoliyat olib bordi. Olimga dastlabki buyuk shuhratni «Hisob al-hind» («Hind hisobi») nomli risolasi olib keldi. Mazkur risolada jahon fani tarixida birinchi marta o'nlik pozitsion tizimi va uning amaliy ahamiyati borasida so'z bordi. Xorazmiyning o'nlik pozitsion tizimi insoniyatga cheksiz qulay imkoniyatlarni olib keldi. Agar mazkur sanoq tizimi bo'lmaganida ilmiy tafakkur bu darajada kamol topishi amrimahol bo'lardi. Xorazmiy to'qqiz belgidan iborat hind raqami yordamida cheksiz miqdorlarni qayd etuvchi va uni osonlik bilan ifodalovchi sanoq tizimini kashf etdi. Hindlarning to'qqiz belgidan iborat raqamlar tizimi mukammal sanoq tizimiga aylanishi uchun "0" ("shifr") kashf etilib o'z o'rniga qo'yilishi kerak edi. Xorazmiy tomonidan "0" (nolshifr) ning kashf etilishi insoniyat ilmiy takakkurining beqiyos ulkan yutuqlaridan biridir. Xorazmiy tomonidan yozilgan «Hisob al-Hind» kitobida eng muhim oltita arifmetik amallar qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, darajaga ko'tarish va kvadrat ildiz chiqarish kabilar ishlab chiqilgan va ularning uslub hamda qonuniyatlari kashf etilgan edi. Xorazmiyning yana bir buyuk xizmati algebra faniga asos soldi. Algebraning mustaqil fan sifatida vujudga kelishi va rivojlanishida bevosita Xorazmiy faoliyati bilan bog'liq «Algebra» atamasining o'zi Xorazmiy tomonidan yozilgan «Al kitob va muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala» («Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») nomli risoladagi «Al-jabr» so'zning lotincha talaffuz ifodasidan kelib chiqqan. Bu asar bir necha o'nlab lotin va boshqa Yevropa tillariga tarjima qilingan. Algoritmlar nazariyasini ham Xorazmiy nomi bilan bog'langanligi, hatto «Algoritm» atamasi ham lotinchada ifoda etilgan «Dixi Algoretmuk» («dediki al- Xorazmiy») so'zidan kelib chiqqanligini hech kim inkor eta olmaydi. «Algoritm» tushunchasi hozirgi zamon kibernetika, EHM va hozirgi zamon informatsion texnologiya va jarayonlarning asosiy kategoriyasiga aylandi. Xorazmiyning jug'rofiya, tarix, astronomiya, fanlari sohalari bo'yicha qilgan xizmatlari beqiyos. Xalifa Ma'mun olimlar oldiga osmon va yerning to'liq xaritasini tuzishni vazifa qilib belgilagan. Xorazmiy bu ishlarga bevosita rahbarlik qilgan.

Xaritalar «Majmui al-Ma'mun», «Dunyo xaritasi» nomi bilan yuritilgan va u 840-yillar atrofida nihoyasiga yetkazilgan. Shu munosabat bilan Xorazmiy jug'rofiyaga oid «Kitobi surat al-arz» nomli asar yaratgan. Bu asarning yagona nusxasi qo'lyozma tarzida Qohiradan topilgan. Ba'zi manbalarda ko'rsatilgan 22 xaritadan faqat 4 tasi yetib kelgan. Xorazmiy yer yuzini «Avesto» ta'limoti bo'yicha 7 iqlimga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi. Xorazmiyning yulduzlar jadvali fanda «Ziji Xorazmiy» deb yuritiladi. Mazkur jadvalning taxminan uchdan biri al-Farg'oniy zijdida to'liq berilgan bo'lib, Farg'oniyning asarlari orqali keng tarqalgan. Uning tarixga oid asarlari, xususan «Xorazmning mashhur kishilari» nomli asar yozganligi va bu asardan Beruniy 4 ta ko'chirma olganligi ma'lum. Xorazmiy o'rta asrlarda yetishgan o'zbek madaniyati klassigi, o'zbek fanining ilk tamal toshini qo'ygan buyuk ajdodlarimizdan biridir. «Xorazmiy o'z asarlari bilan Sharq, keyinroq Yevropaning riyoziyot ilmiga asos soldi». Amerikalik mashhur sharqshunos olim D.Sarton «Xorazmiy barcha zamonlarda ulug' matematiklardan biridir... Jahon fani tarixining IX asrlar birinchi yarmini hech mubolag'asiz Xorazmiy zamoni deb atashimiz lozim», – degan edi.

### **AHMAD FARG'ONIY (861-yilda vafot etgan)**

Saxovati keng ona tuprog'imiz, O'zbekiston nomini faxr va g'urur his-tuyg'usi bilan uzoq-uzoq avlodlarga ko'z-ko'z qilishga arzigulik ulug' siymo va allomalardan biri Ahmad Farg'oniydir. Asli kindik qoni Farg'onada tomgan va IX asrda yashab ijod etgan vatandoshimiz haqida ma'lumot beruvchi tarjima hujjatlar deyarli yo'q darajada. Ahmad Farg'oniy, filolog olim Aziz Qayumovning («Ahmad al-Farg'oniy» –T.: Fan, 1990) ma'lumotlariga qaraganda, yoshlikdan fanga, ilm olishga chanqoq bo'lib o'sgan. U, asosan, tabiiy fanlar: falakiyotshunoslik, matematika, geografiya kabi fanlar bo'yicha ijod qilgan. Ahmad Farg'obiyning ijodiy faoliyati Bag'dod bilan, ulug' mutafakkir olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy rahbarligida faoliyat ko'rsatgan «Bayt ul-Hikma» bilan bog'liqdir. U arab atamashunosligining paydo bo'lishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Bag'dod va Damashqdagi rasadxonalar qurilishiga shaxsan qatnashdi. Bag'dodning Raqoq nomi bilan ataluvchi mavzesida qurilgan, rasadxona qoshida tashkil etilgan falakiyotshunoslik maktabiga rahbarlik qildi. Ahmad Farg'oniy zamondosh, kasbdosh olimlar va shogirdlar bilan hamkorlikda Ptolemey «Yulduzlar jadvali»dagi ma'lumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Uning falakiyotshunoslikka oid ilmiy-tadqiqot ishlari ijodiy samaralar berdi. Taniqli olim Omonulla Fayzullayev («Ahmad al-Farg'oniy» ( Fan va turmush, 1992, – №9-10) ma'lumotlariga qaraganda, Ahmad Farg'oniyning oltita kitobi dunyoga ma'lum va mashhurdir. «Kitob Fi Usul ilm an-nujum» (“Falakiyot ilmining usullari haqida kitob”). Bu risolaning asl qo'lyozmalari matni bir xil bo'lsa-da, besh nom ostida saqlanadi. Ya'ni Almajistiya bag'ishlangan «Falakiyot risolasi», «Falak sferalari sababiyati», «Al-Majistiyy» (Ptolemeyning «Almagest» asari), «Ilm al-xaya» («Falakiyot ilm») deb ataladi. Bu nodir qo'lyozmalar Angliya, Fransiya, AQSh, Marokash, Misr va Sankt-Peterburgda saqlanmoqda.

Olimning «Al-Fargʻoniy jadvallari» (qoʻlyozmasi), «Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob» Hindistonda, «Oy, Yerning ustida va ostida boʻlganida vaqtni aniqlash risolasi»ning qoʻlyozmasi Qohirada, «Yetti iqlim hidi» asarining qoʻlyozmasi Olmoniyada, «Usturlob yasash haqidagi kitob» qoʻlyozmasining toʻrtta nusxasi Berlin va Parijdadir.

Ahmad Fargʻoniy bu asarlaridagi ilmiy kashfiyotlari bilan jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan va munosib hissa qoʻshdi. Xususan, uning 812-yilda Quyosh tutilishini oldindan bashorat qilishi, Yerning dumaloq shar shaklida ekanligini ochganligi olimga shuhrat keltirdi. Keyinroq, Misrda yashagan chogʻida Nil daryosi suvini oʻlchaydigan asbob yasagan. Bu asbob tutash idishlar qoidasiga asoslangan boʻlib, hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Ahmad Fargʻoniyning falakiyotga oid yirik ilmiy asarlaridan biri «Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob»dir. Bu asar «Astronomiya negizlari» deb ham yuritiladi. Unda buyuk mutafakkir oʻzi yashagan davrdagi falakiyotga oid bilimlarni tartibga soldi. Oʻzining yangi xulosa va natijalari bilan boyitdi. Falakiyot ilmiga oid asboblarni, Quyosh soatlarining bayonini berdi. Oʻsha davr anʼanasiga muvofiq, mamlakatlarni yetti iqlimga boʻlib oʻrgandi, joylarning geografiyasiga oid koordinatalarni Sharqdan Gʻarbga yoʻnalishda berdi.

Olimning stereografik proyeksiyalar nazariyasini undan ming yil keyin buyuk matematik Eyler XVIII asrda geografiyaga oid xaritalar tuzish nazariyasiga tatbiq qildi va «Katta geografik xarita»ni tuzishda ishlatdi. Undan tashqari kompleks oʻzgaruvchan miqdorlar tekisligi, noevklid geometriyalar, Lobachevskiy tekisligining Beltrami-Kleyn proyeksiyasi kosmografiyalarning zaminida ham Ahmad Fargʻoniyning shu nazariyasi yotadi.

Ahmad Fargʻoniy bajargan ilmiy tadqiqot natijalari qaysi fan sohasida boʻlishidan qati nazar gʻoyatda pishiq, puxta va nihoyatda mukammal boʻlgan. Shu boisdan uning asarlari fan olamida shuhrat topgan. XII asrdayoq alloma asarlarining lotin tiliga tarjima qilinishi va butun Yevropaga tarqalishi bu fikrimizning isbotidir:

Yevropa ilmiy muhiti fargʻonalik allomaga katta hurmat bajo keltirgan. Yevropaliklar Ahmad Fargʻoniyning oʻzlaricha talaffuz etib, «Al Fraganus» deb ataganlar. Hatto, bu nomni buyuk Dante ham ehtirom ila tilga olgan. Ahmad Fargʻoniy asarlari lotin, olmon, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan. Uning boy ijodiy merosini oʻrganish va chop etish, buyuk vatandoshimiz toʻgʻrisida ilmiy, tarixiy, badiiy asarlar va filmlar yaratish Oʻzbekistondagi barcha davlat va jamoat tashkilotlarining vatanparvarlik burchidir.

Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Fargʻoniy – hech shubhasiz jahon fani taraqqiyotiga buyuk hissa qoʻshgan olimdir. Uning fandagi xizmati oʻn asr davomida bugungi kunimizga qaraganda maʼlum va mashhur boʻlib kelgan edi. Masalan, Yevropa uygʻonish davrining dastlabki namoyandalaridan Dante Aligyeri (1265-1321) al-Fargʻoniyning «Astronomiya asoslari haqida kitob» asarining lotincha tarjimasini mutolaa qilgan. Holbuki, Dante matematik ham boʻlgan emas.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil, 27-noyabrdagi «Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligini nishonlash to‘g‘risida»gi Qarori milliy qadryatlarni targ‘ib qilish uchun muhim bo‘lishi bilan birga, tarixiy adolatni tiklash nuqtayi nazaridan ham g‘oyat xayrlidir. Bu qaror munosabati bilan Respublikamizning olimlari va tarixchi mutaxassislari Al-Farg‘oniy haqida ko‘plab maqolalar e‘lon qila boshladilar. Avval nashr qilingan A.Nosirov va X.Hikmatullayev, akademik A.Qayumov kitoblari uning hayoti va faoliyati yashagan davridagi muhit haqida yaxshi malumot beradi. So‘nggi paytda bu mavzularda ko‘plab maqolalar e‘lon qilinmoqda, ilmiy anjumanlar o‘tkazilmoqda.

Al-Ma‘mun va uning otasi Horun ar-Rashid tufayli IX asrda Arab xalifaligida olib borilgan siyosat bu davrda ilm-fan rivojlanishiga zamin yaratdi. Al-Ma‘mun tomonidan Bag‘doddagi ochilgan «Bayt ul-Hikma» akademiyasi esa jahon ilm-fan tarqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Bu akademiyada ish olib borgan olimlarning esa ko‘pchiligi aynan vatandoshimiz ekanligi esa bizga yuksak g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizda bu allomalar nomini abadiylashtirish yo‘lida ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Misrda poytaxti Qohirada esa vatandoshimiz Ahmad al-Farg‘oniy(miqyosi Nil – nilometr asbobini yaratganligi uchun)ning haykali bunyod etilganligi esa bu allomalarimizda faqat O‘zbekistonda emas, balki butun dunyoda munosib qadrlanayotganligidan nishonadir. Biz yoshlar esa mana shu allomalarimiz bilan faxrlangan holda ularga munosib izdosh bo‘lishimiz kerak.

### **«Xorazm Ma‘mun akademiyasi» va uning jahon ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi**

Xorazm Ma‘mun akademiyasi XI asrda Xorazmshoh Abu Abbas Ma‘mun II tashabbusi bilan Xorazm poytaxti Gurganchda (Ko‘hna Urganch) Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Sahl al-Masixiy, Abu Nasr Ibn Iroq, tabib Abu Hasan Hammor, tarixchi Ibn Mishavayx kabi mashhur mutaffakkir olimlarning bevosita maslahatlari asosida «Dorul-hikma va ma‘orif» nomi bilan tashkil etilgan yirik ilmiy maskan. 1017-yilga qadar faoliyat yuritgan. Ushbu ilmiy maskanda o‘z davrining dolzarb muammolari ustida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorazm Ma‘mun akademiyasi Markaziy Osiyoda, xususan, yurtimizda shakllangan ilmiy-ma‘rifiy an‘analarni yanada rivojlantiradi va dunyo fani rivojlanishida muhim o‘rin egalladi. «Dorul-hikma va ma‘orif» olimlarining faoliyati jahonning ko‘plab olimlari va sharqshunoslarida qiziqish uyg‘otgan edi. Yevropalik Eduard Zaxayu, rus sharqshunoslari akademik S.P.Tolstov, I.Y.Krachkovskiy, A.Y.Yakubovskiy, P.G.Bulgakov, A.M.Belinskiy, A.A.Semyonov, o‘zbek olimlari Y.G‘ulamov, I.Mo‘minov, M.Xayrullayev, A.Ahmedov va boshqa olimlar o‘z tadqiqotlarida bu ilmiy maskan faoliyatini chuqur o‘rganib, uning o‘sha davr akademiyasi sifatidagi ahamiyatini asoslab berdilar. Bugungi kunda bu akademiya «Ma‘mun akademiyasi» deb yuritiladi.



Qadimgi va Oʻrta asrlarda jahonda toʻrtta akademiya mavjud boʻlganligi qayd etiladi. Bular Platon (Aflotun) akademiyasi (mil. avv. IV asr), Bagʻdod shahrida «Bayt ul-hikma» (IX asr), 1004-1017-yillarda Jurjoniya (Koʻhna Urganch)da Maʼmun akademiyasi va oradan besh asr oʻtib, Samarqandda Mirzo Ulugʻbek taʼsis etgan akademiyalardir. Shu toʻrt akademiya aynan uchtasi Markaziy Osiyoga bogʻliq ekanligi ham oʻsha davrlarda yurtimiz madaniyati naqadar yuksalganligini koʻrsatib turibdi. Maʼrifatparvar hukmdor Abu Abbas Maʼmun madaniy-maʼrifiy ishlarning rivojlanishi uchun bor kuchini ishga soladi. Saroyda kutubxona qurilib, Sharqning turli-turli shaharlaridan noyob qoʻlyozmalar keltiriladi. Saroyda qurilgan madrasada esa qobiliyatli yoshlarga diniy va dunyoviy ilmlar oʻrgatiladi. Aynan shu davrda Xorazmda ilmiy fikr oʻzining yuqori choʻqqisiga erishadi. Xorazmshoh Abu Abbas Maʼmun Abu Rayhon Beruniyning oʻzining bosh maslahatchisi etib tayinlaydi. Chet ellar bilan diplomatik aloqalarni boshqarishni unga topshiradi. Bu davrda Maʼmun tomonidan Sharqdagi eng yirik madaniy markaz «Dorul-hikma va maʼorif» yoki Xorazm Maʼmun akademiyasi tashkil etiladi. Beruniy esa ushbu ilmiy maskanga rahbar etib tayinlanadi. Sharqning turli davlatlariga taniqli olimlarni markazga taklif qilib choparlar yuboriladi. Xorazmliklardan tashqari Xorazm Maʼmun akademiyasida yuzdan ortiq olimlar, huquqshunoslar, adabiyotchilar va din peshvolari faoliyat koʻrsatar edilar. Ular Buxoro, Samarqand, Jand, Marv, Nishopur, Balx, Eron, Iroq, Hindiston, Suriya, Misr va boshqa mamlakatlardan kelgan edilar. Xorazmshohlar sulolasining oʻsha davrdagi vakillari ilm-maʼrifatning bahosini bilar edilar. Ular olimlarga rahnamolik koʻrsatar, faoliyatlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berar edilar. Xorazm Maʼmun akademiyasining shakllanishi va rivojlanishi uchun mahalliy ilm-fan yutuqlari bilan bogʻliq omillardan tashqari, qadimgi yunon olimlarining ishlari hamda bizning buyuk ajdodlarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Fargʻoniy, Ahmad al-Marvaziy, Abbas al-Javhariylarning ilmiy yutuqlari ham katta rol oʻynaydi. Ushbu olimlar IX asrda Bagʻdoddagi «Bayt ul-hikma»da faoliyat yuritganlar, ularning maʼnaviy merosi butun dunyoga mashhur boʻlgan. Xorazm Maʼmun akademiyasi olimlarining ilmiy ishlari ular ilmiy merosini mantiqiy davom ettirgan, boyitgan va rivojlantirishga hissa qoʻshgan. Shuni alohida taʼkidlash joizki, X-XI asrlar davomida dunyoning biror mamlakatida «Majlisi ulamo va orifin» kabi ilm-fan markazi boʻlgan emas. Bu tabarruk markazda 21 alloma va 40 dan ziyod ilmi toliblar ilm-fanning turli yoʻnalishlari boʻyicha qator izlanishlar olib borib, oʻz faoliyatlari bilan jahon fani rivojiga munosib hissa qoʻshganlar. Bunda Xorazmshoh Abu Abbas Maʼmunning katta eʼtibori ham muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, Abu Fazl Bayhaqiyning «Tarixi Masʼudiy» (Masʼudlar tarixi) kitobida Abu Rayhon Beruniyning «Mashohiri Xorazm» («Xorazmning mashhur kishilari») nomli asaridan parchalar keltirilgan boʻlib, bunda Beruniy xorazmshoh Abu Abbas Maʼmun II ning yaxshi fazilatlarini tavsiflab, uning saroyida yetti yil xizmat qilganini aytadi. Maʼmun II saroyidagi yuksak hurmat va mavqe Beruniyga kamyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida eng murakkab kuzatish va tajribalar oʻtkazish imkonini bergan. Bu

keyinchalik «Mineralogiya» asarining yuzaga kelishiga zamin hozirlagan edi. Bundan tashqari Beruniyning Ibn Sino bilan ilmiy falsafiy bahslari natijasida yuzaga kelgan falsafiy qarashlarini qamrab oluvchi yozishmalari (ulardan bizga qadar faqat 18 tasi yetib kelgan) ham xuddi shu Xorazm Ma'mun akademiyasida ishlab yurgan yillariga to'g'ri keladi. Bunda Beruniy Aristotelning aql bilan his etish to'g'risidagi xulosalariga o'zining kuzatish va tajribalari orqali aniqlagan xulosalarini qarshi qo'ygani, Ibn Sino esa Aristotelni himoya qilganligi ma'lum bo'ladi. Abu Ali Ibn Sinoning qator asarlari, shu jumladan, «Tib qonunlari» ham ayni shu Xorazm Ma'mun akademiyasida ishlab yurgan kezlarda shakllana boshlagan. Xorazm Ma'mun akademiyasidagi faoliyatlari bilan o'nlab yirik allomalar jahon ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'sha oldilar. Bu olimlar fanning astronomiya, matematika, kimyo, fizika, mineralogiya, kartografiya, tabiatshunoslik, tibbiyat, falsafa, tarix, arab tili, mantiq, adabiyot, islom huquqshunosligi va boshqa sohalarda jiddiy tadqiqotlarni amalga oshiradilar. Ular arab, fors, hind, lotin, yunon va turkiy tillarni mukammal bilar edilar. Yunon olimlari Platon, Aristotel, Ptolomey, Evklid, Pifagor va Gelenlarning ilmiy ishlarini chuqur tahlil qilib, ularga munosib tahlil yozdilar va yangi g'oyalar bilan boyitdilar. Astronomiya bo'yicha Beruniy, Mahmud ibn Xidr, Abu Xayr al-Hasan, matematika bo'yicha Abu Nasr ibn Iroq al-Hamadoniy, kimyo bo'yicha Abu Hasan Hammor tomonidan amalga oshirilganligi ma'lum. Shu davrga kelib Gurganj madrasalari va maktablari haqiqiy ilm maskanlariga aylangan edi. Xorazm Ma'mun akademiyasi mintaqada fanni rivojlantiribgina qolmay, balki turli davlatlar o'rtasida ma'daniy aloqalarni mustahkamladi, turli xalqlar e'tiqodlarni birlashtiruvchi do'stlik rishtasi bo'lib, tarix sahifasiga yozildi. Bu ilmiy jamoada gipoteza tarzida olg'a surulgan g'oyalar ilm-fanning keyingi 500 yili rivojida g'oyat muhim o'rin tutgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Yunoniston yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy va tanqidiy o'rganib uni yanada yuksak bosqichga ko'tardilar. Abu Nasr Ibn Iroq (Beruniyning ustoz) astronomiyaga qo'shgan hissasi uchun «Batlimusi soniy» (ikkinchi Ptolomey) degan faxriy nom olgan. Abu Hasan Ibn Hammor mantiq, falsafada va, ayniqsa, tabobatda juda mashhur bo'lgani uchun «Buqroti soniy» laqabiga sazovor bo'lgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi 1017-yilda Mahmud G'aznaviy tomonidan Xorazmni bosib olishi bilan o'z faoliyatini to'xtatsada, bu ilmiy maskanda o'rta qo'yilgan g'oyalar, muammolar atrofida munozaralar davom etdi va rivojlantirildi. 1997-yil 11-noyabrda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. O'shandan buyon Xiva shahriga kiraverishdagi tarixiy obida – qo'sha darvoza bilan yonma-yon joylashgan salobatli muhtasham binoda Xorazm Ma'mun akademiyasi qaytadan tiklanib, faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Xorazm Ma'mun akademiyasi tarkibida «Arxeologiya, tarix va falsafa», «Til va Adabiyot» «Biologiya muammolari» bo'limlari tashkil qilinib 9 ilmiy mavzu bo'yicha 26 ta ilmiy xodim, shu jumladan, 5 ta fan doktori va 9 fan nomzodlari ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. 2004-yil, 9-noyabrda O'zbekiston

Vazirlar Mahkamasining jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qoʻshgan Xorazm Maʼmun akademiyasining boy ilmiy merosini har tomonlama oʻrganish, yosh avlod qalbida milliy iftixor va mamlakatimiz tarixiy oʻtmishimizga chuqur hurmat tuygʻusini kamol toptirish maqsadida «Xorazm Maʼmun akademiyasining 1000 yilligini nishonlash toʻgʻrisida» qaror qabul qilindi.

### **Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yil)**

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy – buyuk qomusiy olim va mashhur mutafakkir. Beruniy ilm-fanning deyarli barcha sohalarini bilan shugʻullangan allomadir. U Yaqin va Oʻrta Sharqning boy fan madaniyatini puxta oʻrganib, qadimgi Yunoniston mumtoz ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik alloma boʻlib yetishdi. U shoir, adabiyotshunos olim ham edi. Ona tili boʻlmish xorazm tilidan tashqari yana arab, sugʻdiy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy tillarini, shuningdek, Hindistonda sanskrit (qadimgi hind) tilini oʻrgandi.

Beruniy ilm-fanning hamma sohalarida samarali ijod etib, 162 kitob va risolalar qoldirdi. Shulardan atigi 28 tasi bizgacha yetib kelgan. Hozirgi paytda allomaning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Geodeziya» «Maʼdanshunoslik», «Masʼud qonuni», «Munajjimlik sanʼatidan boshlangʻich tushunchalar», Ibn Sino bilan savol-javoblari nashr etilib, turli tillarga tarjima qilindi. Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega. U astronomik kuzatishlar orqali Oy va Quyoshning tutilishi, ularning Yerdagi hayotiga taʼsiri, gidrogeologiya, iqlim, kalendar (taqvim) kabi oʻta murakkab muammolarni yangi ilgʻor uslub va tamoyillar koʻmagida hal etishga eʼtibor qaratdi. Aholi manzillari, maʼdan va metallar solishtirma ogʻirligini belgilash, tabiiy va sunʼiy tanlanish gʻoyalari, olamlarning xilma-xilligi haqidagi bashoratlar, tajriba, sinov, kuzatuvga izchil munosabat Beruniy dahosining serjilo qirlari boʻlib, uning buyuk qomusiy olim va mashhur mutafakkir ekanligini koʻrsatib turibdi.

### **Abu Ali Ibn Sino**

Sharq dunyosining buyuk daho olimi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlogʻida tugʻilgan. Uning otasi Abdulloh asli Balxdan boʻlib, ibn Sino besh yoshga toʻlganda oilasi bilan Buxoroga koʻchib keladi. Ibn Sino Arastuning «Mantiq» asarini, Oklidesning «Anosir»ini, Batlimusning «Al-Majastiy»sini shu buyuk zotdan oʻrganadi. Bunda oldinroq esa Ismoil ismli bir zotdan fiqh ilmidan tahsil koʻradi. Oʻn yoshidayoq «Qurʻon»ni yod olgan ibn Sino ustozlarini shoshirib qoʻyadigan zukko bola edi. Falsafa, mantiq, falakiyot, tabiiy va riyoziy ilmlar u juda yaxshi biladigan bilim sohalarini edi. Bulardan tashqari, islom tarixini mufassal oʻrgandi.

Buxoro amiri Nuh ibn Mansur (970-997) ogʻir dardga chalinadi. Uni davolashda ibn Sino faol qatnashadi va buning evaziga u saroy kutubxonasida saqlanayotgan nodir kitoblardan foydalanish imkoniyatiga ega boʻladi. 1002-yilda Xorazmga boradi. Oʻsha davrning yirik madaniyat markazlaridan biri boʻlgan Urganchda Maʼmun akademiyasida faollik koʻrsatadi. Abu Rayhon Beruniy singari buyuk olimlar bilan

hamkorlikda ishlaydi. Xorazmni Mahmud Gʻaznaviy egallagach, Ibn Sino Gurgon amirligiga, u yerdan Ray, Qazvin shaharlariga oʻtib, soʻng Hamadonga – buvayhiylar hukmdori Shamsud-davla xizmatiga (997-1021) kiradi. Hamadon amiri Shamsud-davlani davolagan ibn Sino vazirlik darajasiga koʻtariladi. Askarlar orasida sodir boʻlgan isyon tufayli ibn Sino zindonga tushadi. Ammo Shamsud-davla kasallanganda zindonband etilgan buyuk tabib ikkinchi bor uni davolaydi va tagʻin vazirlikka tayinlanadi. Shamsud-davla vafotidan soʻng uning oʻgʻli Samoud-davla taxtga oʻtiradi. Ibn Sino vazirlikda qolishni istamaydi. U Isfahon amiri Aloud-davlaga maktub yoʻllab vazifa soʻraydi. Bu xatti-harakati uchun Hamadon hukmdori ibn Sinoni zindonband qiladi. Oradan toʻrt oy oʻtgach, Isfahon amiri Aloud-davla Hamadonni bosib oladi va ibn Sinoni hibsdan ozod etadi. Tinimsiz ilmiy mutolaa, shaharma-shahar darbadarlarcha yurish, olinga nisbatan bir necha bor uyushtirilgan taʼqib va zindonlar, albatta, uning salomatligiga taʼsir etgan edi. Ibn Sino 1037-yilda (hijriy 428) 57 yoshida vafot etadi. Buyuk qomusiy olimdan juda katta meros qolgan. Turli manbalarda ulugʻ mutafakkirning falsafa, mantiq, ruhshunoslik, adabiyotshunoslik sheʼriyat, musiqa, geologiya, mineralogiya, fizika, matematika, tibbiyot, falakiyot va fanning boshqa sohalariga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlari qayd etiladi. Biroq bizgacha Ibn Sinoning faqat 242 ta asari yetib kelgan, xolos. Shundan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga, 43 tasi tabobatga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi riyoziyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa olimlar bilan boʻlgan yozishmalarga tegishlidir.

Olimning falsafaga oid «Kitob ash-shifo» asarini oʻz davrining qomusiy asarlaridan desak mubolagʻa boʻlmaydi. Unda mantiq, tabiiy fanlar, riyoziyot va ilohiyot boʻyicha falsafiy gʻoyalar oʻz aksini topgan. Yana bir falsafaga oid yirik asar «Al-ishorot va tanbihot» (Ishoralar va tanbihlar) hisoblanadi. Unda falsafaning asosiy masalalari qisqacha bir tarzda bayon etilgan. Fors-dariy tilida yozilgan yirik falsafiy asarlardan biri «Donishnoma» (Bilim kitobi) dir. Ibn Sino bu asarida oʻzidan oldingi va oʻz davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan holda shunday bir falsafiy asar yaratdiki, bu asar Oʻrta asr Sharqidagi nazariy bilimlarning eng yuqori choʻqqisiga koʻtarildi. Ibn Sinoning tabobat ilmi bobida qoldirgan buyuk merosi, ayniqsa, katta tarixiy ahamiyatga egadir. Uning tabobatga oid asarlaridan 30 tasi bizgacha yetib kelgan, shulardan asosiylari oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Ulugʻ hakimning tabobatga oid shoh asari, albatta, «Kitob al-Qonun fit-tib» (Tib qonunlari kitobi) dir. Ibn Sino «Tib qonunlari»ni besh kitobga boʻladi. Ibn Sino tom maʼnoda Gippokrat qilgan ishlarni munosib davomchisi boʻla oldi. U oʻzining «Tib qonunlari» asari bilan jahon tibbiyot ilmiga yetuk hissa qoʻsha oldi. Uning «Tib qonunlari» asari XVII asrgacha Yevropadagi tibbiyot institutlarida asosiy darslik sifatida foydalanilganligi esa Yevropa ibn Sino siymosi munosib tarzda qadrlanganligidan nishonadir. Ibn Sinoning nafaqat tibbiyotda, balki falsafa fani boʻyicha yozgan asarlari ham muhim oʻrin tutadi. Ibn Sinoni tom maʼnoda Sharq falsafasining

asoschisi deyish mumkin. U o'z asarlarida komil inson g'oyasini juda aniq tarzda ochib bera oladi. Qur'oni Karimdagi hayot haqidagi fikrlarni esa o'z izlanishlari bilan isbotlab beradi. Ibn Sino aynan bizning diyorumizdan ekanligi bilan har qancha faxrlansak arziydi.

**Me'moriy usullarning takomillashuvi.** Markaziy Osiyo me'morchilik maktablarining shakllanishi. Monumental inshootlarning me'morchiligida hovli kompozitsiyalarning ahamiyati. Bino tuzilishida peshtoq ahamiyatining o'sishi. Balxiy gumbaz, ikki qatlamli va kulohiy gumbazlar. Xorazm me'moriy maktabi xususiyatlari: Ko'hna Urganchdagi me'moriy obidalari misolida: kulohiy gumbazlar, Movarounnahr maktabi xususiyatlari. Masjid turlari. Minoralarning konstruktiv xususiyatlari. Ularning shaharsozlikdagi ahamiyati.

XI-XII asrda masjid qurilishi ham keng rivojlandi va uning o'ziga xos tipi yuzaga keldi. Asosi kvadrat shaklidagi gumbazli bino kompozitsiyalar Markaziy Osiyo yerlarida keng tarqaldi va mahalliy sharoitga qarab o'ziga xos fazilat va ko'rinish kasb etdi. Bu davrda peshtoq-gumbazli maqbaralar qurilishi ham rivojlandi. Peshtoqlari esa badiiy bezatilgan. Masjidlar qurildi, ularda ham yangi uslub va yo'nalishlar yuzaga keldi. Jumladan: XII asrda qurilgan Mag'oki Attori masjidi Movarounnahr me'morchiligida yangi uslubiy izlanishni boshlanishida turgan yodgorliklardan hisoblanadi. Mag'oki Attori masjidi uncha katta bo'lmagan kvartal ichidagi inshoot hisoblanadi. U bino assimetrik qoidaga binoan tiklangan. Masjidning dastlabki holatidan faqat bosh fasad me'moriy unsurlari bilan birga saqlangan. Devorlari kesilgan va kesilmagan, o'yilgan va o'yilmagan g'ishtlardan, ularning to'plamidan bezakli qilib ishlangan. Inshootni barpo etishda kesilgan terrakotali plitkalar bilan to'ldirilgan releyfli yechim qo'llanilgan. Arkaning kuchaytirilgan konstruksiyasi moviy sayqal holda ajratib ko'rsatilgan, inshootga yozuvlar ham tushirilgan. Bu topilma pardoz ishlarida ganchkorlik usuli ishlatilgan degan xulosaga olib kelgan.

XI-XII asrda minora qurilishi ham keng odat tus oldi. Buxoroning belgisi hisoblangan Minorai Kalonning barpo etilish vaqti va Raboti Malik karvonsaroyining qurilish davri Qoraxoniylar davriga to'g'ri keladi. Buxoroda 1127-yilda bunyod etilgan Minorai Kalon jahon me'morchiligining me'moriy-muhandislik san'atining yuksak cho'qqisiga chiqqan asarlardan hisoblanadi. Minoraga noyob shakl berilgan bo'lib, poyveshi qirrador, tanasi konussimon shaklda, yuqoriga qarab torayib boradi; muqarnasli qafasa (minora yoki gumbaz tepasidagi ko'shk) bilan tugaydi. Balandligi 50 m., devorlarini qalinligi 0,8-0,9 m, poydevor chuqurligi 10 m gacha ketgan. Minora ichidagi 105 pog'onadan iborat bo'lgan aylanma zina – rotunda orqali uning tepasiga chiqiladi. Minoraning tepasida ichidagi zinapoyani yoritish uchun 16 ravoqli darchalar o'rnatilgan, ular orqali atrofni kuzatish mumkin. Ushbu noyob inshootdagi shakllar o'zaro monand va mutanosib tanlangan. Geometrik qoidalarga to'la rioya qilingan holda chiroyli va har tomonlama puxta ishlangan ushbu minora Buxoro me'morchilik maktabining noyob asarlaridandir.

Minorai Kalon minorasi baland bo'lishiga qaramay o'tgan 9 asr davomida ro'y bergan ko'plab yer silkinishlariga qarshilik ko'rsatib kelgan. U keyingi davrda dastlab 1924-yilda ta'mirlangan. Yer ostida qolib ketgan qismi 1960-yillarda ta'mirlangan. Ustuvorlik siri inshoot konstruksiyasi hamda g'isht terimining sifatliligi, zilzilabardosh yechim qabul qilinganligidadir.

Markaziy Osiyodagi eng baland minora Buxorodagi Kalon masjidi minorasi bo'lib uning badandligi 60 m.ga yetadi. Bularda ham g'ishtning badiiy imkoniyatlari ularning tashqi bezagini belgilashda muhim rol o'ynagan. Aslida g'isht minora yuzasi naqshini tashkil etuvchi birdan bir unsur bo'lib qolgan. Ularning taxlanishi va turish holati hisobiga yuza o'ziga xos ko'rinish va latofat kashf etgan. Jarqo'rg'on minorasi (1108-09 yillar) o'ziga xos uslubda yaratilgan va xarakteri jihatidan avvalgi VI-VIII asr me'morchilik uslubini davom ettiradi. Bu minora usta Mahmud o'g'li Ali tomonidan qurilgan. Keyinchalik shu Jarqo'rg'on minorasiga o'xshash qurilma Dehlida (Qutb-Minor), Xurosondagi minorali maqbarada o'z aksini topgan. Va bu minoralar rivojiga Markaziy Osiyo me'morchiligi uslubini ta'siri borligini e'tirof etish kerak. Kalon masjid va uning ajoyib minorasi Markaziy Osiyo me'morchiligida g'ishtdan bezak berish, san'atining yuksak namunasi sifatida mashhurdir.

Bu me'morchilik XI-XII asr mahalliy me'morchilik va bezak san'ati an'analari asosida qurilgan yangi davrdagi rivoji edi. Bu davrda katta qurilishlar rivoji mavjud qurilish konstruksiyalarining o'zgarishi va murakkablashishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar pishiq g'ishtdan foydalanish bilan bog'liq va gumbaz ravoqlarning xarakterida ifodasini topdi. Katta qurilishlar esa quruvchilarga talabni oshirdi. Hunarmandchilik sexlari vujudga kela boshladi. Shogirdlik keng quloq yoya boshladi. Ayni shu davrga kelib, umuman, keyingi feodalizm davriga xos bo'lgan monumental me'morchilik qurilmalarining tiplari yaratildi. To'rt ayvonli kompozitsiya ayniqsa keng yoyildi.

Raboti Malik karvon saroyi esa 1078-1079-yillarda qoraxoniylar Shams ul-Mulk tomonidan qurilgan, deb taxmin qilinadi. Bir qator olimlarning fikricha, bu bino buyurtmachisi noma'lumdur. Bu imorat ham xom g'isht(28x28x6,5 sm)dan qurilib, 24x24x4 sm o'lchamli pishiq g'isht bilan pardozlangan. Hozirgi kunda faqatgina peshtoqi saqlanib qolgan bu binoning tarhi 86x86 m o'lchamli kvadrat shaklida bo'lgan. Devorlarining balandligi 12 metr ekanligi uning ikki oshyonalik bo'lganligidan dalolat berib turibdi. Bino ikki qismdan iborat bo'lgan. Peshtoqdan kirgach ko'ndalang joylashgan hovliga chiqilgan, uning to'rttala tomoni xonalar bilan o'rab olinganligi aniqlangan.

Hovlining to'ridagi ikkinchi qismi markazida katta gumbazli saroy va atroflari yaxlit tomli xonalar joylashgan. Old ko'rinishining ikki burchagini ikki minora bezab turgan. Minoralardan peshtoqqacha bo'lgan devor oralig'ida kungurador yarimustun(gofir)lar joylashtirilgan bo'lib, ularning usti ravoq toqlari bilan birlashtirilgan. Bir vaqtlar bu rabot katta kompleksdan iborat bo'lgan va hozirgi kunda qarama-qarshisida sardoba saqlanib qolgan. Bu binoning chekkasida minorasi

pishiq g'isht bilan kafelga o'xshatib pardoziqlangan. Devor old tomon devorini yarim aylana ustun va arkali ishlanishi hamda peshtoqli darboza qurilishi keyingi Movarounnahr me'morchiligi rivojida muhim rol o'ynaydi.

1196-1211-yillarda qurilgan Vobkentdagi minora nisbatlarining nozik topilganligi va nihoyatda yuqoriga intiluvchan ajoyib konussimon shaklining mustahkam va mag'rurligi bilan xarakterlanadi. Quruvchi Sadr Burhoniddin Abdulaziz nomi minora bezagi ichida yozib koldirgan. Bu davrda marhumlar ruhini abadiylashtirishga qaratilgan maqbaralar qurilishi ham o'ziga xos shakllarni yaratdi. Ko'hna Urganch(Xorazm)dagi Faxriddin Roziy va Tekesh maqbarasi o'ziga xos xususiyatga ega. Garchi u Markaziy Osiyoda keng tarqalgan peshtoq-gumbazli kompozitsiya tipiga kirsa ham, lekin qirrali barabanga o'rnatilgan chodirsimon gumbazdan tashkil topgan. Turkmanistondagi peshtoq-gumbazli binolar bezatilishida g'ishtning badiiy imkoniyatidan keng foydalanilgan.

XI-XII asrlarda hokimiyat tepasiga qoraxoniylar va saljuqiylar keldi. Iqtisodiy-madaniy taraqqiyot natijasida shaharlar o'z qiyofasini o'zgartirdi. Yirik-yirik inshootlar qurila boshlandi. Ayniqsa, pishiq g'ishtdan ravoqlar va gumbazlar qurilishi an'anaga aylandi.

Bu davr me'morchiligining yana bir xususiyati binolarda sirli va rangli koshinlardan foydalanilganligidir. Natijada, maxsus hunarmandchilik sexlari ochilgan. Qurilishda foydalaniladigan turli maxsus kasblar paydo bo'lgan. Bu davr me'morchiligi tarixda «Binokor shoh» nomi bilan kirgan bo'lib, uning taraqqiy etishida Muhammad Sulaymon Tegin o'g'li Arslonxon katta hissa qo'shgan.

IX-X asrlardan girih san'ti yuksalgan, arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarilgan. X asrdan kufiy, XI-XII asrlardan nasx yozuvi me'morchilikda ko'p ishlatila boshlagan. IX-XI asrlarda Termizda Qirqqiz saroyi, Navoiyda Mirsaid Bahrom maqbarasi Sulton Saodat ansambli, Malik karvon, saroyining saqlangan qismlari me'morchilikning yuksak darajaga ko'tarilganini, inshootlar badiiy hunarmandlar tomonidan jozibador bezatilganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, IX-XII asrga oid maqbaralar Markaziy Osiyo hududida anchagina saqlanib qolgan. Bular jumlasiga Termiz yaqinidagi Sulton Saodat kompleksidagi, O'zgan, Miyona, Seraxs, Mari(Ko'hna Marv)dagi va boshqa maqbaralar kiradi. Shularning ichida ayniqsa Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi diqqatga sazovordir. 1175-yilda vafot etgan va Xuroson hokimi bo'lgan saljuqiy Sulton Sanjar o'zi hayotlik vaqtida qurdirgan, deb taxmin qilinuvchi bu bino devorlarining qalinligi 5 metrni tashkil etib, maqbaraning ichki tomonlari 17 metrni tashkil etuvchi kvadratdan iboratdir. Ichki balandligi 35 metrga teng bo'lgan bu imorat nihoyatda mahobatlidir. Kirish eshigi g'arb tomonda joylashgan. To'rtburchak qismining balandligi 15 m. Undan yuqoridagi gumbazga o'tuvchi sakkizburchak qismi tashqi va ichki tarafdin ravoqdor galereyani tashkil etadi. Sakkiz burchakning har uchidan gumbaz konstruksiyasi tashkil turadi. Ular o'zaro kesishgan toqlar («linga zarba» usuli) majmuasidan iboratdir. Bino g'isht va ganchdan iborat girih hamda

chizma naqshlar bilan ziynatlangan. Gumbaz tashqi ko‘rinishi moviy rangda bo‘lganligi haqida o‘sha vaqtda yashab o‘tgan mualliflarning ma’lumoti saqlanib qolgan. Sirli koshinning qo‘llanila boshlanishi mana shu davr ya’ni XII asrdan boshlanganligini ko‘pgina olimlar qayd etganlar.

Yana diqqatga sazovor hol shuki, O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo me’morchiligida keng ishlatilgan ikki gumbazli. (ichki va ustki) konstruksiya ham dastlab XI-XII asrlarda Xurosonda uchraydi. Misol tariqasida Seraxsdagi Abul Fazl, Miyonadagi Abu Said, Tusdagi al-G‘arazoliy maqbaralarini ko‘rsatib o‘tish kifoya. Shuningdek, butun dunyoga mashhur Marv (qadimda Xuroson markazi, hozirgi Mari va Bayram Ali shaharlari oralig‘idagi xarobalar) yaqinidagi eng katta bir xonali imoratlardan hisoblanadigan Sulton Sanjar maqbarasi ham ikki qavatli gumbaz bilan yopilgan.

XI-XII asrlarda bunyod etilgan maqbaralar ichida chodirsimon (шатровые) gumbaz bilan yopilganlari alohida ajralib turadi. Bu turdagi gumbazlar Pokiston, Hindiston va shu kabi mamlakatlarda “gumba’zi turkistoni” deb nomlanishini e’tiborga olib biz ham shu iborani qabul qilamiz. Gumba’zi turkistoni bilan yopilgan maqbaralar turkumiga Qadimgi Tarozi (hozirgi Jambul) yaqinidagi XI asrda qurilgan Bobaji Xotun va Ko‘hna Urganchdagi Faxriddin Roziy hamda Sulton Tekesh maqbaralarini misol keltirish mumkin. Bu binolar ham pishiq g‘ishtdan qurilgan bo‘lib ichki va sirtqi gumbazlardan iborat bo‘lgan.

Jarqo‘rg‘ondagi minora 1108-1109 yillarda Seraxslik usta Ali ibn Muhammad tomonidan qurilganligi ma’lum. Uning dastlabki balandligi ancha viqorli bo‘lib uch oshiyonadan iborat bo‘lgan deb taxmin etiladi. Hozirgi saqlanib qolgan balandligi 21,6 m va ostki diametri 6,4 metrga teng. Devorlari yarim aylanasimon bo‘rtmalar tarzida olinib ular yuqori qismida ravoqchalar bilan tutashtirilgan. Bu shakl Markaziy Osiyo me’morchiligida ko‘p qadim davrlardan boshlab mavjud bo‘lgan va 1220 yilda Dehlida qurilgan Qutb Minorada ham qaytariladi.

### **Nazorat savollari**

1. Markaziy Osiyoning IX-XII asr madaniyati haqida fikr yuriting.
2. Xorazm Ma’mun akademiyasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. IX-XII asrlar madaniy hayotida hadis ilmi o‘rni nimalardan iborat?
4. IX-XII asrlar madaniy hayotida fiqh ilmi o‘rni nimalardan iborat?
5. IX-XII asrlar madaniyatini qaysi manbalar orqali o‘rganamiz?
6. IX-XII asrlarga oid qaysi me’morchilik yodgorliklarin bilasiz?
7. IX-XII asrlardagi sharq allomalarning ilmiy merosining o‘rganilishi.
8. IX-XII asrlardagi arab sayyohlarining estaliklarining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati?



## **Manbalar va adabiyotlar**

1. Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2-tom. -T.: San'at, 2001
2. Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231) Toshkent 1998
3. Zohidov P. Me'mor olami. -T.: Qomus, 1996.
4. Karimova. S. Xorazm Ma'mun akademiyasida tabiiy fanlar rivoji. "O'zbekiston tarixi" ilmiy jurnali. 2010-yil, № 4
5. Narshaxiy M. Buxoro tarixi. «Meros» turkumi. T. 1991.
6. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. – T.: O'qituvchi, 1997.
7. Solijonov. Ismoil al-Buxoriy va Iso at-Termiziy hadislarini islohi huquqi soliq qonunshiligining manbalari sifatida. "O'zbekiston tarixi" jurnali, 2001-yil, № 4
8. Sulaymonova. F. Sharq va G'arb. T.. «O'zbekiston», 1997.
9. O'zbekiston san'ati. (1991-2001 yillar) -T.: Sharq, 2001.
10. O'zbekiston tarixi va madaniyati. T., «O'qituvchi», 1992.
11. O'zbekiston tarixi. I. A.Sagdullayev, B.Eshov tahriri ostida. – Toshkent, Universitet. 1999. 2-nashri.
12. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. - T.: Sharq, 2005.
13. Xayrullayev M. Markaziy Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati. - T.: 1994.
14. Qoriyev. O. Burhoniddin al-Marg'inoniyning hayoti va faoliyati. "O'zbekiston tarixi" ilmiy jurnali 2000 yil № 4

### **4-Mavzu: Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati va san'ati**

#### **Reja:**

- Amir Temur va Temuriylar davlatida madaniy hayot
- Mirzo Ulug'bek akademiyasi
- Miniatura va devoriy rassomlik
- Temuriylar davri me'morchiligi

#### **Tayanch iboralar:**

Madrasalar, masjidlar, Mirzo Ulug'bek akademiyasi, Ulug'bek rasadxonasi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda ansambli, Bibixonim masjidi, Boysung'ur Mirzoning badiiy san'at akademiyasi.

Amir Temur va Temuriylar davrida o'rta Sharqda fan, san'at va madaniyat rivoj topdi. Bu davrda ajoyib saroylar, masjid va madrasalar, koshinkor maqbaralar qurildi. Buyuk olimu-fozillar bu davlat shuhratini olamga tanitdilar. Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahon Jomiy, Kamoliddin Behzod kabi olimlar, shoirlar va miniatura ijodkorlari yashab ijod qildilar.

Temuriylar davlatida shakllangan yangi an'ana va jarayonlar esa tezda boshqa

yerlarda o'z davomini topib yangi maktab va yo'nalishlarga turtki berdi.. Kitobat san'atida yangi kashfiyotlar ya'ni kitob muqovasini relyefli bo'rtma shakl va tasvirli ishlash yuzaga keldi. Keyinchalik O'rta Sharq kitobatida keng o'rin egalladi. Amaliy, amaliy-bezak madaniyati va san'ati nihoyatda keng rivojlandi. Bronza, kumush va oltindan quyma idishlar yasash borasida katta muvaffaqiyatga erishdilar. Ayniqsa kumush va oltindan nafis buyumlar yasash keng rivojda bo'lib saroy ahllari talabiga javob berdi. Bu xususda ispan elchisi Klavixio Temur saroyida bo'lganida oltin va kumushdan ishlangan buyumlarning ko'pligi, Temurning oltin taxti va stoli, uning dam oladigan xonasida oltindan va qimmatbaho toshlar bilan ishlangan daraxt, undagi mevalar, mevada o'tirgan ajoyib qushchalar bo'lganligini yozib qoldirgan. Vamberi Temuriylar davri madaniyati haqida:

“Amir Temur davrida yaratilgan sarf-naxv kitoblari islom dunyosidagi yoshlar qo'lida hozirgacha dasturilamal tutilmoqda va Markaziy Osiyo musulmonlarining e'tiqod va ibodatga oid ko'pgina xususiyatlari shu vaqtlarda yozilgan fiqh va uslub kitoblariga zamin bo'lmoqda. Osiyo va umum jahon musulmonlari qoshida eng nozik saodat va eng oliy mukammal ma'lumot sanlagan, hozirda yolg'iz nomlarigina qolgan nimaiki bor bo'lsa ularning orasida Hirot va Samarqand hukumatlari vaqtida taraqqiy etgan narsalar, shular orasida avvalo xattotlikni ko'rsatish mumkin”, - deb yozadi.

Yana davom ettirib: “Garchi temuriylar sunniy mazhabiga ixlosmand bo'lsada, ularning kitoblarini turli rangdagi tasvirlar bilan bezamoq, binolarni har xil rasmlar bilan ziynatilmoqqa intildilar, suv bo'yoq bilan ishlangan bu rasmlarda rangbarang naqshlar va jonsiz narsalarning suratlari emas, balki mashhur xonlar, askarlar, hatto avliyolarning tasvirlari ham bor”, deb takidlaydi.

Amir Temur va Temuriylar davrida turli millat va dinlar mavjud bo'lib diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror edi. Shu davrda Naqshbandiya tariqatining asoschisi Shayx Xo'ja Bahovuddin yashab ijod etdi. U o'sha zamonda Buxoroda juda hurmatli kishi, Buxoroning milliy avliyolaridan hisoblangan. Vafotidan keyin uning qabrini uch marta borib ziyorat qilishlik uzoqdagi Kabaga haj qilish bilan barobar sanaldi. Dunyoviy ilmlar ichida saroy shoiri Lutfillo Nishopuriy (1384-y. vafot etgan), Shayx Kamoliddin Xo'jandiy, “Temurnoma”, shoir Ahmad Kirmoniy eslash mumkin.

Amir Temur davridan madrasalar ta'sis etildi. Ular xayr-saxovat tufayli keng miqyosda taraqqiy etdi. Temur bu ishning tashabbuskori bo'lgani uchun uning xonadoni a'zolari, vazirlari ham mamlakatning boylari barcha yaxshilar madrasa-yu masjidlar, qiroatxonalar, kasalxonalar ta'sis etish hamda ularga ehson berishda o'zaro musobaqada bo'lishgan. Binobarin, Markaziy Osiyoning ma'naviy taraqqiyoti, bilvosita bo'lmasa-da, har holda Amir Temur xizmati va himmatiga chambarchas bog'liq holda kechdi.

Samarqand butun Osiyo savdosida mol ombori o'rinni oldi. Bu yerda Hindistondan bo'yoq va attorlik, Xitoydan Ipak gazlama, chinni kosa, qadaxlar, qimmatbaho aqiq toshlar, mamlakat shimoldan noyob po'stinlar kelar edi. Shu yerdan

Osiyoning katta shaharlariga va Buyuk Ipak yo‘li orqali G‘arbiy Yevropaga jo‘natilar edi. Amir Temur o‘z saltanati taxtini mamlakatlar zaminiga, ularning barchasidagi urf-odatlar va marosimlarni o‘z saroyida to‘pladi, taraqqiy ettirdi.

O‘rta asr me‘morchilik san‘ati o‘zining gullagan davrini boshida kechirdi. Yangi chin ma‘nodagi aristokratik me‘morchilik-hashamatli va go‘zal binolar qurish san‘at uslubi vujudga keldi, rivojlandi. Devoriy rassomchilik, amaliy dekorativ san‘at sohasida qator yangi an‘analari shakllandi. Jumladan me‘morchilikda birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me‘morchilik majmualari shaharsozlikda muhim o‘rinni egallay boshladi. An‘anaviy me‘morchilik shakl va uslublarini qayta qurib chiqildi. Ayniqsa, me‘morchilik yodgorliklarini rangli koshinlar bilan boyishi katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta rangli bezak Markaziy Osiyo an‘anaviy me‘morchiligining ham ajralmas qismi bo‘lgan. Lekin XIV asrga kelib bino ichki va, ayniqsa, tashqi pardozida bu uslub alohida o‘rinni egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli naqshlar, XIV asr oxiridan keng tarqala boshlagan o‘yma sirli naqshlar keng ko‘lamda amalga tadbiiq etilishi O‘rta Sharq xalqlari ijodiy tafakkurining katta yutig‘i bo‘ldi Markaziy Osiyo me‘morchiligidagi bu o‘zgarishlar ilk bor Ko‘hna Urganchdagi To‘rabek xonim maqbarasida namoyon bo‘lgan edi. Xorazm ustalari yaratgan bu ajoyib yodgorlik an‘analari keyinroq Amir Temur farmoni bilan Samarqand saltanatining boshqa yerlarida keng foydalanilgan. Va bu ishlar uchun Xorazm ustalari jalb etilgan.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Samarqandda, ayniqsa, katta qurilish ishlari olib borilgan. Shahar qalin devor bilan o‘rab chiqildi. Unga olti darvoza orqali kirilgan. Shaharning baland arkida baland Bo‘stonsaroy, Ko‘ksaroylar qurilgan. Bu davrda pishiq g‘ishtda qurilgan, moviy rang koshinlar bilan bezatilgan masjid, madrasa va maqbaralar, osmono‘par minoralar so‘lim tabiat qo‘ynida alohida fayz va latofat kashf etgan. Amir Temur davrida shahar va shahardan tashqarida saroylar qurish, istirohat bog‘lari yaratish keng tus oldi. Amir Temur nafaqat o‘z ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandda, balki o‘z mamlakatining boshqa shaharlarida ham qator hashamatli binolar qurdirdi. Jumladan, Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda maqbara qurdirganligi shuning isbotidir.

Uning shahardan tashqarida qurdirgan saroyi Sharq tomonda joylashgan bo‘lib, uning shahar tomonga qaragan darvozasiga “Darvozai feruza” so‘zi yozilgan bo‘lgan. Saroy ichida bir necha hovli bo‘lib, shulardan birida oltin naqshli taxt joylangan. Shu taxtda u elchilar qabul qilgan. Hovlining tashqarisida esa favvoralar bo‘lib, atrof-muhitni mo‘tadillashtirishga xizmat qilgan.

Shaharning janub tomonida qurilgan Bog‘i Behisht, saroyi esa sun‘iy tepalikda Tabrizning sof oq marmaridan qurilgan. “Bog‘i Shamol”, “Bog‘i Nav» qasrlari ham marmar va koshinlar bilan pardozlangan bo‘lgan. Amir Temur davrida ko‘plab saroylar qurilgan Shular ichida Oqsaroy majmuasi alohida o‘rin egallaydi. O‘n ikki yildan ortiq vaqt mobaynida qurilgan bu saroy peshtoqi xitoy koshinlari, arabiy naqshlar, gullar va o‘ymakorlik bilan bezatilgan. Devoring tashqi tomoni ko‘k va oltin

ranglardagi naqshli koshinlar bilan pardozlangan. Oqsaroy ichki tomonida katta hovli bo‘lib uning o‘rtasida favvora ishlangan bo‘lgan. Shu hovlidan katta xonaga kirish eshigi bezakka boy, uning tepa tomoni o‘rtasida she‘r va quyosh tasviri ishlangan bo‘lgan. Oltin suvi yuritilgan, lojuvard va boshqa ranglar bilan pardozlangan bu saroy chet ellik mehmonlarni kutib olish, majlislar o‘tkazish uchun foydalanilgan. Oqsaroyda 1404-yili bo‘lgan mashhur sayyoh Klavixo uning ichki va tashqi tomoni nihoyatda bezakka boy ekanligini ta’kidlab, saroy ustalarining ishini Parij ustalarining ishidan ham yuqori qo‘ygan.

Yana bir muhtasham binolardan biri 1399-1402-yillarda bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi bo‘lib, uning qurilishiga Amir Temur alohida e’tibor bergan. Uning farmoniga binoan masjid tarhi (plani) ishlangan va 1399-yilda bo‘lajak masjidning poydevoriga birinchi g‘isht qo‘yildi. Qurilishda Ozarbayjon, Hindiston va Erondan kelgan 200 dan ortiq usta, 500 dan ortiq tosh kesuvchi mehnat qildi. Qurilishda 95 ta fil band bo‘ldi. Qurilish ishlari avjiga chiqqan payitda Amir Temur safarga jo‘nab ketadi. Oradan ancha vaqt o‘tib, qaytganida masjid deyarli bitgan edi. Bibixonim masjidi katta to‘rtburchak shaklidagi maydonni egallagan, uning atrofi esa devor bilan o‘rab chiqilgan. To‘rt burchakgida minoralar qurilgan. Masjid Sharqqa qaragan juda katta peshtoqli darvoza bilan boshlanadi. Masjid chor hovlisi atrofi ustunli ochiq ayvonlar bilan o‘ralgan, ikki yon tomoni va o‘rtasida uncha katta bo‘lmagan peshtoq-gumbazli binolar qurilgan. Hovlining ichkarisida esa 40 metrli peshtoq va uning burchaklarida esa qirrali minora ishlangan. Shu peshtoq bilan masjidni asosiy “muqaddas” yarim sferik gumbazli binosi boshlanadi. Masjid ichki va tashqi tomonini bezagiga alohida e’tibor berilgan. Sirli koshinlar bilan bezatilgan, bino devorida ko‘k va sarg‘ish oxra, yashil rang gammasi keng o‘rinni egallaydi. Ayniqsa moviy rang butun bino koloritida hukmronlik qilib uning yaxlit va ulug‘vorligini ta’minlab, go‘yo uni cheksiz falak bilan musobaqalashayotgandek qilib ko‘rsatadi. Qurilishda Sharq va G‘arbning ko‘p usta-yu naqqoshlari, me’mor-u toshtaroshlari ishtirok etganligi yozuv manbalaridan ma’lum.

O‘rta asr me’morchiligining haqiqiy durdonasi Amir Temur maqbarasidir. Amir Temur farmoniga binoan qurila boshlangan bino O‘rta Sharq me’morchiligida muhim o‘rinni egallaydi. Bino tantanavor monumentalligi va dekorativ-qurilganligi bilan ajraladi. Bino sodda me’morchilik hajmlardan sakkiz qirrali asos, silindirlik baraban va qirrali ko‘k-moviy gumbazdan tashkil topgan. Binoning ichki qismi ham juda serjilo, uning ichki devorlari marmar bilan pardozlangan o‘yma naqsh va rangli va oltin suvi yuritilgan naqshlar bino ichi qismiga alohida fayz kirgan.

Amir Temur davri me’morchiligini “Shohi Zinda» me’morchilik kompleksisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Afrosiyob yonbag‘riga joylashgan bu ansanbl XI-XII asrlarda bu yerda qurila boshlagan maqbaralar o‘rnida barpo etilgan. Bu yer musulmonlarga qadar ham muqaddas sig‘inish joyi bo‘lib Qusam ibn Abbos maqbarasi joyashgan, go‘yo u shu yerda tirilib, yer ostiga kirib ketgan va oxiratgacha shu yerda yashashga qaror qilgan. “Shohi zinda” – “Tirik podshoh”, “Tirik shoh”

nomi shundan olingan.

Hozirgi Shohizinda maqbara majmuasi XIV-XV asrlarning birinchi yarmida qurilgan yodgorliklardan tashkil topgan bo'lib, bu majmua biroz kechroq, 1434-1435-yillarda Ulug'bek tomonidan qurdirilgan peshtoq bilan boshlanadi. Ichkarida kirishga yaqin joyda XV asrning qo'sh maqbarasi bo'lib unda gumbaz baland baraban ustiga joylashgan. So'ngra zinadan boshlanib qator maqbaralar bir-biriga yaqin qurilgan. Majmua so'ngida esa XIV asr o'rtalarida qurilgan Xo'ja Ahmad maqbarasi o'rin olgan. Tuman oqo majmuasi (1372) peshtoqi o'simliksimon naqshlar bilan bezatilgan. Devorlarida mayda manzarali pannolar ishlangan. Shirinbek oqo maqbarasi (1385-86-yillar) xonalarida tilla hal berilgan hamda shu yerda ilk bor o'yma naqsh ishlatila boshlagan. Shohi Zinda me'morchilik majmuasidagi maqbaralar turli davrlarda qurilgan shunga qaramasdan, ular hammasi yagona me'morchilik kompozitsiyasi sifatida idrok etiladi. Me'morlar har safar yangi maqbara qurganlarida relyefni, ya'ni yer sathi xarakteri va qiyaligi hamda avvalgi qurilgan maqbaralarni xarakteri hisobga olgan holda me'morchilik hajm va bezagini tanlaganlar. Amir Temur davrida qurilgan maqbaralar o'zining badiiy yechimining yuksakligi va yorqin rangdorligi bilan ajralib turadi. Sirli koshin va naqqoshlik san'ati butun ansamblga ajoyib fayz kiritib davr kishilarning go'zallik tushunchalarini ifodalaydi. "Bu yer jannat bog'i, bu yerda baxt yulduzlari ko'milgan" deb maqbara peshtoqlarining biriga yozilgan so'zlarda butun ansamblning g'oyaviy-badiiy va falsafiy mazmuni yechiladi.

Amir Temur davrida Markaziy Osiyoning ko'pgina yerlarida ham me'morchilik kompozitsiyasi va majmumalari vujudga keldi. Shahrisabzdagi Oqsaroy (1380), Turkistonda barpo etilgan Ahmad Yassaviy maqbarasi, Toshkent viloyatida Zangiota me'moriy obidalari shular jumlasidan. Amir Temur farmoni bilan barpo etilgan Zangiota majmuasining maqbara peshtoq, gumbazli ziyoratxona va go'rxonadan iborat bo'lib, naqshlar bilan bezatilgan. Bino me'moriy bezagilarida kufiy va suls xatida yozuvlar bilan birga tosh o'yakorligi, rangli naqsh keng ishlatilgan. Temur va temuriylar davrida tasviriy va amaliy bezak madaniyati va san'ati o'zining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi. Miniatura va devoriy rassomlik san'atida nodir asarlar yaratildi. Haykaltaroshlik esa, asosan, bo'rtma tasvir tarzida mavjud bo'ldi.

Amir Temur davrda monumental rangtasvir nihoyatda rivojlandi. Bu davrda qurilgan saroy, qasr, masjid va maqbaralar, zodagonlarning xonadonlari turli mavzudagi rasmlar bilan bezatilganligi haqida tarixchilarning yozma bayonlari saqlanib qolgan. Afsuski, shu davrda qurilgan saroylar, jamoat binolari bizgacha yetib kelmagan yoki ayrim parcha va ko'chirmalarda saqlanib qolgan xalos. Shularning o'zi ham davr san'ati to'g'risida tasavvur beradi. Jumladan, Shirinbeka oqo maqbarasi devorlarida tabiat ko'rinishi tasvirlangan bo'lib, daraxtlarda qushlar aks ettirilgan bo'lgan. Bibixonim masjidi devorlariga naqshli bezaklar bilan birga tabiat manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar ishlangan.

Markaziy Osiyo, umuman, O'rta Sharq madaniyatida kitobni bezash, xattotlik va miniatura madaniyati va san'ati tarixida o'ziga xos qaytarilmas jozibasi bilan tengi

yo'qdir. Bu san'at turlarida nodir yodgorliklar yaratiladi. Ayniqsa, kitoblarga illustratsiya tarzida ishlangan miniatura san'atida yutuqlar kattadir. Movarounnahr san'atida mahalliy madaniy an'analar unga kirgan ko'pgina xalqlar an'analari silsilasi kuchaya bordi. Natijada yangi, ilg'or ijodiy jarayon shakllana bordi. San'atkorlar mavjud va o'tmish madaniyati va san'ati yutuqlarini inkor etmaganlari holda an'anaviy shakl va yo'nalishlarga yangi badiiy ruh kirita boshladilar. Eng muhimi, ijodkorlar yangi ijodiy yechimlarga erishib zamon talabiga mos asarlar yaratishga muvassar bo'ldilar.

Amir Temur saroyining yirik musavviri Xo'ja Abdul-Xayya rassomlar ustaxonasining boshlig'i lavozimida ishlagan. Uning ishlash uslubi Samarqand rassomchilik maktabini asosini tashkil etdi. Rassomning bir qator asarlari bizgacha ko'chirmalarda yetib kelgan. "Sher", "Suvdagi o'rdak", "Urushayotgan ikki jangchi" rasmlari ushbu san'atkorning ijodiy namunalaridan bo'lib, u ishlanishi nafisligi hamda rang va oltin hallarga boyligi bilan ajralib turadi.

Sa'diyning "Guliston" asariga ishlangan rasmda darvish haqida hikoya tasvirlangan. Unda cho'l-sahrodan o'z eshagida qo'shiq va hazil bilan og'ir yo'l qiyinchiliklarni yenggan darvish va uni yo'l davomida mayna qilib kelgan, o'ziga zeb bergan tuyaga mingan boy yo'lovchi tasvirlanib, boyning oxir-oqibatda ovullardan birida yiqilib, o'lganligi hikoya qilinadi. Asarga xos xususiyat hikoyanavislik bo'lib, ko'pgina hayotiy lavhalar asar mazmunini boyitadi. Rassomning «Suvdagi o'rdak» asari ham e'tiborga loyiq. Bu rasmda Xo'ja Abdul-Xayya o'zining kuzatuvchan ekanligini, real borliq ko'rinishlarini o'ziga o'xshatib ishlashga intilishi shu rasmlarda ham o'z ifodasini topgan. Rassom ijodining ushbu tomonlari, shuningdek, qalamining o'tkirligi, koloritining aniq va jiddiyligi keyingi Hirot maktabi shakllanishida muhim o'rinni egalladi.

Amir Temur saroyida xizmat qilgan musavvirlardan yana biri Pir Ahmad Bog'i Shamoliy bo'lib, u Abdul-Xayyaning zamondoshi va shogirdlardan bo'lgan. Tarixchilar Pir Ahmad Bog'i Shamoliyga yuqori baho berib davrning eng yuksak, tengi yo'q musavviri deb ta'riflashadi. Bog'i Shamoliy rassomning taxallusi bo'lib, Bog'i Shamol bog'ining saroylari bosh bezakchisi bo'lganligi va ishlagani uchun berilgan deb taxmin qilinadi. Amir Temur davrida saroy kibarlarining nozik didiga mo'ljallangan amaliy-bezak madaniyati va san'ati namunalari yuzaga keldi. Ayni shu davrda shahar hayotida o'rta xol aholsining o'rni muhim o'rinni egalladi.

Amir Temur vafotidan keyingi uning ulkan saltanatini Xuroson va Movarounnahrni uning o'g'li Shohruh va nabirasi Ulug'bek boshqardi. Deyarli 40 yildan ortiq vaqt mobaynida bu yerlarda Amir Temur boshlab bergan an'analar davom etdi. Me'morchilikda mahobatli me'moriy majmualar barpo etildi. Samarqand, Buxoro va Vobkentda qurilgan madrasalar shu davr me'morchiligining an'analari asosida vujudga kelgan.

Ulug'bek madrasasi darvning ulug' yodgorlik va noyob tarixiy yodgorliklardan biridir. Bu madrasada buyuk olim va ulamolar dars o'tishgan.

Handasaviy va islimiy naqshlar peshtoq yozuvlari bilan davr kishilarining ham falsafiy, ham estetik qarashlarini namoyon etgan.

1420-28-yillarda Ulug‘bek farmoni bilan barpo etilgan dunyoviy ilm maskani rasadxona ham davrning nodir yodgorligii bo‘lgan. Uch qavatli o‘rtasida yulduzlarni kuzatadigan moslama bo‘lgan bu bino devorlari esa turli-tuman rasmlar bilan bezatilgan. Ularda tog‘, daryo va ajoyib tabiat ko‘rinishlari tasvirlangan. Temuriylar davrining muhim yodgorliklaridan biri Shohi Zinda me‘moriy majmuasi Ulug‘bekning farmoni bilan qurilgan mahobatli bezakdor katta peshtoq shu majmuaga yaxlitlik baxsh etgan.

Ulug‘bek boshqargan Movarounnahrda Samarqand O‘rta Sharqdagi go‘zal va boy shaharlardan bo‘lgan. Shu yerda ko‘zga ko‘ringan olim va ulamolar yashab ijod qilgan. Shu yerda dunyoviy fanlar rivojlandi. Ulug‘bek olim sifatida o‘z atrofida shogirdlar to‘pladi, ularga dars berdi. Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi tadqiqotlar olib borishdi. Ularning izlanishlari «Yulduzlar jadvali kitobi»da o‘z aksini topdi. Ulug‘bek farmoni bilan barpo etilgan rasadxona kutubxonasi davrning haqiqiy akademiyasi edi. Bu yerda turli nazariy fanlarga oid risola va tadqiqotlar ko‘chirilar, ta‘mirlanar va ular zaruriy rasmlar bilan to‘ldirilar edi. Bu ishlar bilan kutubxona qoshida faoliyat ko‘rsatgan xattot va musavvirlar shug‘ullanar edi. Shunday astronomiyaga oid qo‘lyozmalardan biri as-So‘fiy risolasi (traktati) bo‘lib, unda ishlangan miniatyuralar e‘tiborga loyiq.

Musavvir miniatyuralarni shunchaki tushuntirishga mo‘ljallangan astronomiyaga oid rasimgina emas, balki badiiy qiymatga ega bo‘lgan badiiy asar darajasiga ko‘tarishga intiladi. Tasvirlangan odam, hayvon va afsonaviy mavjudotlarni hayotiy va jonli bo‘lishiga harakat qiladi. Astronomiyaga oid rasmlarni haqqoniy bo‘lishiga intilish Ulug‘bek davri madaniyati va san‘ati realistik yo‘nalishda rivojlanganligidan dalolat beradi. Shuni ta‘kidlash kerakki, Temuriylar davrida shoh saroylari qoshidagi kutubxonalar haqiqiy san‘at maktabi rolini o‘ynadi. Bu yerga mashhur rassom, xattot, naqqoshlar to‘planadilar. Kutubxonada nodir qo‘lyozmalar to‘planib, ko‘chirilib kitob holiga keltirilar, tasvir va bezak naqshlar bilan bezatilar, yaroqsiz holga kelgan qo‘lyozmalar ta‘mirlanar edi.

Shuning uchun ham bu kutubxonalardagi ijodxonalar rassom, naqqosh va xattotlar uchun ta‘lim va mahorat maktabini o‘tab, har bir san‘atkorni ijodiy o‘sishi, o‘z hunar kasbini yanada rivojlantirishi imkoniyatini yaratgan. Nigoriston nomi bilan tanilgan bu ijodxonada mazmun va mohiyat jihatidan bugungi badiiy akademiya mazmun va yo‘nalishiga yaqinlashib ketadi. Shu yerda ustoz o‘zining mukammal ko‘rinishiga erishdi.

Bu xususiyatni shu davrda ishlangan janrli kompozitsiya va portretlarda ham ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda Ulug‘bekka bag‘ishlab ishlangan portret va janrli kompozitsiyalari e‘tiborli. Ulug‘bekning navbatdagi ovdan keyin o‘z oila a‘zolari bilan shiyponda dam olib o‘ltirgan paytini aks ettiruvchi rasm ( 1441- 1442-yilar) yuksak mahorat bilan ishlangan. Qalam chizgisi nozik, rang tizimi boy, tasvirlangan

har bir obrazlar esa o‘z xatti harkati bilan ajralib jonli ishlangan.

1447-yili Shohrux vafotidan keyin, Hirot ham Ulug‘bek qo‘liga o‘tdi. U Xuroson va Movarounnahrni boshqardi. Shu davrda bir qator xattot va musavvirlar Samarqandga ko‘chib o‘tishdi, ayrimlari taklif etildi. Jumladan, davrning mashhur musavvirlari Mavlono Zahiriddin Abdulla, Mavlono Zahiriddin Azhar va boshqa yirik san’atkorlar Samarqandga, Ulug‘bek davlati poytaxtiga taklif qilindi. Ularga bu yerda Ulug‘bek hukmronlik-yillari haqidagi bayonnomani rasmlar bilan bezatish topshirildi. Afsuski, bu bayonnoma va rasmlar bizgacha saqlanmagan.

Alisher Navoiy davri. Markaziy Osiyo madaniyati va san’atining yangi bosqichi temuriy Sulton Abu Said nomi bilan bog‘liq. U 1451-yili mamlakatdagi notinchliklardan foydalanib qattiq kurashlarda hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi. 1456-yili esa u poytaxtni Samarqanddan Hirotga ko‘chirdi. Natijada Movarounnahrda yashab ijod etgan san’atkor va davlat arboblari shu yangi joyga ko‘chib o‘tishlariga sabab bo‘ldi. Shular qatorida ko‘plab shoir, rassom, me’mor va xattotlar va ularning oilalari bor edi.

Temuriylar davri madaniyati va san’ati va madaniyati shu yerda o‘z rivojini yangi bosqichini boshladi. Shu yerda davrning ulamolari, buyuk mutafakkirlari, rassom-u me’morlari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod va boshqalar o‘z ijodlarini qiyomiga yetkazdilar. Temurzoda Husayn Boyqaro 40-yildan ortiq hukmronligi davrida mamlakatda kattagina obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Bu ishlarda davrning buyuk mutafakkiri, o‘zbek she’riyatining yulduzi Alisher Navoyining xizmatlari katta bo‘ldi. Uning rahnamoligida yirik inshootlar, masjid va madrasalar qad ko‘tardi. Shu yerda O‘rta Sharq miniatura maktabi o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga erishdi.

### **Kamoliddin Behzod (1455-1530)**

O‘z mavqeyi jihatidan zodagonlar xonadoniga yaqin bo‘lgan Kamoliddin Behzodning Hirotida dunyoga keldi. Ota-onasidan juda erta judo bo‘lgan Behzod Alisher Navoiy xomiyligida kamol topdi. Shu yerda u dastlab xattot va musavvir Mirak Naqqosh qo‘lida tarbiyalanib undan tasviriyot va xattotlik sirlarini o‘rgandi. So‘ngra buxorolik musavvir Usta Jahongirning shogirdi Mir Sayid Tabriziy qo‘lida o‘qishini davom ettirdi va tezda mohir san’atkor naqqosh va musavvir sifatida tanildi. U o‘z davrigacha bo‘lgan tasviriy san’at sohasida erishilgan yutuqlarni mukammal egalladi va musavvirlikda yuksak insoniy fikrlar va boshqa ilg‘or g‘oyalar bilan sug‘orilgan hayotiy tasvirlari bilan shuhrati orta bordi. Behzod dastlab Alisher Navoiy, biroz keyinroq Husayn Boyqaro kutubxonasida ishladi. Shu davrdan Behzod she’riy munozara va ijodiy majlislarda, anjuman va yig‘ilishlarda qatnashdi, ishlagan tasvirlarini namoyish etib, fikr-mulohazalarni eshitdi. Behzodning saqlanib kelgan ilk asarlari, 1470-1490-yillarga to‘g‘ri keladi. Shu yillarda u doston va solnomalarga ko‘plab rasmlar ishladi. Shular ichida Shayx Sa‘diyning “Bo‘ston”(1475, 1488), «Guliston» (1495), Alisher Navoiy «Xamsa» (1485), Amir Xisrav Dehlaviyning «Xamsa» (1485), «Layli va Majnun» (1495), Ali Yazdiyning «Zafarnoma» (1490)



asarlariga chizgan suratlari bor. Ularda turli voqealar – maishiy hayot, jang va ov voqealari, shahzoda va malikalarning rasmlari ishlangan.

Jumladan, Sa'diy "Bo'stoni"(1488)ga Sulton Husayn Mirzo surati bazm paytida ishlangan. Bo'stonga ishlangan suratlardan boshqa birida Eron shohi Doroning yilqichi sarbonlar qarshisidan chiqib qolishi tasvirlanadi. Unda Eron shohi Doroning ov qilib yurib, o'z sheriklaridan adashib qolganligi va qarshisidan yilqichi chiqib qolganligi ko'rsatiladi. Kompozitsiya markazida qo'llarini ochib oldinga cho'zib turgan, qaddi behad bukchaygan kekxa cho'pon tasvirlangan. Uning atrofida tog'lar, archazorlar, yashil o'tloq va zilol suvi oqib turgan ariq, nasldor otlar, yilqichilar ko'rsatilgan. Behzod bezagan Ali Yazdiyning «Zafarnoma»(1490) asari va ko'pgina qo'lyozmalarda turli tarixiy voqealar, jang holatlari, saroydagi qabul marosimi ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, uning masjid qurilishida asari shunday ishlardan. Rassom turli voqealar, tantanali qabul marosimlarini ishlaganida, kelgan turli mamlakat elchilari va saroy mansabdorlari tasvirlangan. Ular turli kiyim-libosda holatlari ular egallagan lavozimiga mos. Xiva qal'asining Amir Temur qo'shinlari tomonidan qamal qilinishini rasmi ham jonli. Amir Temur qo'shinlarining Oltin O'rda xoni To'xtamish (1361-1395) bilan bo'lgan jangi uning qurilish borasidagi faoliyati ham "Zafarnoma"dan o'rin olgan. Shunday rasmlardan birida Bibixonim madrasasini qurish payti ko'rsatilgan. Ustalar o'z ishlari bilan band, ular turli holatlarda, pastda quruvchilarning bir qismi devor yuzasini qoplash uchun ishlatiladigan og'ir marmar taxtalarni tashimoqdalar, boshqalari bo'lsa g'isht teruvchilar uchun loy tayyorlamoqdalar. Eng yuqorida qo'lida bir shaklni ushlab turgan me'mor ko'rinadi. Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi xalq kutubxonasida amir Xisrav Dehlaviyning ikki nusxada saqlanayotgan "Layli va Majnun" dostoniga ishlangan suratlar ham Behzod qalamiga mansub. Unda Layli va Majnunning madrasada o'qish paytini tasvirlaydi, u 1495-yili bajarilgan. Bu yerda ham binoning me'moriy bezagi, naqshlar juda aniq va go'zal ishlangan. Behzod tabiat manzarasini tasvirlashda o'z davri uchun noyob mahoratini namoyon etgan. Kamoliddin Behzod portret madaniyati va san'atida ham samarali ijod etgan. Uning Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Sulton Husayn Mirzo shuning dalilidir. Parijdagi shaxsiy kolleksiyada saqlanayotgan Sulton Husayn Mirzo portretida u shohona kiyimda tasvirlanib, uning barcha xislatlarini ifodalashga harakat qilingan. Qiyofasidan kuchli iroda, jismoniy quvvatga ega bo'lganligi sezilib turadi. To'ladan kelgan g'avg'avi, horg'in yuzli, qisqiroq ko'zi, uzukli nozik qo'llari tasvirdagiga hukmdor umrining ko'p qismi faqat maishat bilan o'tganligida dalildir. Behzod Sulton Husayn Mirzoning ichki dunyosini va tashqi dunyosini ko'rishini real tarzda tasvirlay olgan.

XVI asrning dastlabki yillari yaratilgan Behzod mo'yqalamiga mansub suratlardan musavvirning yuksak kamoloti, shuning bilan birga, hissiy kechinmalarning murakkablasha boshlaganligi, ichki dunyosida paydo bo'la boshlagan ruhiy mayuslikning aksi ko'rinishi boshladi. Bu bejiz emas, albatta. Uning

buyuk murabbiysi va ustoz Alisher Navoiy (1501-yil, yanvar), Sulton Husayn Mirzo (1506-yil 5 may) vafot etishdi. Shundan keyin amirlar o'rtasida boshlanib ketgan nizolar Muhammad Shayboniyxonga Hirotni osonlikcha qo'lga kiritishga (1507-yil, may) yordam berdi. Ana shu notinchliklar Behzod ijodiga ham salbiy ta'sir etmay qolmadi. Behzod Shayboniyxon xizmatiga o'tdi. XVI asr boshlarida Behzod ijodida mazkur hodisalar chuqur o'ychanlik, nozik lirik kechinmalarni ifodalovchi sahnalarda o'z aksini topdi. Bunday suratlar Xisrav Dehlaviyning "Layli va Majnun" dostonida mavjud. Behzodning Layli va Majnunning sahdagi visol chog'ini tasvirlovchi surati o'rin olgan. Sahro Layli hijron azobi tufayli holdan toygan sevgilisining boshini avaylab tizzasiga ustiga qo'ygan. Inson azobiga tabiatdagi tinch hayot hamohangdek. Sahro qaridan o'tgan zilol suvli ariq qirg'oqlari turli-tuman gullar bilan qoplangan. Xarsang toshlar orasidan ko'm-ko'k butalar ikki oshiq sevgisi barhayotligiga guvohdek. Sahro hayvonlari: sher, qoplon, tog' bo'risi, shog'ol, tuya ikki inson yuragini g'arq qilgan ulkan sevgi kuchi bilan sehrlangandek sukutda, ular dardiga sherik. Ruhiy kechinmalar ohangi ulkan mo'yqalam sohibi tomonidan mohirona ochilgan. Behzod zamondoshlari bu rasmdan ko'plab nusxa ko'chirishgan, hatto shu manzara tasviri tushirilgan gilamlar ham paydo bo'lgan edi. Behzod o'z davrigacha bo'lgan tasviriy san'at yutuqlarini qunt bilan egalladi va san'atning mazkur turida realistik va insonparvar sifatida gavdalanadi. Shuning uchun ham Behzod asarlari ta'sirning haqqoniyligi va jozibadorligi bilan kishiga zavq baxsh etadi. Behzod Shayboniyxon xizmatida bo'lgan kezlari uning portretini ham ishladi. Tasvirda Shayboniyxon oyoqlarini chalishtirib bolishga (yostiqqa) suyangan holda ikki qo'lini tizzasiga tirab allanimalar haqida o'ylab yozishga tayyorlangan payti tasvirlangan. Uning kiyimlari oddiy, gavdasi pishiq, hiyla qorin solgan. Uning olidida turgan yozuv ashyolari: siyohdon, qalam, kitob Shayboniyxonning o'qimishli bilimdon, har bir ishni puxta o'ylab amalga oshiradigan shaxs sifatida tasvirlaydi. Asarda tasvirlangan qamchi esa uning qattiq qo'lliligi, mohir chavandozligi ramzi sifatida idrok etiladi.

Shayboniyxonning mazkur surati hozir AQShda shaxsiy kolleksiyada saqlanadi.

Shayboniyxon 1510-yili Marv yonida Eron safaviylari qo'shini bilan bo'lgan jangda mag'lub bo'lib, o'ldirilgandan keyin, Hirotni 1512-yili Eron shohi Ismoil Safaviy (1501-1524) bosib oldi. Shu bilan Hirotni tasviriy san'at maktabi o'zining ilgari, temuriylar davridagi, mavqeyini yo'qotdi. Behzod Tabrizga qochib o'tdi. 1520-1522-yili Shoh Ismoil farmoni bilan o'z kutubxonasiga boshliq qilib tayinladi.

Behzod hayotining so'nggi yillaridagi shoh asarlaridan biri ikki tuyening olishuvini aks ettiradigan suratdir. Uning ijodi Sharq xalqlari, ayniqsa, Markaziy Osiyo, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon madaniyati va san'ati rivojiga katta ta'sir o'tkazdi. Bu ta'sirda uning ko'p sonli muxlislari muhim o'rinni egalladilar. Ular Behzod ijodini davom ettirib Sharq miniatura madaniyati va san'atining keng qirralarini ochilishida yetakchilik qildilar

### **Nazorat savollari**

1. Temuriylar davri madaniyati haqida fikr yuriting.
2. Mirzo Ulug‘bek akademiyasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Shohizinda me‘morchilik ansambli haqida ma‘lumot bering
4. Temuriylar davri madaniy hayotida astronomiya ilmi o‘rni nimalardan iborat?
5. Temuriylar davri madaniyatini qaysi manbalar orqali o‘rganamiz?
6. Temuriylar davriga oid qaysi me‘morchilik yodgorliklarin bilasiz?
7. Temuriylar davri allomalarining ilmiy merosining o‘rganilishi.
8. Hirot badiiy san‘at akademiyasi haqida ma‘lumot bering
9. Hirot adabiy muhiti haqida ma‘lumot bering

### **Manbalar va adabiyotlar**

1. Abdurahmonov A. Ulug‘bek akademiyasi. – Toshkent: «Qomuslar bog‘i» tahririyati. 1993.
2. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
3. Amir Temur jahon tarixida. – Parij, 1996.
4. Ashraf Ahmad. Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay (1394-1449). – Toshkent: Xalq merosi, 1994.
5. Ahmedov A. Ulug‘bek (hayoti va faoliyati). – Toshkent: Fan, 1991.
6. Ahmedov B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi va o‘rta asrlar). – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
7. Ahmedov M.Q. Markaziy Osiyo me‘morchiligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
8. Bo‘riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo (tarixiy geografik lavhalar). – Toshkent, 1997.
9. Bo‘riyev O. Temuriylar davri ma‘naviy merosi tarixidan. – Toshkent, 2009.
10. Valixo‘jayev B. Mirzo Ulug‘bek davri madrasalari (risola). – Samarqand, 2001.
11. Valixo‘jayev B. Samarqandda oliy ta‘lim – madrasayi oliya – universitet tarixidan lavhalar. – Samarqand: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
12. Valixo‘jayev B. Xoja Ahror tarixi. – Toshkent: Yozuvchi, 1994.
13. Gulboyev N. Amir Temur va Temuriylar davrida ta‘lim // Мавераннахр в эпоху Амира Темура. – Ташкент, 2018, с.187-195.
14. Dolimov U. Temuriylar davrida madrasa ta‘limi // Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. –B. 142-152.
15. Zohidov P.Sh. Me‘mor san‘ati. O‘zbekiston arxitekturasi tarixidan lavhalar. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978.

16. Kattayev K. Madrasalarning ilmu fan rivojidadagi o‘rni. «O‘zbekiston ilm-fan, oliy ta’lim tizimining shakllanishi va taraqqiyotida Samarqand davlat universitetining tutgan o‘rni» mavzusiga bag‘ishlangan konferensiya materiallari. 2017-yil, 19 sentabr. –B. 47-50.

17. Kattayev K. Samarqand madrasalari va ilmu fan rivoji. – Samarqand: Zarafshon, 2003.

18. Kattayev K. Samarqandnoma. 4-to‘plam. – Toshkent: Mashhur-press, 2017.

19. Kattayev K. Shayx Xudoydodi Vali tarixi. SamDU, 1995.

20. Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya. – Toshkent, 1996.

21. Mamadazimov M. Ulug‘bek va uning rasadxonasi. – Toshkent, 1994.

22. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.

23. Murodov A. Markaziy Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. – Toshkent: Fan, 1971.

24. Mo‘minov I. Amir Temurning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – Toshkent: Fan, 1969.

25. Navoiy zamondoshlari xotirasida. To‘plam tuzuvchi: B.Ahmedov. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.

26. Norqulov N. Kamoliddin Behzod. – Toshkent: Fan, 1964.

27. Norqulov N., Nizomiddinov I. Miniatura tarixidan lavhalar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1970.

28. Tursunova M. Madrasalar ta’limida adabiyot sabog‘i. – Samarqand, 2010.

29. Tursunova M. Madrasalar ta’limi tarixidan lavhalar. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.

30. Tursunova M. Madrasa barpo etgan malikalar. – Toshkent: Zilol buloq nashriyoti, 2019.

31. Tursunova M. Samarqand madrasalari. – Toshkent: Fan, 2019

## **5-Mavzu: Buxoro xonligi madaniyati va san’ati.**

### **Reja**

**1. Buxoro xonligida davrida madaniy hayot**

**2. Buxoro xonligida kitobat san’ati, xattotlik, miniatura san’atining rivojlanishi.**

**3. Buxoro xonligida me’morchilik**

### **Tayanch iboralar**

Ta’lim islohotlari, adabiyot, tarixnavislik, madrasalar, maqbaralar, Registon maydoni, Labi hovuz ansambli, tibbiyot, me’morchilik yodgorliklari, musiqa.

Shayboniylar davlati 100 yil mobaynida (1500-1601) Markaziy Osiyodagi yirik davlatlardan bo‘lib, tarixda salmoqli iz qoldirdi. Bu davlatning poytaxti turli yillarda Samarqand va Buxoroda bo‘lgan. Shayboniyxon Marv daryosi yonida bo‘lgan jangda

magʻlubiyatga uchrab xalok boʻlgach, qator janglardan keyin taxtni jiyani Ubaydullaxon egallaydi. Lekin xonzodalar orasida toj-u taxt uchun kurash va oʻzaro urushlar natijasida Shayboniylar davlati ikkiga boʻlinib, birining poytaxti Samarqand, ikkinchisidiki esa Buxoro boʻlib, qoldi. Samarqand xoni “Ulugʻxon” deb eʼlon qilindi. Lekin keyinchalik Ulugʻxon qaysi joyda istiqomat qilsa, oʻsha joy mamlakat poytaxti hisoblandi. Shuning uchun ham keyinroq, yaʼni Abdullaxon hukmronlik qilgan davrda (XVI asrning ikkinchi yarmi) Buxoro qaytadan poytaxtga aylantirildi. Buxoro xonlikning muhim madaniy va siyosiy markaziga aylanishi uning mavqeyini oshirib yubordi. Hunarmandchilik nihoyatda rivoj topdi. Buxoro hunarmandlari yaratgan buyumlar tashqarida ham mashhur boʻldi. Paxtadan mato ishlab chiqarish, terini qayta ishlash, gilamchilik, kandakorlik, kulolchilik va qurolsozlik borasida Buxoro ustalari katta yutuqlarga erishdilar. Dunyoviy fanlar, musiqa, sheʼriyat, xattotlik va miniatura rassomchiligi rivojlandi.

**Meʼmorchilik.** Shayboniylar davri meʼmorchiligi ikki bosqichda oʻrganish mumkin. Bulardan birinchisi XVI asrning 60-yillargacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Bu yillarda Temuriylar davri meʼmorchiligi uslubi davom etib, uning yangi yoʻllarini topishga harakat qilindi. Shayboniylar davlatining poytaxti Buxoro shahrida katta qurilishlar olib borildi. Shaharni taʼmirlash ishlari kengaytirildi, uning mudofaa devorlari yanada mustahkamlandi. Shaharning shoh koʻchalarida mahobatli jamoat binolari barpo etildi. Bu qurilishlarda, ularni bezash ishlarida Movarounnahr, Hirot, Balx ustalari ishtirok etdilar.

1530-1536-yillarda Mirarab madrasasi, 1531-32-yili Toshkentda Suyunchixoʻja maqbarasi qad koʻtardi. Suyunchixoʻja Toshkentda 1524-yili vafot etganidan keyin bu maqbara qurilgan edi. Bu qurilgan binolarning tashqi va ichki xonalari bezakka boy, oltin hal suvi shu bezak koʻrinish alohida joziba bergan. Shu davrda Toshkentdagi Hazrati imom meʼmoriy majmuasiga asos solindi, al-Bakr Qaffol Shoshiy (1541-42) majmualari barpo etildi.

Xonlik meʼmorchiligining ikkinchi bosqichi XVI asrning 60-90-yillarga toʻgʻri keladi. Abdullaxon II boshqarga bu davrda Buxoro va undan tashqarida ham katta qurilishlar olib borildi, mavjudlari taʼmirlanib yirik majmualarga aylantirildi. Shu davrda Buxoroda Poyi Kalon Jome masjidi, Modarixon (1566-67) va Abdullaxon (1588-90), Koʻkaldosh (1557-98) madrasalari, Labi hovuz meʼmoriy majmuasi vujudga keldi. Shu yillarda Buxorodan tashqarida ham shunday majmualari yaratildi. Jumladan, Toshkentda Koʻkaldosh madrasasi qad koʻtardi. Uni Toshkent hokimi Koʻkaldosh qurdirgan. Xuddi shu nomdagi Buxorodagi Koʻkaldosh madrasasini esa Abdullaxon IIning sarkardasi Qulbobo Koʻkaldosh qurdirgan. Chor Bakr meʼmoriy majmuasi (1559) ham davrning yirik qurilmalaridandir. Abdullaxon II mablagʻiga bu yerda xonaqoh, masjid va madrasalar barpo etilgan. Qurilmalar obodonlashtirilib atrofi chorbogʻga aylantirilgan. Shu davrda katta suv inshootlari, usti berk rastalar – timlar barpo etildi. Abdullaxon bandi shunday inshootlardan boʻlgan. Toʻgʻon va suv omborini tashkil etgan Abdullaxon bandi shu yillar qishloq xoʻjaligi ishlarini

yaxshilashga qaratilgan tadbirlardan bo'lgan. Buxoroda bizgacha saqlangan Abdullaxon tomonidan barpo etilgan tim ham davr me'morchiligidagi jarayonlarni – mayishiy hayot bilan bog'liq qurilmalarni barpo etilganligini ko'rsatadi. Ko'p gumbazli qilib qurilgan tim rastalari ravoqli yo'laklar bilan bir biri bilan bog'langan. Bu davr yodgorliklaridan yana biri sardobalar, ya'ni usti berk suv hovuzlar bo'lib, ularning ustiga katta gumbazlar ishlangan..

XVI asrning 80-yillarida barpo etilgan Abdullaxon madrasasi davrning yangi yo'nalishi qo'sh madrasa qurish jarayonini yorqin namoyon etadi. Bir-biriga qaratilib qurilgan me'moriy majmualarning namunasi hisoblanadi. Bu madrasa Modarixon madrasasiga qarama-qarshi peshtoqlari bir biriga qaratib qurilgan. Ular birgalikda yagona yirik me'moriy majmuani tashkil etgan. Shu davrda Toshkentdaga Hazrati imom me'moriy majmuasi yanada kengaytirilib, qo'sh madrasa uslubida madrasa va maqbaralar barpo etildi, ayvonlar qurilib hovuz va ko'kalamzorlashtirish ishlariga e'tibor berildi.

**Tasviriy san'at.** Shayboniyxon qo'lga kiritgan Movarounnahr boy madaniy merosga ega edi. Shu yillarda Kamoliddin Behzod va uning atrofida to'plangan ko'pgina rassom va xattotlar ijod qilishar edi. Shayboniyxon va uning davomchilari davrida Markaziy Osiyo, xususan, Buxoroda san'at va madaniyat o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi. Shu yerda, ayniqsa, kitobat madaniyati va san'ati, xatotlik va u bilan bog'liq holda miniatura madaniyati va san'ati rivojlandi. Qo'lyozmalari bezash, ularni kitob holiga keltirish borasada buxorolik ustalar dong taratdilar. Bu yerga taniqli xattot va musavvirilar ko'chib keldi. Buxoro, Samarqand, Toshkentda betakror Markaziy Osiyocha miniatura maktabi shakllana boshladi. Shu san'at rivojlanishining dastlabki bosqichini shayboniylarning tarixiy bayonnomalari bag'ishlangan “Shayboniynoma”, “Fathnoma” va “Tarixi Abulxayrxon” qo'lyozmalarida o'z ifodasini topdi. Bu qo'lyozmalarga ishlangan miniaturalarni mahalliy rassomlar bajargan bo'lib, bu miniaturalarni Hirot maktabi rasmlari bilan solishtirganda, Hirot maktabi miniaturalariga xos nafislik, kiboriy ruh susayganini sezish mumkin. Bu miniaturalarning qalami jiddiy, koloriti siqiq va yaxlit, yirik ishlangan obrazlar birmuncha qotib qolgan holda ko'rsatilgan, manzara tasviri ham sodda. Yana bir muhim tomoni shundaki, bu miniaturalarning ularda tasvirlangan odamlar, ularning kiyimlari va ularni o'rab turgan muhitda o'zbek tiplariga xos fazilatlarni ko'ramiz. Shu xususda “Tarixi Abulxayrxon” miniaturalari e'tiborga loyiq. Qo'lyozma uchun 28 miniatura XVI asrning 40-yillarida ishlangan.

Shu davrdan xattotlik madaniyati va san'ati ham yanada rivojlandi. Bu rivojga Hirot maktabi kuchli ta'sir etdi. Bu ishlarda 1528-yili Hirotdan Buxoroga ko'chib kelib, umrining oxirigacha shu yerda mehnat qilgan Kamoliddin Behzod shogirdlaridan “xattotlar qiroli” Mir Ali sezilarli iz qoldirdi. Mir Ali bu yerda zamondoshi Mahmud Muzahhib va uning shogirdlari bilan hamkorlikda ishladi va qo'lyozmalarni ko'chirgan. Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanayotgan Nizomiyning dostoni ko'chirmasi shunday hamkorlikda yaratilgan.

Markaziy Osiyoda miniatura maktabining yirik vakili Mahmud Muzahhib hisoblanadi. Temuriylar saltanatiga chek qo'yilib, hokimiyat shayboniylar qo'liga o'tganidan keyin u saltanatining poytaxti Samarqandda, keyinroq Buxoroda yashab saroyda xizmat qilgan. 1572-yili, ya'ni 80 yoshida Buxoroda vafot etgan. Mahmud Muzahhib 1485-90-yillar orasida tug'ilgan, deb taxmin qilinadi. U kitob bezash hamda miniatura ishlash borasida yuksak mahoratga ega bo'lganligi uchun ham unga "Muzahhib" ya'ni "oltin suvi yurituvchi" taxallusi berilgan. Rassomning ilk asarlaridan biri Alisher Navoiyning hassaga tayanib turgan holda tasvirlangan surati hisoblanadi.

Portretda keksayib qolgan Navoiyning hassaga tayanib turgan holatida aks ettiradi. Mahmud Muzahhib portretlar ishlash bilan bir qatorda tarixiy va maishiy janrlarda ham asarlar yaratgan. Rassom ijodining gullagan davri XVI asrning 30-40-yillariga to'g'ri keladi. Shu davrda ishlangan miniaturalar ichida

"Sulton Sanjar va to'quvchi kampir bilan uchrashuvi" surati uning yetuk asarlardan biridir. Unda saljuqiylar hokimi Sulton Sanjar ovga ketayotgan paytda qari to'quvchi kampir uni xalq boshiga ko'p tashvish va uqubatlar tushirgani uchun koyiganligi hikoya qilinadi. Bu asari bilan rassom o'z davr illatlarini ham ko'tarib chiqqanligini ko'rsatadi. Sa'diyning "Bo'ston" asari miniaturalari ham Mahmud Muzahhib qalamiga mansub deb hisoblanadi. Bu qo'lyozma Toshkent hokimi Baroqxon taxallusi bilan tanilgan Navro'z Ahmad uchun 1555-yili ishlangan. Bu qo'lyozma ham Milliy kutubxonada Parijda saqlanadi.

Mahmud Muzahhib shogirdlari Muhammad Chag'ri Muhassin, Abdulla, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqalar kitob, miniatura madaniyati va san'atini rivojlantirishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Muhammad Murod Samarqandiy. Muhammad Murod Samarqandiy XVI asrning boshlarida Samarqandda tug'ilgan. Shu yerda diniy va dunyoviy bilimlarni egalladi, xususiylar maktabda rassomlik va xattotlik bilimlarini egallagan. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida diniy va dunyoviy bilimlarini oshirib, shu yerning o'zida kitob ko'chirish, ularni turli naqsh va rasmlar bilan bezash bilan shug'ullandi. Temuriylar inqirozi kuchayib borgan kezlarda aqidaparastlar tomonidan jonli narsalar rasmini chizish man etilib, rassomlar ta'qibga uchray boshlaganida, u do'sti Nodir Samarqandiy bilan birga Hindistonga, boburiylar davlatiga o'tib ketdi va shu yerda umrining oxrigacha yashab ijod qildi va hind miniatura maktabining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

XVI asr ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro Markaziy Osiyo badiiy hayotida muhim o'rin egalladi. Portret madaniyati va san'ati rivojlandi. Xonlar portretlari ishlandi. Abdullaxon, Imonqulixon portretlari shular jumlasidan. Shayboniylar davrining mashhur musavvirlari Abdullo Buxoriy, Manuchehr, Jamoliddin Yusuf kabi miniatura ustalari ham tarix sahifalaridan munosib o'rinni egalladilar. Ularning bizgacha yetib kelgan ayrim asarlari ularning yuksak did va ijodiy barkamolliklaridan dalolat beradi.

Shayboniyxon vafotdan keyin parchalana boshlangan katta saltanat yangi Ashtarxoniylar sulolasiga yo‘l ochib berdi. Ashtarxoniylar sulolasi 1601-yildan 1753-yilgacha hukmdronlik qildi. Me‘morchilik, tasviriy, amaliy bezak madaniyati va san‘ati, kitobat hamda miniatura sohasida sezilarli asarlar yaratildi.

**Me‘morchilik.** Bu davr me‘morchiligida avvalgi yillarda mavjud bo‘lgan me‘morchilik an‘analari davom etdi. Me‘morlar bu an‘analarni boyitib, ravoq va gumbaz imkoniyatlaridan foydalanib, bir-biri bilan kesishadigan yo‘lak va katta zallar yaratishga hamda muqarnasli o‘ymakorlik madaniyati va san‘atini rivojlantirishlarida namoyon bo‘ldi. Shaharsozlikning yana bir o‘ziga xosligi avvalgi asrda boshlangan yirik me‘moriy majmualarni yaratish borasidagi jarayonlar yanada rivojlantirdilar. Shu asrda Buxoroda Poyi Kalon, Labi hovuz, Samarqandda Registon me‘moriy majmuasi o‘zining tugal ko‘rinishini oldi. Buxoro, Shahrisabzda gumbaz-ravoqli yopiq bozorlar kengaytirildi. Bu davrga kelib me‘morchilik madaniyati va san‘atida bezakka yana e‘tibor orta boshladi. XVI asr ikkinchi yarmidan susaya boshlagan bu san‘at yana jonlandi. Interyer bezagida kundal uslubida (texnikasida) ishlangan naqshlar, yog‘och o‘ymakorligida ishlangan eshik va panjaralar, sergul namoyonlar davr me‘morchiligini ajratib turadi va qaytarilmas jozibasi bilan kishiga quvonch bag‘ishlaydi.

Bu davrda Buxoroda katta qurilishlar davom etdi. Shunday yodgorliklardan biri 1652-yili barpo etilgan Abdulazizxon madrasasi hisoblanadi. Nisbatlari nihoyatda go‘zal, oltin halli koshinlari yozuv, naqsh va rasmlar uyg‘unligida ajoyib manzara xosil qiladi. Madrasaning tashqi peshtoq bezagi naqsh va afsonaviy jonivorlar tasviri bilan bezatilgan. Madrasaning ichki xonalari ham e‘tiborli. Bu yodgorlik gumba‘zi bezagida ganch muqarnaslar, devorlarida gulga to‘la guldonni aks ettiruvchi pannolar o‘z aksini topgan. Peshtoqning ikkinchi qavatidagi bezagi ham xarakterli. Unda quyoshga uchib borayotgan keng yoyilgan qanotli ikki qush tasviri ishlangan. 1630-yillarda Nodir Muhammad Devonbegi qurdirgan madrasa ham bezakka boy. Uning peshtoqiga ishlangan afsonaviy qushlar tasviri ham uni boshqa madrasalardan ajratib turadi. XVII asrning yirik me‘moriy yodgorliklaridan biri Sherdor madrasasi bo‘lib, u biroz ilgariroq barpo etilgan Ulug‘bek va Tillokori madrasalari bilan birgalikda yaxlit me‘moriy majmuani tashkil etadi va Registon maydonga tugallik bergan.

Tasviriy san‘at me‘moriy bezaklarda, amaliy san‘at buyumlari keng o‘rinni egallaydi va ularning ajralmas qismiga aylangan. Shu davrda ishlangan gilam va so‘zanalalar, sopol buyumlar, Buxorodagi Nodir devonbegi Samarqanddagi Sherdor, Tillakori madrasalarining bezaklarida tasviriy san‘at o‘z ifodasini topgan.

Umuman, shuni ta‘kidlash kerakki, bu asrda ham borliqni, tabiat ko‘rinishlari, guldon yoki tuvakda ko‘karib turgan gul, daraxt shoxida xirgoyi qilayotgan chiroyli qushlar va hayvonlar tasviri shu davrda ishlangan sopol buyumlari, gilam va so‘zanalarda binolarning tashqi va ichki bezaklarida, turli xil shakllar (medalyonlar) ichiga ishlangan tasvirlarda keng uchraydi. Shu xususda Samarqanddagi Tillakori madrasasi bergan (XVII asr) naqsh va bezaklari diqqatga sazovor. Bu madrasa devoriy



rasmlarida Bibixonim masjidi, Oqsaroy devoriy rasmlariga o'xshash kompozitsiyalar uchraydi. Uncha katta bo'lmagan manzaralar – daraxt shohlari, gullar ko'rinishi moviy zamin(fon)da oltin haldan ishlangan. Bu hisobiga xonalar ko'rinishi ertaknamolik kashf etgan.

XVII asr miniatura, kitobat madaniyati va san'ati ham boy tarixiga ega. Bu asrda san'atning shu turlarida nodir asarlar yaratildi. Saroy qoshidagi kutubxonalarda rassom va xattotlarning katta guruhi mehnat qilgan. Jumladan, musavvirilar Xo'ja Gado, Avazmuhammad, Xo'ja Muqim, Mulla Behzod, xattotlar Mirza Barki, Mirza Mir Munish va Arabshoh saroy kitobxonasida yashab ijod etgan. Bulardan tashqari xonlar taklifi va buyurtmalari asosida tashqaridan ham ist'edodli rassomlar kitoblar ko'chirish va bezash ishlariga jalb etilgan. Jumladan, ashtarxoniylardan Abdulazizxon uchun ko'chirilgan Sa'diyning "Bo'ston" asari uchun ko'chirilgan qo'lyozmada (1649) Farhod ismli musavvir dasxati uchrashi shundan dalolat beradi. Nizomiyning "Xamsa" asari qo'lyozmasida esa Muhammad Muqim (Xo'ja Muhammad), Muhammad Amin, Behzod dastxatlari bor.

Shayboniyxonning o'zi ham umri jangu jadallarda o'tishiga qaramay she'riyat va tarix fani bilan shug'ullanishga vaqt topgan. Uning she'riy devon tuzgani ma'lum. U hatto xattotlik bilan ham shug'ullangan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida Kamoliddin Binoiy qalamiga mansub "Shayboniynoma" asarining Shayboniyxon ko'chirgan nusxasi saqlanadi. Ubaydullaxon (1530-1539-yillarda hukmronlik qilgan) ham ilmi va ma'rifatli hukmdor edi. Ayni paytda o'zi "Ubaydiy" taxallusi bilan o'zbek, fors arab tillarida ijod qilingan, she'riyat bitgan. Uning uch tilda bitgan she'rlaridan iborat 3 devoni bir kitobga jamlangan. Ubaydiyning 435 ruboiy, 25 qit'a, 13 tuyuqlari bor. XIX asr va XX asr boshlarida O'rta Zarafshon vohasida adabiy muhit rivoji, taraqqiyoti va muammolarini chuqur aks ettirishni inobatga olib, vohaning ilm-fan, madaniyat markazi hisoblanmish Samarqand shahri va uning atrofidagi Urgut, Kattaqo'rg'on shaharlari misolida yoritishga harakat qilindi. Buxoro amirligidagi adabiy muhit boshqa xonliklar adabiy hayotidan farq qilar edi. Bu farqni esa adabiy jarayonda markazlashmaganligida ko'ramiz. Mang'it amirlari hukmronligi davrida yetishib chiqqan yetuk adabiy namoyondalarning ko'pchiligi davlatning turli hududlarida yashab ijodlarini tirikchilik manbai bo'lgan kasb-hunar bilan birga olib borishga majbur bo'lganliklarini manbalarda ko'rishi mumkin. Bu noxush holatga qaramay turli shahar va o'lkalarda goh uyushgan, goh tarqoq o'ziga xos adabiy maktablar paydo bo'lgan, shakllangan va rivojlangan.

Buxoroning diniy markazlaridan bo'lganligi, Amir Haydarning davrida dinga e'tiborining yanada kuchayayotganligi, shubhasiz, adabiyotga ham ta'sir etdi. Xoja Ubayniy, Amirmuhammadi Yakdil, Muhammadsharif Shevon, Ruhiiy kabi tojik tilida ijod qilgan shoirlar diniy aqidalarni targ'ib qiluvchi asarlar yozganlar. Amirmuhamad Roziy, Jalol Maxdum Buxoriy, Inoyatillo Rashid Mirzo Muhammadshoh Uzlatlar esa saroyda ijod qilib amirlarni madh etuvchi she'rlar bitganlar. Mirzo Sodiq, Mirzo

Hasrat, Pariy Historiy singari tojik shoirlari, Vola, Shavqiy, Miriy, Joniy, Xumuliy, Shukuriy, Xiromiy kabi zullisonayn shoirlar ijodida yuksak insoniy fazilatlarining madh etilishi targ'ib etilishini, zamondoshlari, muhit taqdiridan shikoyatni ko'rishimiz mumkin. Davr ijtimoiy muhitini poetik ifodasi ushbu shoirlar ijodida aks ettirilgan. Bu davr adabiyotida bir nechta epik asarlar yaratilgan bo'lsada, lirika yetakchiligi davom etardi. XIX asrning boshlarida adabiyotda lirikaning 12 turi uchraydi, ular orasida eng mashhurlari g'azal, muxammas, masnaviy, qasida, qit'a sanaladi. Ba'zi shoirlar ijodida ruboiy, fard, chiston va musammad janrlarini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek shoirlari ijodida radifning mavqe'yi yuqori bo'lgan. She'riyatda Hofiz, Bedil, Fuzuliy, Navoiylarning ta'siri sezilib tursa-da, ijodkorlarning mustaqil ijodga intilishini ham ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib, o'rganilayotgan davrda O'rta Zarafshon vohasidagi o'zbek g'azalchiligining umumiy holati Mujrim, Shukuriy, Shavqiy, Xumuliy, Vola, Joniy kabi shoirlar nomi bilan bog'liqdir. G'azaldan tashqari eng ko'p yaratilgan lirik janrlaridan biri muxammas hisoblanadi. O'rganilayotgan davrda muxammasning ikki turi mustaqil holdagi va taxmis tarzidagi turlari amalda bo'lsa-da, keyingi shakli keng qo'llanilgan. Bunday vaziyat ijodkorlarning o'tmish adabiyotining muhim yutuqlariga yuqori san'atkorlik namunasi sifatida qarab, ulardan namuna olishga va o'rganishga ixtisoslashganliklari natijasida paydo bo'lgan. Agar tojik shoirlari fors-tojik adabiyotining atoqli vakillari Hofiz va Bedil g'azallariga taxmislar qilgan bo'lsalar, o'zbek tilida turkiy she'riyatning eng yuksak namunalariga, xususan, Navoiy, Fuzuliy g'azallari asosida o'nlab muxammaslar yaratdilar. Shuningdek, bir-birlari she'rlariga ham taxmislar qilganligini ko'ramiz. Ba'zi muxammaslar an'anaviy mavzular, xususan, muhabbatga bag'ishlangan bo'lsa, ba'zilarida muhitdan shikoyat, ijodkorlarning hayoti aks etgan muxammaslar ham uchraydi. Shoirlar ijodidagi bunday she'rlar ularning shaxsiy turmushi bilan bog'liq holda yozilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Vola ijodidan xabar topgan Amir Nasrullo unga Hofiz g'azallariga muxammas bog'lashni topshiradi.

*Burad in Vola kamtar az saloni orifon har chand,*

*Ba amiri shoh ba ruhi Xoja shud lek tovajjuh mand.*

Ya'ni, bu Vola garchi oriflarning itidan ham tubanroq bo'lsa-da, shoh amri bilan Xoja (Hofiz) ruhiga murojaat qilishga majbur bo'ldi.

Musaddas janri Shukuriy, Xumuliy, Vola, Shavqiy asarlarida uchraydi. Lekin bu janrlar muxammas darajasida ko'p bo'lmagan. Musaddas ham yaxshi ko'rinishga ega bo'lib, maxsus yozilgan. Musaddaslar qatoriga Shukuriyning «Laylim har soat men mahzunni fig'on chekar» she'rini qo'shishimiz mumkin. Xullas o'rganilayotgan davr adabiyotida O'rta Zarafshon vohasida musammatning muxammas shakli keng qo'llanilgan.

Qit'alar – shoirlarning davr ijtimoiy-siyosiy voqealariga munosabati, shoirning ma'lum bir vaziyatga taassurotlarining bevosita ifodasi sifatida yuzaga keladi. Bu davrda ijod qilgan shoirlarning barchasi qit'a janrida ijod etgan. Qit'alarni ham

mohiyatiga qarab 2 guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh ijtimoiy, ta'limiy mavzuda bo'lib, ularda o'z ahvolidan shikoyat, zamondan norozilik, kishilardagi salbiy xususiyatlarga nafrat, yuksak fazilatlar targ'ibi va hatto hukmdorlar madhi ko'zga tashlanadi. Ikkinchi guruhga tarix san'atiga daxldor qit'alardir. Tarix aytish san'ati qit'a shaklida keng qo'llanilgan bo'lib, o'rganilayotgan davrda ham u ancha rivojlangan. Xumuliy, Shukuriy kabi shoirlar ijodida davrning ijtimoiy-siyosiy voqealariga va boshqa turli voqealarga imoratlar qurilishi, ma'lum bir odamning mansabga tayinlanishi, o'limiga bag'ishlangan o'nlab tarixlar bitganlar. 5-12, 40 va undan ortiq baytli qit'a-tarixlar ham yuzaga kelgan. Tarix san'ati faqat qit'a janrida ishlatilib qolmay, g'azal, bir necha baytli qasida, masnaviy shakllariga ham tatbiq etilgan. Qasida-tarix, masnaviy-tarixlar davrning muhim siyosiy voqealariga bag'ishlangan. Bu borada Shukuriyning xizmatlarini alohida ta'kidlash zarurdir.

Abdushukur Shukuriy ibni Orzibek, ibni Moltalar Qushbegi, ibni Qurbonotaliq, ibni Boboshotaliq o'zi farg'onalik bo'lmish bu shoir Samarqand va Buxoroda yashab ijod qilgan. Shukuriy XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Farg'ona viloyatida tug'ilgan. Olim va shoirlar suhbatida ko'p ishtirok etgan. Kitobxonlar bilan suhbatlar ta'sirida unda ham ijod qilishga ishtiyoq paydo bo'lib, shu maqsadda safarga o'tlanadi va Samarqandgacha yetib keladi. Bu yerda u egarchilik va naqqoshlikda nihoyatda shuhrat qozondi. Shukuriy oila qurib, butunlay Samarqandda qolib ketadi. Vozehning tazkirasida bu shoir haqida shunday ma'lumotlar uchraydi: «Shukuriy ismi Abdushukur jannatsifat Samarqandning muttavattinlaridan. Ilm ololmaganligiga qaramay, yaxshi ta'bi bor. Ravonlik va sofdillikda obihayotdan ham o'tib tushadi. She'rni tez aytishi va yoqimli mazmuni barcha toifaga maqbul. Shoirning shuhrati cheka-chekkalardagi mashshoqlar va tinglovchilarga yetib borgan. Xususan, tarix topish sohasida barcha zamondoshlarini qoyil qoldirgan». Shukuriyning hunar bobidagi dovrug'i Amir Nasrulloqa yetib boradi va amir o'zining Samarqandagi noibi orqali uni o'z huzuriga chaqiradi. Shukuriy amir qo'li ostida egar yasashdan tortib, naqqoshlikkacha hatto qurol-aslaha yasash kabi hunarlar bilan shug'ullangan. Shukuriy Amir Nasrullo davridagi ko'pshilik qurilishlarda naqqosh sifatida ishtirok etgan.

Vatanimiz ko'hna tarixining qaysi davriga nazar tashlamaylik, bunda dastavval buyuk ajdodlarimiz aql-zakovati, iste'dodi-iqtidori, qobiliyati, bilimdonligi bilan birga ularning qadimdan yuksak moddiy va ma'naviy madaniyatning betakror durdonalarini, dur-u javohirlarini bunyod etib, kelgusi avlodlar uchun bebaho, boy ma'naviy meros qoldirib kelganligini shohidi bo'lamiz.

O'tgan davrlar singari Turkistondagi XVI-XX asrlar boshlari davrida ham ma'naviy madaniyat o'ziga xos yuksalishni boshidan kechirdi. Ushbu davrda olim-u fuzalolarimiz tomonidan yaratilgan yirik tarixiy-badiiy asarlar, amalga oshirilgan tarjima ijodi, ilm-fan rivoji madaniyatimiz tarixi xazinasidan o'rin olgan bebaho boylik sifatida hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Quyida bu ijodiy yo'nalishdagi ayrim mualliflar va ularning ijodlari haqidagi ma'lumotlarni qisqacha

umumlashtirgan holda keltirishga harakat qilamiz.

Turdiy (XVII asr). “Subhonqulixon to‘g‘risida hajviya” asari bizgacha yetib kelgan.

Said A‘lam Roqimiy (XVII-XVIII asrlar). Andijonlik. Hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma‘lumotlar kam. Uning “Tarixi tomm” asari ilmiy, adabiy-tarixiy, ma‘rifiy, estetik ahamiyatga ega. Unda o‘nlab huquqshunos olimlari haqida ma‘lumotlar bilan birga 1633-1644 hamda 1645-1701-yillar davomida Eron va Markaziy Osiyoda yuz bergan voqealar, hodisalar, o‘sha davrda yashab o‘tgan tarixiy shaxslar hayoti haqida ma‘lumotlar bayoni ham berilgan., shuningdek, asardagi yirik tarixiy shaxslar: Hamadoniy, Nishopuriy, Naqshband, Taftazoniy, Tayobodiy, Hasan Kubroviy, Zominiy, Hofiz, Sa‘diy, Jomiy, Navoiy, Binoiy, Koshifiy, Kotibiy, Mushfiqiylarning shaxsi haqidagi ma‘lumotlar ham muhim tarixiy manbadir.

Xo‘jamqulibek Balxiy (XVII asr oxiri-XVIII asr II yarmi). Tarixchi olim va davlat arbobi. Otasi Imomquli qushbegi Subhonqulixon saroyida xizmatda bo‘lgan. Balxiy 1718-1824-yillarda fors tilida “Tarixi Qipchoqxon” asarini yozgan. Asarning oxirgi boblarida Shayboniylar va ashtarxoniylar, o‘zbek ulusi xoni Abulxayrxondan to 1724-yilgacha Dashti Qipchoq, Movarounnahr, Xuroson, Shimoliy Afg‘oniston, Sharqiy Turkiston, Eron, Hindistonda yuz bergan muhim siyosiy voqealar tasvirlangan. Unda temuriyzoda Abu Said bilan Abulxayrxon o‘rtasidagi ittifoq, Buxorodagi qalmiqlar, qipchoqlar, qoraqalpoqlar, xitoy-qipchoqlari qo‘zg‘olonlari (1682,1715-16, 1718-19 y.y.) haqida ham muhim ma‘lumotlar berilgan. Asar qo‘lyozmasi O‘z FA ShI fondida saqlanmoqda.

Sharafiddin A‘lam (XVII-XVIII asr II choragi). Tarixchi. Andijon viloyatida tug‘ilgan. Keyinchalik Samarqandda yashagan. Uning “Tarixi Said Roqim” tarixiy asarida Movarounnahr, Xuroson va Hindistonda Temur davlatidan to 1645-yilgacha, ya‘ni ashtarxoniylardan Buxoro xoni Abdulazizxon taxtga o‘tirgungacha bo‘lgan davr tarixiy voqyealari tasvirlanadi. Bu asar Mirza Salimbek tomonidan 1913-yilda Toshkentda nashr etilgan.

So‘fi Olloyor (1644-1724). Manbalarda tug‘ilib, yashagan manzili Kattaqo‘rg‘on-Denov deb ko‘rsatilgan. Tariqat arbobi va mutasavvuf shoir. O‘z davrining barcha asosiy ilmlarini egallagan, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Buxoro xoni Abdulazizxon saroyida mas‘ul lavozimda ishlagan. Lekin darveshona fe‘l-atvorli, shoirona ko‘ngil sohibi bo‘lgan. So‘fi Olloyor o‘z davrining mashhur shayxi Navro‘zga shogird tushgan. Uning o‘zi ham shayxlik martabasiga ko‘tarilib, valiulloh (karomat sohibi) bo‘lib, yetishgan. Islom ma‘rifatini targ‘ib-tashviqi bilan shug‘ullangan.U “Maslak ul-muttaqiyn” (Taqvodorlar maslagi), “Murod ul-orifiyn” (Oriflar murodi), “Maxzan ul-mutsin” (Itoatkorlar xazinasini) asarlarini forsiy tilda, “Sabot ul-ojizin” (Ojizlar saboti), “Favz un-najot” (Najot tantanasi) masnaviyalarini turkiy tilda yaratgan. Axloqiy-ta‘limiy ahamiyatga ega bo‘lgan “Maslak ul-muttaqiyn” va “Sabot ul-ojizin» asarlari maktab va madrasalarda asosiy darslar qatorida o‘qitilgan.

Termiziy Xoja Samandar (1638-1740). Termizlik. Tarixchi olim, shoir, ulamo va davlat arbobi. 1670-yildan boshlab Buxoroda Abdulazizxon saroyida tarixchi lavozimida ishlagan. Elchi sifatida ham xizmat qilgan. Termiziy fors-tojik tilida “Dastur ul-muluk” (Podshohlarga qo‘llanma), “Anis al-fuqaro” (Fuqarolar do‘sti) asarlarini yozgan. “Dastur ul-muluk” tarixiy va adabiy asar bo‘lib, unda muallif yashagan davrdagi barcha tarixiy jarayonlar bayoni berilgan.

Xoja Mir Muhammad Salim (XVII asrning oxiri - XVIII asrning I yarmi). Tarixchi olim. Ashtarxoniy sultonlar oilasida tug‘ilgan. Ubaydullaxon II vafotidan so‘ng boburiylardan Nosiriddin Muhammadshoh xizmatiga kirgan. Uning topshirig‘i bilan fors tilida “Silsilat as-salotin” (Podsholar silsilasi) tarixiy asarini yozgan. Bu asar Buxoro xonligidagi XVI-XVIII asr II choragi tarixiy jarayonlarini o‘z ichiga oladi, shuningdek, asarda ulus tizimi, soliqlar, Markaziy Osiyo shaharlari, aholisi va urf-odati haqida qimmatli ma‘lumotlar bor. Asar qo‘lyozmasi Angliyadagi Bodlian kutubxonasida saqlanmoqda.

### **Nazorat savollari**

1. Buxoro xonligi madaniyati haqida fikr yuriting.
2. Registon ansambli to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Labi hovuz ansambli haqida ma‘lumot bering
4. Shayboniy davri madaniy hayotida tibbiyot ilmi o‘rni nimalardan iborat?
5. Ashtarxoniylar davri madaniyatini qaysi manbalar orqali o‘rganamiz?
6. Ashtarxoniylar davriga oid qaysi me‘morchilik yodgorliklarini bilasiz?
7. Shayboniylar davri allomalarining ilmiy merosining o‘rganilishi.
8. Buxoro xonligi adabiyoti haqida ma‘lumot bering
9. Buxoro xattotlari va minnatyurasi haqida ma‘lumot bering

### **Manbalar va adabiyotlar**

1. Abdullayev N.U. San‘at tarixi. 2-tom. -T.: San‘at, 2001
2. Abdullayev I. va Hikmatullayev X. «Samarqand olimlari», T.»Fan»,1969.
3. Abu Tohirxoja, «Samariya», T. «Kamalak»,1991.
4. Abu Hafs Nasafiy Qandiya yoxud Kitob ul-qand...Samarqand So‘z boshi, tarjima va izohlar.N.Norqulov. T; «Min Hoji» nashriyoti, 2005.
5. Bobur Zahiriddin Muhammad. «Boburnoma», T. «Yulduzcha»,1988.
6. G‘afforov Sh.S., Yunusov M.A., Saidov M.M., Sharipov S.I. O‘zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. – Toshkent, 2008.
7. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. - T.: Sharq, 2005.
8. Zohidov P. Me‘mor olami. - T.: Qomus, 1996.
9. Kattayev K. Samarqandnoma. To‘rtinchi to‘plam. – Toshkent, “Mashhur-PRESS”, 2017, 61-69-, 151-152-betlar.

10. Kattayev K. «Mahdumi A'zam va Dahbed» Samarqand «Sug'diyona»,1994.
11. Kattayev K. «Shayx Xudoydodi Vali tarixi», Samarqand,1995.
12. Kattayev K.Samarqandning buyuk allomalari. Samarqand,1998.
13. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. –T.: O'qituvchi, 1997.
14. Sadridin Salim Buxoriy, «Tabarruk ziyoratgohlar», T.,»Yozuvchi»,1993.
15. Suvonqulov I. «Samarqand qadamjolari», «Samarqand»,2002-yil.
16. Samarqand tarixi ikki jildlik, birinchi jild T.»Fan», 1971.
17. Muhammad Siddiq Rushdiy, «Avliyolar sultoni, Turonlik valiyalar»,T. «Kamalak»,1995.
18. «Qandiya». Nashrga tayyorlovchi O'zFA Samarqand bo'limi ilmiy xodimi Kattayev K. Samarqand, «Sug'diyona»,1995.
19. Hofiz Tanish Buxoriy. «Abdullanoma» birinchi va ikkinchi jild»Fan»,1966
20. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. –T.: O'qituvchi, 1997.
21. O'zbekiston san'ati. (1991-2001-yillar) -T.: Sharq, 2001.
22. O'rolov A. O'tmishdagi davolash va shifbaxsh muassasalar. – Toshkent, «Fan», 1996.
23. O'rolov A., Yusupov R. Markaziy Osiyoning o'tmishdagi ta'lim-tarbiya va ilm-fan maskanlari. O'quv qo'llanmasi. – Samarqand, 2005, 81-bet.

## **6-mavzu: Xiva xonligida madaniyat va san'ati**

### **Reja:**

1. Xiva xonligi adabiyoti
2. XVI - XIX asrlar(Xorazm)dagi musiqa madaniyati
3. Xorazm maqomlari va o'ziga xosligi
4. Xiva xonligi me'morchiligi va shaharsozligi

### **Tayanch iboralar**

Xiva xonligida ta'lim, adabiyot, tarixnavislik, madrasalar, maqbaralar, Ichanchal'a, Dishanchal'a, tibbiyot, me'morchilik yodgorliklari, musiqa, Abulg'ozzi Bahodirxon, Munis Xorazmiy, Ogahiy,Feruz

XVI asrda Xorazm davlati qayta tiklangandan keyin 410-yil davomida Xiva taxti 49 xon ko'rgan. Ular orasida bir hafta, uch kun, hattoki bir kun hukmronlik qilganlari bor. Ammo davlatchilik, iqtisod va madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shib nom qoldirganlari ham o'tgan. Xiva tarixining ana shunday nufuzli xonlari qatorida taniqli olim, “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima” asarlarining muallifi Abulg'ozzi Bahodirxon (1642-1663), Sherg'ozziyxon (1713-1726), Muhammad Rahimxon I (1807-1826), Olloqulixon (1826-1843), Muhammad Aminxon (1845-1855), Said Muhammadxon (1855-1864), Muqammad Rahimxon II (1864-1910) kabilarni aytish mumkin. Namlari zikr etilgan xonlarning deyarli barchasi ilm-u

ma'rifatga, she'riyat va musiqaga alohida qiziqish bildirgan.

Xiva xonlari o'z davrida, madaniy hayotga juda katta ta'sir ko'rsatganlar, xaqiqatda ham xonlarning ko'pchiligi o'zlari ham she'rlar yozishdan tashqari, shoirlarni qo'llab quvvatlaganlar, ularga homiylik qilishgan.

Abulg'ozining to'liq ismi-sharifi Abulg'oz Bahodirxon ibn Arab Muhammadxon Xivaqiy bo'lib, u otasining taxtga o'tirgan birinchi yilida 1603-yilning 15-avgustida xonlik poytaxtida Xivada tavallud topdi. U shahardagi Arab Muhammad madrasasida 16 yoshigacha tahsil ko'rib, ham dunyoviy, ham diniy ilmlarni chuqur o'zlashtiradi. 16 yoshidan boshlab otasi uni saroy ishlariga jalb qilib, avval boshda Urganch shahriga hokim qilib tayinlaydi. 1623-yilda otasi Arab Muhammadxonning vafotidan so'ng uning 20 yillik darbadarlikdagi umri boshlanadi. Taxt uchun ayovsiz kurash boshlagan og'a-inilarning jang-u jadallari tufali Turkiston, Samarqand, Buxoro so'ngra esa o'n yil Eronda, Isfarada umrguzaronlik qiladi. Taxt uchun olib borgan jang-u jadallardan so'ng 41 yoshida Xivaga qaytib kelib, toki umrining so'ngigacha 20 yil Xorazm taxtini o'tirdi. 1630-yilda Isfandiyorxon Abulg'ozini Eronga yuborgan edi. U Erondagi Isfahon viloyatining Taborak qal'asida 10 yil turdi, 11-yili hiyla ishlatib qochdi. Xurosonga kelib tog'dan oshib tushdi va turkmanlar ichida ikki yil turdi. U yerdan Mang'ishloqqa bordi. Mang'ishloq shahri uni bir yil saqlab, Urganchda o'tirgan o'z xalqi ichiga yubordi. Hijriy 1053-, milodiy 1643-yili Abulg'ozixonni orollik qoraqolpoqlar xon qilib kutardilar. Abulg'oziyxon "Shajarayi turk" va turkmanlarning iltimosi bilan "Shajarayi tarokima» asarlarini yozdi. Tabobatda ham mohir bo'lib, fors tilida "Manofe' ul-inson" – "Insonlarga manfaatlar" nomli bir asar yaratdi. Avvalgi ikki kitobi turklar va turkmanlarning kelib chiqish tarixi bo'lsa, keyingisi tabobatga oid bo'lib, unda davolash usullari, dorivor o'simliklar, ulardan dori tayyorlash va ularni ishlatish haqida so'z yuritiladi. Abulg'ozixon 1603-yilda tug'ilib, 1663-yilda vafot etdi. 60 yil yashab, 20 yil hukmronlik qildi. Tarixda podsho sifatida emas, yirik tarixchi olim va tabib sifatida qoldi.

Abulg'ozixonning asarlari juda katta tarixiy qiymatga ega bo'lib, Xorazmning uzoq tarixini xonliklar shajarasini, millatning iqtisodiy-ijtimoiy qiyofasini mukammal ko'rsatib bergan. Ayni paytda Abulg'oz Xivaning birinchi tabibi nomi bilan ham mashhur. U xonlik davrida tibbiyot bilan chuqur shug'ullangani, o'zigacha mavjud bo'lgan tibbiy risola asarlarni tadqiq etgani, jahon tibbiyoti tarixidan xabardor bo'lgani, egallagan bilimini hayotga qo'llagani ma'lum. Ana shu izlanishlari, amaliy faoliyatining natijasi bo'lgan "Manofe' ul-inson" (Inson uchun foydali tadbirlar) risolasi katta ahamiyatga molik. Asarning yozilish davri haqida tarixiy manbalarda aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo, u asar Abulg'ozining uzoq yillik darbadarlikdagi hayotidan qaytib kelib, xonlik taxtiga o'tirib, saltanatini mastaxkamlab olganidan keyingi, taxminimizcha, 1650-yillar boshida yozilgan bo'lishi mumkin. Tarixiy asarlarini esa umrining so'nggi yillarida yozib tugatgan.

Abulg'ozixon davrida ilm bilan shug'ullanib, risola bitish, tajribalar o'tkazish

bilan mashgʻul boʻlmasdan, kasalliklarning oldini olish uchun yurt obodonchiligi ozodalik va ovqatlanish kabi masalalarga ham davlat siyosati sifatida eʼtibor qaratgan. Oʻsha davrda Xiva bozorlarida xalq tabobatchilari dorivor giyohlar, dorilarni sotishlari, tayyorlashlariga keng imkoniyat yaratib berilgan. Oʻzi bevosita saroy tabiblari va boshqa kent va qishloqlarda faoliyat koʻrsatayotgan hakim va tabiblarning erkin ishlari, ayni paytda aldamchilik, insofsizlik qilmasliklarini nazorat qilib borgan. Eng eʼtiborli tomoni – bevosita xonning oʻzi tabobat bilan shugʻullangani, tabiblik qilganidan, hamma zamonlarda saltanat sohibi qiziqqan soha boshqa rahbar va ulamoning eʼtiborida boʻladi. Xonlik aholisining sogʻligini saqlash, umrni uzaytirishga birinchi masala, deb qaralgan zamonda yurtning barcha burchaklarida tibbiyotga boʻlgan eʼtiborning oshgani shox va tabib Abulgʻozi Bahodirxonning tarixiy xizmatidir.

Abulgʻozixon va Anushaxonlarning qabr toshlari Pahlavon Mahmud maqbarasi xonaqohining shimoli gʻarbiy burchagida yerdan yarim metrcha balandlikda koshinli supacha ustiga oʻrnatilgan har ikkala qabr toshi chiroyli oʻyma naqshlar bilan bezatilgan.

Arab Muhammadxon Xiva xoni (1602-1623yillar) taxtda oʻtirgan. Uning davrida 1616-yilda Arab Muhammadxon madrasasi qurilgan. Abulgʻozixon davrida Goziobod shaharlari qurilgan. Hozirgi kunda bu joy Goziobod – Qoʻshkoʻpir tumanida. (Shoxobod – nomi biroz oʻzgarib Shovot tumani boʻlib, yuritiladi). Abulgʻozixon davrida Oq masjid qurilgan. Oq masjid – Ichan-Qalʼaning sharqiy darvozasi tarkibiga kiradi. Masjid poydevori Anushaxonning hammomlari bilan bir vaqtda 1657-yilda qurilgan. Mazkur binolar oʻymakori eshiklarning yozuvlariga qaraganda, 1838-1842-yillar mobaynida qurilgan. Oʻsha yerning oʻzida hamkorlik qilgan ustalarning ham ismi sharifi Nurmuhamad Odina, Qalandar oʻgʻli, Qalandar Sayid Muhammad oʻgʻli. Masjid mahallaniki boʻlib. Qubbali zal va uch yoqlama ayvondan iborat. Oʻlchamlari: 25,5x13,5 m, balandligi 12,3 m., zal 6,35x6,35 m.

Anushaxon hammomlari – 1657-yilda Karmanaga qilingan yurish chogʻida Buxoroliklar hujumidan saqlab qolganligi uchun Abulgʻozixonga inʼom etgan sovgʻalardan biridir. Hammom yarim yertoʻla shaklidagi usti gumbazlar bilan yopilgan inshootdir. Oʻlchamlari: 27x15 m.

Isfandiyorxon Xiva shahrining hozirgi vaqtda Dishanqalʼada joylashgan, oʻziga soʻnggi oromgohga Toʻrt Shayxbos (Toʻrt Shobboz) deb nom qoʻyadi. Sababi u yerda 3 ta shayxning qabri bor. Toʻrtinchisi qilib Isfandiyorxon ham qoʻydirgan. Maqbara moʻjazzgina ixcham qilib qurilgan, dahma, masjid, uning ichida balandligi 15 metrlik minora, eski maktab va kichkinagina madrasa joylashgan. Majmuaning oʻrtasida 4 burchakli hovuzi bor.

Xoʻjamberdiy yoki Xurjun madrasasi – 1688-yilda Ichanqalʼaning qalʼa devorlari yonida qad koʻtargan. XIX asrning darvozasining yonidagi ansambl shahar ichi territoriyasidan chiqib ketadi va Dishanqalʼa territoriyasida oldini koʻrimsizgina Xoʻjamberdiy madrasasi toʻsib turgan Olloqulixonning yangi madrasasiga asos



solinadi. Shu sababdan u butunlay qayta ishlab chiqildi, u Olloqulixon madrasasining portaliga olib boradigan yo‘lak va pandus bilan qoq ikkiga bo‘lib tashlandi. Bu bilan ikki mustaqil hovli vujudga keldi. Uning xurjun deb nom olishiga sabab ham shu. Madrasaning asosiy bezagi 1688-yil deb yozib qo‘yilgan o‘ymakorli kirish eshigi, xolos.

Bizning davrimizda Abulg‘ozixon shaxsi yovuz hukmdor yoki o‘z manfaatlari yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan shoh sifatida tasavvurimizda shakkllanmaydi. Hozirgi kunda barcha tarixiy, ilmiy asarlarda, darsliklarida Abulg‘ozixon hayoti va faoliyati, Xorazm tarixnavisligini boshlovchisi, tarixda markazlashgan davlat tuzgan podshohlardan biri, adabiyotda eski turkiy tilda Xorazm shevasida ijod qilagn adabiyotshunos, tibbiyot tarixida mohir tabib va tibbiy asar yozgan shaxs sifatida e‘zozlanadi. Uning asarlari XVIII-XX asrlarda nemis, rus, fransuz tillarida ko‘plab chop qilingan. O‘tgan asrning oxirlarida uning ikkita tarixiy asari o‘zbek tilida qayta chop qilindi. Abulg‘ozixon haykali Urganch shahrining markazida salobat to‘kib turibdi. Chunki shu shahar asoschisi Abulg‘oziy Bahodirxondir. Uning nomi bilan ko‘cha, xiyobon, ommaviy-oqartuv muassasalari ataladi. Xiva Ichanqal’a muzey-qo‘riqxonasining “Xiva xonligi bo‘limi” ekspozitsiyasida Abulg‘ozixon sulolasining faoliyati tasvirlangan. Hozirgi kunda Ma‘mun akademiyasi olimlari Abulg‘ozixonning tibbiy asari “Manofe’ ul-inson” kitobining asl nusxasini topishdi. Hozirgi kunda bu kitob Do‘stlik shahrida yashovchi marhum tabib, faxriy akademik Bozorbuvaning shaxsiy kutubxonasida saqlanmoqda.

Ekspozitsiyaning o‘ng tomonidagi yo‘lak boshlanishida «Xivak qudug‘i» XIX asr fotosi, pastdagi vitrinalarda shoir Pahlavonquli Ravnaqning she‘rlari va Olloqulixon kutubxonasining kitoblari qo‘yilgan. Yo‘lakning qolgan qismida Xorazmning asl farzandlari Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiylarning hayoti va faoliyatiga doir kitoblar, hamda boshqa buyumlar qo‘yilgan. Endi biz ularning hayoti va ijodi bilan tanishamiz.

Shermuhammad Munis Xorazmiy (1778-1829) iste’dodli shoir, hassos san’atkor, xushxat xattot, mohir tarjimon, tarixchi, olim, jonkuyar ma’rifatparvar va xalqparvar madaniyat arbobi, o‘tkir siyosatdon, Xorazm adabiy muhitidagi ma’rifatparvarchilik adabiyotining buyuk namoyondasidir. U hayotda juda yaxshi mirob bo‘lgan. “Munis ul-ushshoq» - «Oshiqlar do‘sti” nomli devoni hamda ma’rifatparvar pedagog sifatida «Savodi ta’lim» asari va “Firdavs ul-iqbol” nomli asarlari meros bo‘lib qolgan, tarjimon sifatida Mirxondning “Ravzat-us-safo» - «Soflik bog‘i» asarini tarjima qilgan.

U 1778-yilda Xiva yaqinida Qiyot qishlog‘ida Avaz mirob oilasida tug‘ildi, uning bolalik va yoshlik yillari Qiyot qishlog‘ida, so‘ngra Xiva shahridagi madrasalarda o‘qigan. Ustozi Said Eshonxo‘jadan ta’lim oldi, arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti, shuningdek, mumtoz musiqa hamda tarix fanini qunt bilan o‘rgandi. U mohir xattot bo‘lib, kufiy, rayhoni, shikasta kabi arab xat turlarini yaxshi bilgan. Uning otasi Avazbiy 1800-yilda o‘lgach, xon 22 yashar Shermuhammadni saroyga

taklif qiladi, uni qazuv-kechuv, suv xo‘jaligi ishlari bo‘yicha kotib, 1812-yilda xon Erniyozbekni mirob qilib, Munisni mamlakatning bosh mirobi qilib tayinlaydi. Shu davrda, ya‘ni 1804-1806-yillardagi Xiva xoni Eltuzarxon Munisning tog‘asi edi. U jiyaniga Xorazm tarixini bitishni topshirdi. Munis bu asarga “Firdavs-ul-iqbol» (Baxtli kelajak bog‘i) deb nom qo‘ydi, asar Munis va jiyani Ogahiy qalamiga mansub bo‘lib, u afsonaviy rivoyatdan boshlanib, 1825-yilgacha Xorazmda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi.

Munis bu asarni yozib tugata olmagan, u qadim zamonlardan boshlab Muhammad Rahim I hukmronligining 7-yili, ya‘ni 1813-yilgacha bo‘lgan voqealarni yozib ulgiran, 1813-yildan 1825-yilgacha bo‘lgan voqelar Ogahiy qalamiga mansub bo‘lib, 1255-yil hijriy, 1839-yili yozilgan. Asarning mukammal nusxasi Munis va Ogahiy qo‘lyozmasiga mansub bo‘lib, 613 bet, asar Markaziy Osiyo qog‘oziga, qora siyoh bilan nasta‘liq xatida yozilgan.

Asar Rossiya Fanlar Akademiyasining, Sankt-Piterburg bo‘limida kp-938 raqam bilan saqlanmoqda, uni rus sharqshunosi A.Kun 1874-yilda topshirgan. Asar keyinchalik, 1856-yilda mulla Nurniyoz ibn mulla Muhammadniyoz tomonidan Toshkentda 1879-yilda ko‘chirilgan. Muhammad Rizo oxund ibn Muhammad Karim Toshkentda 1903-yilda devon tartib berdi. Toshkentda 1903-yilda Xojaniyoz al-Xonkokiyl ko‘chirgan. 1910-yilda mulla Xudoybergan Xivaqiy Tojikistonda ko‘chirgan.

Asar Xiva xonligi hududida yashovchi o‘zbeklar, turkmanlar, qozoq va qoraqalpoq xalqlari tarixini aks ettiradi. Munis bu asarini Eltuzarxon (1804-1806) davrida boshlagan, 1806-yilda Buxoro amiri Haydar bilan bo‘lgan urushda Eltuzarxon o‘ladi, undan keyin u Muhammad Rahim-I davrida bu asarni davom qildiradi. U bu davrning 7 yillik tarixini yozib tugatganidan keyin, bu ishni to‘xtatib, buyuk tarixchi Mirxondning “Ravzat-us-safo” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilishga kirishadi. Bu asarni ham 1-bo‘limini tarjima qilib, 2-bo‘limi ustida ishlay boshlaydi, lekin 1829-yilgi Olloqulixonning harbiy yurishi vaqtida vabo kasalligi bilan vafot etdi, uning ishlarini jiyani Ogahiy davom qildirdi. 30-yildan ortiq ijod qilgan Munis Xorazmiy ota-bobolaridan meros bo‘lib, kelayotgan sulolaviy kasb miroblik haqida “Arnalar”, «Savodi ta‘lim” nomli risolalari biz uchun nihoyatda qimmatlidir. Ushbu kitob tufayli biz vohada suvchilik kasbi, dehqonchilik tarixi, suv uchun bo‘lgan urushlar tarixi bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy voqealardan xabardor bo‘lamiz.

Qabri Xiva yaqinidagi Shayx Mavlon bobo qabristonida, jiyani Ogahiy u bilan yonma-yon yotibdi. Maqbara 1989-1999-yillarda ta‘mirlangan, sahni 120 kv metr, balandligi 11 metr.

Muhammad Rizo Erniyozbek o‘gli Ogahiy (1879-1874) XIX asr adabiyotining ko‘zga ko‘ringan buyuk vakillaridan birdir. U Munisning jiyani bo‘lib, Munis qo‘lida tarbiyalangan. Ogahiy yetuk olim va shoir, tarjimon va tarixchi, Munisdan keyin xonlikning mirobi bo‘lgan. Ogahiy jahon adabiyoti, madaniyatining nodir durdonalari sanalgan 20 dan ortiq asarlarni o‘zbek tiliga o‘girib,

tarjimashunoslik maktabini yaratdi. U tarixiy mavzuda «Riyoz ud-davla» (1825-1842-yil voqealari) (1844), «Zubdat ut-tavorix» (1843-1846-yil voqealari) (1846), «Jome'ul voqeoti Sultoni» (1846-1855-yil voqealari) (1856), «Gulshani davlat» (1856-1865-yil voqealari) (1865) va «Shohidi iqbol» (1865-1873-yil voqealari) nomli asarlar yozgan. Qo'lyozmalarning ayrim sahifalarida suv dog'lari bor, Qo'qon qog'oziga yozilgan, sarlavhalari qizil siyoh bilan yozilgan, qizil charm muqovada, ko'chiruvchining ismi va yili ko'rsatilmagan, 227-varaq, 14-25 sm o'lchamda. Asarda Xorazm tarixigina emas, Buxoro amirligi va Qo'qon xonlarini Rossiya bilan olib borgan urushlari, bitimlari va uning oqibatlari mukammal ravishda yoritilgan.

Ogahiy tarixga oid asarlar yaratib Munisning bu sohadagi an'analarini ham yanada rivojlantiradi va yuksaklikka ko'taradi. Munis va Ogahiy hamkorlikda yozgan «Firdavs ul-iqbol» o'zining Xorazm tarixiga oid beshta asari faqat o'zbek xalqining tarixini o'rganish jihatdan ahamiyatli bo'lib, qolmasdan, balki qardosh tojik, qozoq, turkman, qoraqolpoq, rus, eron, afg'oniston xalqlarining tarixi, madaniyati, san'ati, urf-odatilari, psixologiyasi, shu xalqlarning kelib chiqishi, tirikchiligining manbai kabilarni o'rganishda ham boy material beradi. Shunisi xarakterliki, bu asarlar iste'dodoli shoir, taraqqiyparvar adiblar Munis, Ogahiylar tomonidan yozilganligi sababli ularda xalqlarning tarixi, hayoti, kundalik mashg'uloti, masjid, madrasalarning qurilishi, turli xil voqea hodisa bayoni, xalq qo'zg'olonlari, urushlar tarixi, buyuk kishilar, olimlar, shoir-yozuvchilar va shu kabi ma'lumotlar proza, poeziyada realistik asosda to'g'ri, aniq ifodalab berilgan.

Adib qalamiga mansub 26 asardan hozirgi kunda to'rttasi topilgani yo'q, Bizgacha yetib kelgan asarlarining 22 tasidan 16 tasi Beruniy nomidagi Respublika Sharqshunoslik institutida, shuningdek, 6 asarining 11 ta nusxasi saqlanmoqda.

Sankt-Peterburgda 10 ta asari va 7 tasi Dushanbe shahrida shoir devonining bir nusxasi bor.

Hozirgi kunda adib asarlarining 22 tasi 72 ta qo'lyozma nusxada dunyo fondlarida saqlanmoqda. Uning asarlarini birinchi bo'lib Herman Vamberi Said Muhammadxon (1855-1864) davrida Xivaga kelgan vaqtida olib ketgan. 1873-yilda A.Kun xon xazinasidan 300 ta nodir kitoblarni olib ketganda, Munis va Ogahiylarning asarlarini ham olib ketgan. Undan keyin V.V.Bartold juda ko'p Markaziy Osiyolik tarixchilarning asarlari bilan birga Munis va Ogahiy asarlarini ham o'rganib o'zining «Turkistonning sug'orilish tarixi» (S.P.b.1914) va «Turkman xalqi tarixidan lavhalar» (Leningrad, 1929) kitoblarini yozgan. Undan keyin P.P.Ivanov va A.K.Borovkovlar ham o'zlarining «Markaziy Osiyo xalqlari tarixidan lavhalar» (1958) va «XIV-XIX asrlarda turkmanlar tarixi» degan asar yozgan.

Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib, toshbosma – litografiya, ya'ni matbaa 1874-yilda yo'lga qo'yildi, O'zbek kinosinig qaldirg'ochi, birinchi foto-kinooperator Xudoybergan Devonov faoliyati boshlandi, Xonning o'zi ham «Feruz» – «baxtli, toleli» taxallusi bilan she'rlar yozib, saroyga 340 dan ziyod shoir va bastakorlarni to'pladi. Komil Xorazmiy Xorazm maqomini notaga tushirdi va «Tanbur chizig'i»

nomli notani yaratdi, Muhammad Rahimxonning 47 yillik xonligi davrida Xivada 40 dan ortiq me'moriy yodgorliklar qad ko'tardi, shoirlarning asarlari toshbosmadan chiqarilib nashr qilindi, bu ishlarning boshida xonning o'zi turgan.

Ekspozitsiyaning oxirida Xorazm tarixida yoqqol iz qoldirgan Muhammad Yusuf Bayoniy, Ahmadjon Tabibiy va Avaz O'tar haqida ma'lumotlar, ularning kitoblaridan namunalar ko'rsatilgan.

Avaz O'tar Polvonniyoz O'tar o'g'li 1884-yil, 25-avgustda Xiva shahrida sartarosh, kosib oilasida dunyoga keldi. U boshlang'ich ma'lumotni eski maktabda oldi, keyinchalik Avaz Xivadagi Qutlug' Murod Inoq madrasasida tahsil ko'radi, lekin uning madrasadagi o'qishi ko'pga cho'zilmadi. U tezda madrasani tark etib, o'zi mustaqil ilm olishga kirishdi.

Bo'lajak shoir yoshligidan kitob o'qishga, ayniqsa, she'riy asarlarni chuqur ehtiros bilan mutolaa qilishga favqulodda havaskor edi. Shuning uchun ham uning kitobxonasi Lutfiy, Sakkokiy, Munis, Ogahiy, Komil va Muqumiy devonlari bilan boyitilgan edi. U kun-u tun ana shu so'z sa'natkorlarining asarlarini o'qir va ulardan oziqlanardi. Yosh Avaz 14 yoshdan she'r yozishni mashq qila boshladi, tez fursatda, ya'ni 18 yoshda iste'dodli shoir sifatida xalq o'rtasida tanildi.

Avaz O'tarning ijodi uning do'stlari shoir Safo Allaberganov (Mug'anniy), shoir va musiqachi Matyusuf Xarratov (Chokar), Komil devoniy, shoir Qurbon ota Ismoilov va Ismoilov Jumaniyoz, Odamov Abdulla, Xudoybergan Devonov kabi do'stlari ta'sirida yanada rivojlanadi.

Avaz O'tarning ustози Ahmadjon Tabibiy, shoirni Muhammad Rahimxon II Feruz saroyiga yaqinlashtirishga, uning bilimlarini rivojlantirish uchun Avazni Muhammad Rahimxon huzuriga olib boradi. Avaz saroy shoirligiga qabul qilinadi. Avaz saroyda 5-6-yil qolib ketdi va u yerda ishqiy she'rlar yozdi, xonning xizmatidagilarni hajv ostiga oldi, bundan hatto valiahd Isfandiyor to'ra ham benasib qolmadi.

Lekin Xorazm adabiyotining kuchli an'anaga ega bo'lgan taraqqiyparvar yo'nalishi ruhida tarbiyalangan. Avaz O'tar saroy ruhi, saroy adabiy muhiti bilan chiqishishi mumkin emas edi. Buning ustiga XX asr boshlarida Rossiya miqyosida yangi kuch bilan ko'tarilayotgan umumdemokratik harakat to'lqini shoirga katta ta'sir ko'rsatdi.

Avaz O'tar ijodida erkparvarlik, ozodlik g'oyalari, turmush illatlariga qarshi qaratilgan hajvlar paydo bo'la boshladi. Avaz O'tar ijodiy taraqqiyotining ikkinchi bosqichi (1905-1914-yillar) o'zining izchil demokratik ruhi bilan ajralib turadi. Bu davrda shoir yuksak insoniy fazilatlarini, chinakam insoniy muhabbatni ehtiros bilan tarannum etuvchi jo'shqin lirik she'rlar qatorida antikolonial ruhda qit'alar, ruboiylar yozdi.

Avaz O'tar ijodida alohida o'rin tutgan hajviy sher'lar turkimi "Faloniy" ham shu davr mahsulidir.

Avazning bir she'ri bor, unda shohlar suhbatiga "band" kishi "doim giriftori

qafas” bulbulga o‘xshatiladi. Bunda nimaga ishorat qilinayotganligi ayon, albatta. Avaz tabiatan erk odami bo‘lgan. Saroy tevaragidagi fikriy erksizlik, teran ijodiy dard va otashin ehtiroslardan yiroq suxanguftorliklar uni qiynaganligi tabiiy. Bundan boshqacha bo‘lganda, Avaz bugun biz bilgan inqilobiy vijdon shoiri mavqeyiga ko‘tarila olmasdi. Chunki mumtoz shoirimiz shaxsi va g‘oyaviy e‘tiqodlarining shakllanishi ular mansub muhit va zamonga qarshi borish, botinan kelishmaslik sabablariga ham bevosita tegishlidir.

Avaz – umid shoiri, zamonasi tan olmagan, tahqirlagan, ishonchsizliklar iskanjasida qaddini tiklay borgan tilaklar kuychisi.

U hammadan ortiq hayotdagi o‘zgarishlarga, qullik va nodonlik kishanlari parchalanishiga umid bog‘lar hamda ishonardi. U “falak davriga doim inqilob rasm-u odat” ekanligini anglar, anglagan sari erk va hurlik to‘g‘risidagi tushanchalari sobitlashardi: Qarang, u bir she‘rida nima deb bashorat qilgan edi.

*“Olam gulistoni aro har ishni qilmay orzu,*

*Voqif, ul, ey maxzun Avaz, qilguvchi davron inqilob”.*

Fidoyi shoir o‘z isyonining oqibatlaridan mutlaqo cho‘chimaydi. U shoirni oxir-oqibatda xalq va vatan istiqboli uchun qurbon bo‘lishga tayyor shaxs sifatida shakllantirdi. Shu boisdan ham uning tilidan:

*“Na yaxshi o‘ylakim, ma‘quli manzur,*

*Avaz, xalqim uchun to‘kilsa qonim”*,– degan.

So‘zlar benihoya rost, samimiy eshitiladi. Avazning xon va uning amaldorligiga bo‘lgan nafrat va norozilik fikr-u hislaridan iborat she‘rlari ko‘paygan sari unga nisbatan dushmanlik xurujlari ham kuchaygan. Biroq, bor-yo‘g‘i o‘ttiz besh yilgina umr kechirgan, shu qisqa hayotning keyingi yillari ham kulfat va og‘ir azoblarga to‘la bo‘lishiga qaramay Avaz katta ijodiy meros yaratib qoldira oldi.

Mulla Bekjon va Muhammad Yusuf ta‘biridagi “ikkinchi davr” va undan keyingi xonlar zamoniga oid ma‘lumotlarni “Xorazm musiqiy tarixchasi”ning o‘zidan topish mumkin. Undan yana bir-ikki lavhani izohlab o‘taylik:

Muhammad Rahimxon I (1807-1826) zamonida mashhur musiqashunos xivalik Niyozjon Xo‘ja degan Buxoro o‘lkasiga borib burundan ma‘lum bo‘lgan “Shashmaqom” yo‘llarini tanbur bilan o‘rganib, Xivaga qaytgan ekan. Bu odam Xivaga kelgani bilan sozdagi iqtidor va mahorati Xorazm musiqashunoslarini nazari diqqatlarini jalb qilgan.

Shu Niyozjon Xo‘jadan Maxsumjon qozi, Usta Muhammadjon sandiqchi deganlar “Shashmaqom” yo‘llarini tamom o‘rganadilar. Mazkurlar o‘rgangan nag‘malarni havaskor shogirdlariga ta‘lim qilmoqqa boshlab, ko‘pgina tanburchi shogirdlar yetishtirdilar. Niyozjon Xo‘janing shogirdi Muhammadjon sandiqchidan Abdusattor mahram o‘g‘li ta‘lim oladi. Bu odam xalq va hukumat ichida sohib nufuz, odiqqan bir kishi bo‘lgani uchun “Shashmaqom” uslublari borgan sayin rivojlana boshlagan.

Muhammad Aminxon musiqaga shu darajada havasli bo‘lganki, yuqorida

nomlari yozilgan musiqashunoslardan murakkab bazmi majlislar tashkil etishni xush ko'rgan. Uning zamonida Abdusattor mahramdan Usta Xudoybergan etikchi, Usta Xudoybergan etikchidan esa Pahlavonniyoz Mirzoboshi Abdullo Mufti o'g'li (Komil Xorazmiy) Shashmaqom yo'llarini butkul o'zlashtiradi.

Sayyid Muhammadxon 1855(hijriy 1272)-yili Qutlimurodxon o'rniga xonlik taxtiga o'tirib, to'qqiz yil xonlik qiladi. Uning zamonida Xorazm o'lkasida tinchlik-osoysishtalik hukmron bo'ladi. Natijada xalq va xonda musiqaga alohida ishtiyoq yuzaga keladi. Xonning o'zi dutor, g'ijjak sozlarini chertmoqqa oshno bo'lib, yuqoridagi musiqashunoslar bilan tez-tez soz va suhbat majlislari o'tkazar edi.

1864 (hijriy 1281)-yili Sayyid Muhammadxon o'rniga kelgan Muhammad Rahimxon soniy musiqiy ilmga g'oyat havasli bo'lib, musiqiy ishlarni oldingi zamonalardan ko'ra yanada yuksak darajada rivojlanishiga da'vat etdi. Buning natijasida Xorazmda mislsiz bir musiqiy qayta uyg'onish yuzaga keldiki, muhtasham saroy maqom an'analari(olti yarim maqom)ning rivoji davlat ahamiyati darajasiga ko'tarildi. Bundan tashqari, el orasida azaldan urf etilgan mumtoz kuy va ashulalar, dutor maqomlari, doston yo'llarini izchil taraqqiy etishiga katta rag'bat ko'rsatiladi. Natijada Xorazm oldingi sozparvar o'lka shuhratini qayta tiklaydi.

Xorazmda maqom san'atining yuksalishida uchta xon: Muhammad Aminxon, Said Muhammadxon, Muhammad Rahimxon xizmatlarini alohida tilga olish kerak. Bu jarayonni to'laroq tasavvur qilish uchun mavzuga batafsilroq to'xtalib, ayrim qo'shimcha ma'lumotlarni eslab o'tish foydadan holi emas.

Xorazmning mumtoz ashulalari orasida "Feruz I" va "Feruz II" deb nom olgan benazir namunalar mavjud. Ular maqomlar doirasidan tashqarida tursa ham, salohiyati aslo kam emas. "Feruz"lar o'zining tik avjlari va ularning ijrosidagi qochirimlari bilan Xorazm uslubini belgilovchi asarlar hisoblanadi.

Aytishlariga qaraganda, oldingi xonlar, xususan, Muhammad Rahimxon I hamda Olloqulixon zamonlarida "Feruz" ashulasi xalq og'ziga tushib, ziyofatlarning ko'rkiga aylanib ketgan. Shunda o'ktam va shijoatli Madaminxon ko'nglida yangi bir "Feruz" paydo etish ishtiyoqi tug'iladi va bu ish Xorazmning eng zabardast san'atkorlariga topshiriladi. Bastakoru hofizlar jam bo'lib, shunday yangi "Feruz" yaratibdiki, oldingisi "tillo uzuk" bo'lsa, bunisi unga "gavhar qoshdek" yarashib tushibdi. Shunday qilib, bir-biridan go'zal va afzal "Feruz"lar dunyoga kelibdi. "Ustozlarimiz aytardi, Muhammad Aminxondan (Olloh rahmat qilsin) avlodlarga tengsiz bir Ko'k minor va bir Feruz qoldi", - deya Bola baxshi gapirib bergan hikoyalarini O.Matyaqubov "Maqomat" kitobida yozib o'tganlar.

Xiva madaniy hayoti, unda soz san'atiga bo'lgan e'tibor xorijiy olim va sayyohlar tomonidan ham e'tirof etiladi. Said Muhammadxon saroyining madaniy muhitini kuzatgan H.Vamberi quyidagilarni yozadi: «Kechki ovqatdan keyin xon ashulachi, cholg'uchi va qiziqchilar ishtirokida hordiq chiqarishga odatlangan. Xivada ashulachilar juda qadrli. Ularning shuhrati faqat Turkistonda emas, balki butun Islom Sharqida ma'lum". Muhammad Rahimxon II davri Xorazmda adabiyot,

san'at, xususan, musiqa sohasida sezilarli yutuqlarning qo'lga kiritilishi bilan e'tiborga loyiq. Bunday uyg'onish jarayoniga rahnamolik qilgan xonning shaxsiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muhammad Rahimxonning o'zi turli sohalarda ilm olgan, iste'dodli shoir hamda soz san'atining otashin muxlisi sifatida gavdalanadi. U "Feruz" taxallusi bilan ajoyib she'rlar yozib devon tuzgan, dutor va tanbur chalishni, mumtoz kuylarni va maqom yo'llarini chuqur mutolaa etish ilmini o'zlashtirgan.

Adabiyot borasida Feruzning piru ustozlari, zamonasining eng yetuk shoiri va allomasi Muhammad Rizo Ogahiy, musiqiy tarafdin rahnamolik qiluvchilari Komil Xorazmiy va uning o'g'li Muhammad Rasul Mirzaboshilar bo'lgan. U ko'plab kuylar ijod etgan va umrining osuda damlarini soz va suhbat muhitida o'tkazishga intilgan.

Musiqa va she'riyat kechalarini o'tkazish Feruzning doimiy odatiga aylandi. Bunday nafis bazmlar qurish, sozanda va shoirlar nazmidan bahra olish butun Xorazm vohasining o'ziga xos manzarasiga aylandi. Maqom san'atining rivojini izchil yo'lga qo'yish uchun Feruzning bevosita nazorati ostida saroy sozandalari guruhi to'zigan. Bu ishga layoqati yetadigan hofiz va cholg'uchilar jalb etilib, ularga maxsus maosh tayinlangan. Sozandalarning mashg'ulotlari saroyda maxsus ajratilgan joyda va muntazam ravishda o'tkazilgan. Ularning ishini nazorat qiladigan rahbarlar bo'lgan. Malakali sozandalar safini doim to'ldirib borish maqsadida eng obro'li ustozlarga shogirdlar tayyorlash vazifasi yuklangan. "Ustoz-shogird" maktabi uzoq muddat davomida raqs, musiqa va she'riyat asoslarini o'rganishga imkon ochgan..

XIX asrning 70-yillarida bevosita Feruz rahnamoligida Xorazm maqomlarini xatga tushirish uchun maxsus nota yozuvi ustida katta ijodiy izlanish olib borilgan. Bu ishni amalga oshirishni Feruz Xivaning eng peshqadam shoir, olim va musiqashunoslaridan biri Polvonniyoz Mirzaboshi(adabiy taxallusi Komil Xorazmiy)ga topshiradi. U "Rost" maqomidan bir-ikki kuylarni ko'rsatib bergan yozuvdan o'g'li Muhammad Rasul Mirzaboshi boshchiligida Xorazm maqomlarini to'la notalashtirish amalga oshiriladi. Bu yozuv sozandalar orasida "Tanbur chizig'i", ilmiy manbalarda "Xorazm tanbur notasi" va "Xorazm tabulaturasi" nomlari bilan yuritiladi.

"Xorazm maqomlari" turkumi Xorazm an'anaviy musiqasining eng yirik namunasidir, u XIX asrda shakllanib, keng rivojlangan. "Xorazm maqomlari" turkumi "Rost", "Buzruk", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq" va "Panjgoh" maqomlaridan iborat bo'lib, har bir maqom o'z navbatida "Shashmaqom"ga o'xshash ikki bo'limdan iborat: cholg'u bo'limi – Chertim yo'li yoki Mansur; ashula bo'limi – Aytim yo'li yoki Manzum deb ataladi. Xorazm maqomlari "Shashmaqom" kabi ustoz-bastakorlar mahsulidir. Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon Xo'ja, Feruz, Komil, Muhammadrasul Mirzo, Matyoqub Xarratov va boshqalar maqomlarga yangi cholg'u qismlar bastalab, ularni shaklan va mazmunan boyitdilar. Kuy tuzilishi, lad asoslari saqlangan holda maqomlar Xorazmga xos musiqiy uslublarda ijro etilib kelingan. Buxoro maqomlari bilan qiyoslaganda Xorazm maqomlarida ba'zan ashula

yo‘llarining doira usullari, kuy yo‘llari ixchamlashtirilib olingan va bir oz usul sur‘ati tezlashtirilgan yoki soddalashtirilgan. Xorazm maqomlaridagi kuy yoki ashula yo‘llarida namunalar eng katta o‘zgarishlarga uchragan, “ularning o‘rniga bastakorlar ijod etgan yangi avjlar ham kiritiladi”.

Xorazm maqomlarining chertim yo‘li tarkibiga Tanimaqom (tasnif vazifasini bajaruvchi), Tarje‘, Gardun, Muxammas, Saqil qismlaridan tashqari Peshrav va Ufor qismlari kirgan.

Xorazmga xos bo‘lgan cholg‘u asarlar – Sayri Gulshan, Zarbul futh, Fohitiy zarb (Potiha zarb), Xafif ham ayrim maqomlar tarkibiga kirgan. Asar shakllari xona va bozgo‘y asosida tuzilgan. Doira usullari sodda va yengil, ijro jarayonida o‘zgarishlar kiritilishi mumkin.

Xorazm maqomlarining aytim-ashula yo‘llari tarkibida sho‘balar qatori - Tanimaqom (Saraxbor vazifasini bajaruvchi), Talqin, Nasr, Ufor, taronalar ham mavjud (faqatgina Tanimaqomdan keyin ijro etiladi). Ammo ularga turdosh bo‘lgan Xorazmga xos Suvora, Naqsh, Faryod, Muqaddima kabi ashula yo‘llari aytilib kelingan.

“Xorazm maqomlari” turkumi o‘ziga xos mahalliy maqom uslubi sifatida gavdalanadi. U ham Buxoro maqomlari singari mazmunan va usluban, shaklan va ijrochilik madaniyati nisbatan mustaqil ahamiyatga molikdir. Ushbu maqom turkumi voha ijrochilik an‘analari bo‘yicha yakkanavozlik tarzida erkin va badihago‘ylik ravishda aytilib, Xorazm hududida mashhur bo‘lgan mumtoz shoirlar – Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar, Atoiy va boshqalarning she‘rlaridan keng foydalanib kelingan.

Xorazm maqomlarining ashula (aytim) bo‘limlari tarkibidagi sho‘balar “Shashmaqom” yo‘llarining ko‘p jihatlarini, asosan, saqlab qolgan. Lekin so‘nggi yillarda Xorazm ashula ijrochiligidagi o‘ziga xos xususiyatlarga bog‘liq holda, ba‘zi ashula yo‘llari tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib ketgan. Xorazm maqomlarining aytim yo‘llari sho‘balarining ba‘zi qismlari bizgacha yetib kelmagan (Iroq va Panjgoh maqomlarining faqatgina chertim yo‘llari bizgacha saqlanib qolingan).

Maqomlar aytim bo‘limlarining bosh sho‘basi bo‘lgan Saraxborlar Xorazmda maqomlar nomi bilan yuritilgan – maqomi Rost, maqomi Buzruk, maqomi Navo, maqomi Dugoh, maqomi Segoh; keyinchalik ularga Tanimaqom nomi berilgan. Tanimaqom Rost kuy tuzilishi “Shashmaqom”ning Rost Saraxbori ohanglaridan iborat bo‘lsada, biroz o‘zgartirilib ijro etiladi. Undagi xanglar va namudlar ham qisqartirilgan holatda ifoda etilgan. Rost Saraxborining uchta taronasi Xorazm maqomida terma, suvora va naqsh deb nomlanadi. Suvora yo‘li Rost Saraxborining uchinchi va to‘rtinchi taronalari asosida yaratilgan, Naqsh “Shashmaqom”ning Ushshoq Nasri sho‘basining birinchi va ikkinchi taronalari asosida bo‘lib, uning ma‘lum ko‘rinishi Xorazmda “Hanuz” nomi bilan mashhurdir.

Xorazm vohasida «Xorazm maqomlari» turkumidan tashqari besh qismli “Feruz” ashula-cholg‘u maqom turkumi, Dutor maqom turkumlari ham keng



tarqalgan.

Xorazmda maqomchilik san'atini targ'ib etishda Muhammad Rahimxon Soniy, Komil Devoniy, Xudoybergan Muhrgan, Matyoqub Pozachi (Harrat), Matpano Xudoyberganov, Madraim Sheroziy, Hojixon va Nurmuhammad Boltayevlar, Komiljon Otaniyozov, Ro'zmat Jumaniyozov, Ikrom (Ozod) Ibrohimovlarning xizmatlari juda katta va ahmiyatlidir.

Xalq dostonlari negizida tashkil topgan va takomillashib kelayotgan, faqat Xorazm vohasiga mansub musiqiy janrlardan biri – xalfachilik san'ati ham ilmiy, amaliy tadbiq etishga loyiq adabiy-musiqiy manbadir.

Xalfalar ijodidagi lapar, yalla, aytishuvlar, milliy raqslar bir qator olimlar S.Ro'zimboev, R.Yunusov, B.Matyoqubov kabilar tomonidan o'rganilgan.

Sharq allomalari Zaynulobiddin al-Husayniy, Najmiddin Kavkabiyy Buxoriy, Hoji Abduqodir Marog'iy, Abu Nasr Forobiyy, Abu Ali ibn Sino, Al-Kindiy, Faxriddin ar-Roziy, Mahmud ibn Mas'ud ash-Sheroziy, Jaloliddin Rumiyy, Abdurahmon Jomiyy, Darvish Ali Changiy Buxoriy, Muhammad ibn Mahmud al-A'moliyy va boshqa allomalar xalq musiqasi asosida yuzaga kelgan folklor musiqasining badiiy va tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida o'zlarining qarashlarini bayon etganlar.

Folklor qo'shiqlarini tinglash orqali ularda ifodalangan mazmunni anglash, xalq musiqasi ta'sirida shakllangan ajdodlarimiz tomonidan og'izdan-og'zga o'tib kelgan, xalqning boy madaniy merosini keyingi avlodlarga yetkazish yo'lida xizmat qiladigan yo'nalishlar yuzasidan tasavvurlar shakllanishining psixologik xususiyatlari Forobiyning «Musiqqa haqida katta kitob», «Musiqqa ritmlari haqida kitob», Ibn Sinoning «Donishnoma», «Musiqqa ilmi haqida risola», Faxriddin ar-Roziyning «Ilmlar xazinasi» qomusi, Urmaviyning «Davrlar kitobi», Al-Husayniyning «Musiqqa ilmi va amaliyoti qonunlari», Kavkabiyy Buxoriyning «Musiqqa haqida risola», Jomiyning «Musiqqa haqida risola» va boshqa ilmiy asarlarda o'z aksini topgan.

Xalqimizning mentalitetini alohida chizgilar orqali ifodalab beradigan folklor qo'shiqlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni o'quvchilar ongida shakllantirish bilan bog'liq holatlarni ifodalashda psixologik ta'sir imkoniyatlaridan keng foydalanish musiqiy ta'lim jarayonidagi asosiy vazifalardan biridir.

Yoshlarda musiqiy tasavvurlarning shakllanishi, rivojlanishi, xalq musiqiy folklorini egallashga nisbatan moyillikning paydo bo'lishi, unda ifodalangan his-tuyg'ularning o'z tuyg'ulari bilan mutanosibliyi ularni estetik tarbiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ijro etilayotgan folklor qo'shiqlari mazmunida ifodalangan insonning ichki kechinmalari, hayajonlarini tuyish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, xalqparvarlik, odamlarga nisbatan sadoqatli bo'lish, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi xislatlar qaror topadi, ularning ruhiy holatida keskin ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi.

Xorazm musiqqa folklori namunalari o'ziga xos xususiyatlari: milliy ohanglarning o'ynoqiligi, jo'shqinligi, yoqimlili, folklor qo'shiqchiligigagina xos

bo'lgan sozlarining tovush hosil qilish xususiyatlari orqali milliy xislatlarni ifodalashi, qo'shiqlar shaklining tuzilishi, milliy kuy rivojlanishi qonuniyatlarining shaxs ongidagi in'ikosi, qo'shiqlar matni yordamida xalqning etnik turmush tarzi va milliy qadriyatlarining yorqin tasvirlanishida namoyon bo'ladi.

Folklor qo'shiqlarida o'z aksini topgan har qanday kayfiyat yoki ruhiy kechinma inson ongida aniq ijtimoiy voqelik, hodisalar haqidagi xotiralar va his-tuyg'ularni uyg'otishi tabiiy bo'lib, o'quvchilar ularni ob'yektiv badiiy umumlashma, sub'yektiv psixik holatlar bilan taqqoslashga harakat qiladilar.

Folklor qo'shiqlarini tinglaganda hosil bo'ladigan tasavvurlar ta'sirida turli yosh guruhlarga mansub o'quvchilar chuqur hissiy hayajon, quvonch, jo'shqinlik va ichki ko'tarinkilik singari hissiy holatlarni o'z faoliyatlari davomida namoyon qila oladilar.

Xorazm folklor qo'shiqlari tarkibidan o'rin olgan xalfachilik va doston qo'shiqchiligi alohida ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni estetik tarbiyalash, ularga milliy qadriyatlarni singdirish, ajdodlar an'alaridan xabardor qilish va barkamol inson shaxsini shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xususiyatlarga ega.

«Xalfa» arabcha so'zdan olingan bo'lib, «o'qimishli», «ustoz» degan ma'nolarni anglatadi. Xalfa so'zi ikki ma'noda qo'llaniladi:

- diniy kitoblarni o'qiydigan, marosim va mavludlarda rahnamolik qiladigan, xalq orasida ma'rifat tarqatadigan otinoyi, ya'ni mulla ayollar;
- kuy va qo'shiqlar to'qib, ularni ijro etib, ayollarning madaniy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladigan san'atkorlar ko'zda tutiladi.

Tarixdan bizga ayonki, o'tmishda xotin-qizlarning turmush tarzi muayyan darajada chegaralangan edi. Ular o'zlarining qalb tuyg'ulari, dardlarini torli yoki damli asboblarning jo'rligisiz, faqat doira chalib yoki ikki bo'sh piyolani bir-biriga urishtirish natijasida chiqqan tovush bilan kuylab kelganlar. Bu davrda xalfalarning asosiy cholg'u asbobi doira bo'lgan. U Xorazmda «Daryo», «Daf», «Dap» deb yuritilgan.

Y.Yusupovning ta'kidlashicha, XIX asrning oxirlariga kelib, Xonimjon xalfa Said Ahmad qizi 1895-yildan boshlab to'ylarda soz chalib kuylay boshlagan. San'atkor xalfa hamda erkak sozchilarning o'xshashligi faqat umumiy cholg'u asbobi bo'lgan sozda emas, ularning repertuarlari, ijro uslubida ham bir-biriga o'xshashlik mavjud bo'lgan mushtarak tomonlarni ko'p kuzatish mumkin. Talaygina Xorazm qo'shiq va termalari, laparlarini har ikki, ya'ni erkaklar va ayollar tomonidan birday kuylanganligi buning yorqin dalilidir.

Xorazm musiqa folklorida xalfachilik san'ati muhim ahamiyat kasb etadi. Erkak va ayol xalfa sozandalarining o'ziga xos tomonlari ko'proq ularning kuylash va turmush tarzida, to'y va marosimlarda bajaradigan vazifalari jihatidan sezilarli bo'lsa, kuy va usullar, musiqiy asarlarning shakli va matni jihatidan badiiy merosning umumiy xazinasini tashkil qiladi.

Xalfachilik san'atining rivojlanishida Shukurjon xalfa (1851-1950), Shoni xalfa (1870-1920), Guljon qori xalfa (1874-1935), Bibijon Xalfa (1875-1920), Aytjon xalfa (1875-1955), Oysha kulol xalfa (1880-1949), Xonqalik Durxonim xalfa (1881-1936), Anash Ma'ram (1882-1917), Sapo Ollaberganov (Mug'anniy) (1882-1938), Kish xalfa (1884-1948), Onajon xalfa (1885-1952), Madrahim Yoqubov (Sheroziy) (1890-1973), Sharifa No'g'ay xalfa (1892-1960), Onabibi xalfa (Ojiza) (1899-1952), Sharifa xalfa (1900-1972), Yoqut xalfa Saidniyozova (1903-1972)lar o'zlarining hissalarini qo'shganlar. Biz yuqorida tilga olib o'tgan xalfalardan mashhuri Onabibi Otajonovadir. U xalq orasida «Ojiza» nomi bilan tanilgan. Onabibi Otajonova nafaqat mohir ijrochiligi, balki, xotirada bir umrga qoladigan kuylar to'qiganligi bilan nom chiqargan.

Onabibi Otajonova to'rt yoshligida chechak kasalligi bilan og'rib, ko'zi umrbod ko'rmay qoladi. To'qqiz yoshida sangarlik Qosim devon va uning qizi Bibijon xalfaga shogirdlikka tushadi. Onabibi o'n uch yoshga to'lgach, g'azal to'qish, qo'shiq aytilish, soz chalish bilan birgalikda, xalq dostonlarini yoddan ayta boshlaydi. Undan bevosita tarbiya olgan Nazira Sobirova, Amina Quryozova, Ullibibi Boyjonovalar xalfachilik san'atining rivojiga o'z hissalarini qo'shganlar.

Ojiza repertuarida «Muboraklar bo'lg'ay», «Arka qizlar», «Xurshidi jahon galdi», «Shodligim shodlik ustina», «Tuninay», «Galmadi-galmadi», «Uyolaman», «Xo'sh galdingizlar», «Sangar», «Targ'uncha», «O'lguncha sizni derman» kabi qo'shiqlar bilan bir qatorda, «Asil va Karam», «Oshiq Alban», «Oshiq Mahmud», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Go'ro'g'li» turkumiga oid ayrim dostonlar maromiga yetkazilib kuylangan. Ojiza she'rlarining ko'pchiligi murabba' shaklida (a-a-b), ba'zilar esa ruboiy shaklida qofiyalangan.

Ojiza asarlarida xalq poeziyasiga xos bo'lgan alliteratsiyalar (undosh tovushlarning takrorlanishi), ayniqsa, ko'proq ko'zga tashlanadi va she'rda ohangdorlik, o'ynoqilikni ta'minlaydi.

Xalfalar tomonidan yaratilgan qo'shiqlar hamda kuylangan dostonlar milliy musiqiy qadriyatlarimizning asosidir. Bunday qadriyatlarni asrash, uni keng targ'ib qilishga davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda. Bular o'quvchilarning estetik didi, qadriyatlarni anglashi va o'ziga xos yangi-milliy, badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantiradi. Shu bilan bir qatorda, madaniy-ma'rifiy muassasalar yoshlarni haqiqiy san'at, chinakam go'zallik ruhida tarbiyalash maskanlari bo'lmog'i lozim. G'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarning yetakchi o'rinni egallab olishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiyoti inson ongining rivojlanishi bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayoni ham muntazam takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Bola endigina dunyoga kelgan kundan boshlab, onaning ardog'i, yoqimli allasini eshitadi. Bolalar uchun yaratilgan maxsus alla qo'shiqlari inson ongiga ona suti bilan kiradi. Keyinchalik u kengayib, rang-barang ohanglar, xilma-xil ramzlar, so'zlar bilan mukammalashib

boradi. Folklor qo‘shiqdarida hayot badiiy timsollar orqali aks ettiriladi va shu tufayli kishi qalbida estetik his-tuyg‘ular, hayajonlar, ko‘tarinki kayfiyat, rahm-shavqat, shodlik, g‘am-qayg‘u, nafrat, hasrat paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham, Xorazm musiqa folkloriga barcha kishilar birday murojaat qiladilar.

Abu Ali ibn Sino qo‘shiqning (alla nazarda tutilmoqda) bola tarbiyasidagi ahamiyatini ko‘rsatib, bu masalada faqat jismoniygina emas, ruhiy omilga ham diqqatimizni qaratadi: Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun, unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani sekin-asta tebratib, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo‘lib, qolgan musiqa va alladir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste‘dodi hosil bo‘ladi.

Ulug‘ Hakim alla aytayotgan onaning uni ijro qilayotganda g‘azab, g‘amginlik, cho‘chish singari salbiy holatlardan xoli bo‘lishini ta‘kidlaydi. Demak, alla uni kuylayotgan onaning qalbida ham mehr-muhabbat hislarini uyg‘otadi.

Shoira o‘z she‘rlarida «nargiz ko‘z», «oq olma», «inju tish», «xush qiliq», «shirin dil», «qayrilma qosh», «qora ko‘z», «suji til», «sarvday», «malakday», «bolday» kabi xalqqa xos sifatlash va o‘xshatishlarni ustalik bilan o‘z o‘rnida qo‘llaydi va aytmoqchi bo‘lgan fikrini tinglovchiga ravshan anglatishga muvaffaq bo‘ladi.

Xorazmda xalfachilik bilan bir qatorda, dostonlarning ham o‘z o‘rni va mavqeyi bor.

Doston xalq ma‘naviy qadriyatlarini qorishiq holda mujassamlashtirgan og‘zaki ijod shakllaridan biri bo‘lib, unda qo‘shiq kuylash, musiqa deklamastiya qilish, bayon qilish kabi badiiy–estetik qadriyatlar o‘z aksini topgan. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar ulug‘lanadi, ular baxshilar tomonidan ijro etiladi. Dostonlarning hissiy kuchi orqali ajdodlarimizning aralashib ketgan falsafiy, diniy, axloqiy qarashlari, urf-odatlar, turmush tarzi badiiy tafakkur mahsuli sifatida bayon qilinadi.

Xorazm dostonchiligi o‘zining qadimiy ildizlari, betakror uslublari, shevasi hamda yorqin jozibali kuy va qo‘shiqdori bilan ajralib turuvchi boy murakkab va ayni damda mushtarak adabiy-musiqiy voqelikdir. Ko‘pchilik turkiy xalqlarda bo‘lgani kabi Xorazm dostonlari ham aralash, ya‘ni hikoya, she‘r, ba‘zi hollarda she‘riy tarzda namoyon bo‘ladi.

Xorazm dostonchiligining boshqa janrlardan farqi, uning musiqiyliigi, qo‘shiq matnlarining keng rivojlanganligi, ravon avjlari, serjilo cholg‘u muqaddimalari, parda va tovushga xos qator belgilari bilan ajralib turadi. Dostonchi ularni, asosan, ochiq ovozdada yakka dutor yoki tor jo‘rligida kuylaydi.

«Doston» forscha so‘z bo‘lib, turli ma‘nolarni anglatadi:

1. Doston – afsona, rivoyat, hikoya.
2. Doston – nasr yo nazmiy matnga asoslanib, musiqa bilan aytiladigan poema, ertak.
3. Doston – cholg‘u asboblarida barmoq o‘rni va shu joyda hosil qilinadigan parda.

Doston atamasini A.Fitrat quyidagicha ta'riflaydi: «Burungi turklarning shulon, motam, to'y kabi umumiy yig'inlarda, ibodatxonalarda baxshilar qo'bizlarini chalib, o'rnug'a yarasha dostonlar, maxtanishlar, ashulalar, marsiyalar o'qur ekanlar».

Ko'rinib turibdiki, adabiyot, she'riyat, musiqa, tomosha va qator san'at turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi dostonlar Sharq xalqlari adabiyotida shaklan va mazmunan boy, ko'p qismli adabiy asar hisoblanadi.

Xorazm dostonchiligining ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Markaziy Osiyo hududida ilk madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan bu diyorda dostonchilik an'analari, miloddan avvalgi IX-X asrlardayoq keng taraqqiy topganligiga oid ayrim ma'lumotlar mavjud. Jumladan, zardushtiylarning muqaddas «Avesto» kitobidagi «Yasht» deb ataluvchi xudolar va qahramonlar haqidagi doston va afsonalar, ularda Siyovushni Siyovarshin, Jamshidni esa Yima nomlari bilan aks etishi, «Vandidod» nomli diniy marosimlar va qoidalarning musiqiy ohanglar jo'rligida ijro qilinganligi Qo'yqirilgan qal'a topildiqlarida aks ettirilgan. Gerodotning «Tarix» kitobida «Araks» (Amu) bo'yida yashovchi xalqlar daraxtning quruq meva va shoxlarini tutatib, bu tutundan mast bo'lib, o'yinga tushadilar va sho'x qo'shiq aytadilar, deb yozilgan.

Miloddan avvalgi I asr va milodning XIII asri orasidagi davrga oid Xorazm tangachalarida Siyovush chavandoz – xudo timsolida aks ettirilgan. Son-sanoqsiz haykalchalarda tasvirlangan otlarning kallasi, «Hazorasp» afsonasining kelib chiqishi va boshqa dalillar insonning otga sehrli afsonaviy mavjudot sifatida sig'inganligi va mehr qo'yanligining yaqqol dalilidir. Afsonalarda ta'kidlanishicha, Hazorasp o'rnida besh buloq bo'lib, u yerdan suv ichgani sehrli, ilohiy otlar uchib kelar ekan. Sulaymon payg'ambar ularni tutish maqsadida, suvga musallas aralashtiradi. Suvni ichgan otlar kayfi oshib ucha olmay qoladi. Sulaymon payg'ambar esa ularning qanotlarini qirqib odamlarga beradi va qo'lga o'rgatishni buyuradi. O'sha otlarning soni mingta bo'lib, Hazorasp nomi shundan qolgan ekan. Bu an'ana keyinchalik "Me'rojnoma"dagi Muhammad payg'am-barning oti al-Buroq Hazrat Alining oti Duldul, Rustam dostonning oti Raxsh, «Alpomish» dostonidagi Boychibor, Go'ro'g'lining oti G'irotlarning timsolida o'z aksini topgan. Buning natijasida "Rakba'ni" (rakb – otliq), "Suvora" (suvoriy – chavandoz) qo'shiqlarining kelib chiqishiga zamin yaratilgan.

Islom dini, xususan, Qur'oni Karim negizida shariat asoslarini targ'ibot qiluvchi har xil qissalar, doston va doston sifat nomalardan: «Me'rojnoma», «Sultonboboning me'roji», «Bobo Ravshan», «Payg'ambarlar hikoyati», «Yusuf va Zulayho», «Kiyiknoma» kabi musiqiy jihatdan boy dostonlar yaratilib keng tarqalgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, XI-XIII asrlarda ko'p elatli turkiy xalqlarning o'g'iz qabilalari Markaziy Osiyo tekisligi, Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo'ylarida yashaganlar. XI asrning birinchi yarmida saljuqiy sultonlar yetakchiligida Eronning shimoliy, Kavkaz ortining janubiy va kichik Osiyo yerlarini zabt etib, u joylarda, asosan, o'g'iz tillarini tarqatganlar. Shu bilan birga, madaniyatning boshqa turlari,

shuningdek, dostonchilik san'ati ham keng yoyilgan. Turkiy xalqlarida doston aytuvchilarni qadimda o'zan deb yuritilgan. O'zanlar qo'biz chalib kuylaganlar va Qo'rqit boboni o'zlariga piru ustoz deb bilganlar. Bobo Qo'rqit butun Osiyo, Kavkaz ortida yashovchi turkiy xalqlarda afsonaviy qo'shiqchi, dostonchilik asoschilaridan biri sifatida gavdalanadi.

Rivoyatlarda aytilishicha: Qo'rqit bobo onasidan tug'ilganda xaltacha ichida bo'lgan. Uni ko'rganlar qo'rqib ketadilar va haltani ochib qarasarlar ichida nimjon chaqaloq yotgan bo'ladi. Uni ko'rib barcha xursand bo'lib, quvonib ketadi va bizni boshidan qo'rqitdi, shuning uchun, ismi Qo'rqit bo'lsin, deb bolani shu nom bilan ataydilar.

Ikkinchi rivoyatda esa, qarigan Qo'rqit boboning jonini olish uchun ajal doimo kuzatib yurar ekan. Ammo Qo'rqit bobo kecha-yu kunduz hech tinmasdan «Hayot qo'shig'i»ni kuylar va buning natijasida ajal unga yaqinlasha olmas ekan. Bir kuni u charchab, holdan toygan va ko'zi bir nafas uyquga ketgan paytda ajal zaharli «qayroq ilon» qiyofasida uni chaqadi va Qo'rqit bobo vafot etadi. Shundan beri «Hayot qo'shig'i» va ajal o'rtasida tinimsiz kurash borar emish.

Rivoyatlardan ko'rinadiki, doston qo'shiqlarini kuylash, ularni ijro etish qadimda paydo bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan musiqiy meros sifatida talqin qilinadi.

Xorazm dostonchiligida ikkita yirik uslub mavjud bo'lib, baxshilarning o'z iboralari bilan aytganda, ular shirvoniy va eroniy uslublar deb yuritiladi.

Shirvoniy uslubdagi baxshilar doston nomlarini qanday atalishini yaxshi bilsalar ham, ko'pincha birovga aytishni sir tutadilar. Shirvoniy uslubdagi baxshilar, asosan, dutor, tor, garmon, g'ijjak, doira jo'rligida doston aytadilar.

Eroniy uslubdagi dostonchilar, asosan, dutor bilan doston aytadilar. Ko'pincha unga bulamonchi va g'ijjakchi jo'r bo'ladi, lekin doirachi qatnashmaydi. Eroniy uslubdagi dostonchilarning kuylari musiqiy vaznlarning soddaligi, vazminligi, mungliligi, tovush ko'lamining cheklanganligi bilan ajralib turadi.

Xorazm dostonchiligida ikki xil dutor qo'llanilib, ularning biri katta (uzunligi 970–1040 mm), ikkinchisi uzun (bo'yi 1300 mm) dutorlardir. Bu cholg'u asbolari tut yoki o'rik yog'ochidan yasaladi. Ular qovurg'ali dilma dutor va o'yib ishlangan qazma dutor deb yuritiladi, qopqog'i esa tut yog'ochidan yupqa qilib ishlangan. Dutorlarning ikkalasini ham yuqori tori taxminan kichik oktava «re» va pastki torlari katta oktava «sol» yoki «lya» ba'zan «qo'sh tor» qilib sozlanadi.

Xorazm dostonlarining tarbiyaviy ahamiyati, ularda yuksak go'zallik va baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo'li – maqsad sari qat'iy intilish, sabr va chidam, matonat, mardlik, qahramonlik ko'rsatishdan iborat ekanligi kuylanadi., shuningdek, muhabbat umuminsoniy qadriyat sifatida insonning ma'naviy qiyofasini belgilab beradigan omil, har qanday yovuzlik ustidan qilinadigan g'alabani ta'min etadigan kuch, insonni jasoratga undaydigan va qalbidagi barcha ezgu fazilatlarini ro'yobga chiqaradigan vosita sifatida tarannum etiladi hamda yoshlarni sadoqatli qahramonlar

timsolida shu tuyg‘uga ilhomlantiradi.

Xorazm dostonlari katta badiiy-estetik kuchga ega, adabiyot va san‘at uchun tunganmas manbadir. Jumladan, «Oshiq G‘arib» dostonidan «Kelmadi» deb nomlangan ruknidan olingan quyidagi parcha fikrimizga misol bo‘la oladi:

*Aqcham, sanga sirim ayon aylayin,  
Yorning guli keldi, o‘zi kelmadi.  
Boshimdan o‘tganni bayon aylayin,  
Yorning guli keldi, o‘zi kelmadi.  
Qahbo falak boshim qildi g‘amxona,  
O‘zi kelmay guli keldi g‘oybona.  
Mening uchun yetim bo‘lib, bog‘bona,  
Yorning guli keldi, o‘zi kelmadi.  
Falak mening qanotimni qayirmish,  
G‘azab bilan meni yordan ayirmish.  
Bilmam endi yorim kimga buyurmish,  
Yorning guli keldi, o‘zi kelmadi.  
Shohsanam qiz derlar mening otima,  
Bir oh ursam, olam yonar o‘tima.  
Shundan boshqa kim ham yetar dodima,  
Yorning guli keldi, o‘zi kelmadi.*

Mazkur parchada Shohsanam o‘zining yori G‘arib haqidagi ichki hissiyotlari, muhabbatini ifoda etganligi namoyon bo‘ladi. Shohsanamning his-tuyg‘ulari badiiy tasvir orqali estetik jihatdan o‘ziga xos tarzda aks etgan.

Xorazm zaminida yaratilgan dostonlarning g‘oyaviy mazmuni rang-barangligi bilan ajralib turadi. Qahramonlik, vatanparvarlik, yorga sadoqat ruhidagi dostonlar bilan bir qatorda, ular orasida kasb hunarga undovchi dostonlar ham mavjud. Bu davrga kelib turli mavzudagi dostonlar singari «Mehtarlik risolalari» ham shakllangan. Shunday risolalardan birida quyidagicha rivoyat keltiriladi: «Olloh taolo Odam Ato tanasini loydan yasagandan keyin, elchi farishta hazrati Jabroil, olamni harakatlantiruvchi farishta hazrati Mikoil, oxiratda karnay chaluvchi bo‘ron farishtasi hazrati Isrofil, jon oluvchi farishta hazrati Azroilga Odam vujudiga jon kirgizishni topshirgan ekanlar. Odamning ichi qorong‘i zimistonligidan jon u yerga kirishdan bosh tortadi. Farishtalar ko‘p va xo‘p o‘ylashib, oxiri jonni antiqa yo‘l bilan odam vujudiga kiritishga qaror qilibdilar. Ular jannatdan tut yog‘ochini olib chiqib tanbur, dutor, nay va g‘ijjak kabi cholg‘u asbolarini yasaydilar. Lekin qancha urinishmasin ulardan tovush chiqara olmaydilar. Farishtalar charchab uxlab qolishadi. Ularning xatti-harakatini kuzatib turgan Shayton alayhulanna, baribir men aralashmasam hech ish chiqmas ekan, deb, tanbur, dutor va g‘ijjaklarning quloqlaridan pastiga bir donadan cho‘p qistirib, nayning teshiklari yonidan bir teshik ochadiki, «Shayton xarrak» va «Shayton teshik» iboralari ana shundan qolgan. Bir payt farishtalar uyg‘onib qarashsa, cholg‘ular qo‘l tekkizishga mahtal bo‘lib, turgan emish. Shundan

keyin, hazrati Jabroil latif bir nag'ma o'ylab topadi va uni farishtalar bilan jo'rlikda chalib jonni Odam Ato vujudiga kiritgan ekanlar».

Xorazm dostonlarida musiqiy omil, kuy alohida o'rin tutadi. Tabiiyki, dostonlarning parda tuzilishi o'zining murakkabligi, uzun taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi bilan ajralib turadi. Agar kuzatadigan bo'lsak, doston yo'llarining lad asoslari qonuniyatlari, ya'ni tovushqator va kuy harakatlarida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, o'zbek musiqasining boshqa sohalarida kam uchraydigan, tarkibida orttirilgan sekunda bo'lgan lad-lokriy tovushqatori, tayanch nuqtasi tovushqator o'rtasida joylashgan qo'sha ladlar eng qadimiy ladlar bo'lib, ularning Xorazm doston yo'llarida uchrashi alohida diqqatga sazovordir.

Xorazm musiqa folklori namunalari mavzu jihatdan rang-barangdir. Ular «aytishuvlar», «laparlar», yallalar», «xalq qo'shiqlari» va h.k. Masalan, xalq qo'shiqlaridan: «Cholxo'rozim», «Chipradalli», «Suv bo'ldi», «Olti xalfa», «Pardevol», «Oxtaraman», «Ishonma», «Xiva dudori» mashhurdir.

«Oshiq G'arib va Shohsanam» dostoni o'ziga xos jozibadorligi, go'zal kuylanishi, hammaga birdek yoqishi bilan ajralib turadi. Bunday xalqchil doston qo'shiqlarini xalfalar muntazam kuylab kelganlar. Ma'lumki, «Oshiq G'arib va Shohsanam» dostoni rang-barang usul va ohanglar asosida tuzilgan qo'shiqlardan iborat bo'lib, shulardan biri «Ovozing seni» qo'shig'idir. Ushbu qo'shiqda onaning o'g'li 7 yil sargardonlikda yurib, yori Shohsanamning to'yini eshitib uyiga keladi. Shunda u «Bir yor savdosina tushdim-da, galdim» qo'shig'ini kuylaganda ona uning ovozi eshitib sen o'g'limmisan yoki o'g'limning do'stimisan deydi. Shundan so'ng «Bolama o'xshaydi ovozing seni» qo'shig'i yaraladi.

Musiqa madaniyati darsida o'quvchilarga Xorazm dostonchiligi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil so'zlab berildi. Xorazm dostonlari Qashqadaryo va Surxondaryo dostonchiligidan farqli o'laroq, bo'g'iq ovozda emas, balki ochiq ovozda ijro etilishi, dostonning tor yoki dutor, ba'zan garmon, xalq cholg'u asboblari ansambli jo'rlikida ijro etilishi haqida suhbat uyushtirildi. Bola baxshi Abdullayev, Qalandar Normatov, Norbek Abdullayev va boshqa dostonchilar ijrosida «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Avazxon», «Bozirgon», «Oshiq Oydin» kabi Xorazm dostonchilik maktabiga xos qo'shiqlarni kuylanishi haqida o'quvchilarga ma'lumot berildi.

«Ovozing seni» xalq qo'shig'i O'zbekiston xalq artisti Kommuna Ismoilova repertuarining oltin sahifalaridan o'rin olgan va o'z navbatida, afsonaviy baxshi Bola baxshi Abdullayev, Xorazm qo'shiqchilik san'ati maktabining asoschisi K.Otaniyozov va Kommuna Ismoilovanning shogirdlari ijodida ustoz-shogirdlik an'alarining rivojidadagi ko'priksifatida alohida ahamiyatga ega. Bu qo'shiq orqali o'quvchilarga ona va farzand o'rtasidagi mehr-oqibat, o'zbekona istihola kabi yuksak axloqiy hislarni singdirish mumkin.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida yashab ijod qilgan juda ko'pgina xivalik shoirlar, olimlar va boshqa ilm ahlining ko'pchilik qismi Xivadagi madrasalarda



o‘qib, jamiyat uchun kerakli insonlar bo‘lib, yetishganlar. Shulardan biri shoir va bastakor Komil Xorazmiy hisoblanadi.

Komilning ko‘ngli beg‘ubor tuyg‘ularga to‘lib-toshdi; kuy, navo, qo‘shiqning xuddi o‘zidek sehrli kuchi uni ohangrabodek og‘ushiga tortdi. Bir ezgu istak, ishonch, maqsad, g‘urur bilan oldin ulug‘ pir Pahlovon Mahmud maqbarasiga qadam ranjida qildi. Zabardast siymo xoki poyini tavob etdi, ruhi pokiga Qur‘on tilovat qildi. Ulug‘ pir dargohidan qushdek yengil, ruhan tetik bo‘lib, chiqar ekan, go‘yo uning boshlayotgan buyuk ishiga Puryovaliyning o‘zi oq fotiha berib qolganday tuyuldi. Kelajakda o‘zining abadiy oromgohiga aylanadigan hujrasiga qaytib qo‘sh tabaqali derazani ochib yubordi, xonaga bahorning mayin, toza havosi ufurdi, Komilning ko‘ngli ham bahorday yashnab, tozalanib ketganday edi shu tobda. Davot, qog‘oz-qalam olib ishga kirishmoqchi edi. Lekin shu lahzalarda ko‘ngliga yaxshi bir o‘y keldi, o‘zidan oldin o‘tgan ustozlarini yodga oldi. Aslida unda musiqa san‘tiga bo‘lgan mehrni Sayyid Muhammadxon uyg‘otgan. Xiva madrasalaridan birida mudarris bo‘lib, ishlaydigan otasi Abdulla Oxund uni komil inson bo‘lib, yetishmog‘ini orzu qilib, yaxshi tarbiya berdi, savodini erta chiqarish harakatida bo‘ldi. Madrasa qoshidagi maktabga o‘qishga berdi, so‘ng madrasasiga olib bordi, u yerda ham ixlos bilan saboq ola boshladi. Uyda otasi yonida o‘qiganlarini, o‘rganganlarini takrorlab aytib berar, o‘g‘lini xotirasi, ilm olishga ishtiyoqi balandligidan quvongan otani o‘zi ham unga arab, fors tillarini o‘rgatib borardi, adabiyotga bo‘lgan havas ham otasining qimmatli o‘git, maslahatlari bilan osha bordi. Mumtoz shoirlarni, ayniqsa, g‘azal mulkingning sultoni Alisher Navoiyni o‘ziga ustoz bilib qunt bilan o‘rgana boshladi. Hatto buyuk shoirga mehri tobora oshib unga taqlid qilib she‘r-u g‘azallar mashq qila boshladi. Otasi o‘z jigarbandining she‘riyat atalmish nafasat gulshanida shaydo bo‘lib, ana shu jannatiy bog‘dan o‘ziga xos guldastalar saralayotganidan mamnun bo‘lardi. Madrasada o‘g‘lining xattotlik san‘atini, musiqani ixlos bilan o‘rganayotganidan quvonardi. Madrasani bitirganidan keyin noyob iste‘dod uchqunlarini ko‘rgan Xiva hukmdori Sayyid Muhammadxon uni saroyga ishga chorladi. Komil xattot bo‘lib, xizmat qila boshladi. Afsuski, bunday ehtromga sazovor bo‘lganligini padari buzrukvori ko‘ra olmadi. Uzoq davom etib kelayotgan kasallik sabab madrasani bitirishi arafasida dunyodan ko‘z yumdi.

Mana ota vafotidan 26 yil o‘tib, Muhammad Rahimxon davrida, 56 yoshda (1881) maqomlarni notaga tushirish sharafiga muyassar bo‘lib, turibdi».

Komil Xorazmiy yuqorida aytib o‘tilganidek, Sayyid Muhammadxon zamonasida saroyda oddiy xattot bo‘lib, keyin mirzaboshilik mansabiga ko‘tarilgan, so‘ngra esa bosh devonbegi sifatida katta ijtimoiy-siyosiy, madaniy ishlarni amalga oshirgan. Xonning bevosita qo‘llab-quvvatlashi natijasida, ajdodlar tomonidan yaratilgan 12 maqomning 24 ta sho‘balari jamlanib, olti maqomga joylangan, u ham qog‘ozga muhrlanmagan edi. 1880-yilda mirzaboshilik mansabiga tushirilgan Komil 1881-1883 yillarda Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg shaharlarida bo‘lib, rus xalqi madaniyati va hayotini, jumladan, nota yo‘llarini mukammal o‘rgandi va Xivada

«Tanbur chizig‘i» nomli notani yaratishga zamin yaratdi.

Komil va uning shogirdlari tomonidan xalqning bebaho mulki – maqomlarning notalashtirilishi Feruz zamonasining eng gullagan, musiqa madaniyati eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgan vaqtda amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu yaratilgan «Tanbur chizig‘i» jahon musiqa xazinasiga qo‘shilgan bebaho boylikdir.

«Tanbur chizig‘i»ni yaratishda faol qatnashgan va uni oxiriga yetkazgan yana bir buyuk shaxs Komil Xorazmiyning katta o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzodir. Mirzo yoshligidan sozga, adabiyotga katta ixlos qo‘yib, ota kasbiga mehr qo‘ydi, o‘z mehmonxonalaridagi fozil-u fuzolalar suhbatidan bahramand, ijro etilgan maqomlardan «quloq qondi» bo‘lib o‘sdi va mashaqqatli mashqlar evaziga zamonasining peshqadam mashshoqi, musiqashunos olimi, zabardast shoiri bo‘lib yetishdi.

Yunus Yusupov – Ayyomiy Mirzo xususida shunday yozadi: «Muhammad Rasul Mirzo otasi Komil ixtiro etgan shashmaqom chiziqlari – notani qog‘ozga ko‘chirib chiqdi va uni kitob holiga keltirdi. Bir vaqt mavjud olti maqom-(shashmaqom)ga Xorazm bastakorlari yarim maqom yangi kuylar bastalab, uni olti yarim maqom deb yuritganlar. Mirzo yarim maqom hisoblangan «Panjgoh» maqomiga yana bir qancha kuylarni qo‘shib, uni bir maqom holiga keltirdi. Shunday qilib, Muhammad Rasul Mirzoning ijodkorligi va jiddiy tashabbusi bilan maqomlar 7 taga yetkazildi.

Mirzo bastakor sifatida «Rost» maqomiga «Sab’» va «Ufori» nomlarida ikki kuy bastalagandir. Qariyalarning aytishlariga qaraganda, Mirzo tanbur va g‘ijjakda favqulodda zo‘r mahoratga va iste‘dodga ega bo‘lgan, shuningdek, usul – childirma chalishda ham katta mahorat qozongan. Mirzo musiqa bo‘yicha Feruzning muallimi bo‘lgan».

Mirzo inson sifatida to‘g‘riso‘z, kamtar, muloyim, dilkash odam bo‘lgan. Uning zamondoshi Xodim bu to‘g‘rida shunday yozadi: “Muhammad Rasul Mirzaboshi o‘rta bo‘yli, chechak bashara odam bo‘lsa ham chiroyli, xushsurat odam edi. O‘zi o‘taketgan saxiy odam bo‘lib, so‘zlashib o‘tirsangiz, yonidan sira ketmasam deb, orzu qilar edingiz”.

Muhammad Rahimxon Mirzoni juda hurmat qilgan, o‘ziga yaqin olib, turli safarlarda birga bo‘lishgan. She‘riyat va musiqa oqshomlari usiz o‘tmagan. Bu to‘g‘rida Bayoniy shunday ma‘lumot beradi: «Ondog‘kim, Yusuf Hoji oxund va Ismoilxo‘ja oxund va Xudoybergan oxund va olim-u ulum ma‘qul va mankulda Mulla Muhammad Rasul va faqiri haqir majlisi humoyunlariga haftada ikki martaba hozir bo‘lib, kitobxonlik qilur erduk. Goho domla Muhammad Rasul bila ikkovimiz kirib, suhbatlari humoyunlarida kitobxonlik bo‘lur erdi va sipohiyalar va to‘ralarni ham kitobxonlik etarga targ‘ib etdilar. Bas, hamma kitobxon bo‘ldilar».

Mana shunday ijobiy hamkorlik dono va zukko mamlakat hukmdorining e‘tibori tufayli Xivada o‘z davrining yetakchi shoir va tarixchilari, tarjimon va xattotlari yetishib chikdilar. Mirzo ana shu ijodkorlarning peshqadam vakillaridan biri bo‘lib,

shoir sifatida «Devoni Mirzo» nomli devon yaratdi. «Ra'no va Zebo» dostonini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima etdi. U ancha xushxat bo'lib, xattotlik ilmini yuqori pog'onaga ko'tardi, o'nlab shogirdlaridan yetuk xattotlar tarbiyalab yetishtirdi.

Isfandiyorxon davri(1910-1918)da Mirzo saroydagi ishlardan chetlashtirilgan, uning o'rniga o'g'li Abdulla mirzaboshi bo'lgan. 1916-yil, 10-yanvardagi turkmanlarning hujumi tufayli Mirzoning uyi talangan va o'g'li Abdulla otib o'ldirilgan. Uning o'rniga amakisi Abdurasul - «Pirkomil» Gurlan tumani hokimligidan ozod qilinib mirzaboshilik lavozimiga ko'tarilgan (Shoir Pirkomil bayoni: shoir Abdurasul qorasoqol, o'rta bo'yli, xushsurat kishi bo'lgan, u besh ilmga ega bo'lgan: eski maktabni bitkazgan, madrasa ta'limini olgan, nota maqomlarini bilg'on. U devon tartib berg'on. Shoir 65 yoshida vafot etdi, jasadi Yangi Urganchda vafot etgani uchun, shu yerdagi Oxunbobo qabristoniga qo'yilgan).

Xorazmning ulug' farzandlari qatorida, Xiva «Majmuat ush-shuaro»sini tuzgan Ahmadjon Tabibiyning ta'biri bilan aytganda «She'r ilmining allomasi», «Saboqi nazmda pir», «Shoir ahlining ustodi» Muhammad Rasul Mirzo 1922-yilda 83 yoshida vafot etadi va «o'z xususiy madrasasiga dafn qilinadi». Lekin Bobojon Tarroh Azizov – Xodim «Xorazm navozandalari» nomli asarida shoir 70 yoshida vafot etgan, jasadi Muhammad Rahimxon IIning qabri yaqinidagi Chodirli Eshon qabristoniga qo'yilgan, deb yozadi. Shoir tomonidan qurilgan madrasadagi go'rxonani nazardan qochirmasak, Tabibiyning yozganlari to'g'ri bo'lib chiqadi. Muhammad Rasul mirzaboshi o'zining madrasasini Ichanqal'aning o'rtasida joylashgan Pahlavon Mahmud maqbarasining janubi-g'arbiy tomonidagi qorixonalarni qarshisida, oddiy uslubda hech qanday bezaksiz peshtoqini shimolga qaratib qurdirgan. Shuning uchun ham adabiyotlarda bu madrasa musulmonlarning muqaddas qadamjosi bo'lgan Pahlavon Mahmud maqbarasi majmuasi safiga kiritilgan.

Devorlari 27x27x4,5 sm o'lchamdagi pishgan g'ishtlardan terilib, oralari hajja bilan suvalgan va asosiga yerosti namgarchiligidan saqlanishi uchun qamishdan chipta to'qilib 6 qavat qilib gidroizolyatsiya qatlam qilingan.

Madrasa oddiy qilib trapetsiyasimon shaklda qurilgan. Uning kirish dahlizi bittagina xonadan iborat bo'lib, ichki hovliga to'g'ri to'rtburchak ochiqlik (yo'lak) orqali chiqiladi. Kirishdagi dahlizning chap tomonidagi xonada go'rxona joylashgan, Madrasa hujralarining o'lchamlari har xil bo'lib, jami 3 ta. O'rta hovlining janubi-sharqiy burchagida to'rtburchak shaklda qurilgan masjid joylashgan, hozirgi vaqtda yangi ayvon olingan. Umumiy o'lchamlari: old qismi 10 metr, yon tomonlari 12,5 metr, orqa tomoni 15 metr.

Shoir va bastakor Komil Xorazmiy va o'g'li Muhammad Rasul mirzaboshi o'zbek adabiyoti, san'ati, madaniyati rivojiga katta va betakror hissa qo'shgan shoir sifatida o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos salmoqli o'rin egallab, xushxat xattot, mohir musiqachi, bilimdon bastakor va davlat arboblari sifatidagi xizmatlari bilan ham tarixda o'chmas iz qoldirganlar.

Komil Xorazmiy uy-muzeyi. Komil Xorazmiyning uy muzeyi uning o'zi

qurdirgan qorixonasiga joylashtirilgan. Qorixona Pahlavon Mahmud maqbarasi majmuasiga kirib, maqbaraning g'arbiy tomonidadir. Amaldor va badavlat kishilar hayot vaqtlarida o'zlariga abadiyat uylari qurdirib, unga qori qur'onlar ham belgilab qo'yganlar. Komil Xorazmiy ham shulardan biri bo'lib, o'z qorixonasiga, ya'ni o'zining qabri ustiga bitta dahliz va ikkita xonadan iborat imorat bino qildirgan. Qorixonaga o'z mulkidan vaqf ajratib, qorilar tayinlab qo'ygan. Qori – qur'onni qiroat bilan yoddan o'quvchi kishiga beriladigan nom. Qorixonalarga berkitilgan qorilar har kun kelib, shu joyda dafn bo'lgan kishilar ruhiga qur'on sura va oyatlaridan o'qib, savobini qabrdagilarga baxshida qilgan. Buning uchun vaqfdan tushgan daromadlardan o'z ulushini olib, vaqf daromadini ham boshqargan. Bundan tashqari, qabr egasining avlodlari, qarindoshlari va istagan muxlis kelib, qoriga duo fотиha qildirib, pul yoki buyum berib ketgan. Qorixonalarda bitta shaxs yoki bir xonadan a'zolari dafn qilinishi mumkin bo'lgan. «Komil Xorazmiy o'zining xususiy qorixonasidagi tagizamin(yerto'la)da madfundir».

Komil Xorazmiy (1825-1899) Xiva xonligida ko'zga ko'ringan amaldor, mirzaboshi, devonbegi lavozimlarida ishlagan. Komil – ulug' shoir, tarjimon, sozanda, bastakor, xattot va davlat arbobi Pahlavonniyoz Abdulla oxund o'g'lining adabiy taxallusidir. Pahlavonniyoz madrasada o'qib yurgan kezarida otasi Abdulla Oxund vafot etadi. Oilada iqtisodiy ahvolning tangligi tufayli u o'qishni to'xtatishga va tirikchilik ishlari bilan shug'ullanishga majbur bo'lib xon saroyida otboqarlik xizmatida ishlaydi. So'ngra bir necha vaqt savdogar bobosi Xo'jash mahram xizmatida bo'lgandan keyin, o'qishni davom ettirish imkoniyati tug'ilib, yana madrasaga qaytadi. Madrasada o'qib yurgan kezarida san'atning boshqa sohalarida ham o'z qobiliyati va g'ayratini ko'rsata boshladi, u xattotlik san'atida zo'r mahorat qozonib, shuhrat topdi, musiqa masalalari bilan ham jiddiy shug'ullanib, zo'r muvaffaqiyatlar qozona boshladi. Pahlavonniyozning bunday qobiliyati va iste'dodini ko'rgan saroy ahllari, uni saroyga xizmatga taklif etadilar. Avvaliga u 1856-1865-yillarda hukmronlik qilgan Xiva xoni Sayyid Muhammadxon zamonasida saroyda oddiy xattot vazifasida ishladi. So'ngroq, 1865-yilda taxtga o'tirgan Muhammad Rahimxon II zamonasida esa mirzaboshilik vazifasini bajarishga kirishdi.

Pahlavonniyoz – Komil bir necha yillar davomida devonbegilik vazifasida turib, mamlakatni idora etishda yaqindan ishtirok etdi. Komil devonbegilik vaqtida katta ahamiyatga molik bo'lgan tadbirlarni amalga oshirdi. Bu yillar mobaynida Komil Xorazmiyga turli tuman hujumlariga bardosh berishga va xalq, mamlakat manfaati yo'lida tinmay ishlashga to'g'ri keldi.

Komil Xorazmiy bir necha bor Rossiyaga – Moskva va Peterburgga ham sayohat qilgan. U birinchi marta 1883-yilda Rossiyaga borgan edi. Bu sayohat davrida Komil Xorazmiy rus xalqi hayoti va madaniyati bilan yaqindan tanishdi. U, ayniqsa, rus musiqa madaniyatiga qiziqdi, uning boyliklarini, yangiliklarini qunt bilan o'rgandi.

Komil Xorazmiy 1891-yilda Toshkentga ham kelgan. Uning Toshkentga qilgan sayohati davridagi faoliyati haqida turli manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Turli bezaklar bilan bezatilib, maxsus bosilgan taklifnomaga qaraganda, 1891-yil, 11-sentabr kuni Komil Xorazmiy Toshkentda Laxtin tipolitografiyasida bo'lgan, uning ishlari bilan yaqindan tanishgan. Komil Xorazmiy bu sayohati vaqtida rus madaniyatining boshqa tomonlariga ham qiziqish bilan qaragan. U Toshkentda teatr va gimnaziyada ham bo'lgan. Komil Xorazmiy hayotining so'nggi damlarigacha san'at va adabiyot bilan mashg'ul bo'ldi.

U umrining oxirigacha qizg'in ijodiy ish bilan shug'ullanib, juda boy poetik meros qoldirdi. XIX asr davomida Xorazmda musiqa madaniyatimizning boyliklarini saqlab qolish, ularni yozib olish sohasida qator urinishlar bo'ldiki, bu masalada Komil Xorazmiy diqqatga sazovor natijalarga erishdi. Yevropa nota tizimi bilan tanish bo'lgan, Peterburg va Toshkentda rus musiqasini ko'p martalab eshitgan Komil o'zbek kuylarini yozib olish sohasida yangi tizim yaratdi. Muhammad Rahimxon soniyning amriga binoan, qadimdan an'ana bo'lib ustozdan shogirdga yodlash orqali o'rgatilib kelinayotgan xalq musiqa san'atini oson qilish va kelgusi avlodlarga o'z holicha yetkazish uchun bu kuylarni qog'ozga tushirib, «Tanbur chizig'i»(nota)ni ixtiro qildi. Xorazm 6,5 maqomi to'ldirilib, tanbur chizig'iga joylab notalashtirildi. Komil Xorazmiy bu yangi tizimda kuylarni yozib olish uchun xalq o'rtasida eng mashhur bo'lgan musiqa asboblardan biri tanburdan foydalandi. Komil Xorazmiy bu notada «Rost» maqomining bosh qismini yozib ulgurdi. Shoirdan keyin uning o'g'li Muhammad Rasul otasi boshlagan ishni davom ettirib, Xiva «Shashmaqom»ining hammasini shu notada yozib olgan edi. Bu maqom notalari ikki katta kitobdan iborat bo'lib bizgacha saqlanib qolgan va hozir qimmatli musiqa merosi sifatida mutaxassislar tomonidan foydalanilmoqda.

Komil Xorazmiy asarlarini o'z ichiga olgan devonlar bizgacha qo'lyozma va toshbosma holida yetib kelgan. Devonning birinchi nashri hijriy 1298-yilda (1881) Xiva toshbosmasida bosilgan. Qorixona g'arbiy tomonidagi maydonga joylashgan imoratlar, Komil Xorazmiyning ona tomonidan bobosi Xo'jash mahram va Pahlavonniyozlar xonadoniga tegishli yerlar sanalgan.

### **Nazorat savollari**

1. Xiva xonligi madaniyati haqida fikr yuriting.
2. Ichanqal'a yodgorligi to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Dishanqal'a yodgorligi haqida ma'lumot bering
4. Xiva Shayboniylar davri madaniy hayotida tibbiyot ilmining o'rni nimalardan iborat?
5. Xiva xonligi madaniyatini qaysi manbalar orqali o'rganamiz?
6. Xiva xonligi davriga oid qaysi me'morchilik yodgorliklarin bilasiz?
7. Xiva xonligi allomalarining ilmiy merosining o'rganilishi.
8. Xiva xonligi adabiyoti haqida ma'lumot bering
9. Xiva xattolari va miniaturasi haqida ma'lumot bering

## **Manbalar va adabiyotlar**

1. Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2-tom. -T.: San'at, 2001
2. G'afforov Sh.S., Yunusov M.A., Saidov M.M., Sharipov S.I. O'zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. S.2008.
3. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. - T.: Sharq, 2005.
4. Zohidov P. Me'mor olami. - T.: Qomus, 1996.
5. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. -T.: O'qituvchi, 1997.
6. O'zbekiston san'ati. (1991-2001-yillar) -T.: Sharq, 2001.

## **7-Mavzu: Qo'qon xonligi madaniyati va san'ati**

### **Reja:**

1. Qo'qonda xonligida tarixnavisligi.
2. Qo'qon xonligida adabiy muhit
3. Qo'qonda xonligi me'morchiligi

### **Tayanch iboralar**

Sharq tarixshunosligi kosepsiyasi, kosmogoniya, kosmologiya, teologiya, esxatologiya, Qo'qon tarixnavislarisarlarning manbalari, Sharqda yaratilgan tarixiy asarlarning xarakterli xususiyatlari, Fazliy Farg'oniy, «Umarnoma», Mushrif Isfaragiy, «Shohnomayi nusratpayom», Dilshodi Barno, «Tarixi muhojiron»

Tarixiy asarlarni qaysi tilda yozilganiga qarab arab, fors-tojik va turkiy guruhlariga bo'lish mumkin. Ularning har biri o'z navbatida umumiy tarixga bag'ishlangan yoki alohida mamlakatlar tarixiga taalluqli asarlarga bo'linadi.

Qo'qon tarixnavislari asarlari, asosan, arab, fors va turkiy tillarda bitilgan manbalarga tayanadi.

Qo'qon tarixchilari uchun manba bo'lib xizmat qilgan yana bir manba, bu – folklor, ya'ni xalq og'zaki ijodidir. Bu rivoyatlar, ertaklar, dostonlar, asotirlar, matallar va maqollar hind-eron va turkiy xalqlar, sulolalar va ayrim tarixiy shaxslarning kelib chiqishi, shajarasi to'g'risidagi fantastik sujetlardir. Misol tariqasida, Ming sulolasining afsonaviy asoschisi Oltin Beshik haqidagi, O'g'izxon haqidagi hikoyalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Shunday qilib, Qo'qon tarixshunoslik maktabining vujudga kelishida Sharq mutaffakirlarining tarixnavislik an'analari muhim rol o'ynadi.

Ma'lumki, musulmon Sharqida tarixiy asar faqat sof xronikal mavzudagi asar bo'lmasdan, balki ayni vaqtda badiiy-tarixiy janrga mansub adabiy asar ham edi. An'anaga ko'ra, Sharq tarixchisi, ma'lum bir dunyoqarash, estetik did va qadriyatlar sohibi sifatida tarixiy voqealarni badiiy tasvirning boy vositalarini qo'llagan holda

bayon etadi. Aks holda elitar o'quvchi uning asarini qabul qilmas edi.

Sharq kitobxonining estetik didi va ma'naviy ehtiyojlari yevropalik kitobxondan keskin farq qilar edi. Musulmon Sharqida yaratilgan adabiy va tarixiy asar bilan tanishganda, yevropalik kitobxonda qanday his-tuyg'ular paydo bo'lganligini biz Hofiz va Mirxond asarlariga bo'lgan munosabatdan ham bilishimiz mumkin. XIX asrga qadar Hofiz she'riyatini Yevropada erotik she'riyat deb hisoblashar edi, vaholanki, Sharqda uning she'riyati «Ikkinchi Qur'on» deb baholangan.

Tarixchilarning yozuvchilardan farqi shundaki, ular faqat o'z davri ruhini berib qolmay, balki xalq hayotini ma'lum zamon jarayonida tasvirlaydilar. Shuning uchun ham tarixiy asarlar o'z manbaviy ahamiyatini yo'qotmaydilar, aksincha, vaqt o'tishi bilan ularning ahamiyati ortib boradi. Har bir tadqiqotchi-manbashunos o'z qo'lidagi yodgorlikning manbaviy imkoniyatlarini o'zi belgilaydi. Bu holda manbaning ahamiyati va qiymati doimiy bo'lmay, balki o'zgarib turishi mumkin.

Fan va amaliyot uchun tarixiy asarning informativ va kommunikativ ahamiyati muhimdir. Tarixiy manbalar ma'lum jamiyatning siyosiy, xo'jalik va madaniy hayotiga doir bilimlarni o'zida aks ettiradi. Ularda xalqning ma'naviy hayoti namoyon bo'ladi. Tarixiy asar o'z davrining dunyoqarashi, estetik didi va g'oyaning ko'zguvidir.

Qo'qon tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlar o'zbek va tojik tillarida ham nasriy, ham nazmiy shaklda yozilgan. Ular tarixnavislik va adabiyotning turli janrlariga mansubdir. Tarixiy asarlar doston, qissa, esdaliklar shaklida yozilgan. Ular orasida «sof» xronikal asarlar ham uchraydi, bu holda tarixiy mazmun va faktologik bayon manbaning boshqa imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Tarixiy asarlar ayrim epizodik mavzularga yoki doimiy-dinamik mavzularga bag'ishlangan. Qo'qonlik mualliflarning ko'pgina asarlari tarixni dinamik holda, ya'ni doimiy o'zgarishlar shaklida aks ettiradi.

Tadqiqotchi Sh.Vohidov Qo'qon tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlarni 2 guruhga bo'ladi:

- Tarixiy-adabiy asarlar. Bu asarlarda tarixiy voqealar bayoni birinchi o'rinda turadi.

- Adabiy-tarixiy asarlar. Bu asarlarda tarixiy voqealarning sabablariga asosiy e'tibor qaratiladi.

«Umarnoma» Amir Umarxonga ma'qul bo'lmadi, chunki uning talablariga javob bermas edi. Mushrif Isfaragiyning qalamiga mansub ushbu asarning nasriy varianti bilan taqqoslab, shunday xulosaga kelish mumkinki, Fazliy Farg'oniy bir necha «xatoliklarga» yo'l qo'ygan. Birinchidan, minglar sulolasining asoschisi Oltin Beshik haqidagi rivoyatni keltirmaydi. Bu rivoyat Umarxonning Bobur orqali Temur va temuriylar bilan qarindoshligini isbotlashi kerak edi. Ikkinchidan, Amir Umarxon o'zini amir al-muslimin deb e'lon qilib, islom va din peshvosi rolga da'vo qilgan edi. Bu da'voni tarixiy jihatdan asoslab berish zarur edi. Mushrif Isfaragiy esa Umarxonning sayyidlar avlodidan ekanligini asoslab berishga harakat qildi. U

xonning shajarasini tuzib, u ona tomondan Muhammad paygʻambarning qizi Fotimaning avlodidan ekanligini «isbotlab» berdi.

Mushrif Isfaragiyy (Mirzo Qalandar) amir Umarxon saroyidagi keng maʼlumotli kishilardan edi. 1818-yilda Amir Umarxon uni qoziaskar etib tayinlaydi. Oʻsha davrda bu eng yuqori mansablardan biri edi. 1821-yili Umarxon Mushrif Isfaragiyyga Fazliy asarini qayta ishlashni topshiradi. Mushrif «Umarnoma»ni nasriy yoʻl bilan bayon etib, uni «Shohnomayi nusratpayom» («Shohning gʻalabalari haqida xabar beruvchi kitob») deb ataydi.

Bu ikki asarni bir-biriga qiyoslab, shunday xulosalar chiqarish mumkin. Fazliy oʻz asari bilan erkin adib sifatida gavdalanadi. U oʻzining estetik didi, tamoyillari, istoriografik konsepsiyasiga sodiq qoladi va koʻz oʻngimizda tarixiy obʻektivizm vakili sifatida gavdalanadi. U oʻz qahramonini ideallashtirmaydi, faktlarni soxtalashtirmaydi. Shuning uchun Buxoro amiri Haydar misolida Amir Umarxonga soxta shajaraga daʼvogarlik qilish asossiz ekanligini maʼlum qiladi. Mushrif Isfaragiyy esa, yuqorida koʻrsatib oʻtilganidek, uning sayyidlardan ekanligini «asoslab» beradi va ajdodlaridan biri «xoʻja»lardan ekanligini ham taʼkidlaydi.

Umarxon hukmronligi davri va xonlikning madaniy hayoti haqida maʼlumot beruvchi muhim manba – bu Dilshodi Barno qalamiga mansub «Tarixi muhojiron» nomli asardir. «Tarixi muhojiron» tarixiy-epizodik xarakterdagi asar hisoblanadi. Muallif esdalik tarzida Umarxonning 1816-yilda Oʻratepaga qilgan navbatdagi yurishini tasvirlaydi. Umarxon shaharni uzoq vaqt qamal qilib, qoʻlga kiritadi va 13 ming odamni asir olib, ularni Fargʻona vodiysiga, Shahrixon yaqinidagi Oʻttiz adir degan joyga koʻchiradi. Ular orasida 17 yashar Dilshodi Barno ham bor edi. U Oʻratepa shahrida 1800-yilda tugʻilgan. Qoʻqonda u va yana 2 nafar qizni Umarxon haramiga tanlab olishadi, ammo u oʻzining oʻjarligi va xonga qoʻrslik bilan javob qaytarganligi bois haramga tushmay qoldi. Keyinchalik u turmush qurib, uzoq umr koʻrdi va XX asr boshlarida vafot etdi.

Dilshodi Barno tojik tilida va oʻzbek tilida ijod qilgan. U shoira va tarixchi sifatida oʻziga xos isteʼdod egasi edi. Bu uning asarlarida yaqqol sezilib turardi. «Tarixi muhojiroh» – emotsional-dramatik va maʼlum maʼnoda tragik asardir. Asarda Dilshod Amir Umarxon bilan uchrashuvini quydagicha tasvirlaydi:

«Meni chiroyli tarzda kiyintirib, pardoz qilib, bir xonaga olib kirdilar. Bu yerda amir tungi kiyim, ustidan esa chakmon kiygan holda oʻtirgʻan edi. Bizning oʻrtamizda xontaxta, uning ustida esa bir idishda suv va pichoq bor edi. Xon boʻyi baland, salobatli boʻlib koʻzlari va sochlari qora, chehrasi ochiq edi. U salomimga alik olgach, men bilan xushmuomalalik bilan gaplasha boshladi. Menga takalluf bilan muomala qilsa-da, amir menga zolim va qonxoʻr, qotilliklarga tayyor kishidek koʻrindi. U menga; «Yaqinroq kel, sheʼr yozuvchi tojik qiz», – deb murojat qildi. Mening ismim va kelib chiqishim xususida savol-javob qilgandan soʻng, u mendan anor haqida gʻazal toʻqishni talab qildi. Shunda men quydagi satrlarni aytdim:

*Buni bir gumbazi aflok koʻrdim,*



*Ichini liq to'la qon ko'rdim,  
Yuzida parda tortiqlik harirdan,  
Dilini qon, ko'zini g'amnok ko'rdim.  
Umarxon hukmining zolim tig'idan,  
Go'zallarning dilini choh ko'rdim.*

She'rni o'qib bo'lishim bilan amir ikki marta kaftini kaftiga urdi. Shu onda mahram kirib keldi. Amir unga; «Bu qizning sochlarini kesib, zindonga tashlanglar», – deb buyurdi.»

Dilshodi Barno o'z asarlarida Qo'qon va O'ratepa adabiy muhiti, madaniy hayoti haqida ma'lumotlar keltiradi. Uning Xayriniso, Bahriniso, Anbar otin, Nodira, To'ti qiz, Saida bonu, Masturaoy, Fazilat, Karomatoy, Fidoiya, Mahin bonu, Hofiza otin, Bahri kabi shoirlar haqidagi, Mahbub, Muntazir, Gulxaniy, Eshon Shahdiy, Zufarxon to'ra, Mazxaniy, Turobiy, Bahoriy, Sabuhiy, Sadoiy singari shoirlar to'g'risidagi ma'lumotlari e'tiborga loyiqdir.

Shunday qilib, XIX asrning boshlarida Amir Umarxon davrida Qo'qonda tarixiy asarlar yozila boshlandi. Fazliy Farg'oniy, Mushrif Isfaragiy va Dilshodi Barno asarlari Qo'qon tarixchilik maktabining dastlabki namunalari hisoblanadi. 1842-yilda tarixiy asarlar yozilmadi yoki yozilgan bo'lsa ham, hozircha topilgani yo'q. Buning asosiy sababi shundan iboratki, bu davrda Umarxon hukmronligi yillarida shakllangan adabiy muhit parokandalikka uchradi. Faqat 1842-yildan boshlab Muhammad Alixon davrini yorituvchi asarlar vujudga kela boshladi.

Shunday asarlardan biri shoira Uvaysiyning «Voqeoti Muhammad Alixon» nomli asaridir. Uvaysiy Umarxonning katta xotini Mohlaroyim – Nodira yaratgan ayollar adabiy jamoasiga mansub edi. 1842-yildagi voqealardan so'ng Uvaysiy o'zining Mohlaroyimdek homiysidan mahrum bo'ldi. Bu voqealar Uvaysiy kitobining yozilishiga, shuningdek, Mutrib va Andaliblarning dostonlarining yaratilishiga turtki bo'ldi.

Uvaysiyning dostoni bizgacha tugallanmagan holda yetib keldi. Asarning mavjud qo'lyozmasi faqatgina Muhammad Alixonning Qashg'arga yurishi tarixini yoritardi, xolos. Uvaysiy, Mutrib va Andalibning dostonlari adabiy (she'riy) asar bo'lganligi uchun tarixiy – informativ jihatdan mustahkam bazaga ega emas.

Mutrib va Andalib dostonlarida ham yuqorida ko'rsatib o'tilgan fojiiyaviy voqealar nazmiy yo'l bilan bayon etigan. Bu asarlarda Qo'qon ahlining iztirobi, qahramonlarning emotsional-ruhiy holatlari tasvirlangan. Mutribning «Shoh-noma»si qahramonlik dostoni emas, balki tarixiy mavzudagi tragik asardir. Unda yorqin ona – Nodira obrazi yaratilgan. O'z farzandlarining o'limiga guvoh bo'lgan Nodira amir huzuriga keladi, uni yovuzlikda ayblaydi va o'zi ham halok bo'ladi.

Muallif qator tarixiy yozma manbalardan, shuningdek, o'zi shohid bo'lgan hamda voqealarning guvohi bo'lgan kishilardan so'rab-surishtirib to'plagan materiallardan keng foydalangan. Asarni yozib tugatganida, Muhammad Hakimxon to'ra chamasi 40 yoshlarda bo'lgan. Demak, u Olimxon va Umarxon saroyidagi

voqealarni hali yaxshi esda saqlagan. Shuning uchun ham «Muntaxab at-tavorix»ning Qo‘qon xonligi tarixiga oid qismini ishonarli tarixiy manba, deb hisoblash mumkin.

Shunisi e‘tiborga loyiqki, muallif asarda xonlikning qo‘shni mamlakatlar, jumladan, Buxoro amirligi, Xorazm va Qoshg‘ar bilan aloqalari haqida, Afg‘oniston va Turkiyadagi ayrim voqealar haqida ham ma‘lumotlar beradi. Asarda diqqatga sazovor jug‘rofiy ma‘lumotlar hamda xonlikning madaniy hayotiga doir xabarlar uchraydi. Hakimxon to‘ra ayrim amaldorlarning o‘z lavozimlaridan suiste‘mol qilishini ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi.

«Muntaxab at-tavorix»ning xarakterli xususiyatlaridan biri shundan iboratki, unda nafaqat Qo‘qon xonligi, balki Rossiya, Turkiya, Eron va Iroqning XIX asrning birinchi yarmidagi ahvoli xususida ham original ma‘lumotlar keltiriladi. Jumladan, muallif Rossiyaning sharqiy gubernalari hamda Orenburg, Samara, Astraxan va Irbit singari shaharlari, ularning aholisi, bu shaharlardagi savdo munosabatlari va unda Markaziy Osiyolik savdogarlarning ishtiroki haqida ma‘lumotlar beradi.

Ammo «Muntaxab at-tavorix»ning Muhammad Alixon hukmronligi davriga oid qismidan foydalanishda ehtiyotkorlik, tanqidiy ruhda yondashish zarur, chunki xon va muallif o‘rtasidagi adovat tufayli Hakimxon to‘ra Muhammad Alixon shaxsiga ba‘zan obyektiv baho bermaydi. Sh.Vohidovning fikricha, Hakimxon to‘ra 1842-yilda Amir Nasrulloning Qo‘qonga yurish qilishi tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan.

XIX asr o‘rtalarida yaratilgan asarlarning mazmun va mavzularini tahlil etish quyidagi xulosalar qilish imkoniyatini beradi. Birinchidan, mazmuni jihatidan bu asarlar xonlarning taxtga chiqishi va taxtga da‘vogar bo‘lgan shaxslarning olib borgan kurashi, markaziy hokimiyatning qipchoqlarga qarshi kurashi («Zafarnomayi Xudoyorxoniy», «Jangnomayi Xudoyorxon»), rus qo‘shinlariga qarshi dastlabki janglar, xonlikka qarashli Turkiston, Avliyoota, Chimkent, Toshkent, Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jand singari shahar va qal‘alarni mudofaa qilish masalalariga bag‘ishlangan. Bu masalalar «Tarixi jahonnamoyi», «Tarixi Alimquli amirlashkar», «Tarixi Shohruhiy» nomli asarlarda, shuningdek, «Xulosat ul-ahvol» nomli avtobiografik asarda yoritilgan.

«Tarixi Shohruhiy» asari Niyoz Muhammad Xo‘qandiy qalamiga mansubdir. Asar muallif hayotining so‘nggi davrida, 1871-1872-yillarda yozib tugatilgan. Tarixiy manbalarda Niyoz Muhammad Xo‘qandiy zamonasining eng bilimdon kishisi bo‘lganligi, uning ota-bobolari ham Minglar sulolasiga sadoqat bilan xizmat qilganligi qayd etilgan. SHERALIXONDAN BOSHLAB XUDOYORXON HUKMRONLIGINING OXIRIGA QADAR MUALLIFNING O‘ZI HAM XONLIKNING SIYOSIY HAYOTIDA FAOL ISHTIROK ETGAN. Jumladan, u Sirdaryo bo‘ylarida SHERALIXON va qipchoqlar o‘rtasidagi jangda qatnashib, qipchoqlar tomonidan asir qilingan va qiyinchilik bilan tutqunlikdan qutulgan edi. «Tarixi Shohruhiy»da yozilishicha, asarning muallifi hijriy 1277-yilda (milodiy 1860-1861) hozirgi Qozog‘iston hududida Qo‘qon lashkalarining rus qo‘shinlari bilan jangida ishtirok etgan hamda takbir va Qur‘on suralarini o‘qib, askarlarni jang qilishga da‘vat etgan.

Shaxsiy kuzatuvlar, ogʻzaki maʼlumotlarni yigʻish va voqealarda shaxsan ishtirok etish asosida muallif Qoʻqon xonligi tarixi buyicha diqqatga sazovor materiallar toʻplashga muvaffaq boʻladi. Asar Xudoyorxonning koʻrsatmasiga muvofiq yozilib, 74 yillik tarixni, yaʼni Norboʻtaxonning hukmronligidan toʻ hijriy 1288(1870-1871)-yilgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi.

Qoʻqon xonligining tugatilishiga qadar rus olimlari mahalliy mualliflarning asarlaridan bexabar boʻlganlar. Hatto 1875-yilda N.O.Petrovskiy tomonidan yozilgan «Qoʻqon xonligi ocherklari» nomli maqolasida ham muallif bunday tarixiy asarlar, solnomalarni uchratmaganligini aytadi. Ammo Fargʻona Rossiyaga qoʻshib olinishi bilanoq xonlik tarixiga oid tarixiy asarlarni izlab topish yoʻlga qoʻyildi. Bu borada «ilmiy maʼlumotlar kollektori va sharq qoʻlyozmalari toʻplovchisi» A.Kun amalga oshirgan ishlar eʼtiborga loyiqdir.

«Tarixi Shohruhiy» Qoʻqon xonligi Rossiyaga boʻysundirilganidan keyin rus olimlari qoʻliga tushgan dastlabki tarixiy asardir. Bu asarni N.N.Pantusov «Fargʻona oʻtmishini oʻrganishga muhim hissa boʻlib qoʻshilgan tarixiy adabiyotdir», deb baholagan edi. N.N. Pantusov bu asarning ikkita qoʻlyozma nusxasini qoʻlga kiritadi. U qadimiyroq va toʻlikroq boʻlgan bir nusxasini oʻziga qoldirib, uncha qimmatli boʻlmagan, lekin chiroyli qilib bezatilgan ikkinchi nusxasini general-leytenant Kolpakovskiyga berib yuboradi. N.N.Pantusov oʻzida qoldirgan nusxa asosida 1885-yilda Qozon imperatorlik universiteti bosmaxonasida «Tarixi Shohruhiy» asarini ilk marotaba nashr ettiradi.

Qoʻqon xonligi tarixiga doir muhim manbalardan yana biri «Tarixi jahonnamoyi» asaridir. Bu asar tojik tilida Avaz Muhammad Attor Xoʻqandiy tomonidan yozilgan. Muallif saroy tarixchisi emas edi. U attorlik kasbi bilan mashgʻul boʻlib oʻz xohishi bilan 15-yil davomida mazkur asarni yaratdi. Ikki jilddan iborat bu asarning birinchi jildida eng qadimgi davrlardan (Odam Atoning yaratilishidan) toʻ XV asrning oxiriga qadar yashab oʻtgan paygʻambarlar, xalifalar va podshohlar tarixi bayon qilingan. Ikkinchi jild Bobur zamoni voqealari bayonidan boshlanadi, keyin Fargʻona hukmdorlarining hijriy 1284 (milodiy 1867-1868)-yilga qadar boʻlgan tarixi xususida bahs yuritiladi. Ammo XVI, XVII, hatto XVIII asr voqealari ham qisqa va fragmentar tarzda bayon qilinadi. Qoʻqon xonligining ichki va tashqi siyosati bilan bogʻlik mufassal maʼlumotlar XIX asrning boshlari, Olimxon hukmronligi davridan boshlanadi. Asarning eng qimmatli qismi soʻnggi Qoʻqon xonlariga bagʻishlangan bobdir. Muallif 11 ta hukmdorni oʻz koʻzi bilan koʻrganini yozadi. Fargʻonada roʻy bergan koʻp voqealarning shohidi yoki bevosita ishtrokchisi boʻlgan Avaz Muhammad Attor bu voqealar tafsilotlarini saroy muarrixlaridan koʻra obʻyektivroq tarzda bayon etadi.

Qoʻqon xonligining XIX asrdagi tarixini oʻzida aks ettirgan muhim manbalardan yana biri toshkentlik Abu Ubaydullo Muhammad(taxallusi Eshonxoʻja Qori Toshkandiy)ning «Xulosat ul-ahvol» («Qisqa tarjimayi hol») nomli avtobiografik asardir. Asar tojik tilida yozilgan. XIX asarning boshida tugʻilib, deyarli Qoʻqon

xonlari hukmronligining oxirigacha yashagan muallif xonlikning yarim asrlik tarixiga doir muhim ma'lumotlar beradi. Asarda mirzo, so'ngra zakotchi lavozimlarida xizmat qilgan muallifning hayotiy yo'li o'z aksini topgan. Muallif o'z davrining ijtimoiy muhiti, hukmron tabaqalarning xalqqa o'tkazgan jabr-zulmi, amaldorlar orasida keng tarqalgan ta'magirlik va poraxo'rlik singari illatlarni ishonarli tarzda ko'rsatib beradi.

«Xulosat ul-ahvol»da keltirilgan ma'lumotlarni tahlil etish mashhur adib Abdulla Qodiriy qalamiga mansub «O'tkan kunlar» romanining ayrim qahramonlari prototiplarini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Jumladan, Otabekning otasi – Yusufbek hoji (aslida Muhammad Yusuf) dastlab to'quvchi-kosib bo'lib, keyinchalik (XIX asrning 50-60-yillarida) Toshkent hokimlari huzurida dabir va maslahatchi bo'lib xizmat qilgan. Muhammad Yusuf 1865-yilda Mirzo Ahmad qushbegi tomonidan Minkat degan joyda o'ldirilgan.

«Xulosat ul-ahvol» 1865-yilda Toshkent shahrining mudofaasi va uning rus qo'shinlari tomonidan zabt etilishi xususida ham muhim ma'lumotlar beradi. Jumladan, unda ruslar bilan tuzilgan shartnomani imzolagan shaxslarning ismi-shariflarini keltiradi. Garchi mazkur asar avtobiografik xarakterga ega bo'lsa-da, ammo unda Toshkent va Qo'qon xonligi tarixiga oid juda muhim ma'lumotlar mavjud.

Tojir ismli muallifdan bizga tugallanmagan «G'aroyib ul-sipoh» («Lashkar ajoyibotlari») nomli asar yetib kelgan. Bu asar Muhammad Alixonning hukmronlik davri, XIX asarning 40-yillarida xonlikdagi qabilaviy nizolar to'g'risida ma'lumotlar beradi. Shuningdek, Imom Ali Qori Qunduziy(Kamiy)ning «Tarixi manzuma», Abdulvose Manzurning «Tazkirayi sultoniy» nomli asarlari ham Qo'qon xonligi tarixiga doir muhim manbalar qatoriga kiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, garchi XIX asr o'rtalarida yaratilgan tarixiy asarlar bir xil mavzuga bag'ishlangan bo'lsa-da, ammo strukturaviy-kompozitsion jihatdan ular bir-biridan farq qilib turadi. Ular orasida tarixiy-xronikal va biografik-tarixiy asarlar alohida ajralib turadi. Avaz Muhammad Attor, Muhammad Hakimxon singari mualliflar o'tmishini dinamik tarzda aks ettiradilar. Ularning qahramonlari doimiy harakatda bo'lib voqealar birin-ketin tasvirlanadi. Memuar asarlarda esa tarixiy voqealar bayonida muallifning shaxsi birinchi o'ringa chiqadi, u o'zi yoki o'ziga yaqin shaxslar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqealarni bayon etishga asosiy e'tibor beradi. Memuar asarlardagi ma'lumotlar tarixiy asarlardagi ma'lumotlarni to'ldiradi. O'z navbatida, tarixiy asarlar, esdaliklar mualliflarining tarjimai holiga aniqliklar kiritish imkoniyatini beradi.

Qo'qon tarixnavislik maktabining yorqin namoyondalaridan biri atoqli davlat arbobi, olim va shoir Mulla Muhammad Yunusjondir. Uning adabiy taxallusi «Toyib» bo'lgan. Muhammad Yunusjon amirlashkar Aliqulning maslahatchisi bo'lib Qo'qon xonligi shig'ovuli mansabi sohibi edi. Sharqiy Turkistonni idora qilgan Yoqubbek Badavlat (1877-yilda vafot etgan) davrida Yorkent hokimi bo'lgan. XIX asrning 60-yillarida Qo'qon xonligi uning rahbarligi ostida Rossiya, Xitoy, Afg'oniston va

Angliya bilan muzokaralar olib borgan. Yoqubbek hokimiyati tugatilgandan so'ng u Qo'qonga qaytib keladi va qoziyul-quzzot lavozimini egallaydi. XX asr boshlarida vafot etadi (1914-yildagi ma'lumotda u hayot bo'lmaganligi ta'kidlanadi).

Muhammad Yunusjon «Tarixi Alimquli amirlashkar», «Xudoyqul-anvor», «Tuhfayi Toyib» nomli asarlar muallifidir. «Tarixi Aliquli amirlashkar» yagona qo'lyozmasining boshi va oxiri saqlanmaganligi bois bu asarning muallifi noma'lum, deb hisoblanar edi. Sh.Vohidov o'zining doktorlik dissertatsiyasida bu asar Toyib tomonidan yozilganligini isbotlab beradi. Asar Sh.Vohidov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1996-yilda «Sharq yulduzi» jurnalining 1-2-sonida e'lon qilindi. Asar Rossiyaning Turkistondagi bosqinchilik siyosati tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Toyibning Rossiya bosqini va mahalliy aholining chor ma'muriyati bilan munosabati, shuningdek, Dukchi Eshon qo'zgoloni masalasidagi fikr-mulohaza-lari e'tiborga loyiqdir. Birinchi masala buyicha u chor ma'muriyati bilan murosa va hamjihatlik qilish tarafdori ekanligini bilib olish mumkin. Dukchi Eshon qo'zgoloni masalasida esa Toyib o'ta salbiy munosabatda bo'lib eshonni firibgar va lo'ttiboz deb ataydi. Asarda Dukchi Eshonni tanqid qiluvchi she'riy parchalar keltirilgan (bu she'rlarni muallifning o'zi yozgan). Bu fakt o'sha davridayoq 1898-yilgi Andijon qo'zgoloni zamondoshlar tomonidan turlicha baholangan-ligini ko'rsatmoqda.

Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlardan yana biri – bu muallifi noma'lum bo'lgan «Mir'ot ul-futuh» («G'alabalar oynasi») nomli asardir. Mazkur asar hozirga qadar nashr etilmaganligi hamda u haqida boshqa materiallar yo'qligi tufayli biz uni tavsiflash imkoniyatiga ega emasmiz.

«An-nujum at-tavorix» nomli asar ham Qo'qon xonligi tarixiga oid muhim manbalar qatoriga kiradi. Muallif asarda o'z ismini yozib qoldirmagan. Taniqli olim R. Nabiyev mazkur asar Xudoyorxonning xonadoniga mansub shaxs, uning o'g'illari yoki nabiralaridan biri tomonidan yozilgan, deb hisoblaydi. Muallifning rejasiga ko'ra, asar ikki jilddan (daftardan) iborat bo'lishi nazarda tutilgan edi. Birinchi jildda Farg'ona va Movarounnahr hukmdorlarining Xudoyorxongacha bo'lgan davri tarixi, ikkinchi jildda esa Xudoyorxon hukmronligi davridan to 1900-1901-yillar voqealarini bayon qilish rejalashtirilgan edi. Lekin hozirga qadar asarning faqat birinchi jildi mavjud. Ikkinchi jildi topilganicha yo'q. Muallif kitobning ikkinchi jildini yozmagan bo'lishi ham mumkin. Asarning birinchi jildi Farg'onada Boburning taxtga chiqishidan to XIX asrning boshlarigacha bo'lgan davr voqealarini o'z ichiga oladi. Ammo Boburdan keyingi bir yarim asrlik tarix nihoyatda qisqa va uzuq-yo'luq tarzda bayon qilingan. Keyingi 50-yillik voqealar (1655-1656-yildan to 1709-1710-yilga qadar) asrda aks ettirilmagan. Demak, asarning bu qismi yo'qolgan yoki, umuman, yozilmagan bo'lishi ham mumkin.

«An-nujum at-tavorix»da Minglar sulolasining qisqa tarixini bayon qilish jarayonida boshqa tarixiy manbalarda uchramaydigan ba'zi ma'lumotlar keltiriladi. Bu ma'lumotlar ayrim tarixiy voqealarning sanasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Masalan, Fargʻonaga qarluqlarning hujumi 1146(1740-1741)-yilda, Nodirshohning Buxoroga hujumi bilan bir vaqtda boʻlganligi toʻgʻrisidagi maʼlumot eʼtiborga loyiqdir. Boshqa tarixiy asarlardan farqli ravishda Qoʻqon xoni Olimxon faoliyatiga ijobiy tarzda yondashiladi, uning faoliyati davlatchilikni mustahkamlashga xizmat qilganligi taʼkidlab oʻtiladi.

Muallif ayrim tarixiy shaxslar ismlari va baʼzi atamalarning asl mazmunini aniqlashga harakat qiladi. Masalan, uning yozishicha, Qoʻqon xoni Erdonaning asl ismi Abdulqayumxon bolib, Eri Dono (yaʼni Dono erkak) uning laqabidir. Boshqa xon Norboʻtaning esa asl ismi Abdulhamidbek boʻlgan. Nor botir esa uning laqabi edi. Qushbegi atamasi esa «qoʻshinbegi»soʻzidan kelib chiqqan. Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, mazkur asar xonlik tarixini oʻrganishda yordam berishi mumkinligini va boshqa tarixiy manbalar singari undan foydalanish foydadan holi emasligini koʻrsatmoqda.

Nomlari yuqorida eslatib oʻtilgan manbalardan tashqari Qoʻqon xonligi tarixiga oid talay boshqa asarlar mavjud boʻlib ular ham xonlikning oʻtmishini yoritishda yordam beradi. Bunday asarlar qatoriga «Jangnomayi Xudoyorxoniy», «Zafarnomayi Xudoyorxoniy» (birinch asar muallifi – Mulla Shavqiy, ikkinchi asar muallifi – Mulla Abdulgʻofur), «Tarixi Amir Umarxoniy» (Mirzo Qalandar asari), «Solnomayi Abdulkarimiy» (Muhammad Rajab Munshiy), «Tarixi tazkirayi xonani Fargʻona», «Afzal at-tavorix» (ikkita soʻnggi asar, M.Nabiyevning taʼkidlashicha hozirga qadar topilmagan, mualliflari ham koʻrsatilmagan), «Mufassal tarixi Fargʻona» (Qozi Otabek asari), «Tarixi Fargʻona» (Ibrat), «Tarixi manzum» (Imomali Qundoʻziy asari) singari yozma manbalarni kiritish mumkin. Ularning aksariyati hozirgi kunga qadar nashr etilmagan va turli kutubxonalarda qoʻlyozma shaklida saqlanmoqda.

Meʼmorchilik. Kosonsoy jome masjidi (XVIII asr). Namanganda. Atrofi devorli maydonga qurilgan. Masjid eshigi naqshinkor. Bino bezagida oq va novvot ranglardan unumli foydalanilgan.

Miyon hazrat madrasasi (XVIII asr). Qoʻqonda. Madrasa koʻp hovlili. Koʻp ustunli masjid ham bor. Hovlilar atrofi hujralardan iborat. Bezaklari oddiy.

Mavlonbuva maqbarasi (1806). Namangan. Shoir Mavlonbuva madrasasi janubrogʻida peshtoq-gumbazli ziyoratxona qad koʻtargan. Ziyoratxona ichi ganch suvoqli, moyboʻyoq bilan gul solingan.

Modarixon maqbarasi (1825). Qoʻqonda. Modarixon (xon onasi) hazirasiga xon avlodlariga mansub ayollar qoʻyilgan. Hozir maqbaraning gumbazli xonasi, ikki minorasi saqlanib qolgan.

Kaptarli majmuasi (XIX asr). Margʻilonda. Masjid, minora, maqbara va uning hovlisida gumbazli darvozaxona hamda toʻrt boʻlakli kaptarxonadan iborat boʻlgan bino va inshootlardan iborat.

Kamol qozi madrasasi (XIX asr). Qoʻqonda. Darsxona, ayvonli masjid va hujralardan iborat. Bezakli, hashamatli qurilma. Darsxonaning tomi gumbazli.

Dahmai shohon. (XIX asr). Qoʻqonda shohlar dahmasi (hazira). Norboʻtabiy va

uning avlodlari dafn etilgan dahma-sagʻanalar bor. Masjid ayvoni chiroyli, naqshinkor bezatilgan.

Devona Buva maqbarasi (XIX asr). Namanganda. Ziyoratgoh - hazira. Goʻrxona va ayvondan iborat. Oldi peshtoqli, tomi gumbazli, toʻrt tomonida eshik oʻrni bor. Naqsh va oʻymakorlikdan yaxshi foydalanilgan.

Abulqosim madrasasi (XIX asr). Toshkentdagi meʼmoriy yodgorlik. Madrasa, masjid va xonaqohdan iborat. Shayx Abulqosim tomonidan bunyod etilgan. Eski binosi – xonaqoh Moʻyi Muborak 1820-yilda qurilgan, madrasa esa 1850-yilda barpo etilgan. 1983-yildan buyon Oʻzbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish jamiyatining Toshkent boʻlimi hamda xalq hunarmandchiligi ustaxonalari joylashgan.

Ahmadbek hoji mehmonxonasi (1905-1907). Andijonlik paxta zavodi egasi Ahmadbek hoji qurdirgan., asosan, bezakli oldi ayvonli xonalardan iborat. Idora vazifasini oʻtaydigan qismi yevropacha uslubda pardoqlangan.

Jahonobod masjidi (1912). Andijonda. Mahalliy Madaliboy buyurtmasi bilan Isaboy hoji boshchiligida qurilgan. Masjid xonaqoh va ayvondan iborat. Manzarali naqsh gullar bilan bezatilgan. Bugungi kunda taʼmirlangan.

Isʼhoq Shayx masjidi (1912-1914). Namanganda. Isʼhoq Shayx rahbarligida qurilgan. 5 ustunli, 19 ustunli ayvon hamda biri gumbaz tomli, ikkinchisi tekis tomli kichik xonalardan iborat. Turli naqshlar bilan bezatilgan.

Muin xalfa bobo maqbarasi (XIX asr). Toshkentda. Muin xalfa oʻzi uchun qurdirgan deb taxmin qilinadi. Maqbara gumbazli, bir xonali, pishiq gʻishtdan qurilgan. Xonadagi ikki sagʻanaga Muin xalfa bobo va uning oʻgʻli dafn etilgan.

Doʻsti xudo masjidi (XX asr boshlari). Fargʻonada. Eshon Alixon buyurtmasi bilan usta Yoqub rahbarligida qurilgan. Xonaqoh va ikki yoni ayvondan iborat.

### **Nazorat savollari**

1. Musulmon tarixshunosligi konsepsiyasi nimaga asoslanadi?
2. Markaziy Osiyo; jumladan, Qoʻqon xonligi tarixiga oid asarlarni qaysi guruhlarga boʻlish mumkin?
3. Qoʻqon tarixnavislari asarlari qaysi manbalardan foydalanganlar?
4. Sharq tarixnavislari asarlarini xarakterli xususiyatlari haqida gapirib bering.
5. Qoʻqon tarixnavislari asarlari qaysi mavzularga bagʻishlangan?
6. Fazliy Fargʻoniy (Namangoniy) qalamiga mansub «Umarnoma» asari haqida nimalarni bilasiz?
7. Mushrif Isfaragiy va uning «Shohyjmayi nusratpayom» asari soʻzlab bering.
8. Dilshodi Barno haqida nimalarni bilasiz?
9. “Tarixi muhojiron” nomli kitobning manbaviy ahamiyati haqida fikr yuriting.

### **Manbalar va adabiyotlar**

1. Abdullayev N.U. Sanʼat tarixi. 2-tom. -T.: Sanʼat, 2001

2. Ahmedov B.R. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi zamon va o‘rta asrlar). T., 2001.
3. G‘afforov Sh.S., Yunusov M.A., Saidov M.M., Sharipov S.I. O‘zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. S.2008.
4. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – T.: Sharq, 2005.
5. Zohidov P. Me‘mor olami. -T.: Qomus, 1996.
6. Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san‘ati tarixidan lavhalar. – T.: O‘qituvchi, 1997.
7. O‘zbekiston san‘ati. (1991-2001-yillar) -T.: Sharq, 2001.
8. Vohidov Sh. H. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Dokt. dis. avtoref. T., 1998.

## **8-Mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkistonda madaniyat va san‘at**

### **Reja:**

1. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi va uning madaniyatga ta‘siri
2. Markaziy Osiyoda XIX asr oxiri XX asr boshlarida grafika madaniyati va san‘ati
3. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rassomchilik, hayqaltaroshlik va me‘morchilik madaniyati va san‘ati

### **Tayanch iboralar**

Jadid maktablari, rus-tuzem maktablari, madrasa, jadid adabiyoti, me‘morchilik, yevropa shaharsozligi, musiqa, matbuot, tipografiya, adabiyot.

1867-yili bosib olingan Markaziy Osiyoning katta qismida markazi Toshkent shahri bo‘lgan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Ruslarning kirib kelishi natijasida shahar va qishloqlarining turmush tarzi o‘zgardi. Shaharlar esa kattalashib, eski va yangi shahar qismiga ajrala boshladi. Eski shahar, asosan, mahalliy aholi istiqomat qildigan joy yangi shaharlar esa bosqinchilar tomonidan barpo etilgan ma‘muriy va madaniy binolar hamda ruslar yashaydigan kvartallardan tashkil topdi. Yangi shaharlar reja (plan) asosida qurila boshlanadi. Keng ko‘chalar katta maydon va xiyobonlar, ko‘p qavatli turarjoylar XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Markaziy Osiyo shaharlari qiyofasini o‘zgartirib yubordi. Shu davrda Turkiston general-gubernatorligini markazi bo‘lgan Toshkent shaharining qurilishi ham o‘zgardi. “Kichik Peterburg” deb nom olgan va rus davlatining poytaxti Peterburg shahriga o‘xshatib qurilgan bu shahar ko‘chalari va xiyobonlari o‘z vaqtida kelgan sayyohlarni



ham hayratga soldi. Shahardagi amaldorlarning uylari, turli ma'muriy binolar, favvorali istirohat bog'lari shaharga Yevropa tusini berdi. Shahar ko'chalarida, yo'llarga tosh, ko'nka uchun temir izlarning yotqizilishi, foytunli ot va fonuslarning paydo bo'lishi ham shahar qiyofasiga yangi davr ruhini kiritdi.

Bu davrda qishloqlarning shaharlarga aylanish jarayoni tezlashdi. Olma-ota, Bishkek, Ashxobod, Samarqand, Farg'ona kabi qator shaharlar o'zining yangi davrini boshladi. Ularning yangi shahar qismi shakllandi.

Markaziy Osiyoda, ayniqsa, uning shaharlarida ruslarning ko'payishi hukumat oldiga qator masalalarni ko'ndalang qo'ydi. Bu ham bo'lsa, ko'chib kelgan va kelayotgan yevropaliklar uchun ish joyni tashkil etish, bolalarni o'qitish uchun maktablar ochish, kasalxonalar qurish, pochta-telegraf ishlarni yo'lga qo'yish va boshqa qator masalalarni tezlik bilan hal etish edi. Bular ijtimoiy hayotda katta jonlanishga sabab bo'ldi. Bu ishlarni hal qilish uchun esa mahalliy aholi ham jalb etila boshlandi. Natijada mahalliy ishchilar safi kengaya bordi. Ayni vaqtda mahalliy mulkdorlar shakllandi, milliy burjua qatlamining safi ortdi.

Bu davrdan boshlab Rossiya sanoat korxonalarida ishlab chiqilgan buyumlar, masalan, lampa, samovar, mato va yevropacha kiyim-kechaklar mahalliy aholi xonadoniga kirib kela boshladi, musulmon xonadonida kartoshka, pomidor, baqlajon va boshqa yangi sabzavotlar ham paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyo madaniy hayotida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Ziyolilar safi kengaydi, boy va zodagonlarning bolalari ta'lim-tarbiyasida o'zgarishlar yuz berdi. Ular endilikda Yevropa mamlakatlari hayoti bilan yaqindan tanisha bordilar. Peterburg, Moskov, Istambul, Berlin, Parij va boshqa shaharlar hayotini o'z ko'zlari bilan ko'rdilar. Kapitalistik munosabatlari kengaygan sari ziyolilar harakati ham kuchaya bordi. Eskicha yashash tarzini o'zgartirish, yangi zamonni his etish zarurligini ilg'or ziyolilar dildan seza bordilar. Ularning bu harakat va intilishlari zoye ketmadi.

Shu davrdan gazeta va jurnallarni toshbosma uslubida nashr etish kengayib bordi, teatrlar tashkil etilib, doston va afsonalarni sahnalashtarish orqali xalqni ma'rifatga chorlash, ularda dunyoga qiziqishni orttirishga intildilar. Natijada keng xalq ommasini ijtimoiy hayotga tortila boshlandi. Muhimi shundaki, bu ishlarda xotin-qizlar ham ishtirok qila boshladilar. Badiiy adabiyotda ham jonlanish boshlandi, Avaz O'tar, Furqat, Abdulla Avloniy, Ahmad Donish kabi qator yozuvchi hamda shoirlar ijod etdilar. Me'morchilik, tasviriy va amaliy san'atda ham yangi jarayonlar ro'y berdi. Bosma kitoblarni paydo bo'lishi xattotlarga bo'lgan talabni kamaytirib yubordi, sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan maishiy buyumlar keng ko'lamda bu yerlarga kirib kelishi esa mahalliy kustar ishlab chiqarishini sindirib bordi. Kulolchilik, bo'z to'qish kabi mahsulotlarga talab pasaya bordi. Me'morchilikda esa an'anaviy uslublar yangi yevropa me'morchilik uslublaridan ta'sirlana boshladi, Sharq va G'arb madaniyati va san'ati an'analari simbiozi yuzaga keldi. Shu holni tasviriy san'atda ham ko'ramiz. Ishlangan tasviriy san'at asarlarida milliy rasm chizish uslubi Yevropa

rasm chizish uslubi bilan uyg'unlashtirishga intilish paydo bo'ldi. Bu xususiyat buxorolik rassom Ahmad Donish ishlarida bilinadi. Uning Alisher Navoyining "Layli va Majnun" dostoniga ishlagan kompozitsiyalarida shu holni ko'rish mumkin.

Ahmad Donish (1827-1887) yozuvchi, shoir, rassom, xattot sifatida tanildi. U Rusiya shaharlarida bo'lib yangi hayot, voqelikka yangicha qarash tuyg'usi bilan yashadi va mehnat qildi, uning bu qarashlari ilmiy risolalarida, mo'jaz rasmlarida o'z ifodasini topdi. Donishning mo'jaz rasmlarida voqelikni o'ziga aynan o'xshatishga intilib ishlanganligi rasmda tasvirlangan yaqin va uzoqdagi buyumlarning katta va kichik tasvirlanishida bilinadi. Donish ilg'or Yevropa madaniyati va san'atini qiziqib o'rgandi. Uning "Majnun sahroda", "Rassom va shoir" kabi qator miniaturalarida Yevropa realistik madaniyati va san'ati an'analari ta'siri ishlanish uslubida mavzuni yechishda ko'rinadi.

XIX asr o'rtalaridan boshlab Markaziy Osiyoda birin-ketin bosmaxonalar tashkil etila boshlagan. Rus va mahalliy tillarda turli gazeta, jurnal va kitoblar nashr etilishi san'at rivojiga ta'sir eta borib rassomlar safini kengaytirdi. Bu dastlabki kitobat madaniyati va san'ati bilan bog'liq rasmlar o'ziga xos, sodda va ko'p hollarda harf va geometrik shakllar kombinatsiyasi, milliy naqshlarning yangi davrga moslab ishlangan variantlari tarzida ko'rinadi. Kitoblarga illustratsiyalar kiritish rivojlana bordi. Birinchi mahalliy rassomlar shu san'atda o'z ijodlarini boshladilar. 1908-yili Toshkentda nashr qilingan "Shohnoma", "Farhod va Shirin" kabi qator kitoblar illustratsiyalarini Faqir al-haqir Rahmatulla va Rahmatilla ibn Mulla Abdushukur, Sa'diyning "Guliston" hamda "Go'ro'g'li" dostoniga Sirojiddin Maxsum Siddiqiy illustratsiyalar ishladi. Bu illustratsiyalarda rassomlar mahalliy miniatura madaniyati va san'ati apanalaridan ham foydalanishga intilganligi sezilib turadi. Jumladan, "Go'ro'g'li" dostoniga ishlangan miniaturalarda Siddiqiy o'z qahramonlari kayfiyatini realistik talqin etishga harakat qilganligi ko'rinadi. Rassomlar ba'zi kitoblar uchun esa xorijiy mamlakatlarda chiqqan kitob illustratsiyalaridan nusxa olib illustratsiya ishlashlari, shu davrda nashr qilingan "Ming bir kecha" "Ajoyib-g'aroyiblar", "Farhod va Shirin" uchun ishlangan illustratsiyalarda ko'rinadi. Shu bilan birga bu davrda rus va Yevropa kitob san'ati an'analari ham keng yoyila boshladi. Nashr etilgan kitoblarning ayrimlari illustratsiyalar bilan bezatilgan. Rasmlarning katta qismi realistik xarakterda gravyura uslubida bajarilgan. Bu suratlarda Turkiston o'lkasidagi qushlar, hayvon, jonivorlar tasviri, odamlar ko'rinishi aks ettirilgan. Masjid, madrasa, Turkiston tabiati ko'rinishlari ham nashr etilgan kitoblarda uchraydi. XIX asr oxiri XX asr boshlari kitob grafikasi o'zining uslub rang-barangligi bilan ham xarakterli. Nashr etilgan kitob bezagi va illustratsiyalarda milliy san'at va an'analarni qo'llanganligi sezilsa, boshqa birlarida milliy an'ana va Yevropa kitob bezak va illustratsiya ishlash madaniyati va san'atining an'analari uyg'unligi ko'rinadi, boshqa birida Yevropa realistik kitob bezagi va illustratsiyalari o'zining sof ko'rinishini namoyon etadi. Bu bejiz emas. Russiyanig badiiy hayoti orasidagi munosabatlarni mavjudligi, mahalliy ziyolilarning ilg'or madaniyatlardan

orqada qolmaslikka intilishlari, eng yangi san'at o'zgarishlaridan ham xabardor bo'lib turish va zamon ruhiga mos asarlar yaratishga harakatlari natijasi edi.

Shuning uchun ham XX asr boshlarida rus badiiy madaniyatidagi mavjud bo'lgan ijodiy izlanishlar, kitob grafikasida ham yangicha shakllar topishga bo'lgan harakat "Modern" uslubi paydo bo'lganligini kurish mumkin. «Markaziy Osiyo» almanaxi (1895) shunday nashrlardandir. Geometrik shakl va chiziqlar kombinatsiyasi, murakkab unsurlari hamda real buyum va predmetlarni soddalashtirib geometrik shakllarga yaqinlashtirib kompozitsiya yaratishga harakat qilish shu kitoblar umumiy bezatilish strukturasi tashkil etdi.

Markaziy Osiyoda XIX asr oxiri XX asr boshlarida grafika madaniyati va san'ati rangbarang, kitobat madaniyati va san'atining rivojida yangi bosqich nafaqat kitob chiqarish balki uning texnologiyasida ham sodir bo'ldi. Hatto miniatura ishlash va ko'chirish bilan birga ko'p nusxada nashr etish, shu maqsadda bosma harf va rasm shakllari(kleshe)dan foydalanish texnikasining keng ko'lamda hayotga kirib kelishi kitobat madaniyati va san'atining yangi tomonlarini belgiladi.

XIX asr oxiridan grafika madaniyati va san'ati keng ko'lamda hayotga kirib kelgan va ma'lum miqdorda o'z o'rnini egallagan bo'lsa, aksincha rangtasvir, haykaltaroshlik madaniyati va san'ati davr milliy badiiy ziyolilarining shaxsiy tashabbusi sifatida mavjud bo'ldi va deyarli rivoj topadi. Masalan, 1886-yili Toshkentda bo'lib o'tgan ko'rgazmada usta To'xta Sodiq Xo'jayev alebastrodan yasagan ot va kiyik haykalchasini namoyish etganligi malum.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (1863-1910) va uning o'g'li Asfandiyorxon (1910-1918) davrida qurilish ishlari olib borildi, shahar ko'chalarida foytunli aravalar paydo bo'lib, boy va zodagonlar joniga oro kira boshladi. Xiva bozorlarida Rusiyada ishlangan buyumlarning ko'payishi ham, mol ayirboshlash ishlarining keng quloch yoyishi ham, Xiva xonligida yangi hayot boshlanayotganligi shu davrda qurilgan Islomxo'ja minorasi shaharning ajoyib me'morchilik yodgorligi bo'lib qoldi. Bu davrda yangi uslubdagi binolar qurilishi, maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitish kuchaydi. Bu yillarda adabiyot sohasida shoirlar o'z asarlarida ozodlik va birodarlik g'oyalarini kuyladilar, xalqni ma'rifatli bo'lishga chaqirdilar. Shunday ma'rifatparvar shoirlardan biri Avaz O'tar (1884-1919) o'z ijodi bilan xalqqa tanildi. Madaniyat borasida Markaziy Osiyo mintaqasidagi katta yangiliklardan biri kino madaniyati va san'atining kirib kelishi bo'ldi. Bu san'at sohasida ilk bor ijod qilgan kinooperator Xudoybergan Devonov( 1877-1940 )ning kichik hajmdagi filmlari bugun ham qiziqish uyg'otmay qolmaydi. Uning "Markaziy Osiyo me'morchilik boyliklari" (1913), "Turkiston ko'rinishlari" (1916), «Xiva va xivaliklar" (1916) filmlari va 1000 dan ortiq fotosuratlar davrning bebaho hujjati sifatida saqlanadi.

Tasviriy san'at. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu yerda toshbosma uslubida kitoblar nashr etilishi natijasida asta-sekin grafika madaniyati va san'atida asarlar paydo bo'lishiga olib keldi. Shu davr kitoblari uchun ishlangan rasm va grafik kompozitsiyalar ushbu jonlanish natijasi edi. Xiva xonlaridan Feruz ham tasviriy

san'at bilan shug'ullanganligi haqida ma'lumotlar bor.

Xiva xonligi mahobatli rassomlik ko'proq koshin madaniyati va san'ati bilan bajarilgan. Bu davrda ham xalq madaniyati va san'ati, amaliy bezak madaniyati va san'ati yuqori bo'lgan. Shulardan Xiva yog'och o'ymakorlik maktabi bilan mashhur bo'lgan. Bu san'at o'zining nihoyatda jimjimadorligi va o'ynoqiligi, naqsh chiziqklarining mo'lligi va zamin kamligi bilan ajralib turadi. Ayni shu xususiyatlar Xiva mahobatli bezak madaniyati va san'atining o'ziga xosligini belgilaydi. Bu xususiyatlar xivalik mashhur usta Ota Polvonov ijodida o'z ifodasini topgan. Bu yerning yog'och o'ymakorlarining dong'i uzoqlarda ham mashhur bo'lgan. Xorazm kulolchiligi ham o'z xususiyatiga ega bo'lgan. Kulolchilik va, ayniqsa, sopol koshinlar Xorazm madaniyatining muhim yutug'i bo'lib, uning ustalari keyingi o'zbek mahobatli koshinkorlik madaniyati va san'ati rivojida muhim ahamiyat kashf etgan. O'z vaqtida Amir Temur xorazmlik ustalarning ishlariga mahliyo bo'lib, ularni jahonning markaziga aylantirishga orzu qilgan shahri Samarqandga keltirgan edi. Ayni xorazimlik ustalar nozik Samarqand koshinkorligi rivojiga ta'sir etib chin manodagi aristokratik san'at shakllinishida rol o'ynagan edilar. Shu sabab, Xiva xonligi davrida yana rivojlandi. Bu davrdan boshlab qurila boshlagan me'moriy obidalar bezagini belgilovchi omilga aylandi.

Mazkur xonlik kulolchiligi xalq iste'moli uchun zarur idish tovoqlarni ishlash bilan birga bevosita bezak vazifasini o'taydigan ko'zni quvontiradigan asarlar yaratishga muyassar bo'ldilar. Ustalari Usta Bolta Matrizayev, Bolta Voisov va boshqa kulollarning saqlanib qolgan asar va nomlari shundan dalolat beradi.

Tasviriy va amaliy san'at. XIX asr o'rtalaridan tasviriy va amaliy san'atda yangi mavzu va texnologiyalar hayotga kirib kela boshladi, dastgoh san'aning dastlabki namunalari yaratildi. Bu san'atning mualliflari chetdan kelgan rassom va haykaltaroshlar edi. Bular ichida rus rassomlari V.V.Vereshchagin, yozuvchi va rassom N.N.Karazin, olim va rassomlar Dmitiriy Kavkazskiy, O.Fedchenko, ukrainalik rassom S.Svetoslavskiy, gruziyalik rassom G.Gabashvili, haykaltarosh Mikeshin va boshqalar bor. Ular qalamda, tushda, akvarel va guashda, moybo'yoq va temperada mavzuli suratlar, manzara, portretlar yaratdilar. Ayniqsa, Markaziy Osiyoning Samarqand, Buxoro, Xo'jand, Toshkent kabi qadimiy shaharlarga, ularning obidalariga atab ko'plab asarlar ishladilar. Bu rasmlar Yevropa ko'rgazma zallarida namoyish etildi, gazeta va jurnallarda, ilmiy kitob va risolalarda chop etildi. Ishlangan rasmlarning katta qismi etnografik xarakterda bo'lib rassomlar yangi o'lka, odamlarning etnik ko'rinishlari, kiyinishi, yashash sharoiti va turmush tarzi, ularni o'rab turgan muhit tasvirini aniq o'ziga o'xshatib ishlashga harakat qilganliklari seziladi. Ularni me'morchilik obidalariga, xalq madaniyati, san'ati va hunarmandchilik namunalari qiziqtiradi. Naturadan (borliqdan) o'ziga qarab rasm ishlash uslubi bu rassomlarning ko'pchiligining asosiy uslubi bo'ldi. Shu jihatdan ularning chizgan rasmlari davrning aniq hujjati sifatida bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

O‘zbekiston tabiati, me‘morchilik obidalari, kundalik turmushni tasvirlashga kirishgan rassom D.V.Velejev (1841-1897) bo‘lib uning grafika asarlarida Toshkentdagi masjid va madrasalar, qo‘rg‘on, shahar chekkasi o‘z aksini topgan. Rassomning asarlari o‘zining kompozitsion echimi, nur soyaning nozik tuslanishi hamda hayotiy lavhalarni o‘rinli kompozitsiyaga kiritilishi bilan esda qoladi. «Eski Toshkent ko‘chasi», «Eski Toshkentdagi hovli» ko‘rinishlari o‘tmish hayotini shoirona aks ettiradi. Ekspeditsiya bilan kelgan bu rassom asarlari kitob illustratsiyalar uchun xizmat qilgan.

Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda bo‘lgan yozuvchi, rassom, sayyoh N.N.Karamzin ijodi ham sermahsul bo‘lib, u Markaziy Osiyo hayoti haqida kitoblar yozdi, bo‘lib o‘tgan janglarga bag‘ishlab kompozitsiyalar, katta polotnolarni moybo‘yoqda ishladi, tabiati, me‘morchiligi haqida gravyura asarlar qoldirdi. Uning «Bibixonim ko‘rinishi», «Sahroni o‘zlashtirish», «Poyezd bilan musobaqa» kabi asarlari akademik yo‘nalishida ishlangan.

V.V.Vereshchagin (1842-1904) Markaziy Osiyoga rus harbiy qo‘shinlari bilan birga kelib, harbiy janglarda qatnashadi. Bo‘sh vaqtlarida moybo‘yoq va qalamda rasmlar ishlagan. Uning «Turkiston» deb nomlangan asarlar turkumi Parij va Peterburgda ko‘rgazmada namoyish etilgan. Rassomning «Ko‘knorixo‘rlar», «Zindonda», «Qul savdosi» kabi asarlarida Markaziy Osiyodagi hayotning ayrim salbiy tomonlari ko‘rsatilsa, «Amir Temur darvozasi oldida» kompozitsiyasida xalqning boy amaliy madaniyati va san‘ati namoyon bo‘ladi.

XIX asr oxirida Turkistonda bo‘lgan rassomlardan Tbilisi Badiiy Akademiyasining tashkilotchisi va professorlaridan Gabashvili Georgiy (Gigo) Ivanovichni (1862-1936) eslash mumkin. Realist san‘atkor portret, manzara, natyurmortlar ustasi. Samarqand va Buxoroda bo‘lib qator qalamsuratlar ishlagan, Markaziy Osiyoning mahobatli me‘morchilik yodgorliklari, odamlar tipining o‘ziga xos ko‘rinishlarini yaratgan. Uning 1897-yili yaratgan «Samarqanddagi bozor» va boshqa asarlari jurnallarda chop etilgan. Ukrainaning mashhur rassomlaridan hisoblangan S.I.Svetoslavskiyning 1910-yillarda yaratgan «Bibixonim oldidagi bozor» kartinasi e‘tibordir. Markaziy Osiyoga keluvchi rassom va haykaltaroshlar XX asr boshlarida yanada ko‘paydi. Bular ichida mashhur rus rassomlari Pavel Kuznetsov, K.S.Petrov-Vodkin, Frans Rubo, haykaltarosh O.Mikeshinlarni ko‘ramiz. Shu bilan birga bu davrdan boshlab o‘z ijodini butunlay O‘zbekiston hayotiga bag‘ishlagan va o‘zlari uchun Vatan topgan rassomlar, shuningdek, shu yerda tug‘ilib, ijod yo‘liga kirgan san‘atkorlar safining kengayishi san‘at rang-barangligining ortishida muhim o‘rinni egalladi.

Shu davrdan boshlab Markaziy Osiyo an‘anaviy mumtoz merosi bilan birga, yangi jahon madaniyati turlari shakllana bordi. Ayniqsa Yevropa madaniyati va san‘ati ta‘siri bu rivoj va shakllanishda kuchli bo‘ldi.

XIX asr o‘rtalaridan Markaziy Osiyoda ham milliy uyg‘onish harakati boshlandi. Mahalliy ziyolilar safini ortishi badiiy va madaniy hayotni jonlanishida muhim o‘rinni

egalladi. Istiqlol g'oyasi ular faoliyatini jonlantiruvchi asosiy kuchga aylandi. Millatni uyg'otish, uni yorug' kunlarga chiqishlari uchun da'vat etish ziyolilarning muhim va yetakchi intilishiga aylandi. Milliy taraqqiyot, istiqloлга erishish yo'li ma'rifat ekanligini chuqur anglagan ziyolilar yangi maktablar tashkil etish ishlariga e'tibor berdilar. XX asr boshlariga kelib ma'rifiy-madaniy ishlar – yangi jadid maktablarining tashkil etish ishlari qizib ketdi, birin-ketin toshbosma tipografiyalar ko'paydi, yangi-yangi gazeta va jurnallar, kitob va turli to'plamlar nashr etila boshlandi. Milliy teatr truppassi tashkil topdi, muzeylar ochildi, ko'rgazmalar tashkil etildi, badiiy ta'lim masalalarida ham jonlanish boshlandi. Bu madaniy hayotda mahalliy ustalar, milliy ziyolilar ham ishtirok etib o'zlarini namoyon qildilar. Ziyolilar o'zga mamlakatlar hayoti bilan yaqindan tanishib undan mahalliy aholini bahramand bo'lishga, o'rganishga chorladilar. Behbudiy, Fitrat, Avloniy va boshqalar omma orasida ilg'or dunyoviy bilimlarni tarqatish, san'at va madaniyat yutuqlaridan ularni bahramand etish zarurligini e'tirof etdilar. Ular maqola, she'r va pyesalar, teatr tomoshalarini yaratib, ulardan targ'ibot ishlarida foydalandilar. Shunisi e'tiborliki, jadid deb nom olgan taraqqiyparvarlar tasviriy san'at imkoniyatlariga alohida e'tibor bilan qaradilar. Uning ta'sir kuchi yuqori ekanligini bilib undan o'z yozgan maqola va she'rlarini o'zlari chizgan rasmlar bilan bezatilishiga harakat qildilar. Ularning tush, qalam va peroda ishlagan rasmlari shu yillarda chop etilgan gazeta va jurnallarda o'z aksini topdi. Mahalliy yoshlar gazeta-jurnallarda chop etilgan rasmlarni ko'rish, ulardan ko'chirmalar ishlash orqali rassomlik kursini o'tay boshladilar.

Badiiy hayot. Markaziy Osiyo hududida Toshkent, Samarqand shaharlarida badiiy hayot jonli bo'lib, bu yerlarda o'z davrining ilg'or taniqli rus rassom, me'mor, etnograf va arxeologlarining katta qismi yashab ijod etdi. Ular arxeologik tadqiqot ishlar olib bordilar, mahalliy aholining hayoti, me'morchilik obidalari va tabiatini o'rgandilar, shaharsozlik va me'morchilik loyihalarini ishladilar. Jumladan, shu yillarda arxeolog olimlar Afrosiyobda qazilma ishlarni boshlaganliklari, Bibixonim yodgorligi devoriy rasmlarini o'rganish, ulardan ko'chirmalar olishga e'tibor berilganligini, Ulug'bek madrasasining og'a boshlagan minoralarini tiklash masalalari kun tartibida qo'yilganligini e'tirof etish mumkin. Toshkent, Samarqand, Farg'ona va boshqa shaharlarda turli bilim yurtlari tashkil etilgan edi. Toshkent Turkiston o'lkasining muhim madaniy markazlaridan bo'lgan. Toshkentda maktablarda rasm chizish asoslarini o'rgatishdan tashqari, haykaltaroshlikdan ham saboq berilgan, haykaltaroshlik studi-ya(to'garak)lari ishlagan. Taniqli rus haykaltaroshlari Slonim, Shvars kabi san'atkorlar dastlabki bilimlarini shu muhitda olganliklari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Me'morchilik. XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragida O'zbekiston me'morchiligi uslub va yo'nalishlar rang-barangligi va shu bilan birga, shakllanib kelayotgan yangi jarayonlar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi me'morchiligida an'anaviy milliy me'moriy uslub yetakchi o'rinni egallasa ham, yangi davr unga o'z o'zgarishlarini kirita boshladi, davr taqozosi bilan yangi

tipdagi binolar – pochta, telegraf, vokzal va boshqa binolar paydo bo‘la boshladi, yangi qurilish materiallari keng ko‘lamda hayotga kirib kela borishi ham (masalan, toshoyna, turli kafellar, tunuka va b.) shu davr me‘morchiligi ko‘rinishida o‘z ifodasini topa bordi. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro me‘morchiligi maktabi an‘anaviy uslubi shu davrda qurilgan jamoat va ijtimoiy binolar, guzar, masjidlar, xonaqoh va maqbaralarda (Bolohovuz, Arkdagi Juma masjid va b.), o‘ziga to‘q xonadonlarning uylarida, me‘morchilikda o‘z aksini topgan. Bu davr Buxoro me‘morchiligining o‘ziga xos yodgorliklaridan biri, so‘zsiz amirning saroyi bo‘lib, milliy bezak madaniyati va san‘ati bilan birga, Yevropa bezak va qurish yozgi qarorgohi Sitorai Mohi Xosa qurilishi Abdulahad xon davrida boshlangan eski saroy va keyingi davrda qurilgan yangi saroydan iborat. Mahalliy va Yevropa an‘analarida asoslangan. Bu saroyni qurishga rahbarlik qilgan usta Xo‘ja Hofiz ish boshlashdan avval rus qurilish madaniyati va san‘ati bilan chuqur tanishgan. Rus shaharlarida, jumladan, poytaxt Peterburg va Yalta shaharlarida, bo‘lgan. Bino qurilishida turli uslublar, jumladan, uygonish davri ustalari tomonidan mumtoz san‘at ustunlari ishlatilgan. Said Olimxon davrida qurilgan yangi saroyda milliy qurilishi uslubida va bezagi bilan birga, Yevropa me‘morchiligi uslubida uyg‘unlashtirilishiga intilish sezilarli darajada bo‘lgan. Saroyga kirish darvozaxonasi milliy bezakning koshin uslubidan keng foydalanilgan. Shu bilan birga turli ark va materiallar ishlatilishi binoning estetik tomonini birmuncha orttirgan. Saroyning mehmonxonasi ham o‘ziga xos. Xrustal lyustralar, kafelli o‘choq (pechka) yog‘ochdan yotqizilgan pollar, bekatlar, eshik va romlar xonaga fayz kiritibgina qolmay, balki sodir bo‘layotgan tarixiy voqea-hodisalar, Markaziy Osiyo me‘morchilik bezak madaniyati va san‘atida yangi jarayonlarning shakllana boshlaganligidan dalolat beradi.

Saroyning “oq zali” bezaklari xalq, ustasi Usta Shirin Murodov rahbarligida bajarilgan. Bu zal o‘zining erkin va nafisligi bilan ajralib turadi. Bezatishda ishlatilgan xrustal va oltindan foydalanib ishlangan va lyustrali bezak alohida go‘zallik kashf etgan. Saroyning oshxona qismi deyarli Yevropa husnini olgan. Tunuka, cherepitsa bilan yopilgan bu xona o‘z ko‘rinishi bilan Yevropa interyerlaridan qolishmaydi. Yotoqxona ham o‘z ko‘rinishi jihatidan Rossiyaning boy xonadonlariga xonalarga yaqinligi bilinadi. Saroyning bog‘i, rejalashtirilishi, u yerdagi hovuzning tashkil etilishi, Markaziy Osiyo ijtimoiy hayoti natijasi edi. O‘z davri uchun katta va Markaziy Osiyodagi yagona bu hovuz ham davr muhiti, estetik qarashlarini namoyish etadi. Hovuz, uning yaqindagi shiypon, narvon zina va b. bezaklar me‘morchilik hajmlar ham shu yangi qarashlarni natijasi edi.

XX asr boshidagi Buxoro me‘morchilik maktabi jarayonlarini o‘zida aks ettiradi. 1912-1914-yillar davomida qurilgan bu saroy o‘zida milliy Sharq me‘morchiligi an‘analarining yevropacha me‘morchiligi uslublari bilan uyg‘unlashuvini namoyish etadi. Keng va ko‘rkam hovlili, hovuz va gullarga o‘ralgan bog‘ qo‘ynida bu saroy yanada betakror va go‘zallik kashf etadi. Saroy xonalarining ketma-ketlikda anfilada tizimida joylashuvi, golland kafeli bilan pardozlangan isitgich pechlar, turli boshqa

me'moriy unsurlar (karniz, osma lyustra, toshoyna va b) saroy ko'rinishiga yangi davr ruhini kiritadi. Majmuaning "Oq saroy" interyeri ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan. Bu ishlarni buxorolik ganch o'ymakori Usta Shirin Murodov bajargan. Bu naqshlar toshoyna ta'sirida nur o'yinini kuchaytirib, unga bayramona kayfiyat bag'ishlaydi. Saroyning dahliziga ishlangan naqqosh Usta Hasanjonning islamiy naqsh va gullari ham saroy ko'rkini oshiradi. Saroyga kirish eshiklari oldiga Abdurahim toshtarosh ishlagan sherlar haykali ham Buxoro me'morchiligi majmualarida san'at sinteziga e'tibor va qiziqish paydo bo'layotganidan darak beradi. Xiva xonligida ham an'anaviy me'morchilik uslubida binolar, masalan, 1908-yili Islom Xo'ja maqbarasi barpo etildi.

Agar XX asr boshlaridagi Buxoro va Xiva me'morchiligida an'anaviy me'moriy uslub yetakchi o'rinni egallasa, Markaziy Osiyoning katta qismini egallagan Turkiston gubernatorligi hududida turli yevropacha me'moriy uslublar yetakchi o'ringa chiqdi. Ayni shu hududda XX asr boshlarida yevropa va milliy me'morchilik uslublar mutanosibligi masalasida izlanishlar kurtak ota boshlagan edi. Gubernatorlik markazi bo'lgan Toshkent, muhim shaharlaridan Samarqand, Almati, Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Bishkek kabi shaharlarida barpo etilgan ijtimoiy-madaniy marifiy va diniy binolarda hamda shaxsiy uy va qo'rg'onlarda shu davr me'morchilikda sodir bo'lgan jarayonlar o'z ifodasini topdi. Bu ishlarda Turkistonda yashab ijod etgan rus me'morlari G.Svarichevskiy, K.Tiltin, I.Markevich, L.Voronin, L.Benua, V.Geynselman, Lidval kabi ijodkorlar sezilarli iz qoldirdilar. Qurilish ishlari Turkiston general gubernatorligi markazi Toshkent shahrida sezilarli bo'ldi. Shu yerda o'zbek me'morchiligining XX asr boshlarida sodir bo'lgan jarayonlari qurilgan binolarda o'z ifodasini topdi. Knyaz Romanov qarorgohi, diplomant Polovsev uyi, Zobitlar uyi, Shapito sirk binosi, Universal shaxsiy do'konlar, apteka va b. shu jarayonlarni ko'rish mumkin.

G.M.Svarichevskiyning "Xiva kino teatri"(1912-16) binosi (yuqorida ko'rib o'tgan qator binolar jumladan, mazkur kino teatr binosi 1966-yili Toshkent zilzilasidan keyin buzib tashlangan). Sharq va g'arb me'morchilik uslublari uyg'unlashgan Xiva Buxoro me'morchiligini eslatadi.

Yupatov sirki (1913) binosi ko'rinishida, I.A.Markevichning Toshkentdagi Bank binosida (1915) Renessans uslubi va qisman modern uslubi unsurlari chatishib ketganligini ko'rish mumkin. Gubernatorlik tarkibida bo'lgan Samarqandda, Farg'ona va Qo'qon shaharlarida ham XIX asr oxiri-XX asr boshlarida qurilish ishlari keng ko'lamda olib borildi. Yangi tipdagi binolar qurildi, boylar uylari ham yangi davr ruhida bajarildi. Kalantarov uyi mahalliy va rus boylari, savdogarlar uchun hashamatli shaxsiy uy va qasrlari, bank va savdo rastalari barpo etildi, ularning ichki va tashqi bezaklari uchun mahalliy san'atkorlar va xalq ustalari taklif etildi.

Amaliy bezak va xalq madaniyati va san'ati. XX asr boshlarida amaliy bezak va xalq madaniyati va san'ati bir tomondan yangi turlar bilan boyib borsa, ikkinchi tomondan uning ayrim turlari muomaladan chiqib keta boshladi. Shu yillarda xalq



amaliy san'at ustalari yaratgan buyumlar na faqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham talab paydo bo'ldi. Gilamdo'zlik, zardo'zlik, kandakorlik buyumlar tashqarida ham o'z xaridorini topdi. Charmdo'zlik va buxoro zardo'zligiga ham talab yuqori edi. Ganch va yog'och o'ymakorligi, gilamdo'zlik jonlandi bu san'atning yirik vakillari etishib chiqdi. Buxorolik usta Shirin Murodov, qo'qonlik yog'och o'ymakori usta Najmiddin Haydarov, xivalik usta Ota Polvonov kabi san'atkorlar o'z ishlari bilan el e'tiborini qozondilar. Kulolchilikda turli idish tovoqlardan tashqari har xil o'yinchoqlar, mayda haykalchalar ishlandi. Zargarlikda yaratilgan turli xildagi taqinchoq va tillaqoshlar ham bozori chaqqon bo'ldi.

Tasviriy san'at. XIX asr oxiri XX asr boshlarida tasviriy san'atda ham jonlanish ro'y berdi. Taraqqiyparvarlar tasviriy san'atga e'tibor bilan qarab, uning imkoniyatlaridan targ'ib va ma'rifat ishlarida foydalanishga intildilar. Rasm chizishni mustaqil o'rganib undan o'z yozgan maqola, she'rlarini bezashga, o'z tasavvurlarida paydo bo'ladigan turli manzaralarni qog'ozga tushirishga harakat qildilar. Jumladan, Is'hoqxon To'ra Junaydullaxo'ja Sunnatullaxo'ja o'g'li (1862-1937) turli afsonaviy timsollar ustida ish olib bordi, ularning tasvirini ishladi, Sirojiddin Siddiq Xondaqliqiy (1884-1934) esa "Ming bir kecha", Sa'diyning "Guliston" asariga rasmlar chizdi, shuningdek, portretlar yaratdi. Tavallo portreti shunday asarlardan biri. Mirzo Xayrullo, Mullo Husniddin, Mullo Ortuq, Rahmatiy, Mulla Abdulhamid Jalolobodiy kabi rassom va xattotlar ham tasviriy san'atdan targ'ibiy ishlarda foydalanganligi shundan dalolat beradi Mahalliy tadbirkorlar Alisher Navoiy, Firdavsiy asarlarini toshbosmada chop ettirib, ularni rasmlar bilan bezatdilar. 1915-yili «Go'r o'gl'i» dostoni chop etilib rasmlar bilan bezatildi. Tadbirkor ziyolilar orasida Ibrohim Davron ham birmuncha faol bo'lib madaniyat borasida qator tadbirlarni amalga oshirdi. Ibrohim Davron o'zbek ziyolilari ichidan yetishib chiqqan rassom va shoir edi. U 1874-yili Qo'qonda ziyoli oilasida dunyoga kelgan Shu yerda rus tuzem maktabida o'qib dunyoviy bilimlarni egalladi. Yoshligidan san'atga qiziqib she'rlar yozdi, rasm chizishni mashq qilib turli mavzularda rasmlar ishladi, she'rlarini rasmlar bilan bezadi. Uning rassomlik sohasidagi ijodi rang-barang. Hajviy rasmlar, portret va janrli kompozitsiyalar ishlagan. Ularda kundalik turmush, xotin qizlarning og'ir qismati, hayotda uchraydigan turli voqealar o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, u Qo'qonda kutubxona hamda suratxona(Fotograf xonasi) tashkil etgan, 1914-yili Turkiyada bo'lib yangi hayot va madaniyat o'zgarishlarini o'rgangan va uni o'z ona yurtida targ'ib etishga harakat qilgan. XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida rassomlik madaniyati va san'ati bir tomondan gazeta va jurnallarga, kitoblarga ishlangan grafik rasmlar tarzidagi namoyon bo'lsa, rangtasvir madaniyati va san'ati ko'proq xalq havaskorlik madaniyati va san'ati darajasidagi devoriy rassomlik va sodda miniatura madaniyati va san'ati ko'rinishida mavjud bo'ldi. Bu yillarda qurilgan uylarning devorlariga rang naqqoshligi bilan birga mavzuli kompozitsiyalar, rasmlardan ko'chirilgan turli ko'rinishlar, ayniqsa, an'anaviy tuvakdagi gul yoki daraxt shoxi, gullayotgan daraxt tupi, anor tupi kabi

kompozitsiyalar xonadonlar bezagida uchraydi.

Bu davrda grafika va monumental rassomlikda mahalliy ijodkorlar ozmi-ko'pmi ijod qilgan bo'lsalar, dastgoh rangtasvir madaniyati va san'atida, asosan, chekkadan kelgan rassomlar ijodiy faoliyati yetakchi o'rinni egalladi. Turkistonga turli sabablar – ilmiy safar, etnografik ishlar, yangi gazeta va jurnallar, tipografiyalar uchun rassom sifatida kirib kelgan ijodkorlar bo'ldi. Bulardan tashqari shaxsiy tashabbus bilan kelgan rassomlar ham badiiy hayot mavqini belgiladi. Bu rassomlar turli mavzu va yo'nalishlarda ijod qildilar Ular Markaziy Osiyo mintaqasida dastlabki moybo'yoq texnikasida ishlangan asarlar muallifi sifatida tanildilar. O'zbek madaniyati va san'atida birinchi bor dastgoh madaniyati va san'atining turli janrlari ko'payib kundalik turmush, xalqning yashash tarzi, tabiati, etnografiyasi o'z aksini ola boshladi. Ma'lumotlarga ko'ra XX asr boshlarida O'zbekiston hududida 40 dan ortiq turli maktab va yo'nalishga mansub rassomlar ijod bilan shug'ullangan. Ular ko'proq rangtasvir madaniyati va san'atida ijod qilganlar. Rassomlarning mavzu tanlash va ishlash uslublari ham turlicha. Jumladan, hikoyanavis-sharxlovchi etnografik yo'nalish ko'pgina rassomlar ijodiga xos. Borliqni naturalizm yo'nalishiga yaqin, lekin biroz ideallashtirishga moyillik ularning asarlariga o'ziga xoslik kiritadi.

Borliqni shoirona idrok etish va milliy shakllarda, hech bo'lmaganida milliy o'ziga xosligini belgilarini ko'rsatuchi unsurlar bilan kompozitsiya ishlash, simbolizm, milliy romantizm unsurlari ta'sirida yuzaga kelgan san'at asarlari Pavel Kuznetsov, K.S.Petrov-Vodkin, A.Volkov, O.Tatevosyan, A.Nikolayev, Usta Mo'min, A.Isupov ijodida o'z ifodasini topgan. Bu ijodkorlar borliqni ramziy-metoforik yo'nalishda tasvirlashga harakat qilishlari ham ularning yaratgan asarlariga qaytarilmas o'ziga xoslik baxsh etgan., shuningdek, bu davr madaniyati va san'atida impressionizm, g'oyaviy realizm, demokratik san'at an'analari qator rassomlari ijodida ham o'z ifodasini topdi. Bu davr madaniyati va san'ati na faqat uslub balki mavzu va janr jihatidan ham boyib bordi. Yangi mavzu va janrlari paydo bo'ldi. O'zbek madaniyati va san'atiga shunday yangi mavzu olib kirgan rassomlardan biri S.Yudin edi. U birinchi bor o'zbek madaniyati va san'atiga tog' manzarasini olib kirdi. Uning nur va soyaga boy manzaralari ko'tarinki ruhda ishlangan "Tog' manzarasi», «Tog'dagi choyxona», (1907), "Oq baytal», va b. Yudin teatr dekoratsiyasining birinchilardan ishlagan rassom sifatida ham tanilgan.

XX asr birinchi choragi haqida gap ketganida Pavel Kuznetsov albomi, K.Korovinning impressionistik manzaralari, K.S.Petrov-Vodkinning "Samarqandiya" albomi, I.Isupov, R.Zommer, S.Svetoslavskiy, S.Dudin etnografik etyudlari e'tiborga loyiq. Yuqorida nomlari qayd etilgan rassomlar O'zbekiston hududida vaqtinchalik ishlab ijod qilgan bo'lsalar, boshqa bir qator rassomlar shu yerda o'z vatanlarini topdilar, shu yerda butun umrga qolib, shu yer madaniyatiga hissa qo'shishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri Kazakov Ivan Semenovich (1873. Kasilovo (Rossiya) - 1935. Toshkent) edi.

I.Kazakov Moskva rassomlik, haykaltaroshlik va me'morchilik bilim yurtida

V.Y.Makovskiy qoʻlida oʻqigan (1888-94), Sankt-Peterburg Badiiy Akademiyasida oʻqigan. 1894-98-yillar, 1899-1900-yillar Italiya, Germaniya va Fransiyada ijodiy safarda boʻlgan. Ilk ijodini grafik ishlar bilan boshlagan (“Ishchi” plakati, 1901). 1906-yildan Toshkentda yashab maxsus bilim yurti (real bilim yurti)da dars bergan (1910-yilgacha). Moyboʻyoq, akvarel, pastelda turli mavzularda rasmlar ishladi... Katta boʻlmagan imperessionistik uslubda etyudnamo rasmlar chizgan. Toshkent hayoti va tabiatiga atab rasmlar ishlagan sanʼatkorlardan (“Xudo irodasi”, “Namoz”, (1908), “Qovun bozori” va b.).

Agar Kazakov XX asr boshlarida Oʻzbekistonga kelib shu yerda ijod qilib, yoshlarga badiiy taʼlim bergan boʻlsa, aksincha, boshqa bir rus rassomi Korovin Konstantin Alekseyevich (1861-939) bu yerda vaqtincha yashab, ijod qilishiga qaramay sezilarli iz qoldirdi. Uning maslahati bilan samarqandlik rassom L.Bure Moskva, Peterburgda badiiy taʼlim oldi, shogirdi O.Tatevosyan esa ijodiy umrining katta qismini shu oʻlkada oʻtqazib Oʻzbekiston tarixi, tabiati, meʼmoriy obidalarining tasvirini ishladi. Korovin rus rangtasvir ustasi, plener madaniyati va sanʼatining yirik vakillaridan biri edi. U XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda, xususan Samarqandda boʻlib ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etdi Samarqand shahar hayotiga bagʻishlangan asarlar ishladi.

Lev Leonardovich Bure (1887-1943). Samarqandda advokat oilasida dunyoga keldi. Shu yerda umumtalim bilimlarini egallash bilan birga tasviriy sanʼat bilan ham shugʻullanib sanʼat olamiga kirib bordi. Bu davrda Samarqand Markaziy Osiyoning muhim madaniy markazlaridan boʻlib bu yerga qadimiy yodgorliklar va xalq madaniyati va sanʼatini oʻrganish uchun olimlar, arxeolog va rassomlar tez tez tashrif buyurishib turishar edi. XX asr boshlarida kelgan shunday rassomlardan K.Korovin, F.Rubo Y.F.Sionglinskiy, ukrainalik rassom S.I.Svetoslavskiylar Burening keyingi ijodiy rivojida muhim rol oʻynadilar. Ularning maslahati bilan Bure Moskva, Peterburg badiiy bilim yurtlarida oʻqishga muyassar boʻldi. Dastlab Bure Moskvada V.N.Meshkovning rassomlik va haykaltaroshlik badiiy (studiyasida) maktabida (1904-05-yillar), soʻngra Peterburgda I.Bilibin grafika ustaxonasi va F.Ruboning Peterburg Badiiy Akademiya qoshidagi batal sanʼat ustaxonaga (1907) qatnab taʼlim oldi. Yozgi tatil paytlarida Samarqandga kelib, etyudlar chizdi, kompozitsiyalar ishladi. Shu ishlari bilan Toshkent, Moskva va Peterburgda koʻrgazmalarda ishtirok etib koʻpchilikka tanila boshladi. Uning ishlari sanʼat ixlosmandlari tomonidan sotib olina boshlandi.

Oʻqishni tugatib ona yurti Samarqandga qaytgach, badiiy hayotga faol kirishib, Samarqand, Buxoro meʼmorchilik obidalari, eski shahar koʻcha va bozorlari, tabiat manzaralarini aks ettiruvchi asarlar ishladi.

Bu asarlar koʻpchiligi bevosita naturaning oʻzidan ishlangan boʻlishiga qaramay, rassom har bir etyudni tugatgan kartina darajasiga koʻtarishga harakat qiladi. Jumladan, uning “Labi Hovuz”.(1909), “Tush payti», “Bibixonim masjidi yonida”(1913) va boshqa asarlarida tabiat va meʼmoriy yodgorligi fonida oʻz yumushlari bilan band

odamlar tasviri shu manzarani mazmunan boyitib, hayotning davomiyligi, inson mehnati va ijodining abadiyligini ko'rsatgan. Asarda O'zbekistonga xos nurga boy jazirama tushki oftob haroratini jonli aks ettirilishi esa uni hayotiy va ta'sirli bo'lishiga xizmat qilgan. Rassomning "Registon maydoni"(1917) ham e'tiborga loiq. Unda me'moriy obida fonida Sharq bozori manzarasining umumlashma ko'rinishi ifodalanadi. Bozor hayoti, unda o'z yumushlari bilan band odamlarning hatti harakati(xordiq chiqarishi,choy ichishi,suhbat qurishi va.h.k.) asarga hikoyanavislik kiritib asar mazmunini yanada boyitadi. Asar uchun tanlangan rang gammasi – iliq sarg'ish ranglar hukmronligi asarga harorat kiritadi. Bure ijodiy faoliyati davomida ijtimoiy hayotga ham qiziqib qaradi, xalqning og'ir turmushi va huquqsizligi, Chorizm mustamlakachilik siyosatining og'ir asoratlari, Chorizm amaldorlarining axloqsizligi va poraxo'rliklarini fosh etuvchi hajviy rasmlar ishladi. Yuzdan ortiq shunday rasmlarni 1911-yili Samarqandda namoyish qilishga ham muyassar bo'ldi. Bu rasmlarida Bure o'z davri illatlarini ro'yi rost ko'rsatishga harakati, rus zobitlarining ma'naviy qashshoq va axloqsizliklarini qalamga oldi. Lekin bu ko'rgazma rassom uchun qimmatga tushdi. Bure bu rasmlari uchun politsiya tomonidan zimdan ta'qib ostiga olindi, uyi esa bir necha bor tintuv qilinib o'zi esa vaqtincha qamoqqa olindi.

Haykaltaroshlik. XX asr boshlariga kelib haykaltaroshlik madaniyati va san'atida ham asarlar paydo bo'la boshladi. Arab istilosidan keyin (VIII asr) butunlay to'xtatilib qo'yilgan bu san'at XIX asr oxirilaridan yana jonlandi. S.To'xtaxo'jayev, Usta Shirin Murodov, Abdurahim toshtarosh, Toshpo'lat Arslonqulovlar ijodida uning ilk namunalarini yaratildi, dastlabki favvoralar ishga tushdi. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlari va xiyobonlarga turli haykallar o'rnatish odati kengayib bordi. Shu davrda ishlangan qurbaqa, kiyik, it, sher haykallari bugun ham Toshkent, Buxorodagi saroy bog'-yo'laklari va Mohi Xosa saroyi darvozasi oldidagi sherlar haykalini bezab turibdi.

### **Nazorat savollari**

1. Rossiya imperiyasi davrida Turkiston madaniyati haqida fikr yuriting.
2. Rus tuzem maktablari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Jadidlarning adabiyoti haqida ma'lumot bering
4. Jadid maktablari haqida nimalarni bilasiz?
5. XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Turkiston madaniyatini qaysi manbalar orqali o'rganamiz?
6. Rossiya imperiyasi davrida me'morchilik yodgorliklariga munosabat qanday edi?
7. Yevropa me'morchiligi va shaharsozligining kirib kelishi.
8. Rossiya imperiyasi davrida Turkistonda san'at

## Manbalar va adabiyotlar

- O‘zbekistonning yangi tarixi. 1, 2,3-kitoblar. - T.: Sharq, 2000.
- Alimova D. A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka: fenomen djadidizma. Tashkent, O‘zbekistan. 2009. T. 2. -S. 186.
- Alimova D. A. Rashidova D. A. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. Toshkent. Akademiya. 1999.- 54 b.
- Ahmedov M.K. Markaziy Osiyo me‘morchiligi tarixi. T. 1995, 132-b.
- Galak Aleksandr. Первые строители и архитекторы евроепской части Самарканды.//Самаркандский вестник. 17-ноября 2018 г. № 90, № 91.
- G‘afforov Sh.S. Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixidan. (XIX – XX asrlar), Samarqand. 1996. – 112 b.
- G‘afforov Sh. Mustamlaka davrida Turkistonda ta‘lim tizimi. Samarqand, 2001. – 133 b.
- Jadid pedagogikasi. Toshkent.- 2007.-140 b.
- Ziyoeva D. O‘zbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida. T., 2013;
- Irisqulov O. XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida Samarqanddagi madrasalar faoliyati // Ilmiy-tahliliy axborot. Toshkent Islom universiteti. 2013. №4. – 47-51 b.
- Irisqulov O.J. Mustamlaka davrida Samarqand shahrida ta‘lim tizimida transformatsion jarayonlar. //Ilmiy-tahliliy axborot. Toshkent Islom universiteti. 2017. №1. – 38-42 b.
- Jadidchilik islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligiga yangi chizgilar)//Davriy to‘plam. № 1. (Mas‘ul muharrir D. Alimova.) Toshkent, Universitet. 1999 y. – 218 b.
- Kuraxmedov A. XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Samarqandning iqtisodiy va madaniy hayoti.-T.: «Fan». 2009. – 117 b.
- Malikov A. XX asr boshida Samarqand madrasalari mudarrislarining islohotlari xususidagi tortishuvlari//O‘rta asrlardagi Samarqand madrasai oliylarining islom sivilizatsiyasi va ta‘lim tizimining taraqqiyotdagi roli//Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Samarqand. 2017. – 40-42 betlar.
- Malikov A.M. Istoriya Samarqanda (s drevnix vremen do serediny XIV veka). T., “Paradigma” 2017. – S. 336.
- Muhiddinova B. Saidahmad Vasliy Samarqandiyning madrasalar faoliyati haqidagi mulohazalari//O‘rta asrlardagi Samarqand madrasai oliylarining islom sivilizatsiyasi va ta‘lim tizimining taraqqiyotdagi roli//Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Samarqand. 2017.-91-94 b.
- Mustafoeva N.XX asrda O‘zbekistonda madaniyat va tafakkur.T.;-»Navro‘z»-2014.
- Mo‘rtazoeva R.O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va

bag‘rikenglik.T.;»Universitet»-2007

- Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o‘rni. Samarqand shahrining 2750-yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. Toshkent- Samarqand. «Fan»-2007;
- Sa‘diyev S. Samarqand adabiy muhiti tarix k̄ȳz̄gusida. T. “Fan”. 2009. – 387 b.

## **9-Mavzu: 1917-1991-yillarda O‘zbekistonda madaniyat va san‘at Reja:**

1. 1917-1991-yillarda O‘zbekistonda madaniy hayot
2. 1917-1991-yillarda O‘zbekiston san‘ati
3. 1917-1991-yillarda O‘zbekiston adabiyoti

### **Tayanch iboralar**

Ta‘lim, maorif, «Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat», klublar, «Qizil choyxonalar», adabiyot, san‘at, musiqa, teatr, kino.

O‘zbekistonda umumta‘lim maktablari soni 1924-1925-o‘quv yilidagi 913 tadan 1940-1941-o‘quv yilida 5448 taga yetdi. Xalq ta‘limi taraqqiyoti sur‘atlarining pasayishi, sifatining yomonligi avvalo o‘qituvchi kadrlar qo‘nimsizligi va ularni siqib chiqarish bilan bog‘liqdir. Faqat Qoraqalpog‘istonda o‘tkazilgan “tozalash” natijasida 700 ta o‘qituvchidan 120 ta qolgan xolos. O‘qituvchi kadrlarni darajasi past ma‘lumotlilar bilan almashtirish, yozuv islohoti natijasida arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvini lotin shrifti bilan, keyinchalik esa kirill alifbosiga almashtirilishi xalq ta‘limi taraqqiyotini ancha to‘xtatib orqaga surib qo‘ydi.

Toshkentda universitet ochish masalasiga yerli millatlarning ilg‘or qarashdagi ziyolilar, xususan jadidlarning namoyandalari Munavvar qori Abdurashidxonav, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, S.T.Asfandiyorov, Majidxon Jamolxonav va boshqalar jon kuydirib, fidoyilik qildilar. 1916-yil avgustda A.F.Kerenskiy Andijonga kelganida andijonlik jadidlar Farg‘onada oliy o‘quv yurti ochish masalasini qo‘ygan edilar. 1917-yil yanvarida Andijondagi jadidlar, rus demokratlari xayriya yo‘li bilan Farg‘ona viloyatida politexnika instituti ochishga qaror qilib, jamg‘arma tashkil qiladilar. Ammo fevral inqilobi bo‘lgach, bu ish qolib ketgandi. Davr va zamon, Turkiston o‘lkasida katta kuch bilan avj olib ketgan istiqlolchilik harakati, milliy uyg‘onish buni talab qilayotgan edi. A.F.Kerenskiy hukumati hatto 1917-yil 4-oktabrda maxsus telegramma yo‘llab yaqin orada Toshkentda universitet ochilishini ma‘lum qiladi va shu munosabat bilan Turkiston ilmiy-madaniy jamoatchiligini tabriklaydi. Telegramma 7-oktabrda 248-sonli maxsus buyruq bilan Toshkentda e‘lon qilindi.

1918-yil 21-aprel kuni Toshkentda xalq universitetini ochish marosimi bo‘lib

o‘tdi. Xalq universiteti o‘zining tashkil topgan kuni(1918-yil, 21-aprel)dan boshlab, asosan, yevropa millati vakillariga xizmat qildi. Shu bois Toshkentning eski shaharida Munavvarqori Abdurashidxon boshchiligida mahalliy millat vakillari boshlang‘ich va oliy ta‘limni isloh qilish, dorilfunun tashkil etish guruhini tuzdilar. “Xalq dorilfununi” gazetasi 1918-yil 31-mayda quyidagilarni yozgan edi: «...Shu vaqtda bu tarafda musulmon ziyolilaridan bir necha zotlar haqiqatda vaqtning muhimligi, fursatning g‘animatligini e‘tiborga olib, musulmon xalqi uchun o‘quv yurti ocharg‘a mushovara (maslahat) qildilar. Ham Xudoga shukr qilib, ishga kirishga qaror berdilar. Va birinchi o‘laroq, 9-aprelda Munavvarqori Abdurashidxon xalifa afandining hovlisida yig‘ilib, Musulmon Xalq dorilfununini ochmoqqa sa‘y etar uchun bir tashkilot hay‘at ta‘sis etdilar”. Bu shu ishni amalga oshirish niyatida Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligida 9 kishidan iborat tashkiliy komissiya tuzildi. Uning tarkibiga Munavvarqoridan tashqari, Burhon Habib, Isa Taxtiboyev, Sodiq Abdusattorov, Muxtorbek Murodxo‘jayev, Muxtor Bakir, Abdusamiqori Ziyoboev va boshqalar kirdi.

Ammo bu hol Moskva sovetlar hukumatining g‘ashini keltirgan edi. Chunki unda millati, yurtiga sadoqatli fidoyi mahalliy o‘g‘il-qizlar tahsil ko‘ra boshladilar. Bu kadrlar kelajakda sovetlarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun bosh ko‘tarishlari va ommani o‘z orqal‘aridan yergashtirishlari mumkin edi. Shuning uchun Musulmon Xalq dorilfununi yopib qo‘yildi va 1919-yil, dekabridan boshlab, RSFSRda qabul qilingan umumiy qoida asosida Xalq dorilfununi Turkiston Davlat universitetiga aylantirildi.

Sovetlar hukumatining mahalliy millat vakillariga oliy ta‘lim eshiklarini bekitib qo‘yganligini ko‘rgan jadid yetakchilari va qalbida vatanparvarlik his-tuyg‘usi so‘nmagan Fayzulla Xo‘jayev singari ba‘zi rahbarlar yoshlarni Germaniya, Turkiya singari rivojlangan xorijiy mamlakatlarga oliy ma‘lumot olish uchun o‘qishga yuborish choralarini izlaydilar. Bu ishda ma‘rifatparvar boylar ham o‘z mablag‘lari bilan yordamini ayamadilar. 1920-1922-yillarda Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Xalq respublikalaridan 300 ga yaqin talaba o‘qish uchun chet elga yuborildi. Ular Vatan va millat istiqbolini o‘ylab astoydil jon kuydirib, o‘qib bilim oldilar. Afsuski, ularning taqdiri ham Sovet jallodlarining qonli panjalari iskanjasida o‘z intiqomiga yetdi. Markaziy Osiyoda o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishdan so‘ng sovetlar hukumati xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborilgan barcha musulmon millatiga mansub mahalliy yoshlarni 1927-yilgacha chaqirib oldi va ularni imperialistik davlatlarning “ayg‘oqchilari” sifatida guldek yosh umrlarini xazon qildi. Ba‘zi bir adashib qolganlari 30-yillarda qatag‘on qilindi. Sovetlar yoshlarni chet elga o‘qishga yuborishda ishtirok etgan va hatto xayrixohlik bildirganlarini ham o‘zining jirkanch nazaridan chetda qoldirmadi. Jumladan, taniqli jamoat arbobi va sharqshunos olim Laziz Azizzoda 1956-yilgacha qamoq va surgun azobini chekkan. Sovetlar hukumati oliy ta‘lim tizimiga andakkina bo‘lsada milliy bo‘yoq kiritishga urinishning har qanday ko‘rinishlariga zarba byergach, bu yo‘nalish jilovini ham o‘z qo‘lida

mustahkam tutib oldi va oliy ta'limni mustamlakachilikni va manqurtlik g'oyasini mustahkamlash quroliga aylantirdi. Kommunistik mafkurani himoya qiluvchi, milliy his-tuyg'udan begona va faqat diplom olishni o'zining bosh maqsadi deb hisoblovchi yoshlarni tarbiyalab yetishtirishga qaratilgan oliy o'quv dargohlari va ulardagi talabalar soni yildan yilga o'sib bordi. Agar 1924-1925-o'quv yilida O'zbekistonda 2 ta oliy o'quv yurti bo'lgan bo'lsa, 1940-1941-o'quv yilida ularning soni 30 taga yetadi. Xuddi shuningdek ko'rsatilgan davrda oliy o'quv yurtlarida o'qigan talabalar miqdori ham 2,9 ming kishidan 19,1 ming kishiga ko'paydi.

1929-1930-yillarda Farg'ona, Buxoro pedagogika institutlari ish boshladi. 1931-yili Andijon kechki pedinstitutini faoliyat ko'rsata boshladi, 1939-yilda o'qituvchilar instituti, 1953-yili pedinstitutga aylangan. Bu oliy o'quv yurtlari 1932-yil universitet maqomini oldilar. 1924-1940-yillarda o'rta maxsus o'quv yurtlari tarmog'i ham rivojlandi. 1924-1925-o'quv yilida 23 ta o'rta maxsus o'quv yurtida jami bo'lib 3,7 ming tinglovchi o'qigan bo'lsa, 1940-1941-o'quv yilida 98 o'rta maxsus o'quv yurtida 25,1 ming yigit-qizlar o'qigan edilar.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'quv konsepsiyalari, standartlari, dasturlari, darslik va qo'llanmalari Rossiyada yaratilar va juda zarur hollardagina ularning ba'zilar o'zbek tiliga tarjima qilinadi.

Fan. Sovetlar hukumati O'zbekistonda mustamlakachilik tartib qoidalarini mustahkamlash, kompartiya mafkurasini keng omma o'rtasida tarqatishda fan, ilmiy tadqiqot yutuqlaridan ustamonlik bilan foydalandi. 1932-yilda tashkil etilgan fan qo'mitasi ana shu vazifalarga safarbar qilindi. Respublikada tashkil etilgan Hidrometeorologiya instituti, fan qo'mitasi huzuridagi Geliotexnika laboratoriyasi va Toshkent astronomiya observatoriyasi huzurida Quyoshni o'rganish bo'limining tashkil etilishi, irrigatsiya-melioratsiya, tuproqshunoslik, agrotexnika va seleksiya, kimyogarlik, geologiya va mineralogiya va boshqa sohalarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari qanday maqsadlarni ko'zda tutganligi endilikda hech kimga sir emas. 1940-yilda SSSR FAsining O'zbekiston filiali tashkil etildi. U respublikadagi 55 ta ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qildi. 1940-yilda O'zbekistonda 109 ta fan doktori va 510 ta fan nomzodlari bor edilar. Barcha ilmiy tadqiqot institutlari faoliyati Moskvadan turib boshqarilardi. Moskva buyurtmasini bajarar va Moskvaga hisobot berar edi. O'zbekistonda ilmiy tadqiqot ishlari faqat rus tilida olib borilar edi.

1920-1930-yillarda O'zbekistonda fan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan juda ko'p fidoyi olimlar faoliyat ko'rsatdilar. Ana shunday olimlardan biri, o'zbek tarixchilari maktabini yaratgan Po'lat Soliyevdir. U O'zbekistonda, tarix fanini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi va o'z asarlarini eski o'zbek yozuvi, arab va fors tillarida yaratgan edi. Bu asarlar kutubxonalardan chiqarib tashlangan, g'oyaviy jihatdan buzuvchi va subutsiz asar sifatida yo'q qilib yuborilgan. Faqat yirik kutubxonalardagina ulardan ba'zi bir nusxalargina saqlanib qolgan. Po'lat Majidovich Soliyevning bunday asarlari jumlasiga: «Hindiston Angliya hukmi ostida» (1920, 1926), «Buxoro mang'itlar sulolasi davrida» (1920, 1926), «Markaziy Osiyo tarixi»,



1-qism (1926), “O‘zbekiston va Tojikiston. Iqtisodiy va jug‘rofik lavha” (1926), “Markaziy Osiyoda savdo kapitali davri” (1926) “Markaziy Osiyoda Islomning tarqatilishi” (1928), “XV–XIX asr birinchi yarmi O‘zbekiston tarixi” va boshqalarni kiritish mumkin. Po‘lat Soliyevning eng katta xizmatlaridan biri, bu - “O‘zbekiston tarixi” asarini yaratganligi edi. Afsuski, 1937-yilda u hibsga olingach, bu qimmatli asar ham nom-nishonsiz yo‘qolib ketdi. O‘zbekistonning yirik davlat arboblardan biri, XK Sho‘rosining raisi Sulton Segizboyev uning qo‘lida o‘qigan. Sharqshunos Laziz Azizzoda, teatr san‘ati arbobi Mannon Uyg‘ur undan ta‘lim va tarbiya olgan. Po‘lat Soliyev ikki marta Zaki Validiy To‘g‘on bilan uchrashgan. U Turkiston muxtoriyatini shakllantirishda faol qatnashdi. “El bayrog‘i” ro‘znomasida bosh muharrir va “Maorif” oynomasida muharrirlik qildi. Samarqand, Toshkent, Buxoro, Farg‘ona va boshqa shaharlardagi oily o‘quv yurtlarida professor sifatida ma‘ruzalar o‘qidi. 1935-yilda O‘zbekiston davlat universitetida (Samarqand) birinchi marta Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasini ochilganda Po‘lat Soliyev unga mudir etib tayinlangan edi. U juda ko‘plab qimmatli tarixiy asarlarning muallifidir. 1937-yilda Po‘lat Soliyev hibsga olingan va qatag‘on qilingan. Hozirda uning nomi Samarqand va Toshkentda abadiylashtirilgan, uning nomiga kafedra, ko‘chalar qo‘yilgan.

Ommaviy axborot vositalari. Ommaviy axborot vositalari yordamida faqat partiya mafkurasi keng jamoatchilik ongiga singdirildi va milliy mustamlaka o‘lkalarida buyuk davlatchilik tartib qoidalari himoya qilindi. 1917-yildayoq matbuot senzurasini yo‘lga qo‘yilgan edi. 1922-yil, 8-iyunda sovet xalq komissarlari senzurasining barcha turlarini birlashtirish maqsadida matbuot ishlari bo‘yicha Bosh qo‘mita to‘zishga qaror qildi. Tez orada senzura bosh qo‘mitasi (Glavlit) tashkil etildi va uning zimmasiga matbuotda e‘lon qilinadigan barcha turdagi axborotlarni qattiq nazorat ostiga olish vazifasi topshirildi. Shundan so‘ng hamma yerda taqiqlangan kitoblar ro‘yxati paydo bo‘ldi. Sovet mustamlakachiligi va partiyaning mafkuraviy g‘oyalarini targ‘ibot va tashviqot qiluvchi axborot vositalariga keng yo‘l ochildi, ular har tomonlama qo‘llab-quvvatlandi. 1924-yilda O‘zbekistonda sovetlar, umuman, kitob nashr etmagan bo‘lsa, 1940-yilda 1219 kitob chop etildi, shundan 660 tasi o‘zbek tilida. Gazetalar 1924-yilda 26 ta edi, 1940-yilda u 200 tani tashkil etdi, uning 124 tasi o‘zbek tilidagi gazetalar edi. Bundan tashqari rus tilida Rossiyadan keladigan kitoblar, jurnallar, gazetalar, har xil to‘plamlar, byulletenlar va boshqalar bu hisobga kirmaydi. Sovet hukumati va partiya bu sanalgan ommaviy targ‘ibot vositalaridan tashqari radio, har xil madaniy oqartuv muassasalari, “bilim» jamiyatlari orqali ham mehnatkash omma ongini zaharlagan. Bolsheviklar hatto an‘anaviy milliy xarakterdagi choyxonalargacha “qizillashtirgan” edilar.

San‘at. O‘zbekiston xalqlari qadimdan san‘atga qiziqib kelgan. Ammo sovet hukumati va partiya bu borada ham o‘zining hukmronlik mavqeyidan foydalandi. San‘atni partiyaning mafkuraviy quroliga aylantirdi. Bu borada O‘zbekistonlik san‘at xodimlarining Markaziy shaharlarda sovetlar g‘oyasi ruhida o‘qitib “maxsus” tayyorgarlikdan o‘tkazilgan. O‘sha yili O‘zbekistonlik

san'atkorlardan Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva, Sa'dullaxon Habibullayev, Lutfullo Narzullayev, Zamira Hidoyatova va boshqalar bu studiyaga o'qishga yuborildi va 1927-yilda ular Toshkentga qaytib keldi. O'zbek san'atkorlari keyinchalik ham Rossiyaning Markaziy shaharlariga "o'qish uchun" muntazam yuborilib turgan. 1924-yilda O'zbekistonda 2 ta teatr bor edi. 1940-yilda ularning soni 45 taga yetdi. Bu teatrlar sahnalarida yuqoridan berilgan buyurtma sahna asarlari bilan bir qatorda milliy ruh va mavzularda, jadidchilik g'oyalarida yozilgan dramalar ham sahnalashtirilgan edi. 20-30-yillarda zo'r muvaffaqiyat bilan xalq orasida e'tibor qozongan sahna asarlari qatoriga Hamzaning "Maysaraning ishi", Fitratning «Qiyomat kuni», "Abulfayzxon", A.Cho'lponning "Cho'ri qiz isyoni", "Yorqinoy", "Zulmkor" asarlari, "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Tohir va Zuhra" kabi musiqaviy dramalarni kiritish mumkin.

O'zbekiston qo'shiqchilik va musiqa san'atida ham o'zining tarixiy an'anasiga ega. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Qo'qon va Xorazm san'ati dovrug'ini jahonga tanitgan Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdurahmon Umarov, Abduqodir Ismoilov, Matyusuf Harratov, Sheroziy, Hojixon Boltayev, Ahmadjon Umirzoqov va ularning shogirdlari: Qori Siroj Yusupov, Hoji Rahimberdi, Xushkomil, Usta Muqus, Eshon Rahmatxoja, Muhiddin Mavlonov, Bobo Sharif, Qodir Avliyo, G'ulom Qodir va boshqalar ijodi bilan haqli suratda faxrlanadi. O'zbek milliy musiqasi taraqqiyotida G'.Zafariyning xizmati katta bo'ldi. Uning "Sharq kuylari va cholg'ulari", "Musiqqa muammosi", "O'zbek musiqasi to'g'risida" kabi maqolalari, milliy madaniyat rivojiga munosib ulush bo'lib qo'shildi. G'.Zafariy 1899-yilda tug'ilgan. U 1914-yildayoq "Turon" truppasida aktyor bo'lgan, o'qituvchilik qilgan. "Ishchilar dunyosi" jurnalida muharrir bo'lib ishlagan, san'atshunoslik institutida ilmiy xodimlik qilgan. 1937-yilda qatag'on qurboni bo'lgan. Ijod etgan mashhur xonanda va sozandalardan 168 tasining faoliyatlarini o'rganib tahlil qiladi. Ular orasida mashhur Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Xudoybergan Ustoz, Ashurali Mahram, Mamajon hofiz, Yoqubjon chang, Ortiq Hofiz, Madumar hofiz, Ummatqul qo'shnay, Ahmadjon qo'shnay, Teshaboy soz, Shojalil hofizlarning nomlari bor edi. San'atkorlardan Domla Halim Ibodov, Ota Jaloliddin Nazirov, Matyusuf Xarratovlarning fidoyiligi bilan 1929-yilda Samarqandda O'zbekiston xalqlari qo'shiqchilik san'atini o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot instituti tashkil etilgan. Shu maqsadda ular o'zbek milliy musiqiy asboblarini yevropacha usulga moslashtirish shiorini ko'tarib chiqdilar. O'zbek milliy madaniyatidan uzoq va unga begona bo'lgan xor kapellasi, opera san'atini xalq orasiga olib kirish kabi harakatlar ham omma o'rtasida moddiy va ma'naviy kuchga ega bo'lmadi. Bu san'at turlari hozirga qadar ham o'zbek xalqining ma'naviy dunyosida o'ziga yo'l topa olganicha yo'q.

Havaskor va yarim professional guruhlar faoliyati zaminida M.Qoriyoqubov tashabbusi bilan 1926-yilda O'zbek Davlat konsert-etnografiya guruhi tashkil bo'ldi. Bu guruh tarkibida Abduqodir Ismoilov, Muhiddin Xo'ja, Ahmadjon Umirzoqov,

Usta Olim Komilov, Jo‘raxon Sultonov, Mamatbuva, Tamaraxonim, Otaxo‘ja Saidxo‘jayevlar qo‘shiqchilik san‘atini omma o‘rtasida keng targ‘ib etdilar. Mazkur guruh 1928-yilda “O‘zbek Davlat konsert ansambli” nomini oldi. 1929-yilga kelganda esa u “O‘zbek Davlat musiqa-eksperimental ansambli” deb nomlandi. Ana shu ansambl bazasida 1939-yilda O‘zbek Davlat filarmoniyasi tashkil etildi. O‘zbekiston san‘ati ustalari respublika, dunyo miqyosida ko‘riklarda o‘zbek milliy san‘ati yutuqlarini namoyish etdilar. 1938-yilda xalq havaskorlari jamoalarining respublika olimpiadasi bo‘ldi. Unda 18 ta shahar va 700 ta jamoa ishtirok etdi. 1937-yilda O‘zbekiston san‘ati ustalari o‘z muvaffaqiyatlarini Moskvada o‘tkazilgan dekadada namoyish qildilar. Unda mashhur san‘atkorlar Halima Nosirova, M.Qoriyoqubov, Domla Halim Ibodov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Tamaraxonim, Abdulla Baxshi Nurillayev, Usta Olim Komilov, Sora Eshonto‘rayeva, Abror Hidoyatov, S.Tabibullayev va boshqalarning chiqishlari har qancha ta‘qib va tazyiqlarga uchramasin o‘zbek milliy san‘ati o‘z tarixiy an‘analarini davom ettirayotganligini ko‘rsatdi.

20-30-yillarda kino san‘ati sohasida deyarli hech narsa qilinmadi, desa bo‘ladi. Bunga mutaxassis kadrlarning “yo‘q”ligi asos qilib ko‘rsatildi. Asosiy e‘tibor omma o‘rtasida Markazdan yaratilgan “ishonchli” filmlarni namoyish etishga qaratildi. Shu bois kinofilmlarni namoyish etadigan nuqtalarni ko‘paytirishga asosiy e‘tibor berildi. Bunday nuqtalar 1924-yilda 18 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1940-yildau 624 taga yetdi.

30-yillarning o‘rtalariga kelib dastlabki ovozli filmlar paydo bo‘ldi. 1936-yilda chiqarilgan birinchi ovozli film “Qasam”dir. 1938-yilda yangi ovozli film “Azamat” suratga olindi. Ammo bu filmlarni yaratuvchilarning barchasi yevropa millatiga mansub shaxslar edi. Sovetlar kino san‘ati sohasida milliy kadrlarni tarbiyalab yetishtirishga unchalik shoshilmadi. Kinoda rollarni ijro eta oladigan artistlar ham barmoq bilan sanarli darajada bo‘lib bular: Bakirov, Haydarov, G‘aniyev va boshqalardan iborat edi. Bu ulug‘ davlatchilik, mustamlakachilik siyosatining kino san‘atida yorqin o‘z ifodasini topayotganligini ko‘rsatar edi.

1939-yilda yaratilgan “Farg‘ona kanali” filmida O‘zbek xalqining mehnat jasorati va matonatini o‘z aksini topdi, shunday qurilishlardan biri Katta Farg‘ona kanali qurilishi edi. O‘zbekistonning U.Yusupov boshchiligidagi o‘sha davrdagi rahbariyati xalqning bu jasoratini tarixda qoldirmoqchi bo‘ladilar. Ana shu maqsad taqozosi bilan U.Yusupovning taklifiga ko‘ra, mashhur kinorejissor Sergey Mixaylovich Yeyzenshteyn O‘zbekistonga kelgan. U Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qo‘qonda bo‘lib o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati va urf-odatlarini tanishadi. Shundan so‘ng Eyzenshteyn P.Pavlenko bilan hamkorlikda “Farg‘ona kanali” ssenariysini yozdi. Kinorejissorlar shu paytga qadar biror marta studiyaga taklif etilmagan, kinoda birorta ham rol o‘ynamagan Muhiddin Qoriyoqubov, Boborahim Mirzayev, Lutfulla Nazrullayev kabi qobiliyat sohiblarini ekranga oldi. U Hikmat Latipov, Mirshohid Miroqilov, Nurxon Eshmuhamedov, Abbas Bakirov, Shukur Burhonov kabi o‘zbek teatr arboblari bilan ishlash niyatida ro‘yxat tuzdi. Ammo

suratga olingan ssenariy filmga aylanmadi. Suratga olingan kadrlar yo‘q qilib tashlangan.

O‘zbekistonda 20-30-yillarda tasviriy san‘at sohasida ham qator yosh mahalliy ijodkorlar yetishib chiqdi. 1929-yilga kelib O‘zbekiston rassomlar uyushmasi tashkil etildi. Bu davrda O‘.Tansiqboyev, Ch.Ahmarov, A.Abdullayev, M.Nabiyev, L.Abdullayev, Sh.Hasanova, R.Temurov, X.Rahmonov, B.Hamdamiy, L.Nasriddinov va boshqalar katta ijodiy barkamollikka erishdilar. Xususan akademik, rassom O‘rol Tansiqboyevning ijodiy parvozi haqida gapirmaslikning iloji yo‘q. Uning ijodiy laboratoriyasidan barkamollik sari otilib chiqqan rassom Akrom Toshkenboyev portreti (1927), “Sirdaryo” (1935), “Burchmulla” (1936), “Bog‘iston” (1937), «Tog‘ manzarasi” (1937), “Bahorgi ishlar” (1938), “Orol dengizi”(1939) va boshqalar chinakam xalq mulkiga aylandi.Shunday qilib, yuqoridagi lavhalar shundan dalolat beradiki,sovetlar mustamlakachiligi sharoitidagi og‘ir vaziyat, ta‘qib va tazyiq hamda kamsitishlarga qaramasdan o‘zbek milliy madaniyati rivoj topdi, xalqimizning ma‘naviy dunyosi boyidi va yangi dovonlar oshdi.

1920-1930-yillardagi badiiy ijodiyot faoliyatida jadid ijodkorlari Munavvarqori Abdurashidxonav, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Aziziy, Sidqiy Xondayliqiy, Tavallo, M.So‘fizoda, Abdulla Avloniylar boshqaruv idoralarida ishlab, milliy istiqloq manfaatlariga xizmat qilish, millatning dunyoviy, siyosiy madaniyatini va saviyasini oshirish uchun kurashni o‘z faoliyat maqsadlarining bosh mezonini qilib oldilar. Ana shu maqsad taqozosi bilan ular o‘nlab yangi turdagi maktablar ochdilar, bu maktablar uchun turli-tuman darsliklar, qo‘llanmalar yaratdilar, nashriyotlar tashkil qildilar, chet ellardagi oliy o‘quv yurtlariga mahalliy yoshlardan o‘qishga jo‘natdilar, gazetalar, jurnallar nashr etdilar, teatr san‘atini rivojlantirishda jonbozlik ko‘rsatdilar, turli-tuman ma‘rifiy-madaniy to‘garaklar uyushtirdilar. Jadid ijodkorlarning har bir qadamlarini sinchkovlik bilan kuzatib borganlar. To‘garak va jamiyatlar faoliyatini ta‘qib va tazyiq ostiga olganlar,nashr ishlari ustidan qattiq nazorat o‘rnatganlar. Jumladan, “Chig‘atoy gurunji” uyushmasi 1919-yilda tashkil topgan. Uning faoliyatida Fitrat, Abdulqayum Ramazoniy, Mashriq Yusupov – Elbek, Mo‘minjon Muhammadjonov, Mannon Majidiy – Uyg‘ur, Mirmulla Shermuhammedov, Laziz Azizzoda, Shorasul Zunun, G‘ulom Zafariy, Tangriqul hoji Maqsudiy, Mannon Ramz, Mahmud Hodiyeu – Botular ishtirok etganlar. Fitrat va Abulqosim Ramazon gvardiyachilarning nazorati ostida o‘tganligini yozadi.

Zaki Validiy To‘g‘on ham o‘zining “Xotiralar”ida 20-yillarning boshida ziyolilar ustidan qattiq nazorat o‘rnatilganligidan Buxoroda Cho‘lpon bilan uchrasha olmaganligini eslaydi. Ammo har qanday ta‘qib va tazyiqqa qaramasdan haq va adolat yo‘lida kurashni davom ettirdilar. Buni biz jadid ijodkorlarning adabiyot sohasidagi ko‘p qirrali faoliyatlarida yanada to‘laroq ko‘ramiz. Ular badiiy ijodning barcha yo‘nalishlarida: publitsistika, she‘riyat, drama, proza kabi sohalarida barakali ijod qilganlar. O‘zbek adabiyotida publitsistika yangi janr bo‘lsada, 20-yillarda katta

muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu yutuq va muvaffaqiyatlar birinchi navbatda, eng avvalo, Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Sulaymon nomlari bilan bog‘liqdir. Ular vaqtli matbuot sahifalarida o‘nlab publitsistik maqolalar bilan chiqdilar va ularda millat, Vatan taqdiri bilan bog‘liq o‘ta ehtirosli va dolzarb masalalarni ilgari surdilar. Publitsist jadidlar bosh maqsad qilib xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishni ilgari suradilar, milliy ongini, milliy vijdonni charx urishini istaydilar, xalqqa o‘zligini tanitmoqni orzu qiladilar. Xuddi shuningdek Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ham 20-yillarda yozgan publitsistik asarlarida dolzarb muammolarga qalam urdi, mustamlakachilar olib borgan jirkanch siyosatni fosh qildi. Uyushmaning rahbari edi. Bu uyushma sho‘rolarga qarshi kurashmagan, uning dasturi ham yo‘q edi. “Chig‘atoy gurungi” ning asl maqsadi xalqning umumiy madaniy saviyasini oshirish, savodsizlikni tugatish uchun kurashish, eski alifboni isloh qilish, O‘zbek tilining sofliigi uchun kurash, uni yot so‘zlardan tozalamoqdan iborat edi.

Xalqni ilm ma‘rifatga chorlash, milliy mustamlakachilikka nafrat, milliy o‘zlikni anglashga da‘vat, xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish istagi 20-yillardagi jadidchilik adabiyotining bosh va yo‘naltiruvchi mavzusi bo‘lgan.

Abdulhamid Cho‘lpon o‘zining “Uyg‘otish” (1922), “Buloqlar” (1924), “Tong sirlari”(1926), “Soz” (1935) kitoblarini chop ettirdi. Shoirning ko‘pgina she‘rlari “o‘zbek yosh shoirlari” to‘plamida, “Adabiy parchalar”, «Go‘zal yozg‘ichlar” kabi kitoblardan joy oldi va xalqning ma‘naviy mulkiga aylandi.

20-yillardagi jadid adabiyoti dramaturgiyada ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu borada Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalarning ijodiy yo‘li diqqatga loyiqdir. Abdurauf Fitratning “Temir sag‘anasi”, “Abulfayzxon”, “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari”, “Arslon”, “Zahhoki moron” kabi fojiviy va dramatik asarlarida xalq orasida katta shuhrat va obro‘ topdi. Jadidchilik dramaturgiyasiga Abdulhamid Cho‘lpon ham barakali hissa qo‘shdi. Uning qalamiga mansub “Cho‘rining isyoni”, “Xalil farang”, “Cho‘lpon sevgisi”, “Mushtumzo‘r”, “O‘rtoq Qarshiboyev”, «Hujum”, “Yorqinoy” singari dramatik asarlar o‘z vaqtida shuhrat topdi. Bu sahna asarlari orasida eng baquvvatlisi va e‘tiborlisi, albatta, «Yorqinoy”dir. Mazkur asarni yozishda ham Cho‘lpon o‘z e‘tiqodi va g‘oyaviy dunyoqarashiga sodiq qoldi. U hayotda inson uchun eng ardoqli va ulug‘ qadriyat deb erk va adolat uchun kurashni ilgari suradi. “Yorqinoy” asari dunyoga kelgan kezlarda Turkistonda hali milliy istiqloq, yerk va ozodlik uchun kurash davom etayotgan edi. Ana shu jarayonda sovet mustamlakachilari har kuni har qadamda yuzlab va minglab dahshatli fojialar va adolatsizliklarni amalga oshirayotgan edilar. Cho‘lpon tomonidan xuddi shu paytda “Yorqinoy” dramasi yozilishi bosqinchi yovlarga otilayotgan nafrat va la‘nat o‘qlarining yorqin ko‘rinishi edi.

20-yillarda jadid ijodkorlar proza janrida ham qalam tebratdilar. Natijada tarixda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan bir qator hikoyalar va romanlar paydo bo‘ldi. Bular Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, «Mehrobdan chayon”, “Obid ketmon” romanlari,

“Kalvak Mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi” kabi hikoyalari, S.Ayniyning “Buxoro jallodlari”, “Odina”, “Qulbobo yoki ozod”, Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘lining “Turmush urinishlari” kabi roman va qissalari shular jumlasidandir. Bu asarlarda Turkistondagi mehnatkash ommaning ko‘p qirrali hayot kechmishlari qalamga olingan, o‘lkaning kechagi eng dahshatli qorong‘u va mustamlakachilik davri o‘tmishi la‘natlanadi.

20-yillarda jadid ijodkorlar bilan bir qatorda Oybek, H.Olimjon, G‘.G‘ulom, Uyg‘un, Usmon Nosir, Elbek, Botu, Abdulla Qahhor, H.Shams, Oydin, Mirtemir, Komil Yashin, Sobir Abdulla kabi yosh qalam sohibalari adabiyot maydoniga kirib keldilar. Gap shundaki, 20-yillarning oxirlariga kelganda sovet hukumati va kompartiya mafkuraviy kurashni keskin suratda kuchaytirdi, yo‘qsil adabiyotining gegemonligi uchun kurash bahonasida aslida ulug‘ davlatchilik, mustamlakachilik siyosati kuchaytirildi. 30-yillarga kelib jadidchilik adabiyotining rivojlanishi uchun hamma imkoniyatlari mutlaqo yopib qo‘yildi. Shu boisdan ham bu davrda Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» (1929) va Cho‘lponning “Kecha va kunduz»(1935-1937) romanidan boshqa jadid adabiyotidan namuna tariqasida ko‘rsatishga arziydigan asar chop etilmadi.

Bu davrda o‘ziga xos zamon zayliga mos yangi yo‘nalishdagi asarlar paydo bo‘ldi, shakl va mazmun sohasida bir qancha yangiliklar vujudga keldi. Ammo shu narsaga imon keltirish kerakki, vaziyat qanchalik og‘ir bo‘lsada badiiy ijodda hamma janrlarda xalq obrazi yetakchi o‘rinda bo‘ldi.

She‘riyatda biz buni Abdulhamid Cho‘lpon, Oybek, Shayxzoda, Mirtemir va boshqalar singari zabardast va yetuk shoirlar bilan bir qatorda Usmon Nosir, Sulton Jo‘ra, Hasan Po‘lat kabi yosh ijodkorlar asarlarida ko‘ramiz. Lirikadagi bunday namuna xususan olovqalb shoir Usmon Nosir (1912-1944) ijodiga xos she‘riyatining mavzuyi serqirradir: sevgi-muhabbat, hayot tashvishlari, ijtimoiy-siyosiy jumboqlar masalalari markazida inson timsoli markaziy o‘rinda turadi. Chunki Usmon Nosir xalq, vatan manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yadi. U 1933-yilda Samarqandda yozgan “Yurak” she‘rida butun hayoti, borlig‘ini xalqqa, jamiyatga bag‘ishlash, ona Vatanga mehr-muhabbat sadoqat ila halol xizmat qilish g‘oyasini ilgari surib bunday kuylagan edi.

30-yillarda she‘riyat bilan bir qatorda ballada, doston, badiiy ocherk, hikoyat, drama yo‘nalishlarida ham o‘zbek adiblari bir qator xalqchil asarlar yaratdilar. Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘”, Sulton Jo‘raning “Qaldirg‘och” poemalari, A.Qodiriyning “G‘irovonlik Mallaboy aka”, H.Shamsning “Dovon oshganda”, “Mehnat – baxt garovi”, G‘.G‘ulomning “Semurg‘ qanotida”, Oydingning, “Yel og‘zida ertak” kabi ocherklari, A.Qodiriyning «Obid ketmon”, G‘.G‘ulomning “Shum bola”, S.Ayniyning «Sudxo‘rning o‘limi” va boshqa qissalari, Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, S.Ayniyning “Doxunda”, “Qullar”, Oybekning “Qutlug‘ qon”, A.Qahhorning “Sarob» romonlari, Ziyo Said va N.Safarovning «Tarix tilga kirdi”, U.Ismoilovning “Rustam” kabi bir qator drama asarlari shular jumlasidandir.

1937-yilda Moskvada o'tkazilgan o'zbek adabiyoti va madaniyati va san'ati dekadasi o'zbek milliy madaniyati va san'atining har bir sohasi yetuk ekanligini namoyon qildi. Siyosiy mafkura milliylikni o'z ta'siriga olishga qanchalik urinmasin xalq milliy madaniyati va san'ati o'zini namoyon qila oldi. Dekada kunlari konsert bergan Halima Nosirova «Sharq bulbuli» deb atalgan. 30-yillarning boshlarida O'zbekistonda tasviriy san'at ham «Sotsialistik realizm» asosida rivojlandi. Bu yillarda O'.Tansiqboyev, B.Hamdamiy, Usta Mo'min va boshqa bir qator yosh o'zbek rassomlari ijod qilishiga kirishgan edilar. Birinchi o'zbek ayol rassom Sh.Hasanovanning talanti ham o'sha yillarda ma'lum bo'ldi. O'zbek tasviriy madaniyati va san'atida erishilgan yutuqlar va iste'dodli rassomlar yetishib chiqqanligi sababli 1932-yilda O'zbekiston SSR rassomlar uyushmasi tashkil qilindi.

O'zbek xalqining bilimga madaniyatga, san'atga va taraqqiyotga intilishi qadimdan jo'shqin bo'lgan. Madaniyat maydonida talantli o'qituvchilar, olimlar, aktyorlar, rassomlar, haykaltaroshlar, musiqachilar, bastakorlar, qo'shiqchilar va raqqosalar yetishib chiqib, ular O'zbekiston fani o'zbek milliy madaniyati va madaniyati va san'ati rivojiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar.

Biroq bu yutuqlar o'zbek xalqi tomonidan boy berilgan ulkan yo'qotishlar va kuchli ijtimoiy silsilalar evaziga qo'lga kiritildi. Hukmron va mustabid kommunistik targ'ibot (rejim) tomonidan buyurilgan mafkuraviy yo'l yo'riqlar, g'oyalar va ko'rsatmalar madaniy jarayonning to'laqonli taraqqiyotiga yo'l bermadi. O'zbek madaniyati bundan ham etuk, yanada teran va yuksak bo'lishi mumkin edi.

20-30-yillarda O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan san'at sohasida aloqalar olib borish imkonini bergan edi.1925-yili mashhur o'zbek qo'shiqchisi Muhitdin Qori Yoqubov va uning rafiqasi, taniqli raqqosa Tamaraxonim SSSR artistlari gruppasi tarkibida Butunjahon amaliy san'at vistavkasida bo'ladigan konsertlarda qatnashish uchun Fransiya poytaxti Parijda bo'ladilar. Ular u yerda katta konsert tomoshalari berib, qaytishda Berlinda o'qiyotgan O'zbekistonlik talabalar va nemis tomoshabinlarining ham o'z san'atlari bilan tanishtiradilar.

O'zbekistonlik talabalar ishtirokida G'ulom Zafariyning «Erk bolalari» sahna asarini ko'rsatdilar. 1935-yilda O'zbekistondan Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Abdulqodir Ismoilov va boshqalar Angliyada bo'lishib, Londonda o'zbek milliy madaniyati va san'atining namoyish qiladilar.

20-30-yillarda O'zbekistonda Turkiyaning mashhur shoir adiblaridan Nomiq Kamolning «Vatan yoki Silistra» (1924-yil), Abdul Hamidning «Hind qizi» kabi sahna asarlari teatrlarimizga qo'yildi.

Shu tariqa, O'zbekistonning xorijiy mamalakatlar bilan dastlabki madaniy «mustaqil» aloqalar o'rnatishi uchun qilgan mazkur sa'y harakatlari keyinchalik mustabid kommunistik tuzumning ayovsiz zarbasiga uchradi va butun mamlakat kabi u ham «temir parda» bilan xorijda butunlay ajratib qo'yildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangan dastlabki kunlardan oq O'zbekiston xalqlari ma'naviy madaniyatining boy salohiyati insoniyatning eng yovuz dushmani bo'lgan

fashizmni tezroq tor-mor qilish ishiga safarbar qilinadi. O‘zbekiston madaniyati va san’atining barcha arboblari va xodimlarining fidoyiligi va vatanparvarligi tufayli juda qisqa muddatlarda urush davri ehtiyojlari va talablari oqimiga yo‘naltirildi.

O‘zbekistonning teatr va musiqa madaniyati va san’ati arboblari fashizmga qarshi faol kurashchilar safida bo‘ldilar. Urush davri sharoitida O‘zbekistonda 51 ta teatr (shundan 35 tasi mahalliy va 16 tasi evakuatsiya qilingan teatrlar edi.) ishladi, shu jumladan, Hamza nomidagi akademik teatr A.Navoiy nomidagi musiqali drama teatri (bu teatrning yangi binosi urush yillarida qurilgan edi.), M.Gorkiy nomidagi rus drama teatri va boshqa teatrlar ish olib bordi. Bu teatrlar sahnalarida tomoshabinlar oqimga sazovor bo‘lgan spektakllardan K.Yashinning «O‘lim bosqinchilariga» va «Oftobjon», I.Sultonning «Burgutning parvozi» va boshqalar qo‘yildi, umuman, 1941-yil iyuldan postanovka qo‘yidilar, 13568 ta spektakl va konsert ko‘rsatdilar, 6.667.303 tomoshabinga xizmat ko‘rsatdilar.

O‘zbekiston teatr jamoalari, san’at ustalari harbiy otaliq ishlarida faol ishtirok etdilar, harbiy qismlarga, gospitalarga, ishlab chiqarish korxonalariga, dehqonchilik xo‘jaliklariga, xalq qurilishlariga borib chiqishlar qildilar. Urush yillarida Respublika san’at xodimlari 30 dan ortiq konsert brigadalari tarkibida frontlarda harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq konsert, Turkiston harbiy okrugi harbiy qismlarida va gospitalarida 26 mingdan konsert berdilar. Bu konsert brigadalari tarkibida Tamaraxonim, Halima Nosirova, Sora Eshonto‘rayeva, Mukarrama Turg‘unboyeva, Abror Hidoyatov, Olim Xojayev, Gavhar Rahimova, Muhiddin Qori Yoqubov, Karim Zokirov, Shukur Burhonov va o‘zbek madaniyati va san’atining boshqa arboblari ishtirok etdilar.

Madaniyat arboblarning vatanparvarlik ko‘tarinkiligi musiqa ijodkorligida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. T.Sodiqov, D.Zokirov, T.Jalilov, N.Hasanov, M.Burhonov, Y.Rajabiy, M.Ashrafiy va boshqalarining asarlarida qudratga ega bo‘lgan musiqiy obrazlar, qahramonlik ohanglari, muhabbat, do‘stlik, sadoqat singari yuksak mavzular bilan uyg‘unlashib ketgan edi. Vatanparvarlik va insonparvarlik mavzulari tasviriy san’atning barcha janrlarida asosiy o‘rin egalladi. Urush va mamlakat ichkarisi qahramonlarining haykaltaroshlik va partizanlarning jasorati haqida hikoya qiluvchi polotnolar, dushmani fosh qiluvchi karikatura, jangovor, da’vatkor plakatlar insoniy ehtirosni aks ettirdi. A.Abdullayev, Ch.Ahmarov, O‘.Tansiqboyev, M.Nabiyev, O.Tatevosyan, V.Ufimsov va boshqalarning asarlari jahon urushi badiiy yilnomasiga muhim hissa qo‘shdi.

O‘zbek kinematografiyasi xodimlari urush yillarida qisqa metrajli filmlar turkumi – kinopovestlar, kinohikoyalar, ocherklar, satirik sahnachalar, shuningdek, front jangchilari uchun maxsus film-konsertlar «Frontdagi do‘stlar», «Vatan armug‘oni», «Frontga konsert» va boshqalarni yaratdilar. Kinojurnallar sanoat, qurilish transport, qishloq xo‘jaligi, xalq irrigatsiya qurilishlari mehnatlarini, ishini, fan va madaniyat san’at xodimlari faoliyatini aks ettirdi. Hujjatli filmlar studiyasi har bir kino jurnaldan olingan nusxalarni muntazam ravishda frontga yuborib turdi. Bir



qator qisqa metrajli va badiiy filmlarda O'zbekiston jangchilarining urush frontlaridagi qahramoni jasoatlari haqida hikoya qilingan edi.

Toshkent studiyasida evakuatsiya qilingan taniqli kinomatograflardan Y.Pratorgov, L.D.Lukov, E.Gabrilovich, I.E.Xeydits, I.A.Zarxi va boshqalar ijod qilishdi. Mashhur o'zbek rejissyorlari I.A'zamov, I.Annayev, I.Yormatov, S.Muhammedovlar bilan birgalikda ular 10 ta ovozli badiiy filmlar yaratdilar, bu filmlar respublika kinomatografiyasini oltin xazinasiga kirdi. Ular orasida «Suj-Botir», «Ikki jilg'a», «Nasriddin Buxoroda», «Tohir va Zuhra» filmlari xalq ommasining mehrini qozongan edi.

Umuman respublikaning og'ir urush davridagi ma'naviy hayotning o'ziga xos xususiyatlariga baho berganda shuni aytish kerakki, urush yillari yaratilgan badiiy asarlar o'lka aholisi hayotidagi insonparvarlik fazilatlarini ulug'lashga qaratilgan edi.

O'zbekiston madaniyati va san'atini urush va urushdan keyingi dastlabki yillari 1949-yildagi istilochilarda o'zining murakkab va ziddiyatli davrini bosib o'tdi. Bu davrda san'at sohasida xalqaro aloqalar olib borishga imkon bo'lmadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'p yillik tarixga, buyuk o'tmishning noyob ma'naviy merosini, jahonga mashhur bo'lgan O'zbekiston xorijiy olimlar, sayyohatchilar, adabiyot va san'at arboblari uchun sovet davrida uzoq yillar davomida yopiq bo'lib qoldi. Faqat 50-yillardan boshlab O'zbekistonning xorijiy mamakatlar bilan o'zaro madaniy aloqalarini yo'lga qo'yishda ayrim ijobiy siljishlar ro'y berdi. Shunga qaramasdan, bu siljishlar imperiya markazining qattiq nazorati ostida «sotsialistik integratsiya va proletar internatsionalizmi» manfaatlarini ko'zlab amalga oshirildi. O'zbekistonning xalqaro madaniy aloqalarining rivojlanishida 1958-yilning oxirlarida Toshkentda chet el mamlakatlari bilan do'stlik va madaniy aloqalar o'rnatish O'zbekiston jamiyatini tashkil etilganligi ko'p jihatdan yordam berdi. Uning bo'limlari Samarqand, Andijon, Farg'ona, Buxoro va Xorazmda ish olib bordi. Bu jamiyat o'z mohiyatiga ko'ra, mafkura iskanjasida va markazning muntazam nazorati ostida bo'lsa-da, xorijiy mamlakatlarga O'zbekistonni, o'zbek xalqini tanitishda o'z hissasini qo'shdi. Agar tashkil etilgan paytda jami dunyoni 27 ta mamlakati bilan aloqani yo'lga qo'ygan bo'lsa, 1980-yilga kelib, u 118 ta mamlakat bilan aloqa o'rnatgan edi.

Jamiyat faoliyatining keng tarqalgan shakllaridan biri dunyoning bir qator mamlakatlarida «sovet mamlakati kunlari»ning o'tkazilishi bo'ldi. O'zbekistonning ishtiroki bilan SSSRning madaniyat kunlari Vengriya, Bolgariya, GDR, Mo'g'iliston, Chexoslovakiya, Ruminiya, Yugoslaviya, Afg'oniston, Iroq, Mali, Hindiston, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda bo'lib o'tdi.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqalarida san'at sohasidagi hamkorlikni ham alohida ta'kidlash lozim. Bular xorijlik yozuvchilar sahna ustalarining gastrollari, respublikada xorijiy filmlar kinofestivallarining tashkil etilishi, xorijiy mamlakatlarda o'zbek kinofilmlarining ko'rsatilishi xalqaro ko'rgazmalarini tashkil etilishi va shu kabi tadbirlarda o'z ifodasini topdi.

60-70-yillarda O‘zbekistonning teatr jamoalari, yetakchi sahna ustalari xorijiy mamlakatlar – Vengriya, KDR, Chexoslovakiya, Polsha, Mo‘g‘iliston, Jazoir, Yaponiya, Fransiya, Angliya, AQSh va boshqa mamlakatlarga gastrolga bordilar. 1965-1975-yillarda O‘zbekiston teatr madaniyati va san‘ati xodimlaridan 100 dan ortiq kishi Yevropa va Osiyoning 40 ta mamlakatiga safar qildilar ular orasida xalq artistlari Mukarrama Turg‘unboyeva, Galiya Izmailova, Bernara Qoriyeva, Saodat Qobilova, Muxtor Ashrafiy, Tamaraxonim va boshqalar bor edi.

«Bahor» xalq raqs ansambli besh qit‘a mamlakatlarida – Hindiston, Shvetsiya, Vengriya, Bolgariya va boshqa davlatlarida bergan konsertlarida zo‘r olqishlarga sazovor bo‘ldi, o‘zbek xalqining raqs madaniyati va san‘atini dunyo xalqlariga tanitdi. Faqat 1978-yilning o‘zida ansambl Italiyaning 15 ta shahrida konsertlar berdi, 1979-yilda AQShda mazkur jamoaning gastrollari muvaffaqiyatli o‘tdi. 1984-yilda ansambl dunyoning 8 ta mamlakatida – Iordaniya, Peru, Gretsiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Niderlandiya, Portugaliya, Efiopiyada bo‘lib o‘tgan SSSR kunlarida (O‘zbekiston ishtirokida) qatnashdi. «Yalla» davlat vokal-cholg‘u ansambli GDRda bo‘lib o‘tgan eng mashhur yoshlar jamoalarini chiqishlarida zo‘r muvaffaqiyat qozondi.

Garchi murakkab sharoitlarda, ittifoq tuzilmalari orqali va jiddiy «kuzatishlar» ostida bo‘lsa ham, ishtirok etish O‘zbekistonni jahon sivilizatsiyasiga va umuminsoniy madaniyatini tanitdi va yangitdan uni kashf etdi. Xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishida birodarlashgan shaharlarning ham roli ma‘lum darajada ahamiyatli ekanligini aytib o‘tish joizdir.

Shunday qilib, 50-80-yillarda O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy va madaniy aloqalari ittifoq tasarrufida, uning mafkuraviy andozalari va ko‘rsatmalari asosida amalga oshirilgan va «sotsializm yutuqlarini» jahonga tanitishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, lekin uning zamirida o‘zbek xalqining buyuk ajdodlari, uning ilg‘or ziyolilari va ularning na‘munalari yotar edi. Ana shu milliy na‘munalar mafkuraviy cheklanishlarga va millat sifatida kamsitilishlarga qaramasdan, o‘zbek xalqini, uning milliy madaniyatini dunyoga tanitishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

80-yillarning o‘rtalaridan boshlangan «qayta qurish» madaniyat sohasini ham qamrab oldi. Mamlakat siyosiy rahbariyatiga madaniyat sohasini «qayta qurish» aslida ma‘naviy jabhada ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi, rivojlanishining ekstetiv yo‘li yaroqsiz bo‘lib qolganligidan dalolat edi.

Haqiqatdan ham shunday edi. Chunki uzoq yillar davomida mustabid tuzumining milliy respublikalar madaniyatini inkor etib, Shu bois ta‘lim, fan, madaniyat va san‘at sohalarida ham «qayta qurish, ya‘ni mamlakat siyosiy rahbariyatining sun‘iy ravishda jadallashtirish» lozim edi.

Lekin shuni alohida ta‘kidlash lozimki, madaniyat rivoji, ma‘naviy jarayonlar jamiyatning o‘ziga xos ichki, tabiiy qonunlari asosida ro‘y beradi, uni sun‘iy jadallashtirish uchun ko‘r-ko‘rona aralashuv salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Yana shuni ham tan olish kerakki, O‘zbekistonda milliy madaniyatni, ayniqsa,

milliy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirish, xalqning o'zligini anglash jarayonini tezlashtirish yo'lida ma'lum qadam bo'ldi. Madaniy merosga munosabat o'zgardi, ijtimoiy hayotda milliylik va baynalminallik nisbatida, qisman bo'lsa-da, adolat tiklashi sodir bo'ldi. Biroq, qayta qurish o'zbek xalqi madaniyatini rivojlantirishni uni haqiqiy xalq ma'naviyatiga aylantirishni bosh maqsad qilib qo'ymagandi.

Madaniyatdagi «qayta qurish» hukmron mafkuraning o'z siyosiy barqarorligini tiklash yo'lidagi navbatdagi urinishi edi, xolos. Uning maqsadi madaniyatdagi shakllanib bo'lgan sekinlashtirish mexanizmining «ko'zga tashlanib» turgan ayrim «unsurlarini» yengil ta'mirlashdan boshqa narsa emasdi. Bu narsa, ayniqsa, xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimida yaqqol ko'zga tashlanib qoldi.

O'zbekiston ma'naviy madaniyatida teatr madaniyati va san'atining o'rni va roli muhimdir. 80-yillar o'rtalaridan boshlab, teatrda «real hayotga» murojaat qilish hollari kuzatila boshladi. M.Boboyev, Shukurullo, S.Ahmad, R.Abdullayev va boshqalar asarlarida ma'muriy-buyruqbozlik davrida respublikada paydo bo'lgan va shakllangan muammolar tanqid qilindi, o'tmish madaniy merosi, xalq tarixi, paxta yakkahokimligi, ekologik muammolar kabi xalqni tashvishga solayotgan ijtimoiy masalalarga qiziqish kuchaydi. Ayniqsa, Sh.Boshbekovning «Temir xotin» asarida birinchi bor muhim ijtimoiy masalalar ustida fikr yuritildi.

Teatr madaniyati va san'atida burilishni yuzaga keltirgan sabablardan yana biri madaniyatda milliylik va baynalminallik nisbatini buzilishi edi. Masalan: 80-yillar o'rtalarida O'zbekiston teatrlari repertuarlariga kiritilgan 600 ta pyesadan atigi 55 tasini mahalliy dramaturg, adiblarning asarlari edi, xolos. Muqimiy nomli o'zbek drama teatrida an'anaviy qo'yib kelingan «Tohir va Zuhra», «Farhod va Shirin», «Nurxon», «Layli va Majnun», «Toshbolta oshiq» kabi sahna asarlari o'rniga «Poltovalik Natalka», «Cho'ri», «Moviy dunyo», «Yolg'onchi darif» kabi qator tarjima asarlarining paydo bo'lishini shu ma'noda tushunish lozim.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan teatrlar soni bu yerda istiqomat qilayotgan millatlar soniga nisbatan ham to'g'ri kelmasdi. Masalan, 1989-yilda Ozarbayjonda bir rus teatriga 10 ta ozarbayjon tilidagi, Armanistonda esa bir rus teatriga 18 ta arman teatri to'g'ri kelgan bo'lsa, O'zbekistonda bu raqam 9-10 tani tashkil etardi. Boshqacha so'z bilan aytganda, shu yili O'zbekistonda istiqomat qiliyotgan 1653 ming rus aholisiga 9 ta rus teatri to'g'ri kelgan holda, 14.1 mln.li o'zbek aholisiga 18 ta milliy tildagi teatr to'g'ri kelardi. Bu salbiy holatlar tabiiy holda aholining norozligiga sabab bo'lar, teatrga bo'lgan qiziqishini pasaytirar edi.

Milliy ma'naviy madaniyat tarkibida tasviriy san'atning o'rni alohidadir. Qayd etish lozimki, 80-yillar, ayniqsa, uning ikkinchi yarmida tasviriy va ifodali vositalarni boyitishi va yangilash ijodiy izlanishlarga qiziqish ortdi. Ayniqsa, rassomlar ijodida milliy badiyatga xos bo'lgan ifoda vositalariga e'tibor, azaliy an'anaviy ruhiy qadriyatlarga intilish kuchaydi.

Tasviriy san'atda milliylik, ruhi bilan bir qatorda avangard yo'nalishlari (simvolizm, modernizm) va boshqalarga ham e'tibor berildi. Bu V.Oxunov,

M.To‘xtayev, Sh.Bobojonov, A.Ikromjonov, J.Umarbekov, B.Jalolov, I.Isayev, A.Mirzayev ijodiga zamonaviy voqelik, siyosiy hayot va muhit, demokratik harakat va so‘z erkinligi tufayli tasviriy san‘atga yosh ijodkorlarning kirib kelishini jadallashtirdi, yangi izlanish va g‘oyalar bilan boyitdi.

Rassomlar safiga A.Hazratov, A.Umarov, H.Hasanov, K.Odilov, Sh.Qo‘ziyev, B.Shodiyeva kabi ko‘plab yosh ijodkorlar qo‘shildi. Ularning asarlarida Afg‘onistondagi qonli urush fojiasi, tabiatga etkazilgan zarar, Orol dengizining qurib borishi, paxta yakkahokimligining salbiy oqibatlarini kabi ijtimoiy muammolar o‘z aksini topdi, ma‘naviy qadriyatlarga etkazilgan putur, ularning toptalgani haqidagi dard-alam bilan ifodalangan asarlar yaratildi. M.To‘xtayev, V.Oxunov, T.Ahmadaliyev, A.Nuriddinov, G‘.Qodirov kabi san‘atkorlar asarlari yorqin ramziy ifoda vositalari orqali teran va chuqur falsafiy ma‘nolarga boy bo‘ldi.

Shunday qilib, 80-yillarning o‘rtalaridan boshlangan «qayta qurish» o‘zbek milliy madaniyatida mavjud bo‘lgan muammolarni hal eta olmadi, aksincha, ularni yanada keskinlashtirib yubordi. Chunki «qayta qurish» madaniyat borasidagi mustabid sovet tuzumi siyosatini tamoman inkor etish asnosida yuz bermadi. Aksincha ilgari siyosat yangi shaklda, eski mazmunini mustahkamligi tarzida davom etdi. Shuning uchun ham, «qayta qurish» milliy madaniyat taqdiriga aytarliq darajada ijobiy rol o‘ynamadi.

### **Nazorat savollari**

1. XX asrning 20-30-yillari O‘zbekiston madaniyati haqida fikr yuriting.
2. “Qizil choyxonalar” to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Qatog‘onlik siyosati haqida ma‘lumot bering
4. Sovet davri adabiyoti haqida nimalarni bilasiz?
5. Sovet davri madaniyatini qaysi manbalar orqali o‘rganamiz?
6. Sovet davrida me‘morchilik yodgorliklariga munosabat qanday edi?
7. Ikkinchi jahon urushi yillarida madaniy hayot.
8. Ikkinchi jahon urushi yillarida san‘at
9. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda madaniy hayot

### **Manbalar va adabiyotlar**

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1, 2,3-kitoblar. - T.: Sharq, 2000.
2. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) Birinchi va ikkinchi kitoblar/ mas‘ul muharrir Q.Rajabov.T.;-»O‘zbekiston»-2019
3. O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik / Mas‘ul muharrir A.S.Sagdullayev. – T., 2019.
4. Shamsutdinov R, Karimov Sh, Xoshimov S.. Vatan tarixi 1,2,3-kitob. O‘quv qo‘llanma-T.»Sharq»-2016
5. O‘zbekistonning eng yangi tarixidan ocherklar: metodologiya, tarixshunoslik

va manbashunoslik masalalari/ Mas'ul muharrir A. Sobirov.T.;-2014.

6.Alimova D.A, Golovanov A.A.O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida:siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlarini (1917-1990y) T.;-2000.

7.Bodirov A.Samarqand ikkinchi jahon urushi yillarida.Samarqand-2015.

8.Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. - T., Universitet. 1999.

9.Mustafojeva N.XX asrda O'zbekistonda madaniyat va tafakkur.T.;-»Navro'z»-2014.

10.Mo'rtazoyeva R.O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik.T.;»Universitet»-2007

## **10-mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot**

### **Reja:**

1. Ma'naviy merosning tiklanishi.
2. Milliy va diniy qadriyatlarining tiklanishi

### **Tayanch iboralar**

Navro'z bayrami, ramozon, qurbon hayitlari, milliy qadriyatlar, din, allomalar yubileylarining nishonlanishi, urf-odatlar

Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz ma'naviy zug'umlardan ozod bo'ldi, erkin fikrga, milliy tiklanishga yo'l ochildi. Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksalirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi. Boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni tiklash ishlari boshlanib ketdi.

Mustaqillik yillarida xalqimizning milliy qadriyatlarini tiklash, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish yo'lida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi.

Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri «Navro'z» bayramidir. Mustamlaka yillarida mana shu ardoqli bayramni nishonlash ham taqiqlangan edi. 1990-yildan boshlab O'zbekiston hukumatining qarori bilan 21-mart «Navro'z» milliy xalq bayrami kuni sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e'lon qilindi. Xalqimiz «Navro'z» kunlarida hasharlar uyushtirib, dalalarga ko'chatlar ekish, ko'chalarni tozalash tadbirlarini, turli ommaviy o'yinlar, poyga musobaqalari, sayllar uyushtiradilar, yetim-yesirlarga va nogironlarga yordam berib, marhumlar qabrlarini ziyorat qiladilar.

1994-yil, 23-apreldagi Prezident farmoni asosida tashkil etilgan Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosini tiklash, millat kelajagini belgilaydigan g'oyalarni yuzaga chiqarish, yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan ravnaqi sari yo'naltirishga qaratilgan tadbirlar, anjumanlar, ko'rgazmalar tashkil etishni yo'lga

qo'ydi. Markaz tomonidan aholi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, so'rovlar asosida ishlab chiqilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish buyicha tavsiyalar jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlar, ommaviy-axborot vositalarining ma'naviy-tarbiyaviy saviyasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

1996-yil, yanvarda Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi huzurida «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi tuzildi. 1996-yil, 27-sentabrda Vazirlar Mahkamasining «Oltin meros» xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi qaroriga binoan mazkur jamg'arma davlat tomonidan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Mazkur jamg'arma «Xalq merosi durdonalari» ilmiy anjumanlarini, xorijdan izlab topilgan qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi amaliy san'at namunalari, yodgorliklarini tahlil qilish, ko'riktanlovlar o'tkazish bilan shug'ullanmoqda. 1996–2002-yillarda «Oltin meros» jamg'armasi sa'y-harakatlari natijasida buyuk allomalarimiz yaratgan ko'plab madaniy-ma'naviy meros namunalari mamlakatimizdan va xorijiy davlatlardan izlab topildi, jamlandi hamda kutubxona va muzeylarga joylashtirildi., shuningdek, u xalqimizning rasm-rusumlarini, urf-odatlarini, marosimlarini o'rganish, tiklash, xalqimizga qaytarish, ularning ma'no-mohiyatini, hozirgi kundagi ahamiyatini keng ommaga tushuntirish ishiga katta hissa qo'shmoqda.

Mustamlaka davrida tahqirlangan diniy qadriyatlarimiz mustaqillik nuri bilan qayta tiklandi, islomshunos allomalarimizning ulug' nomi o'z o'rniga qo'yildi. 1993-yil sentabrda Buxoroda mashhur alloma Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi tantanalari bo'lib o'tdi. Yubiley munosabati bilan Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy yodgorliklar qaytadan tiklandi, uning ijodiga bag'ishlangan qator risolalar chop etildi. 1998-yil Samarqandda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlandi. Shu kuni Xartang (Chelak) qishlog'ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi ochildi. Yubiley munosabati bilan bobokalonimizning 4 jildlik «Al-Jomi as-Sahih» kitobining ko'p ming nusxadagi nashri o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi.

2000-yil 16–17-noyabr kunlari Marg'ilonda islom huquqining asoschilaridan biri Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining 910-yilligi, Samarqandda islomshunos olim Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130-yilligi nishonlandi va ular xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari ochildi. Burhoniddin al-Marg'inoniyning islom huquqiga oid «Hidoya» kitobi nashr etildi., shuningdek, islom olamining taniqli allomalari Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Xo'ja Ahror Valiy tavalludining 600 yilligi keng ko'lamda nishonlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil, 27-martdagi farmoni bilan Ro'za-Ramazon hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb e'lon qilindi. Respublika musulmonlarining istak va xohishlariga ko'ra Qurbon hayiti ham tiklandi, dam olish, bayram kuni bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1990-yil, 2-

iyundagi «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilish to'g'risida»gi farmoniga binoan, O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etilmoqda. Qur'oni Karim sakkiz marta 1 mln. nusxada nashr etildi. Bu tadbirlar faqat dindorlar uchun qilingan marhamatgina emas, ular aslida xalqimizning qadimiy rasm-rusum va udumlarining, qadriyatlarining tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uyg'onishidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 1992-yil 7-martdagi farmoni bilan islom dini omilidan, uning ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom-tadqiqot instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba yoshlar ta'lim olmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va 1998-yil, 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati huquqiy jihatdan aniq belgilab berildi. O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlarda quyidagi tamoyillarga amal qilinmoqda:

dindorlarning diniy tuyg'ularini himoya qilish;

diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;

ma'naviy tiklanish, umuminsoniy-axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida diniy uyushmalar bilan muloqot qilish;

dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish;

din va e'tiqodga sig'inish erkiga qonun bilan belgilangan cheklashlar orqaligina daxl qilish mumkin;

diniy da'vatlar bilan hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot, qonunchilikka aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida din, eng avvalo, islom dinining ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatidagi mavqeyi tiklandi, diniy ulamolarning qadr-qimmatini o'z joyiga qo'yildi.

Qonun ijrosi va amaliyotini qarangi, bugungi kunda O'zbekistonda 2119 diniy tashkilot erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va Markaziy Osiyo Yeparxiyasi, Yevangel xristian-baptistlari cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Tula Yevangel xristianlari cherkovi, O'zbekiston Injil jamiyati singari diniy tashkilotlar faoliyatidan turli dinlarga mansub fuqarolarimiz birdek manfaatdor ekanliklarini izohlashga hojat bo'lmasa kerak. Bulardan tashqari respublikamizda 2000 dan ortiq musulmonlar masjidi, 168 xristian

cherkovi, 7 yahudiy sinagogasi, 7 bahoiylar uyushmasi, 2 Krishna jamiyati, 1 budda ibodatgohi mavjud. Diniy ta'limotni puxta o'zlashtirishga xizmat qiladigan 12 ta diniy ta'lim muassasasi qatorida 1 pravoslav, 1 xristian protestant seminariysi ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yurtimizda islom diniga qanday sharoitlar yaratilgan bo'lsa, boshqa dinlarga ham xuddi shunday emin-erkin ibodat qilish va bu borada hech bir to'siqlarsiz faoliyat yuritishlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan.

Har yili minglab musulmonlarimiz Haj safarlariga borishgani kabi mazkur diniy tashkilotlarning 120 dan ortiq vakili Isroil, Gretsiya va Rossiyadagi diniy ziyoratgohlarga safar uyushtiradilar, xorijga e'tiqodiy ziyoratga yo'l oluvchilar uchun beriladigan imkoniyatlardan foydalanadilar.

Mamlakatda islomiy muhim sanalarni nishonlash bilan bir qatorda boshqa konfessiyalarning ham qator diniy tadbirlari keng nishonlanadi. Jumladan, 1996-yilning noyabr oyida Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va Markaziy Osiyo Yeparxiyasining 125 yilligi, 1996-yilning dekabr oyida Markaziy Osiyodagi yagona Yevangel-lyuteranlar jamoasining 100 yilligi keng ko'lamda nishonlandi. 1995-yilda "Bir osmon ostida" xalqaro xristian-musulmon konferensiyasi o'tkazildi.

Mustaqillik tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'lishga muyassar bo'ldi. Xalqimiz ma'naviyatining yulduzlari bo'lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan sanalari YUNESKO bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Jumladan, 1991-yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi; 1992-yil – Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi; 1994-yil – Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi; 1996-yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi; 1997-yil – Cho'lpon tavalludining 100 yilligi; 1998-yil – Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi; 1999-yil – Alpomish dostonining 1000 yilligi; 2000-yil – Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi va Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi; 2001-yil – «Avesto» yaratilganligining 2700 yilligi keng nishonlandi. Buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz yubileyleri munosabati bilan ularning o'nlab nodir va noyob asarlari o'zbek, ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa tillarda nashr etildi, haykallar o'rnatildi, ziyoratgoh maydonlari, bog'lar yaratildi.

1991-yilda buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Shu yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Yubiley-yilida buyuk «Xamsa»si va «Lison ut-tayr» asarlari nashr qilindi, kinofilmlar va sahna asarlari yaratildi. 1991-yil, 28-sentabr kuni Toshkent shahrida barpo etilgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy haykali va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

1994-yil oktabr oyida Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubileyi



tantanalari bo‘lib o‘tdi. Ulug‘bek madrasasi, Ulug‘bek yashagan davrdagi astronomik asboblari, Toshkentdagi Ulug‘bek haykali aks ettirilgan pochta markalari muomalaga chiqarildi. Shu yil 24-oktabrda Parijda YUNESKONing majlislar zalida «Ulug‘bek va temuriylar davri» mavzusida xalqaro konferensiya hamda «Ulug‘bek va an‘anaviy san‘at» ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Bu tadbirlar Mirzo Ulug‘bek qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanishiga ko‘maklashdi.

1998-yil, 23-oktabrda Farg‘ona shahrida buyuk alloma Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yillik yubileyi keng nishonlandi. Uning noyob ilmiy merosi xalqimizga qaytarildi. Farg‘ona shahrida Al-Farg‘oniy nomi bilan ataluvchi bog‘ yaratildi va buyuk allomaga haykal o‘rnatildi.

1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida «O‘zbekistonning yangi tarixi markazi» tashkil etildi.

O‘zbek xalqi va o‘zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini holisona ilmiy asosda yoritish vazifalari birinchi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yil, iyun oyida bo‘lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil, 27-iyulda qabul qilgan «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorida belgilab berildi.

Mamlakatimiz Xitoy, Hindiston, Eron, Misr kabi qadimiy davlatlar qatorida turadi. Milliy davlatchiligimiz qadimiy, diyorimiz yirik davlat arboblari bilan mashhur. Bobomiz Amir Temur mamlakatimizni jahondagi eng qudratli davlat darajasiga ko‘targan. Sobiq Ittifoq davrida ko‘hna tariximizning ana shu qirralari berkitilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida o‘zining asl bahosini oldi. Milliy davlatchiligimiz tajribasi, Amir Temur tuzuklari, Forobiy, Alisher Navoiylarning odil davlat qurish haqidagi dono fikr-mulohazalari mustaqillik davrida demokratik huquqiy davlat qurilishida katta madad berdi. President farmoni bilan 1996-yil Amir Temur yili deb e‘lon qilindi. Shu yili mashhur davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi mamlakatimizda va jahon miqyosida keng nishonlandi. YUNESKO qarori bilan 1996-yil, aprelda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan bir haftalik xalqaro tantanalari bo‘lib o‘tdi. Toshkent shahrida Amir Temurga haykal o‘rnatildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Samarqand va Shahrisabzda o‘nlab tarixiy obidalar ta‘mirlanib, qayta tiklandi, yangi inshootlar qurildi, bog‘lar yaratildi. Ushbu shaharlar markazida ko‘rkam Amir Temur maydoni barpo etildi va ulug‘vor haykal o‘rnatildi. Bu shaharlarga «Amir Temur» ordeni topshirildi. Amir Temurning shaxsi butun ma‘rifiy insoniyatning boyligi ekanligi tan olindi.

1999-yilda Toshkent shahrida Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi Vatan ozodligi uchun jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Xotira maydoni» majmuasi barpo etildi va shu yili 9-may kuni uning ochilishi marosimi bo‘lib o‘tdi. Respublika «Nuroniy» jamg‘armasi tashabbusi bilan janglarda halok bo‘lgan 400 mingga yaqin vatandoshlarimiz haqida

33 tomlik Xotira kitobi tayyorlandi va nashr etildi. Har yili 9 may kuni «Xotira va qadrlash kuni» sifatida nishonlanmoqda. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan bu tadbirlar xalqimizning o'zligini anglashiga, tarixiy xotirasini tiklashga xizmat qilmoqda..

Jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga bebaho hissa qushgan allomalarimiz Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Uluqbek, Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy singarilarning jahon ilm-fani madaniyatining durdonalari hisoblangan asarlari nashr etilmoqda.

Ko'hna tarix sahifalari buyuk bobomizning millat va el-ulus xalq manfaati bobida chekkan mislsiz zahmati hamda ko'rsatgan jinoatlariga guvohlik beradi.

Insof-iymon tuyg'usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga jahongir ersa-da, u kuch-qudrat, zo'rlik, zo'ravonlikda emas, aksincha - adolatda ekanligini to'liq angladi».

Bunga yuzlab misollarni keltirish mumkin. Diyorimizning uzoq o'tmishi, tarixi, tili va dini, fe'l-atvori va an'analari haqida mukammal ma'lumotlar beradigan Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Xofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Mirzo Boburning «Boburnoma», Gulbadanbегinning «Xumoyunnoma», Abulg'oziyning «Shajarai turk», Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Abu Tohirxojaning «Samariya», Muhammad Yusuf Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy», Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» singari asarlarini mustaqillik tufayli ona tilimizda uqish sharafiga muyassar bo'ldikki, bular xalqimiz tafakkurining yanada charxlanishiga olib kelmoqda, jahon e'tirof etgan qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni tiklashga va shu asosda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qadimiy shaharlarimiz Buxoro, Xiva va Termizning 2500 yillik yubileyleri, Samarqand shahri 2750 yilligi, Toshkent shahri 2200 yilligi nishonlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bu borada maxsus qaror qabul qildi. Ana shularning hammasi ma'naviy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni tiklashga juda katta e'tibor berilayotganligi va bu borada katta imkoniyatlarning yaratilganligidan dalolat.

Ma'naviy hayotimizda diniy bayramlarning ahamiyati g'oyat muhimligini inobatga olib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1992-yil 27 martda «Ramazon hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish tug'risida» Farmon qabul qildi. Unda, chunonchi, shunday deyiladi: «Mustaqil O'zbekiston Respublikasi musulmonlarining istak va xohishlarini inobatga olib hamda fuqarolar o'rtasida mehr-oqibatni barqarorlashtirish maqsadida diniy bayram - Ramazon hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb hisoblansin». 1992-yildan boshlab har yili mamlakatimizda ramazon hayiti umumxalq bayrami sifatida nishonlanib kelinmoqdaki, bu musulmonlar izzat-hurmatiga sazovor bo'ldi.

Islom diniga oid asarlarni chop etish keskin suratda oshdi. 1999-yilgacha Movarounnahr musulmonlari idorasi «Sadoi Sharq musulmonlari» jurnalini 5 tilda

nashr qilardi. Uning mazmun mundariyasi ham yetarli emasdi. Mustaqillik sharofati bilan «Islom nuri» haftanomasi nashr etila boshlandi. Ko‘plab diniy-axloqiy adabiyotlar kitobxonlar qo‘liga borib yetdi. Jumladan, Imom al-Buxoriyning ko‘p jildlik hadis kitoblari, 4 kitobdan iborat «Hadis» va boshqalar ko‘p nusxada chop etildi va bu davom ettirilmoqda. Qur’oni Karim sakkiz marta, jami bir million nusxada nashr etildi. Bu muqaddas kitob diyorumizda ilk bor Alouddin Mansur tarjimasida o‘zbek tilida nashr etildi.

Ayniqsa 1999-yilning 7 aprelida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Toshkentda Islom universitetini tashkil etish to‘g‘isidagi farmoni muhim ahamiyatga ega bo‘lib islom qadriyatlari va uning tarixini o‘rganish bo‘yicha oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlashni asosiy vazifa qilib qo‘ydi va shu o‘quv yili boshidan faoliyat ko‘rsata boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil, 19-maydagi qarori bilan Toshkent shahrida islom ta‘limoti va falsafasini, o‘zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosni chuqur o‘rganish maqsadida Xalqaro islom tadqiqot markazi tashkil qilindi.

### **Nazorat savollari**

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda madaniy hayot haqida fikr yuriting.
2. Milliy va ma‘naviy qadriyatlarining tiklanishi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. O‘zbek adabiyoti haqida ma‘lumot bering
4. Ta‘lim tizimi haqida nimalarni bilasiz?
5. Oliy ta‘lim muassasalari faoliyati.
6. Tarixiy- me‘morchiy yodgorliklarning restavratsiya qilinishi.

### **Manbalar va adabiyotlar**

- O‘zbekistonning yangi tarixi. 1, 2,3-kitoblar. - T.: Sharq, 2000.
- O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) Birinchi va ikkinchi kitoblar/ mas’ul muharrir Q.Rajabov.T.;-»O‘zbekiston»-2019
- O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik / Mas’ul muharrir A.S.Sagdullayev. – T., 2019.
- O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muharrir A.S.Sagdullayev-T.1997.
- O‘zbekiston san’ati. (1991-2001-yillar) -T.: Sharq, 2001.
- O‘zbekiston tarixi va madaniyati. T., «O‘qituvshi», 1992.

## **11-Mavzu : Mustaqillik yillarida teatr, kino san’ati va musiqaning rivoji**

### **Reja:**

1. Mustaqillik yillarida teatr rivoji
2. Mustaqillik yillarida musiqaning rivoji
3. Mustaqillik yillarida kino rivoji

## **Tayanch iboralar**

Musiqa, teatr, kino, kinoteatr, “O‘zbekfilm” studiyasi, kinofestival, “Turkiston” saroyi, “Sharq taronalari”, “Maqom” festivallari, baxshichilik san’ati, badiiy film, serial.

Kino san’ati. Mustaqillik yillarida kino san’ati rivoj topdi. 1996-yilda “O‘zbekfilm” tasarrufida 8 ta kinostudiya, 30ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. 1996-yilda tashkil etilgan “O‘zbekkino” davlat aksionerlik kompaniyasi, uning davlat tomonidan moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi kino san’atining rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1991-2002-yillarda 60 ga yaqin badiiy filmlar yaratildi. “Temir xotin”, “Dallol”, “Sharif va Ma’rif”, “Tilla bola”, “Buyuk Amir Temur”, “Yulduzingni ber, osmon”, “Kenja singil” va boshqa filmlarda milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ldi. 1997-yil, 22-29 may kunlari XII Xalqaro Toshkent kinofestivali bo‘lib o‘tdi. Unda 32 ta davlat va 8 ta xalqaro tashkilotdan vakillar, kino san’ati ustalari qatnashdi. “Buyuk Amir Temur” filmi ijodkori R.Ibrohimovga festival bosh sovrini – “Neksiya” avtomobili berildi. Mustaqillik yillarida o‘nlab hujjatli filmlar yaratildi. “O‘zbekiston bahorlari”, “Ulkan odim”, “Ular Germaniyada o‘qigan edilar”, “O‘zbekiston qahramonlari”, “Umid qaldirg‘ochi”, “Istiqlol fidoyilari” va boshqalar shular jumlasidandir.

Milliy musiqa va qo‘shiqchilik Mustaqillik yillarida milliy musiqa va qo‘shiqchilik san’ati rivojlandi. Respublika madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan “Xalq ijodi va madaniy-ma’rifiy ishlar respublika Markazi”, uning viloyatlardagi bo‘limlari musiqa va qo‘shiqchilik san’atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko‘rik-tanlovlar, festivallar tashkil etdilar. 1992-yilda Toshkentda “Asrlarga tengdosh navolar” va “Boqiy ovozlari”, Xorazm viloyatida folklor jamoalari, askiya, qiziqchi va masharabozlarning, Qo‘qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. 1994-yil, may oyida Parijda bo‘lib o‘tgan “Sharq musiqasi” festivalida Munojot Yo‘lchiyeva ishtirok etib, o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san’atini jahonga namoyish etdilar. 1996-yil, aprel oyida Turkiston saroyi, “Bahor” majmuasi va boshqa ijodiy kontsert tashkilotlari negizida tashkil etilgan “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi orqali xalq orasidan iste’dodli qo‘shiqchilarni izlab topish va ko‘rik-tanlovlarga jalb etish, musiqa va qo‘shiqchilik san’ati bo‘yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil, 27 avgustdagi “O‘zbekiston – Vatanim manim” qo‘shiqlar bayrami to‘g‘risida»gi farmoni qo‘shiqchilik san’atini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 1996-yilda o‘tkazilgan barcha viloyat, shahar va tumanlarida “O‘zbekiston - Vatanim manim” qo‘shiq tanlovida 54 mingdan ziyod qo‘shiqchilar qatnashdi. Bunday ko‘rik-tanlov har yili avgust oyida o‘tkaziladigan bo‘ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni “O‘zbekiston – Vatanim manim” qo‘shiq bayrami kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida Vatan, mustaqillikni

e'zozlovchi yuzlab yangi qo'shiqlar yaratildi. "O'zbekiston – Vatanim manim", "Men seni sevaman, O'zbekiston", "Vatan yagonadir", "Mustaqillik gullari", "Ona yurtim", "O'zbekiston askarlari" qo'shiqlari shular jumlasidandir.

1997-yil, 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining ««Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturamal bo'lib xizmat qildi. 1997-yil, 25-avgust-2-sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan "Sharq taronalari" birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi, festivalda yangragan o'zbek ohanglari, kuy-qo'shiqlari jahon uzra taraldi. Har ikki yilda Samarqandda "Sharq taronalari" Xalqaro festivalini o'tkazish an'ana tusini oldi.

O'zbekistonda musiqa va qo'shiqchilik san'atini rivojiga har yili 31-avgust va 21-mart kunlari o'tkazilayotgan Mustaqillik va Navro'z kunlariga bag'ishlangan bayram tantanalari ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yashayotgan 130 ga yaqin turli millat va elat urf-odatlari va an'analari birdek rivojlanib bormoqda. Hozirgi paytda O'zbekistonda 120 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Milliy madaniy markazlar o'z millatdoshlarining tili, madaniyati, urf-odatlari, rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqani jonlantirish kabi masalalar bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Milliy-madaniy markazlar qoshida milliy musiqa, raqs, hunar va boshqa yo'nalishlardagi to'garaklar tashkil etilgan. 1992-yilda turli milliy madaniy markazlarga ko'maklashuvchi Respublika Baynalmilal markazi tuzildi. Uning faoliyatida respublikamizda istiqomat qiluvchi turli millat va e'latlarni jipslashtirish asosiy o'rin tutmoqda. Har bir millatga mansub rassomlar, yozuvchilar, shoirlar, olimlar, madaniyat va san'at arboblari bag'ishlangan yig'ilishlar, ko'rgazmalar tashkil etilmoqda. Milliy-madaniy markazlar o'z faoliyati bilan respublikada madaniyat ravnaqiga muhim hissa qo'shmoqdalar.

Mustaqillik yillarida o'zbek milliy kinosi taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. O'zbekiston kinomatografiya maorifligi jihatdan badiiy hujjatli animatsiya va bolalar kinosi singari shakllarini saqlab qoldi. 1990-yillar boshida kinematograf uchun mablag' yetishmasligi muammosi paydo bo'ldi. Bu unga va uning ijtimoiy mavqeyiga salbiy ta'sir qildi. Tomoshabinlar deyarli yo'qotib qo'yildi.

1990-yillar boshida sobiq sho'ro respublikalarini qamrab olgan tanazzul tufayli kino sohasini ahvoli nihoyatda murakkab bo'lib qoldi. Ammo 1990-yillar o'rtalariga kelib, davlatimizning faol ko'magi tufayli milliy kinomiz ahvolidan ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi.

1996-yildan O'zbekiston hukumati madaniyat sohasida bir qator qarorlar qabul qildi. Ularning natijasida yurtimiz kinomatografiyasini rivojlantirish uchun shu yili Davlat Budjetidan mablag' ajratila boshlandi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 16 martdan «Kinomatografiya sohasida boshqaruvni takomillashtirish» Famoniga muvofiq Vazirlar mahkamasi Milliy kinochi mablag' ajratish haqida maxsus qaror qabul qildi.

Shu davrdan boshlab har yili 12 ta to'la metrajli badiiy film 12 ta nomdagi hujjatli va ilmiy-ommabop va 10ta multiplikatsiya kinofilm uchun mablag' ajratila boshlandi.

2005-yildan boshlab «O'zbekkino» milliy agentligida O'ztele radiokompaniya bilan birgalikda homiylik mablag'lari hisobiga va o'z daromadini jalb qilgan holda, zamondoshlarimiz hayoti, jamiyat ijtimoiy va ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar haqida hikoya qiluvchi badiiy videofilmlar, teletermallarini qo'shimcha ishlab chiqarish topshirig'i berildi.

Bugungi kunda Respublika o'zbek kinofilmlari asosiy o'rinni egallayotgan kinoteatr repertuarlari shakllanib, infratartib o'zgaradi, film ishlab chiqarish tobora o'sib bormoqda. Ularning ko'pchiligi kinohitga aylandi. Bu o'z navbatida 1990-yillar boshida yo'qolib qolgan, o'zbek kinotomoshabinini zallarga qaytardi.

Tijorat kinosini rivojlanishi, bir xilda bo'lsada, simpomatik alomat, milliy kinomatograf rivojlanishi yangi davri sifatida baholash mumkin.

O'zbekiston yangi kinosi hozirgi paytda bir necha yo'nalishga ega. Ba'zi rejissyorlar, asosan, milliy mavzularni qo'smasb, realistik bayon modeli doirasida ijod qilayotgan bo'lsa, boshqalari ko'proq mavhum shakllarni ma'qul ko'rmoqdalar.

S.Nazarmuhammedovning «Yolg'iz-yodgorim», Y.Roziqovning «Voiz», «O'rtoq Boykenjayev» filmlarida inson taqdirini o'ziga xos ijodiy anglashga intilish seziladi. Agar 90-yillar boshida yaratilgan «Tosh sanam» (Rejissiyor I.Ergashev), «Tong otguncha» (rej. Y.Azimov.) filmlarida tarixiy mavzu, sho'ro siyosatining ulug'lash falsafasi bilan chambarchas bog'liq holda yoritilgan bo'lsa, 90-yillar ikkinchi yarmiga kelib, ijtimoiy voqelikning tanqid qilish ruhi asta so'nib boradi.

Bu davrga kelib, «Imom al-Buxoriy» (rej. B.Sodiqov, 1995 y.), «Buyuk Amir Temur» (rej. B.Sodiqov, I.Ergashev, 1996) singari tarixiy biografik kartinalar yaratildi. Aksariyat kinorejissyorlarning asarlarida voqelikni to'g'ridan to'g'ri emas, balki shartli shaklda ifodalash tamoyili kuzatiladi. Z.Musoqovning «Abdullajon», «Bomba», «Osmondagi bolalar», N.Abbosovning «Fellini», «Oydiyoy» filmlarida kesatish, bo'yoqlari, komik o'yinlar, eksentrika va mubolag'a xususiyatlarini kuzatish mumkin.

Mustaqillik yillarida yaratilgan «Manlar», «Tushlarimda g'amgin yig'layman», «Qiyomat qarz», kabi filmlari bilan so'nggi yillarda yaratilgan, «Zabarjad», «Haqiqiy erkaklar ovi», «Ilova», «Kechikkan hayot», «Nazar» kabi filmlar qahramonlarini solishtirib ko'rilganda, dastlab tashqi, so'ngra chuqur ichki xususiyatlarni anglab olish mumkin. Eng muhimi, davr talabi asosida qahramon yo'qoldi.

Milliy mohiyatni anglash zamonaviy kinomatograf uchun nihoyatda muhim masaladir. Albatta, O'zbekistonning yangi kinosi oldida qator muammo va masalalar, shuningdek, milliy o'ziga xoslikning ifodalaydigan badiiy shakl izlash borasida hal qilinmagan masalalar mavjud. Chunki qahramonning emotsional-psixologik holati «parda ortida qolib ketmoqda». Q.Qayumovning «Yo'l bo'lsin», Y.Roziqovning «Erkak», Y.To'ychiyevning «Chashma», A.Shahobiddinovning «O'tov» singari filmlarida o'zbeklarning haqiqiy milliy xususiyati aks ettiriladi.

Rejissyorlarning o‘z filmlarida xalqimizning asrlar osha yashab kelayotgan hayot tarzi, urf odatlari va an‘analariga tayanib, an‘anaviy madaniyatini o‘zgacha olamni qayta gavdalandira boshladilar.

Kino ishlab chiqarishda repertuarlarni yaxshilash va boyitish tamoyili kuzatilmogda. Agar Jahongir Qosimovning «O‘n sakkizinchi kvadrat» (2006), «Daryo bo‘ylab», (2008), Jasur Is‘hoqovning «Haqiqiy erkaklar ovi» (2005), Ravil Botirovning «Jannat qaydadir» (2005), Bahodir Odilovning «Zabarjad» (2007), «Qarzdor» (2010) kabi filmlarida ijobiy qahramon obrazi va ijobiy g‘oyaviy o‘zgarishlarni ko‘rsatishga intilish sezilsa, Zulfiqor Musoqovning «Vatan» (2005), «Qo‘rg‘oshin» (2011) filmlarida yaqin o‘tmishdagi tariximizni yangicha idrok etishga intilish seziladi.

Keiyngi yillarda O‘zbekiston badiiy kinosida yurtimizning xalqaro festivallarga taqdim etilgan o‘ziga xos eksport mahsulotiga qiziqish tamoyili paydo bo‘ldi. Qamara Kamolovning «Osmon ostidagi yo‘llar», Sobir Nazarmuhammedovning «Narigi sohilda», Nozim Abbosovning «Fellini», «Oydinoy», «Abadiylik charxi», Yolqin To‘ychiyevning «Chashma», «Ilova», Ayub Shahobiddinovning «O‘tov» filmlari bunga misol bo‘la oladi.

Qisqa metrajli filmlari ishlash sohasida yosh mualliflar olib borayotgan ekspremental ishlar mualliflik kinosi rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Aynan shu yo‘nalishda mualliflik badiiy kinosini yaratish g‘oyasi, konsepsiyasi va yondashuvlari vujudga keladi. 2011-yili Xalqaro Toshkent Zamonaviy kinofestivalligi tayyorlash va o‘tkazishi doirasida o‘tkazilgan «Muqaddima» nomli qisqa metrajli filmlar tanlovini o‘tkazish tajribasi buni tasdiqlaydi.

Filmlarning darajaga O‘zbekistondagi yosh mualliflik kinosining ijodiya imkoniyatlari katta ekanligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekkino milliy agentligi va Fond Forum tashabbuskori bo‘lgan toshkent xalqaro zamonaviy kino festivalini o‘tkazish g‘oyasining o‘zi ham milliy kinomizni jahon kinosi maydoniga olib chiqishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston kinomatografiyasi tarixi kino san‘atning asosiy xususiyatlaridan biri doimiy yangilanish ekanligiga yorqin misol yuo‘la oladi. Yangi avlod ijodkorlari milliy kinomatografiyaning sog‘lom taraqqiyotining muhim shartidir. Shunday ekan, kino madaniyati va san‘atini rivojlantirishi tizimiga kinochilik kasbi bo‘yicha yaxshi ta‘lim olgan, mustaqil ijod qila oladigan erkin kinomatografchilarning kirib kelishi uchun zarur ijtimoiy madaniy sharoitini yaratish lozim. Bu esa O‘zbekiston badiiy kinomatografiyasi oldiga jiddiy vazifalarni qo‘yadi.

Mustaqillik solnomasini yaratish xususiyatli kino arboblari oldida turgan eng muhim vazifalardan ekanligi tabiiy. Buni chuqur anglangan kinochilarimiz bir qator hujjatli filmlarini yaratdilar. Ular orasida, ayniqsa, «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida» asari asosida ishlangan ko‘p qismli hujjatli filmlarning xalqimiz, balki xorijlik tomoshabinlar tomonidan ham yuqori kabi bir qator chet mamlakatlarda bu film taqdimoti bo‘lib o‘tganligi fikrimizning isbotidir.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy hayotning barcha yoʻnalishlarida boʻlganidek madaniy hayotda ham tubdan oʻzgarishlar yuz berdi. Shaklan ham, mazmunan ham milliy madaniyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bu, avvalo, teatr madaniyati va sanʼati rivojlanishida yaqqol sezila boshlandi, yangi-yangi teatr dargohlari qurib ishga tushirildi. 1991-yilda Fargʻonada va 1993-yilda Xivada davlat qoʻgʻirchoq tetrlari ish boshladi. 1994-yilda Qashqadaryo va Namangan viloyati teatrlari qoshida qoʻgʻirchoq guruhlari ochildi. Andijon jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, u 1994-yilda Abbas Bakirov nomidagi Andijon yoshlar va bolalar teatrga aylantirildi.

1993-yil avgustida Toshkent shahrida ish boshlagan hashamatli «Turkiston» saroyi nafaqat mahalliy teatr va tomosha guruhlarning chizishlariga, balki, uzoq va yaqin mamlakatlardan tashrif buyuradigan sahna guruhlari va atoqli artistlarning chiqishlariga ham moʻljallandi.

Mustaqillikka erishgach oʻzbek teatrlari va sanʼatkorlarining dunyo sahnasiga chiqishi uchun yanada keng yoʻl ochildi. Navoiy nomidagi katta opra va balet teatri, A.Hidoyatov nomidagi drama teatri, «Ilhom» teatr studiyasi, rus yosh tomoshabinlar teatri shu jihatdan ibratli ishlar qiladilar. Navoiy nomidagi teatr-balet truppasining Malayziya va Tailandga, A.Hidoyatov nomidagi teatrning Angliya, Shotlandiya va Germaniyaga, Rus bolalar teatrining Qatarga safarlari shular jumlasidandir.

Oʻzbek teatrlari sahnasida yangi zamonaviy mavzudagi asarlar namoyish etila boshlandi. Jumladan, 1992-yilning oʻzidagina Abror Hidoyatov nomidagi oʻzbek davlat drama teatri ijodiy jamosi mashhur italyan komediyanavisi Karlo Gashining «Malikai Turandot» spektaklini, Muqimiy nomidagi oʻzbek davlat musiqali teatri jamoasi esa «Shum bolaning sarguzashtlari» va komediya janrida yaratilgan «Mening oppoq kabutarlarim» spektakllarini, shuningdek, Yunus Rajabiy nomidagi Jizzax musiqali drama teatri A.Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni asosida yaratilgan asarlarni sahnaga qoʻydilar. Bu spektakllar tomoshabinlar tomonidan yuqori baholandi.

Uzoq yillaridan buyon taqiqlab kelishgan Amir Temur mavzusiga eʼtibor kuchayganligi ham istiqloqlning buyuk neʼmati Qashqadaryo viloyat musiqali drama va komediya teatridan soʻng respublikamizda ikkinchi boʻlib Hamza nomidagi oʻzbek Davlat akademik drama teatrida jahongir hayoti haqidagi drama sahnaga qoʻyildi.

Milliy istiqloqlning ikki yilligi arafasida poytaxtimizning qator teatrlarida yangi sahna asarlarining koʻriklari boʻlib oʻtdi. A.Hidoyatov nomidagi oʻzbek durdonalaridan biri Abdulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asarining 1000 yilligiga bagʻishlab mazkur asar asosida «Faridun» nomli ikki qismli fojia sahnalanishtiriladi., shuningdek, Abdulhamid Choʻlpon qalamiga mansub, badiiy jihatdan yaxshilangan muhabbat, insof-diyonat ulugʻlanib, fisqu-fasod hamda tajovuzkorlik keskin sahna yoʻzini koʻrdi. A.Majidiy nomidagi Kattaqoʻrgʻon shahar drama va komediya teatri jamoasi dramaturgi Erkin Samandarning «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy dramasini ham sahnaga qoʻydi.



Ayni paytda o'zbek milliy madaniyati va san'atini rivojlanishi va takomillashishi jarayonini boshdan kechirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston teatr madaniyati va san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi (1998-yil, 26-mart) Farmoniga muvofiq O'zbekistonda asrlar osha yashab kelayotgan tomosha madaniyati va san'ati an'alariga o'rganish, boyitishi va targ'ib qilishi, teatr sa'natini har tomonlama rivojlantirish, moddiy texnika negizini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy ma'rifiy islohatlarda teatr arboblarning faol ishtirokini ta'minlash, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish maqsadida «O'zbek teatr» ijobiy ishlab chiqarish birlashmasi va uning qoshida esa Teatr ijodkorlari uyushmasi tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida respublika foto madaniyati va san'atining yangi taraqqiyot bosqichi boshlandi. K.Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutida «Kompyuter grafikasi va badiiy fotografiya» bo'limi ochildi. Fotosan'atni yanada rivojlantirish maqsadida 2002-yili Toshkent fotosuratlar uyi (TFU) tashkil etildi. 2005-yili Respublika Vazirlar Mahkamasi qarori bilan u O'zbekiston Badiiy Akademiyasi (O'zBA) tizimiga kiritildi.

TFU 2000-yiliyoq O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi qoshida asos solingan foto rassomlar sho'basi foto ixlosmandlari uchun ijod maskaniga aylandi. 2006-yili TFU qoshida ijodiy fotografiya maktab studiyasi tashkil etildi. TFU ko'plab keng qamrovli loyihalarni amalga oshirdi.

O'zbekiston mustaqillika erishishi madaniyat va san'atning yangi davrini boshlab berdi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezident farmoniga binoan 1997-yili O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etilishi madaniy rivojning yangi bosqichini ochib berdi. Muhimi, san'atda mafkuraviy nazoratni bekor qilinishi natijasida ijod erkinligini qo'lga kiritgan rassomlar uslubiy rangbaranglikda ijod qila boshladilar. O'zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi esa shu jarayonni yanada tezlashishga yo'l ochdi.

Me'morchilik. Mustaqillik yillarida o'zbek me'morchiligida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Milliy me'morchilikda yangilanish sodir bo'la boshladi. Toshkent va boshqa shaharlar loihalarining qayta ko'rib chiqildi. an'anaviy milliy me'morchilik madaniyati va san'ati an'analari, jahon va Yevropa me'morchilik madaniyati va san'atining uyg'unligi asarlar yaratila boshlandi. Avvalgi davrlarda qurilgan binolarning ta'mirlash va qayta qurish va modernizatsiyalash ishlari olib borildi. Bu xususiyat ma'muriy va madaniy binolar, ularning badiiy konstruktiv echimida o'z ifodasini topdi. Turkiston saroyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Toshkent shahar hokimligi, Sheraton mehmonxonasi, Me'moriy majmualar: al-Buxoriy, al-Farg'oniy, Xotira va qadrlash, Shohidlar xotirasi va b me'moriy yodgorliklarda shu me'morchilikdagi yangi jarayonlar o'zini yaqqol ko'rsatdi. Bu yillarda Park-bog' madaniyati va san'ati rivojlandi. O'zbekiston milliy bog'i, Akvapark, Hayvonot bog'lari qaytadan ishlandi.

Mustaqillik yillarida ijod erkinligi san'atda izlanishlar va turli uslub va

yoʻnalishlarning rivojlanishiga olib keldi. Realistik sanʼat (hayot shakllari asosiga qurilgan sanʼat) va avangard-modernizm madaniyati va sanʼati oʻzaro raqobati kuchaydi. Sanʼatning baholash mezonini ijodkorning shahsiy intim kechinmalari, oʻy va kechinmalari belgilay boshladi. Mustaqillik yillari rassomlik madaniyati va sanʼatining mavzusi kengaydi. Rassomlarning milliy tarixga murojati natijasida yangi yangi mavzular, eng avvalo milliy tarix bilan bogʻliq voqealar koʻpchilik rassomlarni oʻziga jalb etdi. Sanʼatda tarixiy portret va kompozitsiyalarning paydo boʻldi. Amir Timur, Mirzo Ulugʻbek, Jaloliddin Manguberdi ikonagrafik portretlari uchun tanlovlar oʻtqazilishi ham shu jarayonda muhim oʻrinni egalladi.

Tasviriy sanʼatda rangtasvir avvalgi yillardagidek yetakchi oʻrinni egallab izlanishlar ayni shu sanʼatda olib borildi. Tarixiy mavzudagi asarlar, asosan, realistik talqin etilishi bilan xarakterlanadi. A.Ablullayev (Navoiy), Ch.Axmarov (Nodira), M.Nabiyev ijodida tarixiy portret va kompozitsiyalar (A.Temur, Bobur), A.Ikromjonov (Ulugʻbek, K.Behzod), S.Raxmetov (Ahmad Mirzo), O.Muinov (Toʻmaris, Bibixonim) portretlari realistik sanʼat anʼanalarida ishlangan. Shuningdek bu davrda xalq qahramonlari Alpomish, Spitamen, J.Manguberdi siymolarining portret janrida yaratilidi. Q.Basharov (Spitamen), T.Kuryazov (J.Manguberdi), M.Yoʻldoshev (Alpomish, Goʻroʻgʻli, Rustam) portretlari koʻpchilik eʼtiborini qozondi.

Mustaqillik yillarida milliy mavzu va tarixga eʼtiborning ortishi tarixiy janr rivoji katta turtki berdi. Temur va temuriylar davriga atab shu yillarda ayniqsa koʻp asarlar yaratildi. M.Nabiyev, Ch.Axmarov, N.Qoʻziboyev, Q.Basharov, B.Jalolov, J.Umarbekov, S.Abdullayev, E.Masharipov, A.Aliqulov va boshqalar shu mavzuda yirik asarlar yaratishdi. Har bir zamon oʻz zamondoshlarining qiyofasini koʻrishni istaydi. Bu tabiiy. Chunki davr kishilarining ruhiy olami, ularning borliqqa, tabiatga boʻlgan qiziqishlari shu sanʼatda oʻz ifodasini topadi. Shu sanʼatda ijod qilgan A.Ikromjonov, S.Raxmetov kabi rassomlar shu ijodida shu sanʼatning yangi qirralarini koʻrish mumkin. Manzarachilik madaniyati va sanʼati ham oʻzining yangi qirralarini namoyon eta boshladi. Rahim Axmedov, Neʼmat Qoʻziboyev, Anvar Mirsoatov manzaralari oʻzining xis tuygʻularga boy xislatlari bilan yangi davr ruhini ifodalaydi. Mustaqillik yillari miniatura madaniyati va sanʼatining haqiqiy rivojlanish davri boʻldi. Ayniqsa. lokli miniatura madaniyati va sanʼatining oʻzining kamolatiga erishdi. Sh.Muhamadjonov, G.Kamolov, T.Boltaboyev, X.Nazirov, A.Yoʻldoshev. B.Yoʻldoshev, U.Qosimov, F.Rahmatullayev, Sh.Shoaxmedov, A.Tursunov kabi miniaturachilar ijodida shu sanʼatning ajoyib namunalarini yaratildi. Bu sanʼatda Niyozali Xolmatovga akademik unvoni berildi.

Mustaqillik yillarida realistik sanʼat yoʻnalishi bilan bir qatorda avangard madaniyati va sanʼati yoʻnalishlari oʻziga yoʻl ochib bordi. Oʻz ijodini akademik sanʼat yoʻnalishida boshlab katta yutuqlarga erishgan Bahodir Jalolov, Vyacheslav Oxunov, Akmal Nuriddinov (Akmal Nur), Jamol Usmonovlar avangard madaniyati va sanʼatining etuk namunalarini yaratishga muvaffaq boʻldilar.

Abdurahmonova Galiya Jumaniyozova 1956-yili Qoraqalpoqistonda tugʻilgan, 1974-yili Ashxobodagi rassomlik bilim yurtini, 1992-yili Toshkentdagi Sanʼat institutini tugatgan. Toshkentda yashaydi. Borliqni afsonaviy romantik ruhda tashvirlashni maʼqul koʻradi.

Ahmadaliyev Fayzullaxon 1960-yili Qozogʻistonda tugʻilgan 1984-yili TSIning tugatgan. Rassom noanʼanaviy uslubda ishlaydi. Rang tizimi, shakllar ritmi metaforada ijodkor qarashlarini ifodalaydi. Latofatli malikalar, gʻayritabiiy jonzot-u parrandalar majmuasida oʻziga xos ohang va falsafiy mazmun yechiladi.

Mustaqillik yillarida monumental sanʼat ham oʻzining yangi bosqichini boshladi. Bu davrda barpo etilgan jami maʼmuriy madaniy binolar sanʼatkorlar asari bilan bezatildi. Rassomlar haykaltarosh, oʻymakor va naqqosh meʼmorlar bilan hamkorlikdada sanʼat sintezining ajoyib namunalarini yaratdilar. Landshaft arxitekturasi, vitraj, koshinkorlik, kulolchilik, kandakorlik, badiiy shisha bu sanʼatda oʻz oʻrnini topdi. Turkiston saroyi, Biznes – markaz, Interkontinental, Sheraton va Meridian mehmonxonalari, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Toshkent shahar hokimiyati, Oliy majlis binosi, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda qurilgan madaniy va maʼmuriy binolar yangi davr ruhini oʻzida mujassamlashtirdi.

Mustaqillik yillari grafika madaniyati va sanʼati texnika va texnologiyalar bilan boyidi. Kompyuter texnologiyalari bu sanʼatga boʻlgan talabni butunlay oʻzgartirib yubordi. Polegrafiya ishlari sifat jihatidan yangilandi. Plakat, amaliy grafikada kompyuter grafikasi oʻzining mustaqil oʻrnini egalladi. Bu yillardan grafikaning qalam tasvir va bosma grafikaning gravyura turlari yetakchi oʻrinni egalladi. Bu davr grafikasida ham realistik va avangard yoʻnalish, milliy romantizm xususiyatlari uygʻunligi izlanish maydonida boʻldi

Mustaqillik yillari haykaltaroshlik madaniyati va sanʼati uslubiy rangbarangligi bilan xarakterlanadi. Dastgoh, monumental, dekorativ va mayda haykaltaroshlikda asarlar yaratildi. Lekin bu yillardan monumental va mayda haykaltaroshlik madaniyati va sanʼatining yetakchi oʻringa chiqdi. Monumental haykaltaroshlikda tarixiy mavzudagi asarlar realistik uslubda bajarildi. Amir Temur, Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Fargʻoniy, va boshqa tarixiy shaxslar, xalq qahramonlarining timsollari haykallari, masalan, Alpomish yaratildi. Yozuvchi, shoir rassom, bastakor va boshqa ziyolilar xotirasi uchun Meʼmoriy meʼmorial haykallar oʻrnatildi. Shunisi eʼtiborliki mustaqillik yillarida oʻzbek haykaltaroshlari xorij davlatlari uchun tarixiy shaxslarga bagʻishlangan haykallar buyurtmasini bajardilar.

Ravshan Mirtojiyevning qator asarlari koʻpgina xorij mamlakatlarining shaharlarida oʻrnatildi.

Bulardan tashqari R.Mirtojiyev Andijonda Bobur, Toshkentda A.Qodiriy, Choʻlpon, Jizzaxda Ona haykalini oʻrnatdi. Bulardan tashqari Mirtojiyev mayda haykaltaroshlikda ham samarali mehnat qilib kelmoqda.

Mahobatli haykaltaroshlik haqida gap ketganda shu davrda faol ijod qilgan Ilhom Jabborov, Eynulla Aliyev, Anvar Rahmatullayevlar ijodini eslamay boʻlmaydi.

Jumladan, ayni mustaqillikdan keyin haykaltarosh Ilhom Jabborov Amir Temurga bag‘ishlangan mahobatli haykallari bilan tanildi. Uning Toshkentning markaziy xiyoboniga o‘rnatgan Amir Temurning otdagi haykali, Samarqanddagi taxtda o‘ltirgan holdagi hamda, Shahrisabzdagi odamlar oldiga peshvo chiqib kelayotgan haykali mustaqillik tufayli maydonga kelgan yodgorliklar edi. I.Jabborov Quva va Farg‘ona uchun al-Farg‘oniy, Xorazm uchun ishlagan Jaloliddin Manguberdi haykallarining muallifi ekanligi ijodkorning qisqa vaqt ichida nechog‘li katta mehnat qilganligini ko‘rsatadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yaratgan mahobatli asarlardan biri bu Toshkentdagi Alisher Navoyiy nomidagi milliy bog‘da buyuk mutaffakir, o‘zbek she‘riyatining sultoni Alisher Navoyiy haykali edi. Samarqandlik haykaltaroshlar Nodar Bandeeladze, V.Degtyaryovlar Eynulla Aliyev rahbarligida bajarilgan bu yodgorlik bilan ular o‘zbek haykaltaroshligiga uning yangi bir qirrasini, haykaltaroshlikda me‘moriy-haykaltaroshlik majmuasini olib kirdilar. Ko‘shk tipidagi me‘moriy hajm ichiga odamlar oldiga peshvo chiqib kelayotgan Mir Alisherni tasvirlab ko‘shkning gumbaz ostiga esa uning xalqqa qarata aytayotgan bashorati turli tillarda o‘yib yozilgan.

XX asrning 90-yillari toshkentlik haykaltarosh Anvar Rahmatullayev uchun ham samarali bo‘ldi. Uning loyihalari asosida Toshkent, Chirchiq, Navoiy shaharlari uchun qator mahobatli haykallar yaratdi. Chirchiq shahridagi Navoiy, Toshkent shahrida Mirzo Ulug‘bek haykallari( har ikkisi 1991, L.Ryabichev bilan hamkorlikda ishlangan), Termezdagi Alpomish haykali ham hamkorlikda ishlangan, Navoiy shahridagi Navoiy haykalini Podosinnikov bilan birga ishlagan.

Mustaqillik yillari o‘zbek mayda plastikasining haqiqiy rivojlanish bosqichi bo‘ldi. Qadim paytlardan Turon tuprog‘ida mavjud bo‘lgan bu san‘at o‘tgan asrning 60-80-yillarida Samarqand va Buxoroda yana bu yillarga kelib xalq ustalari Usta Umar Jo‘raqulov, Hamro Rahimova, Abdurahim Muxtorovlar ijodida yangi hayotini boshlagan bo‘lsa, mustaqillik yillarida bu an‘analar toshkentlik ijodkorlar, akademik Shahnoza Mo‘minova, xalq ustalari Viktor Shurkov va uning shogirdi Muhamadjonovlar ijodida o‘zining yangi plastik ko‘rinishini oldi.

Amaliy san‘at. Mustaqillik yillari amaliy san‘at rivojini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va hukumat qarorlari, ularning amaliy san‘at va xalq hunarmandchiligining rivojlantirilishiga qaratilgan tadbirlari belgiladi. «Xalq amaliy madaniyati va san‘ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo‘llab-qo‘ltiqlash tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni, “O‘zbekiston xalq ustasi” unvonini ta‘sis etilishi bu jarayonda muhim omil bo‘ldi. Amaliy-bezak madaniyati va san‘ati va hunarmandchilik bozor iqtisodiga moslashib bordi. Uning tur va janrlari bozor iqtisodi bilan bog‘liq holda rivojlandi. Shu sohaga oid shaxsiy ustaxona va korxonalar tashkil etildi va etilmoqda, muzeylar ochilmoqda. Mustaqillik yillari kulolchilining etuk vakillari Akbar Rahimov, Sharofiddin Yusupov, Xudoyberdi Haqberdiyev, Sharif Azimovga akademik unvoni berildi. Mustaqillik yillari yog‘och o‘ymakorligi, uning maishiy va monumental turlarining keng rivojlanish haqiqiy

davri bo'ldi. Mahobatli yog'och o'ymakorligi keng rivoj topdi. Mustaqillik yillarida barpo etilgan me'moriy majmualarda, ayniqsa tarixiy sanalar bilan bog'liq turlarida bu san'at o'zining salmoqli o'rnini egalladi Bu sohada mehnat qilgan xalq ustasi Abdug'ani Abdullayevga O'zbekiston xalq qahramoni unvoni berildi.

Muzey Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, aholida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi. Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda Hofiz Hojixon Boltayev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi, Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olimi Xadicha Sulaymonova muzeyi, o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboyeva muzeyi singari uy-muzeylari tashkil etildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi. 1996-yil, 1-sentabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi faoliyat ko'rsata boshladi. Bu muzey O'zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarini namoyish etadigan, mamlakatimizda sport harakatini rivojlantirish markazi bo'lib qoldi. 1996-yil, 18-oktabrda Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Muzey temuriylar davri ruhini aks ettiruvchi o'sha davrga xos tarixiy jihozlar, qurol-aslahalar, lashkarboshilar va oddiy jangchilarning kiyim-boshlari, oltindan yasalgan uy-buyum ashyolari, musiqa asboblari, Amir Temur, Bobur qo'lyozmalari, Ulug'bekning astronomik qurilmalari va boshqa 2000 dan ortiqroq tarixiy, madaniy yodgorliklar bilan jihozlangan. Temuriylar tarixi davlat muzeyi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy ishlar, ilmiy tafakkur markaziga aylandi. 2002-yilda Termizda Arxeologiya muzeyi bunyod etildi. O'zbekiston Prezidentining 1998-yil 12 yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni va uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan Respublika hukumatining 1998-yil, 5-dekabrda qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollari belgilab berdi. Madaniyat ishlari vazirligi, "Oltin meros" jamg'armasi, Badiiy Akademiya, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi muzeylar rahbariyati bilan hamkorlikda muzeylarning rivojlanishi va moliyaviy ta'minoti bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta'mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat budjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo'llab quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda "O'zbekmuzey" Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi "Moziydan sado" jurnali ta'sis etildi va u 1999-yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. Faqat 1999-yilda muzeylarning asosiy fondi 7544 ta tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyidi. O'zbekistonda

umumiy maydoni 137150 kv.m.ni tashkil etadigan 510 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1,3 milliondan ortiq ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi nodir buyumlar-eksponatlar saqlanmoqda va aholiga namoyish etilmoqda. Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. 2500 ta me'moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey-qo'riqxonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, monumental san'at asarlari saqlanib qolgan, davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e'tirof etilgan. O'zbekiston muzeylari aholi orasida o'lkamiz tarixi, xalq amaliy san'ati asarlaridan iborat etnografik ko'rgazmalarni namoyish etib, jamiyatimiz ma'naviy kamoloti yo'lida xizmat qilmoqda. Minglab xorijiy sayyohlar respublikamiz muzey-qo'riqxonalariga tashrif buyurib, ajdodlarimizdan qolgan tarixiy yodgorliklar, obidalar, monumental san'at asarlari oldida ta'zim etmoqdalar. Fransiya, Turkiya, Eron, Pokiston, Koreya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda O'zbekiston muzeylarining eksponatlari namoyish etildi

Samarqand shahrida 1997 yildan boshlab har ikki yilda "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali o'tkazib kelinmoqda. "Sharq taronalari" bugungi kunda jahon san'at ahlining eng sevimli festivallaridan biriga aylangan. 1997 yilda o'tkazilgan "Sharq taronalari" I xalqaro musiqa festivalida 31 ta davlat qatnashgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 80 dan ortiq bo'lib festival qatnashchilarining safi yildan yilga kengayib bormoqda. Bundan tashqari dunyoning nufuzli gazeta va jurnallarida ushbu festeval haqida maqolalar chop etilishi, albatta o'zbek xalqi madaniyatiga jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof bildirayotganligidan dalolat beradi. 2015 yilning 25-30 avgust kunlari "Sharq taronalari" X xalqaro musiqa festivalini yanada jozibali va zamonaviy tarzda tashkil etish maqsadida Registon maydonida lazer shou va 30 o'lchamdagi musiqali namoyish o'tkazildi. Majmua va amfiteatrni yoritish tizimi ham eng so'nggi rusumdagi texnologiyalar asosida butunlay yangidan yaratildi. Sharq xalqlarining milliy musiqa hamda qo'shiqchilik san'ati noyob namunalarini asrash, targ'ib etish va rivojlantirish, shu asosda xalqlar o'rtasida madaniy-ma'rifiy aloqalarni yanada mustahkamlashda "Sharq taronalari" musiqa festivalining ahamiyati beqiyos bo'lib, uning nufuzi yildan-yilga oshib bormoqda. Buni festivalga dunyoning yuzdan ortik mamlakatlaridan mehmonlar keladi. Ular orasida festival qatnashchilari, san'at namoyandalari, musiqashunoslar, jurnalistlar hamda sayyohlar tashrifi kuzatilgan.

"Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali bugungi kunda nufuzi jihatidan dunyoda o'tkaziladigan musiqa bayramlari ichida o'ziga xos o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, ushbu tanlovda ezgulik ulug'lanib, insoniylik, mehr-oqibat, muhabbat tarannum etiladi, jahon xalqlari musiqalari, jumladan, o'zbek musiqasining mu'jizaviy dunyosi namoyon buladi.

“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali millati, tili, dini, irqidan qat’i nazar, butun dunyo san’atkorlarining o’zaro ijodiy suhbat qurishiga, birgalikda kuylashiga imkon yaratmoqda. Qolaversa, Sharq xalqlari milliy musiqa va qo’shiqchilik san’atining noyob namunalarini keng targ’ib etish, an’analarni asrab-avaylash, yosh avlod qalbida chinakam san’atga mehr-muhabbat tuyg’ularini uyg’otishga xizmat qilmoqda. Festival YuNESKOning xalqaro madaniy tadbirlar doirasiga kiritilgan, siyosiy-ma’naviy ahamiyatga ega yuksak anjuman hisoblanadi.

O’zbekistonda maqom asarlari va turkumlari — Buxoro “Shashmaqom”i, “Xorazm maqomlari” hamda “Farg’ona — Toshkent maqom yo’llari” turkumlari, shuningdek, uning lokal variantlari — “Toshkent irog’i”, “Qo’qon irog’i”, “Samarqand ushshog’i”, Farg’ona “Surnay maqom yo’llari”, Xorazm “Dutor maqom turkumi”, “Feruz” turkumi va boshqalar mavjud.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi hamda 2018 yil 6 apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o’tkazish to’g’risida”gi qarorlari o’zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab bergan muhim hujjatlar bo’ldi.

Davlatimiz rahbarining Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog’ida sohibqiron bobomiz Amir Temur qurdirgan Oqsaroyini ziyorat qilib, Shahrisabz qadimiy merosimiz bo’lgan maqomlarni dunyoga taratish uchun eng maqbul joy ekanligini ta’kidlagan edi. Zero, “Shashmaqom” dunyoga kelgan o’sha davr aynan Amir Temur davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog’liq.

Buyuk bobomiz davrida musiqa san’ati jadal rivojlanib, chinakam uyg’onish davrini boshdan kechirganligi, sozandalik va xonandalik, musiqa ilmi hamda bastakorlik kamol topganligi haqida ko’plab manbalar mavjud. Ularda ta’kidlanishicha, XVII-XVIII asrlarga kelib, Shahrisabzda buxorolik va samarqandlik san’at ustalari hamkorligida “Shashmaqom” taronalari raqsga tushadigan raqqoslar hamda sozandalar guruhlari tuzilgan.

Ularda maqom san’atini yanada rivojlantirish borasida aniq vazifalar belgilab berilgan.

Anjuman munosabati bilan ko’plab mamlakatlardan hofizu sozandalar, sayyohlar va boshqa mehmonlar Shahrisabzga tashrif buyurgan. Bu esa dunyo miqyosida ushbu san’at hamda yurtimizga bo’lgan qiziquvchilar safining oshib borayotganini bildiradi. So’nggi ma’lumotlarga ko’ra, xorijiy davlatlardan 22 nafar musiqashunos olim, 29 yakkaxon ijrochi va musiqiy jamoa, 21 nafar mutaxassis hamda faxriy mehmon san’at bayramida ishtirok etishgan.

Anjumanda 70 dan ortiq davlatlardan san’atkorlar ishtirok etishgan, 300 dan ziyod xorijiy mehmonlar tashrif buyurgan. Shuni ta’kidlash joizki, 40 dan ortiq xorijiy davlatlar televideniyelari anjumanni o’z yurtiga to’g’ridan-to’g’ri uzatish imkoniyatiga ega bo’lgan.

### **Nazorat savollari**

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda san’ati haqida fikr yuriting.
2. Milliy va ma’naviy qadriyatilarning tiklanishi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. O‘zbek kinosi haqida ma’lumot bering
4. Teatr san’ati haqida nimalarni bilasiz?
5. Tasviriy san’at haqida ma’lumot bering.
6. Amaliy san’at haqida ma’lumot bering
7. O‘zbekistonda muzeylar va ularning faoliyati.

### **Manbalar va adabiyotlar**

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1, 2, 3-kitoblar. - T.: Sharq, 2000.
2. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) Birinchi va ikkinchi kitoblar/ mas’ul muharrir Q. Rajabov. T.; -»O‘zbekiston»-2019
3. O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik / Mas’ul muharrir A.S. Sagdullayev. – T., 2019.
4. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muharrir A.S. Sagdullayev. - T. 1997.
5. O‘zbekiston san’ati. (1991-2001-yillar) -T.: Sharq, 2001.
6. O‘zbekiston tarixi va madaniyati. T., «O‘qituvchi», 1992.



## GLOSSARIY

- **ABSTRAKTSIONIZM** (lotincha – abstractio – mavhumlik). Bu oqim XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo‘ldi. Rus rassomlari V.V.Kondinskiy va K.S.Malevich, golland rassomi P.Mondrian, fransuz rassomi R.Delonelar uning asoschilaridir. Abstraksionizm real borlikni aks ettirishdan voz kechuvchi va badiiy asarlari har xil dog‘ va chiziqlar, haykaltaroshlikda beo‘xshov konstruksiyalardan iborat va milliy shakl va an‘analarning san‘atdagi ijtimoiy mohiyatini inkor etib, estetik didni dag‘allashtiradi hamda kishilarni tabiatga va ijtimoiy hayotdagi go‘zallikni bilishdan va undan bahramand bo‘lishdan mahrum etadi.

- **AVTOGRAVYURA** (yunon.autos - o‘zim va frans. gravure) - o‘ymakorlik. Naqsh chizishda muallifning o‘z qo‘li bilan yog‘och, linoleum yoki metallga o‘yib ishlangan va undan qolip sifatida foydalanib chop qilingan nusxasi. Yog‘och avtogravyuralaridan kitoblarga rasmlar tayyorlashda, linoleum va metall avtogravyuralaridan esa alohida nusxalar chop etishda foydalaniladi.

- **AVTOLITOGRAFIYA** (yunon.autos - o‘zim. litos – tosh, grapho – yozaman,chizaman). Litografiyaning ishlash usullaridan biri. Bunda rassom o‘z g‘oyasini dastlab toshga o‘yib, so‘ng undan qog‘oz sathiga tushiradi. Rassomning o‘zi tomonidan qog‘ozga tushirilgan surat ham avtolitografiya deb yuritiladi.

- **AVTOPORTRET** (yunon. autos - o‘z, frans. portrait - tasvir) Portret janrining bir turi. Avtoportretda rassom yoki haykaltarosh o‘zini o‘zi tasvirlaydi. O‘zbekiston rassomlaridan A.Volkov, L.Nasriddinov, A.Siddiqiy, B.Hamdamiy, A.Abdullayevlar qator avtoportretlar yaratgan.

- **AKADEMIZM** - Qadimgi dunyo va Uyg‘onish davri madaniyati va san‘ati shakllariga taqlid etishga asoslangan, badiiy akademiyalarida rasmiylashgan dogmatik oqim. Akademizm mumtoz metod va sujetlarni asosiy shart qilib qo‘yib, san‘atdan zamonaviylikni chetlashtirdi. Akademizmning qadimiy an‘analarga va yuksak madaniylikka tayanishi, ta’limotning kuchli tomonlaridan biridir.

- **AKADEMIYA** – (yunon. Akademia – Afina yaqinida joylashgan, yunonlarning afsonaviy qahramoni Akadem ismli bilan atalgan joy nomi)–san‘atni rivojlantirishga qaratilgan oliy ilmiy muassasa. Bu nom tarixi miloddan avval 4 asrda Qadimgi Yunoniston va Platon(Aflotun)ning idealistik falsafiy maktabiga asos solinishidan boshlanadi. Hirot miniatura rasmlar maktabini O‘rta asr Sharqida davlat tomonidan ta’sis etilgan birinchi badiiy akademiya deb hisoblash mumkin. (Behzod shu akademiyaning eng yirik vakilidir).

- **AKANT** – ayiqtovon, katta bargli chiroyli o‘simlik. Ayiqtovon barglarining shakllari rassomlar tomonidan mumtoz naqshlarning asosi sifatida keng foydalanilgan.

- **AKVAREL** – (ital. acquerello) – suvda eruvchi bo‘yoqlar. Bu bo‘yoqlarning ajoyib xususiyati bo‘yoq qatlamlarining tiniqligi va mayinligidir. Akvarelda oq rang bo‘lmaydi, uning o‘rnida bo‘yoqlarning tiniq va yupqa qatlami tagidan ko‘rinadigan

yoki bo‘yalmay qolgan qog‘ozning rangi xizmat qiladi. O‘zbekistonda akvarel madaniyati va san’ati rivojini B.Hamdamiy, O‘.Tansiqboyev, G.Shevyakov, G.Chiganov, K.Chiprakov, K.Kaydalovlar tomonidan yaratilgan ajoyib asarlarda ko‘rish mumkin.

- **ALBOM** (fran. Album, lot. avit. – xat yozadigan oq taxtacha) rasm chiziladigan, she’r, xotiralar va avtograflar yoziladigan muqovali daftar.

- **AMALIY GRAFIKA** – grafika madaniyati va san’ati turlaridan biri. Turli xildagi tabrik xatlari, markalar, etiketkalar - shirinliklarni o‘raydigan qog‘ozlarni bezash madaniyati va san’ati.

- **ANSAMBL** (frans. ensemble – birlik, uyg‘unlik, ohangdoshlik) – arxitekturada – bir xildagi arxitektura kompozitsiyasini tashkil etuvchi imoratlar yig‘indisi. Tasviriy san’atda badiiy asarning g‘oyaviy etukligini, barkamolligini anglatadi. O‘zaro mos va uyg‘un qismlarni birlashtirish orqali hosil bo‘lgan bir butun narsa yoki ayrim badiiy asarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Bunga Toshkent metrosi bezaklaridagi me’morchilik, naqqoshlik, haykaltaroshlik va rangtasvir san’atlarining uyg‘unligi misol bo‘ladi.

- **ARKA** – (lot. arcus – yoy, egma) – bino devorlaridagi deraza va eshik o‘rinlarining yuqori qismiga yoki ko‘prik tayanchlariga qo‘yiladigan yoysimon qurilma.

- **ARXITEKTURA** - qurilish madaniyati va san’ati, me’morchilik, inshootlarni loyihalash ilmi. Masalan, Samarqand arxitekturasi.

- **ASOSIY RANGLAR** – rassomlikda asosiy deb qabul qilingan uchta rang - qizil, sariq va ko‘k.

- **ATRIBUT** – (lot. attribuo – bag‘ishlayman) – san’atda – shaxs, qahramon iloxning eng muhim moddiy alomati. Masalan, antik san’atda gerakl atributi – gurzi.

- **AFISHA** – (frans. affiche - e’lon) Spektakl, konsert va boshqa madaniy tadbirlar, tomoshalar, to‘g‘risida habar beruvchi maxsus e’lon.

- **BADIIY AKADEMIYA**– tasviriy san’atning eng yirik namoyandalari uyushmasi... san’at masalalari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy nazorat markazi – muassasa... oliy badiiy o‘quv yurti. Birinchi “akademiya” XVI asrda Italiyada vujudga kelgan.

- **BOSH BEZAK** – kitoblarning ichki bezagi.

- **BAG‘DOD MINIATURASI** - arab-mesopotamiya minia-tyurasi – X-XIII asrlarda arab qo‘lyozmalariga ishlangan rasm va bezaklar, o‘sha zamondagi arab tasviriy madaniyati va san’atining rivojlangan turi. O‘rta asrlarga tegishli qo‘lyozma kitoblarga ishlangan miniaturalar bizgacha kam etib kelgan. Ular orasida Dioskoridning “Farmakologiya”si diqqatga sazovor. Bu kitobdagi miniaturalarni musavvir Ayudullox ibn Fazl yaratgan. Rasmlar qizil va to‘q ko‘k ranglarda ishlangan. Suratlarida shartli va ramziy belgilar mavjud. O‘rta asrlar arab yozuvchilari “Maqomat”lariga ko‘p miniaturalar ishlangan. Asarda bosh qahramon-shoir Abu Zayd sarguzashtlari, xalifaning tantanali qabuli, olimlar anjumani, karvonning yo‘lda

dam olishi, bayram marosimi, dengizdagi kema tasvirlangan. «Maqomat» qo‘lyozmasining bir necha nusxasi bizgacha etib kelgan. Musavvir Yahyo ibn Mahmud bezagan qo‘lyozmadagi rasmlar (Parijda saqlanadi). Asarda tasvirlanayotgan voqealar mazmunini ochib berish, odamlarning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Bog‘dod miniaturasining badiiy uslubi sodda, rasmlarda mayda va ikkinchi darajali bo‘laklar yo‘q.

- **BAROKKO** (ital. varocco – jimjimador, ajib, g‘alati ma’nosida) XVII-XVIII asrlarda bir qator Yevropa mamlakatlarida paydo bo‘lgan me’morchilik, haykaltaroshlik va tasviriy san’at uslubi.

- **BATALIYA JANRI** – (frans. bataille – jang, urish) – tasviriy san’atning jang, urush manzaralarini aks ettiruvchi turi. Asarlarda,, asosan, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan jang epizodlari tasvirlanadi. O‘rta asrlarda kitoblarga ishlangan anchagina miniaturlar ham bataliya janriga mansub. (Muhammad Murod, Samarqandiy, Behzod ijodida.) P.Bennkov, V.I.Ufimsev, S.F.Abdullayev, O.Tatevosyan va boshqa rassomlar bataliya janrining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar.

- **BEZAK** – biror narsaga ishlangan naqsh, ziynat, pardoz.

- **BUXORO MINIATURA MAKTABI** - Markaziy Osiyoda tarkib topgan miniatura yo‘nalishlaridan biri (XIV-XVII asr). Buxoro miniatura maktabining yirik vakili “umdat ul musavvir” nomini olgan Jahongir Buxoriy Pir Said Ahmad Tabriziyning ustozlari bo‘lgan, Tabriziydan esa Kamoliddin Behzod ta’lim olgan. Buxoro miniatura rassomligi an’analari Hirot mumtoz miniatura rassomligi maktabining tashkil topishiga ta’sir etgan. XVI-XVII asrlarda Buxoroda miniatura madaniyati va san’ati etuk davri kechadi. Abdulla, Mahmud Muzahhib kabi mashhur rassomlar shu davrda ijod qilganlar.

- XIX asrning ikkinchi yarmida Ahmad Donish ko‘p miniaturlar yaratadi. Buxorolik usta Nabi Hafizov 20-yillarda miniatura madaniyati va san’ati asosida plakatlar ishlagan. Usta Nasriddin Pochchayev esa miniatura madaniyati va san’ati an’analari 40–yillargacha davom ettirgan. Buxoro miniaturlaridagi bo‘yoqlarning rangi tiniq va yorqin, voqea va hodisalar ifodasi sodda, ba’zi asarlarda XIV - XV asrlar Markaziy Osiyo miniaturlarining ta’siri bor. Kishilarning qiyofasi, kiyimlari va uy-ruzqor buyumlari Markaziy Osiyoga xos. Miniatura butun sahifani qoplaydi. Ularda turli imoratlar, peshtoqlar afsonaviy tabiat manzaralari fonida tasvirlanadi. Tasvirlar ko‘pincha baland tepalik bilan tugallanadi, osmon moviy yoki oltin rangda. Gul va maysalar, bodomzor va shaftolizorlar rang-barang toshlar orasidan o‘tgan ariqlardagi suv kumush rangda. Asosiy qaxramonlardan tashqari, saroy amaldorlari, xizmatkorlar ham joy olib, ular bo‘layotgan voqeaga go‘yo tomoshabin kabi qarab turadilar.

- **BUKLET** – taxlam nashr, rassom, haykaltarosh ishlari, ko‘rgazma yoki biror badiiy asarning qisqacha tafsiloti, bu yaxlit bir varaq qog‘oz bo‘lib bir necha marta buklangan holda bo‘ladi.

- **BYUST** – (lot. vustun - kuydirish joyi, frans - qabr ustiga qo‘yiladigan

haykal) – odamning ko‘krakdan yuqori qismini tasvirleydigan haykal. Portret haykaltaroshligining qadimdan (Misr, Yunoniston, Rimda) ma’lum bir turi. Toshkentdagi “She’riyat bo‘stoni”da Bobur va Nodira, Furqat va Hamza, A.Qodiriy va G.G‘ulom, A.Pushkin, va boshqalarning byustlari o‘rnatilgan. O‘zbek haykaltaroshlaridan A.Ahmedov,. Q.Saloxiddinov, X.Husniddinxo‘jayevlar ham ko‘p byustlar yaratgan.

- **VATMAN** - vatman qog‘oz, chizma va rasm chizish uchun ishlatiladigan yuqori navli qalin oq qog‘oz.

- **VARAXSHA** - Buxoro yaqinidagi joy. Bu yerda III-IV asrlarda saroy qurilgan, uning devoriga bo‘rtma ganch naqshlar ishlashgan. Naqshlar odamlar boshini, hayvonlar, qushlar, baliqlar va har xil o‘simliklar shaklini ifodalagan bo‘lib ular juda jonli va ta’sirli chiqqan. Varaxsha saroyining devorlarida bo‘yoq rasmlar bo‘lib ular birinchi asrlardagi hind-eron uslubida talqin qilingan mifologik voqealarni aks ettirgan.

- **VERNISAJ**– ko‘rgazmaning ochilishi. Dastlab ko‘rgazmadan oldin rangtasvir asarlari sathiga lok berish degan ma’noni bildirgan. Bunday odatni fransuz rassomlari boshlab berishgan edi.

- **VITRAJ** - (fransuzcha vitva – deraza oynasi) oynadan yoki yorug‘lik o‘tkazuvchi boshqa materiallardan qilingan rangli rasm yoki naqshli kompozitsiya. Deraza, ba’zan eshik oynasi o‘rnida foydalaniladi. Vitraj naqshli yoki rasmlari unga yorug‘lik tushganda ko‘rinadi. Vitraj X asrda paydo bo‘lgan. Avvallari vitraj turli shakllardagi-rangli oyna parchalarini bir-biriga qo‘rg‘oshin xoshiya yordamida ulash yo‘li bilan ishlangan. Vitrajlar arxitekturada dekorativ unsur sifatida ham foydalaniladi. Toshkentda vitraj namunalari “Guliston” restorani zalida ko‘rish mumkin.

- **VITRINA** – kitoblar, eksponatlar, turli buyumlarning namunalari qo‘yilgan oynavand javon, deraza va har xil oynavand qutilar.

- **GALEREYA** - (frans. galeril) – turarjoy, jamoat, ma’muriy va maishiy binolar ichidagi uzun, tor yo‘lak joy. Binoning bir tomoniga taqab solingani uchun oynavand yoki peshayvon qilib quriladi. O‘rta asrlarda saroy va uylarning rasm va haykallar bilan bezatilgan yo‘laklar.

- **GANCHKORLIK** – amaliy bezak madaniyati va san’atining keng tarqalgan turi, o‘ymakorlik tarmog‘i. Ganchkorlik qadimgi sanatlardan biri. O‘yma ganchlar,, asosan, binolarning ichki qismidagi devorlar, namoyon, taxmon, tokcha, jonivonlarning yuqorisi sharofalar va boshqa joylarni bezashda ishlatiladi. Ganchkorlikda o‘yma naqsh metall kesiklar vositasida ishlanadi. O‘yilgan naqshning yo‘zi gul ganch bilan pardozlanadi. Pardozning turlari chok pardoz, pax pardoz, lo‘la pardoz va tabaqa pardozlardir. Ganchkorlik san’atida ham tarixan bir necha mustaqil maktab - Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg‘ona, Toshkent, Xiva maktablari tashkil topgan. Taniqli xalq ustalari - Usta Shirin Murod, Toshpo‘lat Arslonqulov, Rashid Jalilov, Shamsiddin Fofurov, Usmon Ikromov, Mahmud Usmonov, kabi etuk

ganchkor ustalar samarali ijod qilganlar.

- **GOTIKA**- gotika uslubi-asosan g'arbiy Yevropa mamlakatlari san'atida XII-asrdan vujudga kelgan, badiiy uslubning shartli nomi (Germaniyadagi gotlar qabilasi nomidan olingan). O'ziga xos jihatlari binolarning sinchlari ustunlardan va ular ustiga yo'nib o'rnatilgan ariqlardan iborat ekani, binolarning baland va keng bo'lishi, devor o'rnida ustunlardan foydalanilgani, bu ustunlar orasiga ulkan derazalar o'rnatilgani bino ichining yorug' bo'lishini ta'minlaydi.

- **GRAFIKA** (yunon. grafikus-tasvirlangan, aks ettirilgan)-tasviriy san'at turi. Unga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mazmunli rasmlar, plakatlar, markalar va shu kabilar kiradi. Grafika san'ati asarlari hajm jihatdan uncha bo'lmaydi va ko'pincha qog'ozda bajariladi. Grafika to'rt turga bo'linadi: dastgohli grafika, gazeta-jurnal grafikasi, plakat va amaliy (sanoat) grafikasi.

- **DIZAYN**- kundalik hayot, turmushda ishlatiladigan buyumlar, kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-ovoq, mebel va shunga o'xshash narsalarni qulay, chiroyli shakl va rangini, yangi shakl-shamoyil yaratish madaniyati va san'ati.

- **YODGORLIK** - qal'a, devor, mozor, bino, ibtidoiy odamlar yashab o'tgan makonlardir. San'atda tarixiy shaxslarga atab qo'yilgan haykal tarixiy voqealarni eslatib turuvchi monumental haykaltaroshlik asari.

- **YOG'OCH O'YMAKORLIGI** amaliy bezak madaniyati va san'atining qadimiy va keng tarqalgan turi, o'ymakorlikning bir sohasi. Yog'ochni o'yib, kesib, chizib, bo'rttirib, teshib, taxtacha yoki yog'och bo'laklarini bir-biriga ulab ishlanadi. Asrlar mobaynida O'zbekiston hududidagi shaharlarda o'zbek ustalari turli-tuman uslub va usullar yaratganlar.

- Yog'och o'ymakorligining ajoyib ko'rkam uslublarida Toshkentdagi Temuriylar Tarixi muzeyi, Navoiy muzeyi, jamoat tashkilotlari bino-larini va boshqalarni bezatilgan. Olimjon Josimjonov, Sulaymon Xo'jayev, Maqsud Josimov va boshqa o'ymakorlar shu san'at namoyondalaridir.

- **JANR** – (frans.- tur, ko'rinish). Tasviriy san'atda janr deyilganda, chegaralangan mavzuni o'zida aks ettiradigan san'at asarlari tushuni-ladi. Bular manzara - tabiat ko'rinishlari, portret - odam qiyofasi tasviri, natyurmort - meva, gul va buyumlar tasviri va h.k. Mazmunli suratlar ham o'z navbatida tasniflanadi: tarixiy, maishiy, harbiy, animalistik, interyer.

- **ZARGARLIK** - amaliy san'atning O'zbekistonda keng tarqalgan turi. Jimmatbaho tosh va metallardan ziynatlanib ishlangan buyumlar; yarim oy shaklidagi ziraklar, nozik o'yma gulli zirak va bilaguzuklar shular jumlasidagilar-san'at namunasi.

- **ZARDO'ZLIK** - amaliy san'atning bir turi bo'lib Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Kashtachilik san'atining bir ko'rinishi. O'tmishda zardo'zlik bilan erkaklar shug'ullanganlar, zar va kumush iplar bilan erkaklar to'ni, sallasi, do'ppilari, poyafzallari va ayollarni ko'ylak, kamzul, etikcha va haltachalariga bezak tiqilgan.

- **ILLUSTRATSIYA** lotn. illuustratsion -yoritish, koʻrgazmali tasvirlash-kitob, jurnal, gazeta matniga qoʻshimcha tarzda beriladigan, uni toʻldirishga, matn malumotlarini koʻz oʻngida gavdalantirishga xizmat qiladigan surat, rasm, reproduksiya, shuningdek, kartina, sxema va turli tasvirlar. Oʻzbekistonda V.Kaydalov, Ch.Axmarov, K.Basharov, L.Abdullayev va boshqa rassomlar bu sohada samarali ijod qilmoqda.

- **IMPRESSIONIZM** (frans. Imprezion – taassurot) - XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida tasviriy san’atda paydo boʻlgan oqim. K.Monening 1872-yilda yaratilgan “Taassurot. Chiqayotgan quyosh” kartinasi yangi oqimning paydo boʻlishiga asos boʻldi. Impressionist rassomlar( K.Mone, O.Renuar, E.Dega, K.Pissaro, B.Morizo va b.) Bevosita ochiq havoda kartina ustida ishlab, tabiat va u bilan organik bogʻliq boʻlgan inson qiyofasidagi oʻzgarishlarni jonli boʻyoqlar vositasida tasvirlash imkoniga ega boʻlgan.

- **INKRUSTATSIYA** (lot. Inkrustozio - qadash ) - buyum, binolarni badiiy bezash usullaridan biri. Yogʻoch, tosh, sadaf, suyak va boshqalarni qadab, yopishtirib naqsh, yozuv, tasvir hosil qilinadi. Bezatilayotgan material yuzasiga boshqa material yuzasiga boshqa material yoki shu materialning boshqa ranglisi oʻyib qadalladi.

- **IKONOGRAFIYA** – tasvir, rasm haqida izoh yoki maʼlum shaxs, hodisa voqea, mavzu tasvirlarini koʻrsatuvchi izoh va ularni muntazam ravishda oʻrganish.

- **INTERYER** frans. interior- ichki - badiiy bezalgan va jihozlangan xonaning ichki koʻrinishi. Interyerning xarakteri bino ichining koʻrinishi, hajmi, shakli, bezak xili, rangi, maʼnosi gʻoyasi va boshqa bilan aniqlanadi. Toshkentdagi koʻp binolar interyeri diqqatga sazovor: Navoiy nomidagi, Davlat akademik Katta teatr binosining vestibyoʻlida Navoiy «Xamsa»si asosida ishlangan panno.

- **KANDAKORLIK** qadimiy amaliy sanʼat turi, metall oʻymakorligi. XIX asrda Buxoro, Joʻqon, Margʻilon, Samarqand, Toshkent, Shahrisabz, Xorazm kandakorlik maktablari mavjud.

- **KARIKATURA** (ital. karikare– boʻrttirish) – ijtimoiy siyosiy va maishiy mavzuda hajv yoki kulgili qilib ishlangan rasm. Biror voqea yoki shaxsni tanqid qilish, achchiq kulgi tugʻdiradigan qilib boʻrttirib tasvirlanadi. Rasmga qisqa mazmundor matn ilova qilinadi.

- Tasviriy sanʼatda karikatura qadimdan mavjud. Ayniqsa, Uygʻonish davrida rivoj topdi (Leonardo da Vinchi). Hozirgi kunda karikatura tashviqotning muxim vositasi. Oʻzbekistonda karikatura rivoji, asosan, «Mushtum» satirik jurnali faoliyati bilan bogʻliq. M. Vorobeychikov, A. Nikolayev, D. Sinitskiy, N. Leushin, T. Muhamedov, N. Ibrohimov va boshqalar karikaturalari isrofgarchilik, xoʻjasizlik, poraxoʻrlik, aroqxoʻrlik kabi illatlarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega.

- **KARTINA** - mustaqil badiiy qiymatga ega boʻlgan tasviriy san’at asari. Romga tortilgan mato, metall yoki yogʻoch taxta, karton, qogʻozga moyli boʻyoq, akvarel, pastel, guash, tush, mum kabilar bilan dastgoh (molbert)ga oʻrnatib ishlanadi. Bu italyanacha “karta” soʻzidan boʻlib “qogʻoz” degan maʼnoni anglatadi.

Kartina soʻzining dastlabki maʼnosi – “nozik, chiroyli, bezatilgan qogʻoz”.

- **KASHTA** (fors-toj.- tortilgan, chizilgan) - amaliy bezak sanatining eng qadimiy va keng tarqalgan turi. Kashta guli (naqshi) qoʻlda (igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz bilan) yoki popop mashinasida, asosan, mato (buz, chit, satin, shoyi, baxmal, movut va boshqa) va charmga (yetik, maxsi, pichoq qini, kamar va boshqa) tikiladi. Matoga tiqilgan kashta turlari: palak, soʻzana, kirpech, zardevor, gulkoʻrpa, choyshab, parda, belbogʻ va boshqa badiiy buyumlar, shuningdek, doʻppi, koʻylakka kashta tikiladi.

- **KERAMIKA** (yunon. keramos - loy) - maxsus tuproq bilan turli minerallar aralashmasidagi loyni pishitib, undan tayyorlangan va keyin qattiq qizdirib hosil qilingan mahsulot. Ulardan roʻzgʻorda (sopol va chinni idishlar, buyumlar) keng foydalaniladi. Tarixiy manbalar Markaziy Osiyoda turli tuman rangda sirlangan sopol idishlar XIII-XII asrlarda keng tarqalganini koʻrsatadi. Oʻzbekistonning turli tumanlarida Toshkent, Samarqand, Fargʻona viloyatining Rishton qishloqlarida chinni, keramika zavodlari ishlab turibdi.

- **KULOLCHILIK** – hunarmandchilikning turli-tuman loydan idish, buyum, qurilish materiallari va boshqa ishlaydigan sohasi. Afrosiyobda va Markaziy Osiyoda VIII-XII asrda rivojlana boshlangan. Ayniqsa, oʻzbeklar va tojiklar yashaydigan shahar hamda qishloqlarda keng rivoj topgan. Koratogʻ, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Fijduvon, Toshkent, Rishtonda sopol idishlarning sirlab bezatishning oʻziga xos uslublari vujudga kelgan. 1930-yildan Toshkent eksperimental keramika, Samarqandda keramika ustaxonalari, Shahrisabzda ochildi. Turob Miraliyev (Toshkent), Rustam Egamberdiyev, Karim Hazratqulov (Shahrisabz), Uzoq Shermatov, Holmat Yunusov (Rishton), Muhammad Siddiq, Usmon Umarov (Fijduvon) singari oʻnlab atoqli kullollar yoshlarga taʼlim berdilar. Oʻzbekistonda kulolchilik ishlarini rivojlantirish, yoshlardan kulollar tayorlash kulolchilikni tadqiq etishda Oʻzbekiston xalq rassomi, sanʼatshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi.

- **KITOB BADIY BEZAGI** – kitob madaniyati va sanʼati. Jadimdan kitob toʻzish ishi bilan turli hunar egalari mashhur boʻlganlar. Kitobni sahifalarini tayyorlovchi hunarmand sahhof yoki varroq deb atalgan. Jildsoz charimdan jild yasagan. Tayyor qogʻoz sahifasiga xattot asar matnini koʻchirgan, lavvox esa uning sahifalarni rangli jadval bilan ziynatlagan. Kitobning birinchi ikki sahifasiga sarlavha (unvon) ishlangan. Unvon (titul) naqshlar bilan bezalgan, undan keyin kitob tasvir tushirish kerak boʻlsa, musavvirga topshirilgan. Musavvir oldin nozik chiziqlar bilan suratni ustixonini (kompozitsiyasini) chizgan, soʻngra rang bergan.

- **MUMTOZ SANʼAT** – koʻp-yillar mobaynida xalq tomonidan obroʻ qozonib, namuna sifatida qoʻllanilib kelinayotgan sanʼat.

- **KOMPOZITSIYA** – lot. – tuzilish, qurilish. Badiiy asarning tuzilishi, asarda tasvirlanayotgan narsalarning obrazlari va badiiy vositalarning muayyan maqsadga xizmat qiladigan tartibiy joylashishi va ularning muvofiqligi.

- **LAVH** (arab.- taxta) - eski maktablarda talabalar savod chiqarish uchun ishlatgan yozuv taxtasi o'qish vaqtida ustiga kitob ochib quyiladigan maxsus kursicha/ taglik/, odatda lavx taxtadan ishlanadi. Samarkandda Bibixonim masjidining hovlisida marmardan ishlangan katta lavx bor. Lavx kitobning boshiga bob va fasllarning avvaliga sahifaning eni bo'ylab solingan naqsh.

- **LITOGRAFIYA** (yunon. lito-tosh, grafiya) - yassi bosmaning qadimgi va keng tarqalgan usuli bosma qolip (shakl) maxsus litografiya toshida tayyorlanadi. Yozuv yoki tasvir tosh sirtiga relyefsiz litografiya tushi yoki qalami bilan tushiriladi. Maxsus litografiya qog'ozga ishlangan tasvirni tosh sirtiga ko'chirish ham mumkun. Tasvirli yozuvli tosh sirti kimyoviy ishlovdan keyin bosiladi.

- **MANZARA** peyzaj – ma'lum bir joyning ko'rinishi, tasviri; tasviriy san'at janri. Manzarada tabiat tasviri – dengiz ko'rinishlari (marina), daraxtzorlar, qirlar, shahar va qishloqlarning qiyofasi, umuman, turli joylarning tasviri orqali kishining his-tuyg'ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi. Manzara O'rta Asrlarda Xitoy, Yaponiya, Uyg'onish davrida esa Yevropada rivoj topdi. O'zbekistonda O'.Tansiqboyev manzara janridagi jozibador asarlari bilan mashhur.

- **MO'YQALAM.** Bo'yoq bilan ishlashga mo'ljallangan qurol, asbob. Ular dumaloq va yassi shakllarda bo'lib olmaxon, suvsar, bo'rsuq kabi hayvonlarning mo'ynasidan tayyorlanadi. Mo'yqalamni katta-kichikligini ko'rsatuvchi raqam, asosan, 12-20 gacha bo'ladi.

- **MEMORIAL** (lot. me'morialis–xotira) - ayrim shaxs va muhim tarixiy voqealar sharafiga barpo etiladigan arxitektura inshootlari, tasviriy san'at asarlari/ odatda, haykal, maqbara, qabr toshi, exrom va h.k.( Markaziy Osiyo, Jozog'istondagi me'moriallar )Amir Temur maqbarasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Ahmad Yassaviy maqbarasi/ bu kabi qurilishning dunyodagi mukammal namunalaridan sanaladi. Toshkentda Mustaqillik maydonida (“Motamsaro ona”) va boshqa joylarda o'rnatilgan me'moriallar monumental san'atning yuksak namunalari sanaladi.

- **MINIATURA** (lotin. Minium-kinovar qizil bo'yoq) - nafis ishlangan kichik hajmli tasviriy san'at asarlari: qo'l yozma kitoblarga ishlangan surat, manzara, grafik tasvirlar; emal, guash, akvarel va boshqa. bilan ishlangan kichik portret, suratlar. Markziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida ham qo'lyozma kitoblarga ishlangan tasvirlar qadimdan bor. Miniatura madaniyati va san'ati X-XI asrlarda rivoj topgan. Sharafiddin ali Yazdiyning “Zafarnoma”si hamda “Shayboniynoma”, “Fatixnoma”, “Tarixi Abulxayron” kabi tarixiy asarlar katta mahorat bilan miniaturada bezatilgan. Hirot miniatura maktabi, Tabriz miniatura maktabi, Isfahon miniatura maktabi, Buxoro miniatura maktabi, Hindiston miniatura maktablari mavjud bo'lgan bo'lgan. Rossiyada Mstera, Palex, Fedoskino, Holuy miniatura maktablari vujudga kelgan.

- **MINORA** (arab.- mayoq)- baland inshoot. Minoralar doira, ko'p qirrali, to'rtburchak shaklida bo'lib yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Samarqand, Xiva, Buxoroda yuksak mahorat bilan ishlangan minoralar saqlangan.

- **MIRAK NAQQOSH** (tug'-.yil noma'lum – vafoti 1507) - naqqosh,



musavvir. Kamollidin Behzodning ustozlari (uni Sayyid Mirak, Xoja Mirak deb ham atashgan). Usta xattot bo'lgan. Hirot jome masjidida kitoblarini, ko'pgina yirik binolarni bezagan.

- **MISGARLIK** - hunarmandchilikni qadimgi turi, misdan qurol, uy-ro'zg'or ashyolari, turli buyumlar yasash kasbi. Mis idishlar yasashning qadimiy markazi Buxoro bo'lgan. Misgarlar mis idishlarni, asosan, ikki xil yo'l bilan: eritib qo'yib yoki bolg'alab yasaganlar.

- **MODERN** uslubi (frans. moderne – eng yangi, eng zamonaviy) XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropa va Amerika madaniyati va san'atida vujudga kelgan uslubiy yo'nalishlardan biri. Tasviriy san'at, haykaltaroshlikda yangi izlanishlar bo'ldi, kartina va pannolar bino interyerining unsuri bo'lishiga ahamiyat berildi, bu ularning dekorativ ruhda yaratilishiga olib keldi. An'anaviy uslub, badiiy shakllardan yuz o'girib, yangi, zamonaviy uslub, shakllar yaratishda izlandilar; amalda realizmga qarshi qaratilgan, shaklbozlikdan iborat, tushunib bo'lmaydigan, shakli go'zallikka zid asarlar yaratdilar

- **MOZAIKA** - rang-barang qoshin, shisha, marmar, tosh, yog'och, metall parchalari bir-biriga zich terib yopishtirib ishlangan naqsh, tasvir monumental-bezak madaniyati va san'ati turlaridan biri. Binolarni bezashda, dastgohli asarlar yaratishda, amaliy san'at asarlarida foydalaniladi. Mozaika tayyorlashning ikki usuli ma'lum. 1-usulda tosh, shisha, sopol parchalari to'g'ridan-to'g'ri devorga, polga, shiftga sement yordamida yopishtirib suvab, tasvir hosil qilinadi /to'g'ridan-to'g'ri terish/. 2-usulda koshin, sopol parchalari, qog'oz, metall, yog'och taxtaga yopishtirib tasvir hosil qilinadi, keyin shu tasvir tegishli joyga ko'chiriladi /qayta terish/ usuli. Toshkentdagi «Bilimlar uyi», Respublika Amaliy san'at muzeyi mozaika bilan bezatilgan.

- **MOLBERT** (nem. Malbrett)- rassomlikda ishlatiladigan uch oyoqli dastgoh. Ramkaga tortilgan polotnoni yoki taxtani unga o'rnatib rasm chiziladi. Uch oyoq deb ham yuritiladi.

- **MONIY IBN FATAK** (216 – 276) - moniylik ta'limoti asoschisi; naqqosh va rassom. Moniy “Shoburakon”, “Kanz ul-axyo”, Jabborlar haqida, Sirlar kitobi, “Kefalaya”, “Bungohang” nomli asarlar yozgan. Turli rivoyatlarda Moniyning o'z davrida iste'dodli naqqosh, rassom sifatida tanilgani hikoya qilinadi.

- **MONUMENT** (lotin. monumentum – yodgorlik) - biror muhim tarixiy voqea, ulug' shaxs sharafiga yaratilgan hashamatli yodgorlik, arxitektura yoki haykaltaroshlik asari. Har qanday ob-havo sharoitiga chidamli materiallar ( marmar, granit, bronza va bosh) dan ishlanib, o'rnatilayotgan joyning muhiti bilan uyg'unlashtirib quriladi.

- **MUSAVVIR** /arab – rassom/- turli tasvirlar ishlovchi, rasm chizuvchi ijodkor.

- **NATURA** /lot. natura - tabiat/- rassom, shuningdek, fotograf, kinooperatorga tasvir ob'ekti bo'lib xizmat qiladigan real, borliq /inson, narsalar, manzara va h.k./ Naturani tanlash va tasvirlashda rassomning dunyoqarashi, ishodiy mahorati ko'zga

tashlanadi. Portret, manzara, natyurmort, etyud va boshq. naturaga asoslanib bajariladi.

- **NATURALIZM** /lot. naturalis - tabiiy/. San’atda XIX asrning II-yarmida vujudga kelgan oqim va ijodiy metod. Tasviriy san’atda naturalizm aniq shakllangan oqim sifatida ko’zga tashlanmaydi, lekin naturalistik tendensiyalar ko’pgina rassomlarning ijodida hukmronlik qildi, ular fakt va voqealarni fotograflardek aks ettirib, ikkinchi darajali detallarga ko’p o’rin berdilar. Fransiyada E. Mane /ayniqsa E.Zolya portreti, «Nana» kartinasi/ E.Dega, T.Steynlin, Germaniyada M.Lieberman, G.Bertels, Italiyada naturalizmga hamohang bo’lgan oqim – verizm vakili V.Vela o’z ijodlarida bir qarashdayoq ko’z ilg’agan hayot lavhalarini aks ettirishga intildilar.

- **NATYURMORT** /frans. nature morte - jonsiz tabiat/- tasviriy san’at janri. Gul, meva, qushlar, ro’zg’or buyumlari, ayrim mehnat qurollari, to’kin dasturxon tasvirlanadi. Natyurmort asarlari qadimdan ma’lum. Uning paydo bo’lishi tasviriy san’atda realistik uslubning qaror topishi va taraqqiyoti bilan bog’liq. Birinchi namunalari qadimga Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm mozaikalarida uchraydi. Respublikamizda V.Ufimsev, M.Kurzin, Z.Kovalevskaya, Yu.Yelizarov, N.Kashina, R.Axmedov, Yu.Taldikin kabi o’nlab natyurmort ustalari etishib chiqqan.

- **NAQSH** /arab – tasvir, gul / - unsurlari ma’lum tartibda takrorlanadigan geometrik shakllar, o’simlik, qush, hayvon, va boshqalarning sxematik tasviridan tashkil topadigan bezak. Ganchkorlik, yog’och o’ymakorligi, kandakorlik, tosh-taroshlikda ganch, yog’och, mis, toshga o’yib, qirqib, qog’oz, mato, yog’ochga tush, turli bo’yoqlarda chizib, bo’yab, kashtado’zlik va zardo’zlikda chok yordamida, kulolikda chizma bosma, qalami singari usullarda bo’yab, sirlab, shuningdek, koliplar yordamida hosil qilinadi. Gilamchilik va to’qimachilikda to’qib, inkrustatsiya va panjarada qadab ham naqsh ishlanadi.

- **NAQQOSH** – naqsh chizuvchi san’atkor. Ganch, yog’och tosh, metallga o’yib, ganch va yog’ochga chizib va bo’yab naqsh ishlovchi hunarmandlarga, shuningdek, kashtado’z, zardo’z, gilamchi, zargarlarga naqsh nusxalarini ishlab, chitga gul bosuvchi kosiblar uchun qolip tayyorlaydigan ustalarga ham naqsh chizib beradi.

- **NAQQOSHLIK** – naqsh chizish, naqsh yaratish kasbi, badiiy ijodkorlik, xalq amaliy madaniyati va san’atining qadimiy turlaridan biri. Me’morlik, kulollik, misgarlik, zargarlik, gilamchilik, kashtado’zlik kabi kasblarning taraqqiyoti naqqoshlikning ham rivojini taqozo etgan. Quykirilganqal’a, Tuproqqal’a, Ko’hna Urganch, Qadimgi Termiz, Ayritom, Varaxsha, Afrosiyob va boshqa joylardan topilgan naqsh namunalarining jozibadorligi ajdodlarimizning yuksak madaniyatidan darak beradi. Naqqoshlik avloddan-avlodga o’tgan, shogirdlar otalari, ustozlaridan o’rgangan naqsh namunalarini rivojlantirib borganlar.

- **NUSXA** /arab. - rasm/ xalq amaliy madaniyati va san’ati - kashtachilik, zardo’zlik, gilamchilik, to’qimachilik va boshqa tarmoqlarida qo’llaniladigan va ma’lum kompozitsiyaga asoslangan naqsh namunasi. Nusxa xalq ustalari va ularning

ijodiy fantaziyasi asosida vujudga kelib, davr taqozasi bilan o'zgarib, yangilanib boradi.

- **ORNAMENT** /lat. Ornamentum- bezak/ - naqsh, bezak. Geometrik shakllar bilan o'simlik yoki hayvonlar olamidani olingan tasvirlarni qo'shib, uyg'unlashtirib ishlangan bo'yoqli, o'yma yoki chizma naqsh, bezak.

- **PANNO** /lat. pannus – mato parchasi/ - bino devori yoki shiftining ramkaga olinib, rasm, naqsh, barelyef ishlangan qismi. Rasm moyli bo'yoq bilan tempera, freska, mozaika usullarida ishlanadi. A. Navoiy nomidagi Toshkent opera va balet teatri bezashdagi U. Tansiqboyev, M. A. Arinin, K.P. Cheprakov, usta Shirin Murodov, Tashpulat Arslonqulovlarning ishlari buning yorqin misoli bo'la oladi.

- **PANORAMA** /pan... va yunon. orama– ko'rinish/ - tevarak – atrofni qamrab olib aks ettiradigan kartina. Panoramada atrofdagi manzara, ro'y berayotgan voqea to'la aks ettiriladi. Illyo'ziya yordamida voqea jonli gavidalanmog'i uchun kartinaning oldiga binolar, turli joylarning maketi, narsalar, kishi, hayvonlarning shakllari ishlab joylashtiriladi. Panorama aylana bino ichidagi devorda bo'lib tomoshabinlar shu binoning o'rtasida maxsus qurilgan maydonchadan panoramani ko'radilar. Birinchi panoramani 1787-88-yillarda irlandiyalik rassom R. Barker Edinburgda yaratgan.

- **PEYZAJ** /frans. peuz– joy, makon/ - tasviriy san'at turlaridan biri. Manzara.

- **PLAKAT**/frans. plakard– e'lon/ - ko'rgazmali targ'ibot maqsadlariga xizmat qiladigan tasviriy san'at turi. Ko'pincha, qisqa matnli bo'ladi. Kundalik hayotning eng muhim mavzulari-da diqqatni tortadigan qilib chiziladi va bir yoki ko'p rangli bo'ladi. Plakat tasviriy san'atning eng ommabop turlaridan biri bo'lib maqsad-vazifasiga ko'ra cha-qiriq, hajviy, rek-lama, tashviqot, ta'lim-tarbiya plakat-lariga bo'linadi.

- **PLASTIKA** (yunon. Plastike – muloyim, go'zal) -haykaltaroshlik, bo'rttirib hajmli turli shakllar yaratishda uyg'unlik, ifodalilik tasvirlar yaratish madaniyati va san'ati.

- **PORTRET** - (frans.portreit - tasvir)- real borlikda mavjud bo'lgan yolg'iz, ikki yoki bir guruh kishilarning tasviri. Kishilarning boshi, beligacha yoki butun gavidasi to'la aks ettirilishi mumkin. Portret tasviriy san'atning eng muhim janrlaridan, rassom tomonidan chiziladi, haykaltarosh tomonidan o'yib, suvab (barelyef, gorelyef), yo'nib (marmar, yog'och va boshqa haykallar) tayyorlanadi. Grafikada chizib, bo'yab gravyura, ofort, ksilografiya kabi usullardan tayyorlanadi. Tasvir xarakteri jihatdan monumental, oddiy intim, hajviy portretlarga bo'linadi. Portretning avtoportret xili keng tarqalgan. Rassom yoki haykaltarosh naturadan yoki estalikdan, xotiralar asosida, arxiv materiallariga tayanib portret yaratish mumkin. Antropolog va haykaltarosh M.M.Gerasimov plastik rekonstruksiya asosida (kishilarning bosh suyaklarini ilmiy o'rganib) portretlar yaratishni asosladi (u yaratgan Amir Temur, Shohruh, Ulug'bek, Rudakiy portretlari diqqatga sazovor), hamda Malik Nabiyev tomonidan bajarilgan Amir Temurning rangtasviri etalon sifatida qabul qilindi. Portretning dastlabki namunalari Qadimgi Misrda yaratilgan.

Bizgacha saqlangan Ehnaton va Nefertiti portretlari (miloddan avval XIV-XV asrlar), musulmon dini jonli mavjudotni tasvirlashni mutlaqo man etgani tufayli islom aqidalari hukm surgan o'lkalarda portret rassomlik madaniyati va san'atida, haykaltaroshlikda rivojlanmadi. Behzod (Shayboniyxon, XV asr), Mahmud Muzahhib (Alisher Navoiy, XVI asr) kabi mo'yqalam ustalari faqat miniaturadagina portret namunalarini yaratdilar. O'zbek tasviriy madaniyati va san'atida portret janri, asosan, 30-yillardan boshlab rivojlandi. Portret janrida yorqin obrazlar yaratishdi. A.Abdullayev, S.F.Abdullayev, L.Abdullayev R.Axmedov kabi rassomlar samarali ijod qildi. 50-60-yillardan diqqatga sazovor portret namunalarini yaratdilar (Ch.Ahmarov «M.Turg'unboyeva portreti», M.Nabiyev «Abu Rayhon Beruniy», R.Axmedov «Keksa dehqon portreti», B.Boboyev «Rishtonlik usta Musa Ismoilov o'g'li», A.Abdullayev «Komil Yashin», V.Kaydalov «Alisher Navoiy», R.Choriyev «Kelin, Shohi so'zana», M.Musaboyev «Ulug'bek haykali», N.Qo'ziboyev «Yunus Rajabiy», M.Saidov «Hamza», shuningdek, T.Oganesov, A.Boymatov va boshqa san'atkorlarning ko'p sonli portretlari).

- **RANGLI KERAMIKA** – bo'yalgan sopol idish. Bronza davridan boshlab kishilar sopol idishlarni turli ranglar bilan naqshlaganlar. Markaziy Osiyoda rangli keramika VIII- asrda paydo bo'lgan. Idishlar qadimgi davrda qizil va qora, antik davrda ko'proq qizil, V-VII asrlarda kul rang, IX-XIII asrlarda oq, qizil, qora, oltin rang, XIV-XVI asrlarda och yashil rangga bo'yalgan.

- **RASSOM** – tasviriy san'at sohasidagi ijodkor. Qog'oz, karton, mato va boshq. Materiallar, shuningdek, devor va shiftlarga tasviriy san'atning turli texnikalarida chizib, bo'yab rasm chizuvchi kishi. Rassom inson faoliyati, hayoti uchun zarur bo'lgan har xil narsalarning shaklini, hajmini yaratishga, ularni did bilan bezatishga ham hissa qo'shadi.

- **REALIZM** – voqelikni badiiy ijodning turlariga xos maxsus vositalar bilan haqqoniy, ob'ektiv tarzda aks ettirish. O'zbekiston hududida yuksak darajaga ko'tarilgan miniatura madaniyati va san'atida realizm unsurlari ko'zga tashlanadi.

- **REKVIZIT** – (lot. pegistum- zarur)– natyurmortni tasvirlashda foydalaniladigan buyumlar majmui.

- **REKLAMA** – (lotin. reklamo - qichqiraman)- san'at asarlari va boshqalarni ommalashtirish maqsadida ma'lumot tarqatish. Uning matbuotda paydo bo'lishi U.Kekston (Angliya) va T.Renodo (Fransiya) nomi bilan bog'liq. Gazeta, jurnal, e'lonlar, shuningdek, vitrina, yorug'lik reklamalari, tovarlarni o'rab joylash, tovar va firmalar belgisi va boshqa hozirgi zamon reklama vositalaridir.

- **RELYEF** - (lotn. relyefo- ko'taraman) - haykaltaroshlikning bir turi. Shakl, tasvir fon (zamin)dan bo'rttirib yoki, aksincha, o'yib hosil qilinadi. Relyefning asosiy turlari: barelyef va gorelyef. Tasviriy san'atda qadimdan mavjud bo'lib binolarni bezashda, medal ishlash madaniyati va san'atida, metallga zarb berib bezak buyumlari ishlash va hokazolarda keng qo'llaniladi.

- **SAMARQAND MINIATURA MAKTABI** – Samarqandda shakllangan

miniatura uslubi. Asosan, temuriylar davrida vujudga kelgan. Rassomlar asosan, manzarani Markaziy Osiyo tabiatiga xos o'simlik, hayvonlarni va qushlarni chizganlar. Miniaturalarida ko'p figurali voqealar – jang va ov lavhalari, suhbat va shu kabilar ko'rsatilgan. Samarqandda tasviriy san'at qadimdan mavjud bo'lgani Afrasiyob devoriy rasmlaridan ma'lum. Turfon shahri(Sinszyan-Uyg'ur avtonom rayonida) arxeologlar topgan Moniy rasmlari bu yerda qadimdan tayyorlangan latif qog'ozga chizilgan. Temuriylar davrida devoriy rasmlar ishlash yanada avj olgan. Samarqand miniatura maktabining eng yirik vakillaridan biri Ustod Gung bo'lgan. Amir Temur saroyida yashab ijod etgan Xoja Abdulxay, Ustod Shamsiddin, Pir Ahmad Bog'ishamoliy, Junayd naqqosh va boshqa rassomlarning ayrim asarlarigina saqlanib qolgan. Xoja Abdulqodir Go'yanda musavvir, xattot, musiqa nazariyotchisi sifatida mashhur bo'lgan. Miniatura va devoriy rasmlarda Amir Temur yurishlari, uning elchilar, olimlar bilan suhbatlari, jang va ov lavhalari ifodalangan

- **SAN'AT** – arabcha atama bo'lib hayotdagi narsa va hodisalarni badiiy obrazli tarzda aks ettiruvchi ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi. U tasviriy va amaliy san'at, musiqa, me'morchilik, teatr, kino, badiiy adabiyotni o'z ichiga oladi.

- **SIMVOLIZM** – san'atda XIX asr oxirida XX asr boshlarida mavjud bo'lgan oqim. Simvolistlar simvolni – biror tushunchani, hodisani ifodalovchi yoki eslatuvchi shartli belgini badiiy ijod asosi hisoblab, mavjud olamni bilish, tushunishda u vosita bo'lib xizmat qiladi, deb qaraganlar. Simvolizm oqimi ob'ektiv haqiqatni bilish mumkinmas deyishdi. Simvolizm tasviriy san'atda «modern» uslubi bilan uzviy bog'liq bo'lib simvolist rassom, haykaltaroshlar, ularning o'zlari aytganlaridek, o'z asarlarida «bilib bo'lmaydigan, aql bovar qilmaydigan dunyoning illyo'ziyalarini ifodalaydilar», aslda esa tushunib, fahmlab bo'lmaydigan beo'xshov asarlar yaratdilar. XX asrda turli-tuman badiiy oqimlar (yekspressionizm, syurrealizm, futurizm va boshqalar)da simvolizmning ta'siri bo'ldi. Umuman, simvolistlar san'atni hayotdan uzoqlashtirishga, hayot haqiqatidan ko'z yumishga intildilar, badiiy asarni real borliqqa, asar tilini umumxalq tiliga qarama-qarshi qo'yidilar.

- **SOUS** – yumshoq qalam. Shu qalam yordamida ishlangan asar ham «sous» deyiladi.

- **DASTGOHLI SAN'AT**– mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan tasviriy san'at asarlarining umumiy nomi. Uch xilga bo'linadi; dastgohli rassomlik, dastgohli haykaltaroshlik, dastgohli grafika. Tasviriy san'atning mozaika, freska, relyef kabi asarlari arxitektura inshootlari bilan bog'liq bo'ladi, illustratsiya kitob bilan bog'liq, dastgoh (molbert, haykaltaroshlik dastgohi)da yaratiladigan kartina, grafika asarlari, haykallar esa mustaqil ahamiyatga ega bo'ladi. Uyg'onish davridan, ayniqsa, XIX asrdan keng rivoj topa boshladi.

- **STEK** – yog'ochdan ishlangan haykaltaroshlik quroli.

- **SUYAK O'YMAKORLIGI** – amaliy bezak madaniyati va san'atining qadimiy turi. Mamont, morj, fil va boshqa hayvonlar suyaklari ko'p uchraydigan joylar (masalan, Yoqutiston, Hindiston, Okeaniya, Afrika)da suyakni o'yib naqsh,

tasvir ishlash, kesib va yo'nib turli haykalchalar, buyumlar tayyorlash qadimdan rivoj topgan. Geografik sharoit tufayli suyak o'ymakorligi Markaziy Osiyoda rivojlanmagan.

- **SUPERMUQOVA** – ustmuqova, sarmuqova. Kitob muqovasi ustidagi yupqa bezakli qog'oz.

- **SUJET** (frans. Suiet - predmet)- tasviriy san'at asarida aks ettirilgan ma'lum voqea, vaziyat. Voqea mazmuni o'z aniq ifodasini topgani bilan (ayniqsa maishiy, tarixiy janrga mansub tasviriy san'at asarlarida) ko'zga tashlanib turadi.

- **SO'ZANA**, so'zani (fors - toj. - igna bilan tiqilgan) - matoga kashta tikib tayyorlanadigan ba-diiy buyum. Odatda xonani bezatish uchun devorga tutiladi. Satin, shoyi, baxmal singari matolarga turli choklarda kashta tikib tayyorlanadi. Matoning rangidan kashta foni sifatida foydalanilishi bilan palakdan farq qiladi. So'zananing kashta gullari, asosan, o'simliksimon, islimiy naqshlardan iborat bo'lib ko'pincha o'rtasiga doirasimon gul tikiladi, atrofi hoshiyalanadi. So'zana tikish O'zbekiston va Tojikiston hududlarida qadimdan rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Fargona, O'ratepa va boshqa joylarda tayyorlangan so'zanalar, kashtasining o'ziga xos tiqilish uslublari bilan san'atshunoslar diqqatini tortib kelmoqda. XX asrda, ayniqsa, 40-yillardan keyin so'zanalarning kashtasi mashinada tikila boshlandi.

- **TARIXIY JANR** – badiiy san'atning asosiy janrlaridan biri: san'atkor yashagan zamonga nisbatan yaqin va uzoq o'tmish materiali asosida yaratilgan asarlar turkumi. San'atda tarixiy janr portret (tarixiy shaxslarning tasvirlari, guruh portret, tarixiy kompozitsiyalar), manzara (tarixiy voqealar aks ettirilgan, umuman, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan manzaralar), ayniqsa bataliya janri bilan chatishib ketadi. O'zbek tasviriy madaniyati va san'atida Ch.Axmarov, R.Axmedov, M.Saidov, M.Nabiyev, R.Choriyev va boshqa o'zbek rassomlari tarixiy janrda diqqatga sazovor kartinalar yaratdilar.

- **TASVIRIY SAN'AT - san'at turi.** Rassomlik madaniyati va san'ati, grafika, haykaltaroshlik va foto madaniyati va san'ati sohalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at real borliqni ko'rgazmali obrazlarda, mavjud narsalarni ularning tabiiy shakli, o'rni va boshqalarni o'ziga o'xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi, predmetlarning hajmi, o'zaro qanday masofada joylashgani va boshqalar to'g'risida tomoshabinda tasavvur hosil qiladi. Tasviriy san'atning eng qadimiy va keng tarqalgan sohasi rassomlik madaniyati va san'ati bo'lib unda real borlikdagi voqea va predmetlar turli-tuman ranglardagi bo'yoqlar yordamida aks ettiriladi. Rassomlik madaniyati va san'ati vazifasiga ko'ra bir necha turga bo'linadi: monumental rassomlik (panno, freska, devoriy rasmlar), bezak rassomligi (tasvir, naqsh, bezak madaniyati va san'ati predmetlari – mato, buyum, idish, taqinchoqlar, badiiy buyumlarga va boshqalarga ishlanadigan bezaklar), dekoratsiya madaniyati va san'ati (teatr rassomligi), dastgohli rassomlik (mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan asarlar, miniatura (qog'ozga, kitob sahifalariga, pyergamentga, pape-mashe, bezak

buyumlariga, taqinchoqlarga ishlanadigan kichik hajmli rasmlar, tasvirlar)). Asar mazmuniga, tasvirlanayotgan predmet va voqealarning turiga qarab – tarixiy janr, maishiy janr, bataliya janri, portret, animalistika janri, manzara, marina, natyurmort, allegoriya, mifologik va diniy janrlarga bo‘linadi.

- Rassomlik madaniyati va san’atining texnikasi deganda asar yaratish jarayonida foydalaniladigan vositalar nazarda tutiladi. Moybo‘yoq rassomligi, bo‘yoqni suvda eritib, xo‘l yoki quruq suvoqqa ishlanadigan rassomlik, tempera, elim, enkaustika, emal, guash, akvarel, pastel, silikat rassomligi, keramika rassomligi kabi turlarga bo‘linadi. Mozaika va vitraj rassomlik madaniyati va san’atida alohida o‘rin eg‘allaydi.

- Grafika o‘z tasvir vositalariga ko‘ra, badiiy-tasviriy asarlarni o‘z ichiga oladi. Grafika asarlarida tasvir, asosan, oq, ba‘zan rangli qog‘ozlarga, shuningdek, pyergament, mato, taxta, yog‘och, metall, plastmassa va boshqalarga ishlanadi. Badiiy ifoda vositasi – kontur chiziq, shtrix, dog‘, soya va yorug‘lik tushayotgan tomonni munosib rang berib ifodalash (svetoten). Tasvir - qalam, pero, mo‘yqalam, bur, ko‘mir bilan ishlanadi. Ranglardan – akvarel, guash, pastel. Ishlatish vazifasiga ko‘ra grafika – dastgohli grafika, kitob va gazeta-jurnal grafikasi, amaliy grafikasi (guvohnoma, diplom, marka, afisha, etiketka, sanoat grafikasi va boshqalar), plakatga bo‘linadi.

- Grafika texnikasi 2 qismga – rasm va bosma grafikaga bo‘linadi. Rasm madaniyati va san’ati grafikaning eng qadimiy va keng tarqalgan qismi bo‘lib rivojlanish tarixi ibtidoiy san’at namunalariidan boshlanadi. Bosma grafika (gravyura, litografiya) ko‘p nusxada nashr qilinadi.

- Haykaltaroshlikda asar haykalbop materiallarni shaklga tushirib (tosh, yog‘och, suyak, metall kabi qattiq materiallarni yo‘nib, o‘yib, zarb berib ishlab: plastik materiallarni chaplab-epishtirib, suvab: metall, gips, loy kabilarni quyib-qotirib) tayyorlanadi. Haykaltaroshlikda, asosan, inson obrazi yaratiladi, jonivor, qisman o‘simliklarning shakli ishlanadi. Haykaltaroshlik ishlanishi jihatdan 2 xilga - hamma tomoni naturaning asliga o‘xshatib ishlanadigan mukammal shaklli haykal va bir tomondan qaraladigan relyefga bo‘linadi. Vazifasiga ko‘ra – monumental, monumental-bezak va dastgohli haykaltaroshlikka bo‘linadi.

- **TERRAKOTA** (lot. Terra – yer va cotta - qizdirilgan) – kulollikda ishlatiladigan loy va shunday loydan tayyorlab olovda qizdirilgan mahsulot, sopol. Ro‘zg‘orda (idish va buyumlar), haykaltaroshlik va qurilishda (sopolak, parchin, arxitektura detallari) ishlatiladi. Terrakota tayyorlash uchun, odatda, tarkibi va rangi bir hil tuproq tanlanadi. Shakl berishda yog‘och va gips qoliplar ishlatiladi. Koshinning ayrim xillari ham terrakotadan tayyorlanadi.

- **TITUL** (lot. titulus – yozuv, izoh) – kitob, jurnal va boshqalarning birinchi sahifasi. Unda muallif ismi va familiyasi, kitob nomi, nashriyot nomi, nashr joyi, -yili ko‘rsatiladi.

- **TOSH O‘YMAKORLIGI** – amaliy bezak madaniyati va san’atining keng

tarqalgan turlaridan biri. Toshni o'yib yozuv, naqsh, tasvir relyef hosil qilib o'yib qirib ishlanadi. Ishlatish vazifasiga qarab, yumshoq (gips-tosh, talqohlorit, oxaktosh va boshq.), o'rtacha (malaxit, marmar va boshq.), qattiq (nefrit, lazurit, yashma va boshq.) toshdan foydalaniladi. Markaziy Osiyoda yassi relyefli tosh o'ymakorligi rivoj topgan. Toshtaroshlik bilan shug'ullanuvchi ustalar XX asr boshlarigacha toshni kesish, yo'nish va bezash ishlarini ibtidoiy usullarda bajarganlar, ularning ish qurollari ham yog'ochsozlar, yog'och o'ymakorligi qurollariga juda o'xshash bo'lgan.

- **TURK MINIATURASI** – Turkiyada XV-XVIII asrlarda rivoj topgan tasviriy san'atning asosiy sohasi. Islom dini jonli mavjudotni tasvirlashni man etgani tufayli Turkiyada tasviriy san'at rivojlanmadi. Rassomlar kitob bezagini ishlashda faqat miniatura sohasidagina ijod qila oldilar. Bu davrda Turk miniatrasining o'ziga xos uslubi shakllandi. XVI asrlarga kelib Turk miniatrasini Sharq va ular tasviriy madaniyati va san'ati ta'sirida rivoj topa boshladi. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Nizomiyning «Xusrav va Shirin» dostoniga ishlangan miniatralar, XVI asrning II-yarmida sulton Murod III uchun yaratilgan «Shahan-shohnoma» xronikasi, 1550-90-yillar orasida yozilgan «Xunarnoma» miniatralari diqqatga sazovor. XVI asrda eng iste'dodli turk musavviri Usmon samarali ijod etdi (u «Xunarnoma» ga yaratgan 160 miniatra saqlangan), «Muso-firxona», «Shahar kamali», «Murod I ning o'ldirilishi», Turk Behzodi deb nom chiqargan Nigoriy (yoki Rais Haydar) o'z ijodida realizmga intildi, uning portretlari (Sulaymon I portreti) naturadan chizilganga o'xshaydi. Bu davrda Bobo Naqqosh, Shayx Mustafo, Tojiddin Girixbandiy ijod qildilar. XVII asrda Qalandar («Odam Ato va Momo Xavoning Bixishtdan haydalihi»), Naqshiy (Mulla Xayoliy portreti, Mexmed II va astronom Ali Qushchi), Ahmad Mustafo kabilar turli mavzularda miniatralar yaratdilar. XVIII asr miniatrachilar orasida Abdulla Buxoriy («Turk yigiti portreti») ajralib turadi. Turk miniatrasini mavzuli boyiligi, jang lavhalari va saroy hayoti tavsifidan tashqari shahar va qishloq hayoti ham keng aks ettirilgani, realistik tasvirga intilish kuchliligi, ko'p figurali ko'rinishlar, masofa to'g'risida tasavvur berish, ko'p ko'rinishli tasvirlar ko'pligi bilan farqlanadi.

- **TUS** – ohang, ranglarga nisbatan ishlatiladi.

- **TUSH** (frans. touche) - vaqt o'tishi bilan rangini o'zgartirmaydigan qora bo'yoq. Suv qo'shib suyo'ltirilsa, kul rang tus oladi. Bo'yoq hosil qiluvchi toshko'mir moddalaridan tayyorlanadigan qizil, yashil, ko'k va boshqalar. Rangli tush ham bo'ladi. Sharq mamlakatlari, ayniqsa, Xitoy, Koreya, Yaponiyada qadimdan foydalanilgan. XV - XVII asrlarda Ovropaga tarqalgan. Tush chizmachilikda, grafika asarlari yaratishda, xat yozishda ishlatiladi

- **UFQ, gorizont** (yunon. Horizo - chegaralayman) – ochiq joyda er yuzasining ko'rinadigan chegara qismi yoki er yuzasining osmon sferasi bilan kesishgan qismi. Tasviriy san'atda ufq chizigi ko'z balandligida joylashgan faraziy tekislik.

- **FRESKA** (ital. Fresko – yangi, qurimagan) - bo'yoqni suvga yoki ohak qo'shilgan suvga qorib yangi, qurimagan suvoq ustiga ishlanadigan rassomlik madaniyati va san'ati asari. Qadimdan devoriy rasmlarning asosiy texnikasi bo'lib



kelmoqda. Suvoq, odatda, o'chgan ohakka ikki hissa kum qo'shib tayyorlanadi, suvoq qurigandan keyin uning yorilib ketmasligi ta'minlanadi. Ohak bilan qo'shilganda aynimaydigan, shuningdek, vaqt o'tishi bilan nur ta'sirida buzilmaydigan bo'yoqlardan foydalaniladi. Freska uchun suvoq va bo'yoq tayyorlashning turli usullari mavjud. Freska rassomdan katta mahorat, tezkorlik talab qiladi, tasvir qisqa vaqt ichida suvoq qurimay turib tayyorlanishi kerak.

- **XATTOT** - chiroyli yozadigan va naqsh ishlaydigan shaxs.
- **SHABLON** (nem. Schablone - namuna) – bir shakldagi narsalar tayyorlash uchun yasalgan namuna: ayrim tayyor buyumlarning shaklini tekshiradigan moslama, asbob.

- **SHARJ** (frans. Charge – bo'rttirish) – biror hodisa, narsa, ayniqsa kishini hajv yoki hazil qilib karikatura shaklida tasvirlash. Kishilar, odatda portretiga o'xshatib, bir jihati bo'rttirib fosh etiladi, hazil qilinadi, ba'zan narsalarga, hayvon, qushlarga o'xshatiladi va h.k. Moybo'yoq, grafika, haykaltaroshlikda sharj qilinadi, ayniqsa grafik sharj keng tarqalgan. O'rtoqlik sharjlari samimiy, yaxshi niyat bilan do'stona hazil mazmunida bo'ladi.

- **SHRIFT** (nem. Schreiben – yozmoq) - yozuvning alfavit tizimida barcha harf, raqam va belgilarning grafik shakli. Shrift chiziqlarining yaqqolligi (harflar asosiy chiziqlari bilan tutashtirish shtrixlari yo'g'onligining nisbati)ga, chiziqcha (zasechka)larning borligi va ularning shakliga qarab bosmaxona shriftlari, asosan, guruhlariga bo'linadi. Bosmaxona shriftlari yozilish shakliga, ya'ni qiyaligiga qarab to'g'ri, kursiv, qiya, normal, ensiz, enli: oddiy, yarim qora, qora shriftlarga bo'linadi. Yozilish shakli bir xil bo'lgan shriftlar turli kegdagi shriftlarga bo'linadi: kegli va yozilish shakli turlicha, lekin yozilish xarakteri bir xil bo'lgan shriftlar shrift garniturasini deb ataluvchi bitta guruhga birlashadi. Har bir garnitura o'z nomiga ega, masalan, jurnalnaya, shkolnaya va h.k..

- **SHTRIX** (nem. Strich – chiziq)
- **EGARCHILIK** – egar-jabduq yasash kasbi. Hunarmandchilikning qadimiy turlaridan bo'lib,, asosan, yirik shaharlarda rivojlangan. O'tmishda egar-jabduq oddiy kustar usulda maxsus do'konlarda tayyorlangan. Ustalar, asosan, tesha, bolta, randa, arra va boshqa asboblardan foydalanganlar. Tol, urik, bexi, olma, yong'oq, chinor, archa yog'ochlari asosiy material hisoblanib, mix o'rniga xom teridan qirqib tayyorlangan ip ishlatilgan.

- **EKSLIBRIS** (lot. exlibris – kitoblardan) - kitob belgisi, kitobning egasi ko'rsatilgan bo'ladi. Muqovaning ichkari tomoniga yopishtiriladi. Gravyura, litografiya usullarida tayyorlanadigan ekslibrislar keng tarqalgan. Rassomlar mahorat bilan ishlab bergan ekslibrislar badiiy qimmatga ega bo'ladi. A.Dyurer, X.Holbeyn, O'zbekistonlik rassomlardan V.Kaydalov, Q.Basharov va boshqa ekslibrislar yaratganlar.

- **EKSPOZITSIYA** (lot. Expositio - bayon etish, ko'rsatish )- muzey va ko'rgazmalarda namoyish etiladigan narsalar, materiallarning ma'lum bir tizimda

joylashtirilishi va shu materiallarning o‘zi.

- **EKSPONAT** (lot. Expono – ko‘rgazmaga qo‘yilgan) – muzey va ko‘rgazmalarda namoyish qilinadigan narsa.

- **EKSTERER** (lot. Exterior - sirtqi, tashqari), hayvonlar ekstereri- hayvon tanasining tashqi ko‘rinishi va tana qismlarining joylashuvi.

- **EMBLEMA** (yunon. emblema) – biror tushuncha, g‘oyani ifodalovchi shartli yoki simvolik tasvir /masalan, oq kaptar tasviri – tinchlik emblemasi/.

- **ESKIZ** (frans. esquisse) - xomaki tasvir. Badiiy asar, bino, yaratish jarayonida muallif ko‘zda tutgan maqsadini, uning shakli, holati, ko‘rinishini gavdalantiradigan tasvir. Ko‘pincha rasm bilan ifodalanadi. Moybo‘yoq bilan ishlangan, haykaltaroshlik eskizlari ham bo‘ladi.

- **YAZD MINIATURA MAKTABI** – XV asrda Yazd shahrida shakllangan miniatura uslubi. Sheroz miniatura maktabiga yaqin. 1409-yilda yaratilgan «She‘riyat antologiyasi» va Nizomiy «Xamsa»sining 1446 - 1447-yillarda ko‘chirilgan qo‘lyozmasiga ishlangan miniaturlar 1445-yilda ko‘chirilgan «Shohnoma» qo‘lyozmasi miniaturlari shu maktabga mansub. Amir Xisrov Dehlaviyning Bokuda saqlanayotgan «Xamsa»si miniaturlari ham shu maktab mahsuli sifatida diqqatga sazovor. Uni 1445-96-yillarda yazdlik xattot Hasan ibn Kamoliddin al-Yazdiy ko‘chirgan /unga 26 miniatura ishlangan/. Tasvirlar ko‘pincha issiq koloritda aks ettirilgani, kishilarning kiyimlarida kontrastlikka ahamiyat berilgani, tasvirning sodda, lekin nafis va tiniq ifodalangani bilan Sheroz miniaturlaridan farq qiladi.

- **O‘YMAKORLIK** – amaliy bezak madaniyati va san’atining eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan. Yog‘och, ganch, metall, tosh, suyak, lak, terrakota va boshqalar o‘yib, yo‘nib, badiiy shakl beriladi, ulardan bino qismlarini bezashda, uy-ruzg‘or buyumlari, turli asbob, qurollarni nafislashtirishda, kichik haykaltaroshlik asarlari yaratishda qo‘llaniladi. Mustaqil sohasi gliptika va o‘ymakorlikda foydalanilgan materialga ko‘ra yog‘och o‘ymakorligi, ganch o‘ymakorligi, tosh o‘ymakorligi, metall o‘ymakorligi, suyak o‘ymakorligi kabi xillari mavjud.

- Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekiston hududida juda qadimdan rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, Xiva obidalari, shuningdek, Termiz, Shahrisabz, Qo‘qon shahar va qishloqlarida saqlangan arxitektura yodgorliklari ganch, yog‘och, tosh o‘ymakorligi bilan jozibador bezatilganki, bezashning turli usul va uslublari o‘ymakorlik madaniyati va san’atining yuksak darajaga ko‘tarilganini namoyish etadi. Bu sohada ayniqsa, Usta Shirin, Murodov Shamsiddin çafurov, Quli Jalilov, Toshpulat Arslonkulov, Mahmud Usmonov kabi ganch o‘ymakorlari, Ota Polvonov, Sulaymon Xo‘jayev, Usmon Zufarov, Maqsud Qosimov, Ne‘mat Ibrohimov, Qodirjon Haydarov, Nurullo Nazrullayev kabi yog‘och o‘ymakorlari qadimiy an‘analarni yangi davr ruhi bilan boyitib, o‘ymakorlik madaniyati va san’atini rivojlantirdilar.

- **QAZVIN MINIATURA MAKTABI** –XVI asrning 70-80-yillarida Qazvinda shoh Ismoil II davrida shakllangan miniatura maktabi. Qazvinda 1576-yilda

kitobxona tashkil etildi. Mashxad va Tabrizdan kelgan naqqosh, xattot, musavvirilar ijodiy mehnat qilib, Qazvin miniatura maktabini vujudga keltirdilar. Bu maktab miniaturalarida harakat tasviriga ko'p ahamiyat berilgani, rasm nozik chizilgani, kompozitsiyalarda kishilar miqdori kam tasvirlangani bilan ajralib turadi. Qazvin miniatura maktabining yirik vakillari – Muhammadiy va Shayx Muhammad. Shayx Muhammadning «Yigit to'tikush bilan», «Yigit kitob va gul bilan» miniaturalarida, shuningdek, u yaratgan deb taxmin etiladigan Jomiyning «Tuxfat ul-ahror» kitobiga ishlangan miniaturalarda maishiy lavhalar jonli, rangdor ifodalangan, Muhammadiy esa oddiy kishilar dehqon, xizmatkorlarni ko'proq aks ettirishga intilgan.

- **QALAM** (yunon. kalamos-qamish so'zidan – ko'mir, qo'rg'oshin, grafit, quruq bo'yoqdan qilingan sterjen). Sharq xalqlari, jumladan, Markaziy Osiyoda xattotlar siyoh bilan yoziladigan qamish qalamlardan foydalanganlar. 1790-yili fransuz olimi N.Konte yog'och qalam ixtiro qildi. Ayni vaqtda chex olimi Y.Gartmut maydalangan grafit va gil aralashmasidan yozuv sterjenlari tayyorlashni taklif etdi. Bu metod hozirgi qalam ishlab chiqarish texnologiyasining asosini tashkil etadi. Qalamning maxsus turlari – sangina va pastel. Qattqlik darajasi bir necha xil bo'lgan grafitli qalamlar chiqariladi: qattqlik darajasi M/yumshoq, T / qattiq va MT /qattqligi o'rtacha/ harflari hamda harflar oldidagi raqamlar bilan belgilanadi.

- **QOG'OZ** - o'simlik tolalaridan yupqa varaq tarzida tayyorlanadigan material. qog'oz dastlab (II asrda) Xitoyda olingan. Say Dun o'simlik tolalarining suvli suspenziyasini sim turdan o'tkazib, qog'oz olishga muyassar bo'lgan. qog'oz olishning bu usuli ko'p vaqtlargacha sir saqlab kelindi. VI asr boshlarida bu usul Yaponiyada joriy qilindi. VI-VIII asrlarda qog'oz ishlab chiqarish Osiyodagi boshqa mamlakatlarga tarqaldi. Keyinchalik qog'oz tayyorlash arablar orqali Eron va Shimoliy Afrika, Kiprga, keyinroq esa Ispaniya, Marokko va boshqa mamlakatlarga yoyildi. Qog'oz bungacha yozuvda ishlatib kelinayotgan PAPIRUS va boshqa materiallarni siqib chiqardi. Qog'ozning 600 dan ortiq turi bor. Qog'oz qanday maqsadlarda ishlatilishiga ko'ra: qalinligi, kulliligi, namliligi, rangi, oqligi, silliqiligi, singdirish qobiliyati, havo, bug', yog' o'tkazmasligi, dielektrikligi va boshqa xossalari bilan xarakterlanadi. Klassifikatsiyaga ko'ra qog'oz 11 sinfga bo'linadi: matbuot, yozuv, chizmachilik-rasmchilik, elektr izolyasion, papiros, shimuvchi, apparat, yorug'lik sezgir, ko'chirish, o'rov, sanoat – texnika. Hozirgi davrda qog'ozlar matodan emas, yog'ochdan ishlab chiqariladi. Qog'ozni yupqa, qalin, tekis, g'adirbudir turlari mavjud. Kitob, ro'znoma bosiladigan, jurnal, daftarga mo'ljallangan qog'ozlarning turlari boshqa-boshqa bo'ladi. Qalam va akvarel buyoqlari bilan chizishda vatman, yarim vatman deyiladigan qattiq, tig'iz qog'ozlar ishlatiladi.

- **QOMAT** – kishilarning umumiy ko'rinishi.

- **QO'SHIMCHA RANGLAR** – ranglarni aralashtirganda hosil bo'ladigan omuxta rang yoki rangning tusi, ohangi, to'qligi, ochligi, qizil, sariq zangori ranglarni qo'shish orqali olingan ranglar.

- **HAYKAL** – tasviriy san'at asari. Tosh, yog'och, suyakni, yo'nib, metall,

beton, gipsni qolipga quyib, qotirib, loyni shaklga solib, keyin qizdirib (sopol, chinni haykalchalar tayyorlashda) ishlanadi. Monumental (ochiq havoda, ko'pchilik e'tiboriga havola qilinadigan), dastgohli (binolar ichida o'rnatiladigan), bezak (arxitekturada bog'-parklarda)- juda kichik hajmda ishlanadigan uy ichida bezak vazifasini o'taydigan xillari bor).

- **HAYKALTAROSHLIK** - tasviriy san'at sohasi. Tasvirlanadigan narsani hajmli, uch o'lchovli (uzunlik, kenglik va balandlikka ega) qilib aks ettirish tamoyiliga asoslangan san'at turi. Asosan, inson, qisman hayvon va qushlar, tabiat (manzara), narsalar (natyurmort) ifodalanadi. Haykaltaroshlik asarlari, asosan, 2 turga: hamma tomonidan ko'rish imkoni bo'lgan, mukammal shaklli haykalga va bir tomondangina ko'riladigan relyefga bo'linadi. Haykalda kishining boshi, beligacha (byust), tizzasigacha, butun gavdasi (bularda aniq shaxs aks ettirilgan bo'lsa - portret), ikki yoki bir necha kishi, tors ishlanishi mumkin. Relyefning hajmi va shakli uning o'rnatiladigan joyiga, qanday maqsadda xizmat qilishiga qarab tanlanadi, undan ko'pincha arxitektura (friz, fronton, plafon va boshqa.)da foydalaniladi. Relyefning past (barelyef), baland (gorelyef), tasvir fonda o'yib ishlanadigan xillari bor.

- Mazmuni va vazifasiga ko'ra haykaltaroshlik monumental, monumental bezak, dastgohli, juda kichik haykaltaroshlik asarlari, plaketka, medal, tanga, gliptika mahsulotlariga bo'linadi. Haykaltaroshlik tarixi qadimiy. Qadimgi Misrda toshdan ulkan sfinkslar ishlandi, fir'avnlarning katta haykal va relyeflari yaratildi. Janubiy Osiyo mamlakatlarida, ayniqsa, Hindiston, Xitoyda budda ibodatxonalarida ulkan haykallar bilan bezatilgan.

- O'zbekistonda haykaltaroshlik sohasida, ayniqsa, 50-yillardan diqqatga sazovor asarlar yaratila boshladi. F.Grishchenko, A.Ivanov, N.Krimskaya, D.Ryabichev kabi haykaltaroshlar monumental haykaltaroshlik, dastgohli haykaltaroshlik sohasida samarali ishladilar. 60-yillardan M.Musaboyev, D.Ro'ziboyev, A.Toirov, X.Husniddinxo'jayev, K.Saloxiddinov, M.Ivanov, A.Axmedov, Ya.Shapiro, A.Boymatov, N.Feodoridis, P.Ivanov kabi iste'dodli yoshlar etishib, zamondoshlarimizning yorqin obrazlarini yarata boshladilar.

- **HINDISTON MINIATURA MAKTABI** - O'rta asrlarda Hindistonda shakllangan miniatura uslublari. Devoriy rassomlik madaniyati va san'ati tushkunlikka uchragach, mamlakatning turli tumanlarida rivoj topgan (XI-XQX asrlar). Muhimlari:

- **GUJAROT** miniatura maktabi (XI-XVI asrlar)- miniaturalari diniy kitoblarga ishlangan illustratsiyalardan iborat. Ilk davrlarda palma barglariga chizilgan, matn ham yozilgan. XIV asrning 2-yarmidan qog'ozga ishlangan, oldingi sodda kompozitsiyalar ancha murakkablashgan, fonda arxitektura unsurlari manzara aks ettirila boshlagan. Gujarot shohlari davri miniaturalarida tasvir jonliligi, rasm tinikligi, bezak detallari ko'paygani ko'zga tashlanadi. Gujarot miniaturasi RAJPUT miniatura maktabining ilk davrlariga ta'sir ko'rsatgan.

- **RAJPUT** (yoki Rojastxon) miniatura maktabi (16-19-asrlar) – Rojastxonda

va Markaziy Hindistonda shakllanib rivoj topgan asosiy markazlari: Mevar, Marvar, Bundi, Kishangar, Malva va boshqa joylarda. Miniaturalar diniy mazmunda: Krishnaga e'tiqod (muhabbat bilan xudoning visoliga erishish) ifodalangan. «Ragi» (yoki «ragini») janri fasllarga, ob-havoga bag'ishlangan kuylarga illustratsiyalardan iborat, ularda tabiat ko'rki nafis aks ettirilgan.

- **HIROT MINIATURA MAKTABI** – XV asrda Hirot shahrida shakllangan miniatura madaniyati va san'ati uslubi. XV asrning boshlarida shahar hayoti va madaniyatining rivoji oqibatida nafis qo'l yozma kitoblarga talabning oshishi bu maktabning vujudga kelishiga imkon yaratdi. 20-yillarda Hirotga Tabrizdan Sayid Ahmad naqkosh, Hoji Ali musavvir, Samarqanddan mavlono Ja'far Tabriziy (Amir Temur uni Tabrizdan Samarqandga keltirgan edi) va boshqa musavvir, xattotlar taklif etilganidan keyin shakllandi. 1507-yilda Hirot Shayboniyxon tomonidan zabt etilguncha davom etdi. Hirot miniatura maktabining vujudga kelishi va rivojida XV asrning 1-yarmida Shohruh, uning o'g'li Gavharshoh, Boysung'ur, XV asrning 2-yarmida Husayn Boyqaro, uning vaziri Alisher Navoiyning e'tibori, homiyligi, muhim rol o'ynadi. Hirot miniatura maktabiga mansub asarlarda yaxlit bir uslub ko'zga tashlanmaydi, miniaturachilarning ijodiy individualligi seziladi, lekin, umuman, bu maktab miniaturalari asosiy e'tibor insonga qaratilgan tasvir fonida ko'rkam manzara (yashnab turgan bog'lar, suvi tinik jilgalar, ko'l, hovuzlar, qoshin bilan nafis bezatilgan binolar, serhasham interyerlar va boshqa.) rangdor aks ettirilgani bilan ajralib turadi. Ilk davrida Sheroz miniatura maktabi (XIV-XV asrlar), shuningdek, Tabriz miniatura maktabining ta'siri ko'zga tashlanadi. Sa'diyning «Guliston»iga 1427-yilda, Nizomiy «Xamsa» siga, 1431-yilda, 1429-31-yillarda Firdavsiyning «Shohnoma»siga, «Kalila va Dimna»ga ishlangan miniaturalar bu maktabning diqqatga sazovor asarlaridan. 15-asrning 1-yarmida ko'p sonli rassomlar orasida Mavlono Halil Mirzo Shohruhiy ajralib turadi. U ko'p figurali murakkab kompozitsiyalar, portretlar ustasi sifatida shuhrat qozongan. Keyinroq Behzod, Mirak naqqosh, Qosim Ali, Xo'ja Muhammad naqqosh, shoh Muzaffar kabi rassomlar yetakchi rol o'ynagan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик -ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак.Т. - «Ўзбекистон» - 2017
- Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.- «Ўзбекистон» - 2016
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018йил 28 ноябрдаги ПҚ-4038-сон “Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги” Қарори // [Электрон ресурс] // <http://www.lex.uz/docs/4084926>
- Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
- Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008.
- Каримов И.А. “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзланган нутқи. “Халқ сўзи”, 2014 йил 15-16 май.
- Алимова Д. А. История как история, история как наука: феномен джадидизма. Ташкент, Ўзбекистан. 2009. Т. 2. -С. 186.
- Алимова Д. А. Рашидова Д. А. Махмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. Тошкент. Академия. 1999.- 54 б.
- Алимова Д.А, Голованов А.А.Ўзбекистон мустабид совет тузуми даврида:сиёсий ва мафкуравий тазйиқ оқибатлари (1917-1990й) Т.;-2000.
- Аҳмедов М.К. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Т. 1995, 132-б.
- Абдурахмонов А. Улуғбек академияси. – Тошкент: “Қомуслар боғи” таҳририяти. 1993.
- Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
- Амир Темур жаҳон тарихида. –1996.
- Ашраф Ахмад. Улуғбек Муҳаммад Тарағай (1394-1449). –

Тошкент: Халқ мероси, 1994.

- Ахмедов А. Улуғбек (хаёти ва фаолияти). – Тошкент: Фан, 1991.

- Ахмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари (қадимги ва ўрта асрлар). – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

- Ахмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995.

- Абдуллаев И. ва Ҳикматуллаев Х. «Самарқанд олимлари», Т.»Фан»,1969.

- Абу Тоҳирхожа, «Самария», Т. «Камалак»,1991.

- Абу Ҳафс Насафий Қандия ёхуд Китоб ул-қанд...Самарқанд Сўз боши, таржима ва изоҳлар.Н.Норкулов. Т; «Мин Ҳожи» нашриёти, 2005

- Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. 2-том. -Т.: Санъат, 2001

- Asqarov A. Eng qadimiy shahar. Т., «Ma'naviyat», 2001.

- Avesto. Yangi kitob. O'zbek tiliga M.Isohoqov ilmiy izohli tarjimalari. Т., «Sharq», 2001

- Бобур З.М. «Бобурнома», Т. «Юлдузча»,1988

- Бодиров А.Самарқанд иккинчи жаҳон уруши йилларида.Самарқанд-2015.

- Бронза ва илк темир даври ёдгорликларининг географияси ва картографияси. Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир А.С.Сағдуллаев-Т.: “Турон-Иқбол” 2019.

- Бунёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) Тошкент 1998

- Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий географик лавҳалар). – Тошкент, 1997.

- Бўриев О. Темурийлар даври маънавий мероси тарихидан. – Тошкент, 2009.

- Валихўжаев Б. Мирзо Улуғбек даври мадрасалари (рисола). – Самарқанд, 2001.

- Валихўжаев Б. Самарқандда олий таълим – мадрасайи олия – университет тарихидан лавҳалар. – Самарқанд: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.

- Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Тошкент: Ёзувчи, 1994.

- Воҳидов Ш. Ҳ. XIX аср охири - XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. Докт. дис. автореф. Т., 1998.
- Галак Александр. Первые строители и архитекторы европейской части Самарканда. // Самаркандский вестник. 17-ноября 2018 г. № 90, № 91.
- Гулбоев Н. Амир Темур ва Темурийлар даврида таълим // Мавераннахр в эпоху Амира Темура. – Ташкент, 2018, –Б.187-195.
- Долимов У. Темурийлар даврида мадраса таълими // Амир Темур ва Темурийлар даврида илм-фан ва маданият. II Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б. 142-152.
- Жадид педагогикаси. Тошкент.- 2007.-140 б.
- Жадидчилик ислохот, янгиликлар, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилигига янги чизгилар) // Даврий тўплам. № 1. (Масъул муҳаррир Д. Алимова.) Тошкент, Университет. 1999 й. – 218 б.
- Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати. Ўзбекистон архитектураси тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
- Зиёева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми- XX аср бошларида. Т., 2013;
- Ирискулов О. XIX асрнинг иккинчи ярми- XX аср бошларида Самарқанддаги мадрасалар фаолияти // Илмий-таҳлилий ахборот. Тошкент Ислом университети. 2013. №4. – 47-51 б.
- Ирискулов О.Ж. Мустамлака даврида Самарқанд шаҳрида таълим тизимида трансформацион жараёнлар. // Илмий-таҳлилий ахборот. Тошкент Ислом университети. 2017. №1. – 38-42 б.
- Исҳоқов М. Суғдиёна тарих чорраҳасида. – Тошкент: Фан, 1990.-34 б.
- Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар.- Тошкент: Фан, 1992.
- Kabirov SH. Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Т., «O'qituvshi». 1990
- Каттаев К. Мадрасаларнинг илму фан ривожигаги ўрни.



“Ўзбекистон илм-фан, олий таълим тизимининг шаклланиши ва тараққиётида Самарқанд давлат университетининг тутган ўрни” мавзусига бағишланган конференция материаллари. 2017 йил, 19 сентябрь. –Б. 47-50.

- Каттаев К. Самарқанд мадрасалари ва илму фан ривож. – Самарқанд: Зарафшон, 2003.

- Каттаев К. Шайх Худойдоди Вали тарихи. СамДУ, 1995.

- Каттаев К. Самарқанднома. Тўртинчи тўплам. – Тошкент, “Mashhur-PRESS”, 2017, 61-69-, 151-152-бетлар.

- Каттаев К. «Махдуми Аъзам ва Дахбед» Самарқанд «Сугдиёна»,1994.

- Каттаев К. «Шайх Худойдоди Вали тарихи», Самарқанд,1995.

- Каттаев К.Самарқанднинг буюк алломалари. Самарқанд,1998.

- Karimova. S. Xorazm Ma'mun akademiyasida tabiiy fanlar rivoji. “O‘zbekiston tarixi” ilmiy jurnali 2010-yil № 4

- Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция. – Тошкент, 1996.

- Курахмедов А. XIX аср иккинчи ярми-XX аср бошларида Самарқанднинг иқтисодий ва маданий ҳаёти.-Т.: “Фан”. 2009. – 117 б.

- Маликов А. XX аср бошида Самарқанд мадрасалари мударрисларининг ислохотлари хусусидаги тортишувлари//Ўрта асрлардаги Самарқанд мадрасаи олияларининг ислом цивилизацияси ва таълим тизимининг тараққиётдаги роли//Халқаро илмий конференция материаллари. Самарқанд. 2017. – 40-42 бетлар.

- Маликов А.М. История Самарканда (с древних времен до середины XIV века). Т., “Paradigma” 2017. – С. 336.

- Муҳиддинова Б. Саидахмад Васлий Самарқандийнинг мадрасалар фаолияти ҳақидаги мулоҳазалари//Ўрта асрлардаги Самарқанд мадрасаи олияларининг ислом цивилизацияси ва таълим тизимининг тараққиётдаги роли//Халқаро илмий конференция материаллари. Самарқанд. 2017.-91-94 б.

- Мустафоева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Т.;-“Наврўз”-2014.

- Муртазоева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Т.;”Университет”-2007

- Муҳаммад Сиддиқ Рушдий, «Авлиёлар султони, Туронлик

валийлар», Т. «Камалак», 1995.

- Мамадазимов М. Улуғбек ва унинг расадхонаси. – Тошкент, 1994.

- Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар). – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.

- Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Фан, 1971.

- Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент: Фан, 1969.

- Навоий замондошлари хотирасида. Тўплам тузувчи: Б. Ахмедов. – Тошкент: Гофур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

- Норқулов Н. Камолиддин Беҳзод. – Тошкент: Фан, 1964.

- Норқулов Н., Низомиддинов И. Миниатюра тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1970.

- Наршахий М. Бухоро тарихи. «Мерос» туркуми. Т. 1991

- Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўқитувчи, 1997.

- Pidayev Sh. Sirli Kushon saltanati. Т., «Fan», 1990

- Сулаймонова. Ф. Шарқ ва Ғарб. Т.. «Ўзбекистон», 1997.

- Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Т.1996

- Solijonov. Ismoil al-Buxoriy va Iso at-Termiziy hadislari islohi huquqi soliq qonunshiligining manbalari sifatida. «O‘zbekiston tarixi» ilmiy jurnali 2001-yil № 4

- Садриддин Салим Бухорий, «Табаррук зиёратгоҳлар», Т., «Ёзувчи», 1993.

- Сувонқулов И. «Самарқанд қадамжолари», «Самарқанд», 2002 йил.

- Самарқанд тарихи икки жилдлик, биринчи жилд Т. «Фан», 1971.

- Самарқанд шаҳрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни. Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. Тошкент-Самарқанд. «Фан»-2007;

- Саъдиев С. Самарқанд адабий муҳити тарих кўзгусида. Т. “Фан”. 2009. – 387 б.
- Турсунова М. Мадрасалар таълимида адабиёт сабоғи. – Самарқанд, 2010.
- Турсунова М. Мадрасалар таълими тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017.
- Турсунова М. Мадраса барпо этган маликалар. – Тошкент: Zilol buloq нашриёти, 2019.
- Турсунова М. Самарқанд мадрасалари. – Тошкент: Фан, 2019.
- Ўзбекистон халқлари тарихи..1-қисм. Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир А. Асқаров-Т.1992.
- Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1, 2,3-китоблар. - Т.: Шарқ, 2000.
- Ўзбекистон тарихи (1917-1991-йиллар) Биринчи ва иккинчи китоблар/ масъул муҳаррир Қ.Ражабов.Т.;-“Ўзбекистон”-2019
- O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik / Mas’ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Т., 2019.
- Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир А.С.Сагдуллаев-Т.1997.
- Ўзбекистон санъати. (1991-2001 йиллар) -Т.: Шарқ, 2001.
- O'zbekiston tarixi va madaniyati. Т., «O'qituvshi», 1992.
- O'zbekiston tarixi. 1-qism. A.Sagdullayev, B.Eshov tahriri ostida. Т., Universitet. 1999. 2-nashi.
- Qoriyev. O. Burhoniddin al-Marg‘inoniyning hayoti va faoliyati. “O‘zbekiston tarixi” ilmiy jurnali 2000-yil № 4
- «Қандия». Нашрга тайёрловчи ЎзФА Самарқанд бўлими илмий ходими Каттаев К. Самарқанд, «Суғдиёна»,1995
- Ғаффоров Ш.С., Юнусов М.А.,Саидов М.М.,Шарипов С.И. Ўзбекистон архитектура ёдгорликлари тарихи.С.2008.
- Ғаффоров Ш.С. Туркистоннинг ижтимоий-сиёсий ва маданий тарихидан. (XIX – XX асрлар), Самарқанд. 1996. – 112 б.
- Ғаффоров Ш. Мустамлака даврида Туркистонда таълим тизими. Самарқанд, 2001. – 133 б.
- Ғойибов Б.С. Суғд тарихидан лавҳалар. Самарқанд-2020.
- Ғойибов Б.С. Суғд конфедерацияси: шаклланиши, тараққиёти ва таназзули. Т. 2015.

- Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. - Т.: 1994.
- Хожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. -Т.: Шарқ, 2005.
- G‘oyibov B.S., Qoshboqov X.A. “Ilk o’rta asrlar Miyonqol vohasi va Ishtixonning sug’d konfederatsiyasidagi o’rni va hukmdorlik hususiyatlari”. Imom Buxoriy saboqlari jurnali, 2018/4, 28-31-betlar.

### **Хорижий адабиётлар**

- Francis Henry Skrine and Edward Denison Ross. The heart of Asia. A history of Russian Turkestan and the Central Asian Khanates from the Earliest Times. New-York 2005.P-P. 305.
- Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868-1910 A Comparison with British India.-Oxford University Press 2008.- P-P. 363.
- Seymour Becker. Russia’s protectorates in Central Asia Bukhara and Khiva,1865-1924.London.2004.-P-P. 348.

### **Диссертация ва авторефератлар**

- Ирискулов О.Ж. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд шаҳрида ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) диссертацияси. Самарқанд, 2019 – 184 в.
- Курахмедов А.Э. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд вилоятида иқтисодий ва маданий ҳаёт. (“Туркестанский сборник” маълумотлари асосида). Тарих фанлари номзоди диссертацияси. Тошкент, 2001 – 157 в.
- Қодиров Н.Н. Туркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи (1867-1917 йй.). Тарих фан. номз.... дисс. автореферати – Тошкент, 2011. – 27 б.
- Мухиддинов С.И. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд вилоятида маориф. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) диссертацияси. Самарқанд, 2020. – 162 в
- Расулов Б.М. Ўзбекистондаги мусулмон мактаб ва мадрасалари тарихидан (XIX аср охири ва XX асрнинг 20-йиллари). Тарих фанлари

номзоди диссертацияси автореферати. Андижон, 1996. – 27 б.

- Tursunqulov F. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Samarqand uezdi tarixi-mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi.- Samarqand.2021.87 в.

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH</b>	<b>3-4</b>
<b>1-MAVZU: Qadimgi davr madaniyati va san'ati, uning taraqqiyot bosqichlari.</b>	<b>5-18</b>
<b>2- MAVZU:Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati</b>	<b>18-27</b>
<b>3-MAVZU: IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati</b>	<b>27-49</b>
<b>4- MAVZU: Temuriylar davri madaniyati va san'ati</b>	<b>49-60</b>
<b>5- MAVZU: Buxoro xonligi madaniyati va san'ati</b>	<b>60-70</b>
<b>6- MAVZU: Xiva xonligi madaniyati va san'ati</b>	<b>70-94</b>
<b>7- MAVZU: Qo'qon xonligi madaniyati va san'ati</b>	<b>94-104</b>
<b>8- MAVZU: XIX-asrning II yarmi-XX asr boshlarida Turkistonda madaniyat va san'at</b>	<b>104-118</b>
<b>9-MAVZU: 1917-1991-yillarda O'zbekistonda madaniyat va san'at</b>	<b>118-133</b>
<b>10-MAVZU: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot</b>	<b>133-139</b>
<b>11-MAVZU: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda teatr, kino san'ati va musiqaning rivojlanishi</b>	<b>139-152</b>
<b>Glossariy</b>	<b>153-174</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b>	<b>174-181</b>

**Olimjon IRISQULOV**

**O‘ZBEKISTON MADANIYATI VA SAN’ATI TARIXI**  
(Tarix fakulteti talabalari uchun)

Muharrir

X. Rahimova

Musahhih

N. Isroilov

Texnik muharrir

O. Shukurov

**ISBN 978-9943-7266-1-1**

2021-yil 4 dekabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2021-yil 9 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. “Times New Roman” garniturasini.

Offset qog‘oz. Shartli bosma tabog‘i – 11,5.

Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 557

---

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



